



E R I X   M A R I Y A

# REMARK

QARZGA OLINGAN UMR

E R I X M A R I Y A

# REMARK

QARZGA OLINGAN UMR



**UO'K: 821.512.133-3**

**KBK: 84(4Nem)**

**R - 40**

**Remark, Erix Mariya**

**Qarzga olingan umr: Erix Mariya Remark / Ruschadan Dिल्фуza Sobirova tarjiması. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 240 b.**

**ISBN 978-9943-9082-7-7**

**Muhabbat – ko'ngil qo'ygan insoningga fido bo'lishing!**

Asarda avtomobil poygasi ishqibozi bo'lgan Klerfening xasta Lilianga bo'lgan fidoyi muhabbati, ularning birgalikda kechirgan sar-guzashtlari va o'rtalaridagi murakkabliklarga to'la munosabatlar, oshiq-ma'shuqning iztiroblari tasvirlangan.

Yigit sevgilisining roziligini ololmay sarson, ammo uning ozorla-ridan huzur topadi. Tuzalmas xastalikka yo'liqqan, o'z umrining kam qolganini ham biladigan Lilianning esa ichki olami butunlay mavhum, qorong'i.

Qiz kasallikka qasdma-qasd hayotdan zavq olib yashashga, oz bo'l-sa-da, undan o'z ulushini olib ulgurishga intiladi-yu, biroq imkoniyati cheklangan. Qismat esa ularga butunlay boshqa narsani ravo ko'radi.

**UO'K: 821.512.133-3**

**KBK: 84(4Nem)**

Rus tilidan  
Dिल्фуza SOBIROVA  
tarjiması

**ISBN 978-9943-9082-7-7**

© Erix Mariya Remark, «Qarzga olingan umr». «Yangi asr avlodi», 2023-yil.

\* \* \*

*Qarzga olingan umr. Umrki, hech narsaga achinmay-san, chunki endi yo'qotadigan narsaning o'zi yo'q.*

*Bu — o'limga mahkumligingni bila turib sevish.*

*Bu — har qanday vaziyatda ham quvonch uchun sabab topa olish.*

*Bu — musibat chegarasida sevinish va halokat chegarasida tavakkal qilish.*

*Kelajak yo'q. O'lim shunchaki so'z emas, haqiqat.*

*Hayot esa davom etmoqda. Hayot go'zall!..*

*Mashinasini yo'laklari qordan tozalangan yonilg'i quyish shoxobchasi oldida to'xtatgan Klerfe signalni bosdi.*

*Telefon simyog'ochlarida qarg'alar sovuq qag'illar, shoxobcha ortidagi kichik ustaxonada kimdir temirga ishlov berardi. Taqillagan ovoz tinib, u yerdan o'n olti yoshlardagi qizil sviter kiygan, ko'zoynakli yigitcha chiqib keldi.*

*– Bakni to'ldir, – dedi Klerfe mashinadan tusha turib.*

*– Oliy nav bo'lsinmi?*

*– Ha. Bu yerda ovqatlanadigan joy bormi?*

*Yigitcha barmog'i bilan yo'lning narigi betini ko'rsatdi.*

*– U yerda mehmonxona bor. Bugun tushlikka go'sht bilan karam qovurishgan.*

*Mehmonxona oshxonasining havosi almashtirilmagani-dan uzoq qishning rutubatli nafasi va eski pivo hidi dimiqib qolgandi.*

*Klerfe shveysarcha pishirilgan go'sht, vasheron pishlog'i va bir grafin oq egle (shveysarcha vino) buyurdi va ovqatni ayvonga olib chiqishni tayinladi. Havo iliq edi. Osmon bepoyon va ko'm-ko'k bo'lib, gazak o't gulini eslatardi.*

– Mashinangizni yuvib beraymi? – qichqirdi shoxobchadagi yigitcha. – «Qariya»ngizning yuzi ko'rinmay qolibdi-ku.

– Yo'q. Faqat oynasini artib qo'ysang bo'ldi.

Mashina bir necha kundan buyon yuvilmagani bilinib turardi. Sharros quygan yomg'irdan keyin SenRafaele qirg'oqlaridagi qizil gard yopishib, xuddi mashina ustidan mato qoplangandek tuyulardi. Yo'lda orqa ballonlaridan ohak va loy sachratgan yuk mashinalari avtomobilni yanada «bezabdi».

«Bu yerlarga nega keldim o'zi? – o'yladi Klerfe. – Chang'ida uchishga kech bo'lgan. Demak – hamdardlik. Hamdardlik yomon hamroh, ayniqsa u sayohat uchun maqsad bo'lsa, undan ham yomon».

U o'rnidan turdi.

– Bu kilometrlarmi? – so'radi qizil sviterli yigitcha spidometrni ko'rsatib.

– Yo'q, millar.

Yigitcha hushtak chalib yubordi.

– Alp tomonlarga qaysi shamol uchirdi? Nega bu tulporingiz bilan avtoyo'lda emassiz?

Klerfe unga o'girildi. U ko'zoynakning yaltillab turgan oynalari, qanqaygan burun, husnbuzarlar va shalpang quloqlarni ko'rdi – qarshisida bolalik beg'uborligini o'smirlikka almashtirgan jonzot turardi.

– Hamma qilgan ishimiz ham to'g'ri bo'lavermaydi, yigitcha. Lekin ko'pincha hayot zavqi shunda bo'ladi. Tushundingmi?

– Yo'q, – dedi yigitcha burnini jiyirib.

– Isming nima?

– Hering.

– Nima?

– Hering, – og'zining tanobi qochib dedi yigitcha. – Ismim Hubert.

– Anovining qarindoshimisan?..

– Yo'q, – uning gapini bo'ldi Hubert. – Biz bazellik Heringlarmiz. Agar anovilardan bo'lganimda benzin quyib o'tirarmidim? Katta nafaqa olib yurardim, mazza qilib.

Klerfe unga sinovchan tikildi.

– Bugun g'alati kun bo'ldi, – dedi u birozdan so'ng. – Senga o'xshaganini uchrataman, deb o'ylamagandim. Omadingni bersin, yigitcha, meni qoyil qoldirding.

– Siz esa meni qoyil qoldirmadingiz. Siz poygachisiz, to'g'rimi?

– Qayerdan bilding?

Hubert Hering loy bosgan radiatorda zo'rg'a ko'rinib turgan raqamlarga ishora qildi.

– Faylasuf chiqib qolding-ku, sen! – Klerfe mashinaga o'tirdi. – Balki odamzotni baxtsizlikdan qutqarish uchun seni hozirdan qamoqqa tiqib qo'yish kerakdir. Bosh vazir bo'lib ketsang, keyin kech bo'ladi.

U motorni o'chirdi.

– Pul to'lashni unutdingiz, – dedi Hubert. – Qirq ikki tanga-chaqani to'lab qo'ying.

– Tanga-chaqa?! – Klerfe unga pul uzatdi. – Bu gaping bilan meni biroz tinchlantirding, Hubert, – dedi u. – Pulga erkalatuvchi nom beradigan mamlakatda irqchilik bo'lmaydi.

Mashina qiynalmasdan tog'ga ko'tarildi. To'satdan Klerfe ko'z o'ngida yorishayotgan tong shafag'ida xira jilvalangan ko'm-ko'k vodiy manzarasi yastandi, u yoq-bu yoqqa sochilgan qishloq uychalari, oq tomli mehmonxona va cherkov binolari ilk chiroqlari bilan ko'zga tashlanardi.

Klerfe o'nqir-cho'nqir yo'ldan pastga qarab yurib borarkan, svehalar tob tashlaganini sezdi. Biroz quloq solib turib, bir necha marta motorni o'chirib o't oldirdi. «Yog'ni almashtirish kerak», – o'yladi u va to'g'ri yo'lga tushishi bilan mashinani to'xtatdi. Kapotni ochib, bir necha marta akselerator (gaz tross tarmog'i)ni bosdi.

Shu lahzada bir necha ot yetovida unga qarab uchib ke layotgan chanaga ko'zi tushdi. Motor guvillaganidan hurkigan otlar old oyoqlarini ko'tarib, chanani ag'darishiga bir bahya qolganida, Klerfe chaqqonlik bilan otlar tomonga sakrab, yugandan tutdi. Keyin ot tuyoqlari ostida qolib ket-

maslik uchun yuganga osilib oldi. Bir-ikki sapchigan otlar tinchlanishdi. Jonivorlar tinmay titrar, burunlaridan bug' chiqib, ko'zlari xuddi yovvoyi hayvonlarnikidek besaranjom edi. Klerfe otlarni bir necha lahza tutib turib, keyin qayishni asta qo'yib yubordi. Jonivorlar o'rnidan jilmadi, lekin bir-ikki pishqirib, qo'ng'iroqlarini jaranglatib qo'yishdi.

Baland bo'yli, boshiga mo'ynali telpak kiygan erkak chanadan tushmadi. U Klerfega e'tibor ham bermadi. Uning ortida chana dastasiga mahkam yopishgancha bir ayol o'tirardi. U quyoshda qoraygan, ko'zlari shaffof moviy rangli edi.

– Sizni cho'chitib yuborganimdan afsusdaman, – dedi Klerfe. – Butun dunyoda otlar allaqachon mashinalarga ko'nikib qolishgan, deb o'ylarkanman...

Erkak tizginni bo'shatib, Klerfega yarim o'girilib o'tirdi.

– Ha, lekin bunaqa shovqin soladigan mashinalarga emas, – dedi u sovuqqonlik bilan. – Ularni o'zim ham to'xtata olardim, lekin baribir yordamingiz uchun rahmat. Egningizga loy sachramadi, deb umid qilaman.

Klerfe ust-boshini ko'zdan kechirib bo'lib, nigohini yana erkakka qaratdi. Sovuq, kibrli chehra va kinoyali jilmayib turgan kimsaga ko'zi tushdi. Notanish erkak Klerfega, o'zingdan qahramon yasamoqchimidig, deb ustidan kulayotgandek qarab turardi.

Anchadan buyon hech kim Klerfeda bir qarashda bu qadar noxush taassurot qoldirmagandi.

– Yo'q, loyga belanmadim, – javob berdi u xotirjam. – Meni loyga belash oson emas.

Klerfe yana bir bor juvonga ko'z tashladi. «Mana, gap qayerda, – o'yladi u. – Xonimning yonida o'zini ko'rsatmoqchi». U miyig'ida jilmaygancha mashinasi tomon yurdi.

\*\*\*

«Montana» sanatoriysi qishloq tepasida joylashgandi. Klerfe aylanma yo'llar bilan chang'ichilarni, sport chanasi

va yorqin rangda kiyingan ayollarni ortda qoldirib, sekin-as-ta tog'ga ko'tarila boshladi. U bu yerga o'zining sobiq sherigi Xolmanni ko'rgani kelgandi. Bir yilcha ilgari uning tobi qoch-gan, Italiyada bo'lib o'tgan ming mil masofalik poygadan ke-yin qon tuflay boshlagach, vrach unga sil tashxisini qo'ygandi. Xolman avvaliga kuldi. Agar bu tashxis rost bo'lsa, demak, bir hovuch dori berishadi, ko'proq ukol qilishadi-yu, shu bilan tuzalib ketaman, deb o'ylagandi. Lekin ko'p o'tmay dori-dar-monlar u o'ylagandek har narsaga qodir emasligi, ayniqsa, urush yillarida voyaga yetgan va to'yib ovqatlanmagan odam-larga ta'siri kutilgandek bo'lmasligi ma'lum bo'ldi. Oxiri vrach Xolmanni tog'ga jo'natdi, eskicha usulda – toza havo, xotir-jamlik va quyosh bilan davolanishni tavsiya qildi. Avvaliga qattiq qarshilik qilgan Xolman nihoyat, ko'ndi. Lekin ikki oyga mo'ljallangan muolaja salkam bir yilga cho'zilib ketdi.

Mashina to'xtashi bilan unga peshvoz chiqqan Xolman deyarli yugurayozdi. Klerfe uni ko'rib hayratlandi, chunki u Xolmanni to'shakka mixlanib yotgan bo'lsa kerak, deb o'yla-gandi.

– Klerfe! – qichqirdi Xolman. – Yo'q, adashmadim. Motor ovo-zidan tanidim! U xuddi qari «Juzeppe»dek na'ra tortdi. Sizlarni ko'rganimga ishongim kelmayapti! – u to'lqinlanib Klerfening qo'lini siltardi. – Mana buni syurpriz desa bo'la-di. Yana qari sher – «Juzeppe» bilan kelibsan-a! Bu «Juzep-pe»ning o'zimi yoki ukasimi?

– «Juzeppe»ning o'zi, – degancha mashinadan tushdi Kler-fe. – Hozir nafaqaga chiqqan bo'lsa-da, hamon yosh xonim-lardek injiqligini qo'ymagan. Men uni firmadan sotib oldim. U esa yaxshiligimni bilmay, yo'lga chiqishim bilan svechalar-ga moy socha boshlaydi. Fe'li chatoq qariyaning.

Xolman kulib yubordi. U mashina yonidan keta olmasdi. Bu «qariya»da kamida o'n marta poygada qatnashgan.

Klerfe Xolmanga tikildi.

– Ko'rinishing yaxshi, – dedi u. – Men seni yotib qolgan bo'lsang kerak, deb o'ylagandim. Bu – sanatoriya emas, mehmonxonaga o'xsharkan.



– Bularning barchasi muolajaga kiradi. Amaliy psixologiya. Tog'da ikkita so'z taqiqlanadi – kasallik va o'lim. Bittasi urfdan qolgan, ikkinchisi esa o'ta tabiiy.

Klerfe kulib yubordi:

– Xuddi bizdagidek ekan-da. To'g'rimi?

– Ha, pastdagi hayotimizga o'xshab ketadi, – Xolman mashinadan ko'z uzib dedi:

– Klerfe, ichkariga kir, biror nima ichasanmi?

– Ichishga nima bor?

– Rasman faqat sharbat va mineral suv. Norasman esa – Xolman yon cho'ntagiga shapatiladi, – yapaloq idishdagi jin va konyaklar bor, ularni yashirish oson, qolaversa, ular tufayli apelsin sharbati ko'ngilni yanada ravshan qiladi. Qayerdan kelyapsan?

– Monte-Karlodan.

Xolman to'xtadi.

– Poyga bo'ldimi?

– Sport xabarlarini o'qimayapsan, chog'i?

Xolman ko'zini olib qochdi.

– Boshida o'qib turdim. Keyingi oylarda yig'ishtirdim. Ahmoqlik, to'g'rimi?

– Yo'q, – dedi Klerfe. – To'g'ri qilasan! Yana rulga o'tirsang, o'qishni boshlaysan.

– Monte-Karloga sen bilan kim bordi?

– Torriani.

– Torriani? Endi doim u bilan boryapsanmi?

– Yo'q, – dedi Klerfe, – goh u bilan, goh boshqasi bilan yuribman. Seni kutyapman.

U yolg'on gapirayotgandi. Yarim yildan buyon Torriani bilan sherik edi. Xolman sport xabarlarini o'qimayotgan ekan, uni bimalol aldash mumkin.

– Hammamiz seni kutyapmiz, – qo'shib qo'ydi u.

– Rostdanmi? Meni unutib yubormadinglarmi?

– Esing joyidami?

Xolman quvonchdan yal-yal yondi.

– Monte-Karlodagi poyga qanday bo'ldi?

– Yaxshi, deb bo'lmaydi. Porshenlar aylanmay qolib, o'yindan chiqdim.

– «Juzeppe» bilanmi?

– Yo'q, ukasi bilan.

Xolman kulib yubordi. U uchun eng yaxshi malham – yoqimli taskin, ya'ni Klerfe uning o'rnini egallagan poygachi bilan mag'lubiyatga uchragani haqidagi xabar edi. U savollarini yana davom ettirmoqchi bo'ldi – uning oldingi zavq-shavqi qaytgandi, lekin Klerfe qo'lini ko'tardi.

– Tog'da ikkita so'z taqiqlangan ekan, uning yoniga yana bittasini qo'shamiz – poyga. U haqida gaplashmaymiz.

– E-e, Klerfe! Bu mumkin emas! Nega, axir?

– Men charchadim. Bu yerga bir-ikki kun dam olish va poyga so'zini eshitmaslik uchun keldim. Jin ursin! Odamlarni yashin tezligida uchishga majbur qiladigan tez yurar mashinalar haqida ham eshitishni istamayman.

Xolman unga sinchkov tikildi:

– Biror gap bo'ldimi?

– Yo'q, shunchaki irimchiman. Shartnomam muddati tugayapti, hali uni uzaytirishmadi. Bor gap shu.

– Klerfe, – dedi Xolman bosiqlik bilan, – kim halokatga uchradi?

– Silva.

– O'ldimi?

– Hozircha tirik. Agar omadi chopsa, oyoq amputatsiyasi bilan qutiladi. Lekin doim yonida yuradigan alvasti, soxta baronessa uni borib ko'rishdan bosh tortyapti. Kazinoda o'tirgancha ho'ng-ho'ng yig'laydi. Unga nogiron kerakmas... Endi ketdik, menga ichishga jin bergin...

Ular oyna yonidan joy olishdi. Apelsin sharbati ichishgach, Klerfe stol tagidan uning stakaniga jin quydi.

– Xuddi maktab davridagidek. Oxirgi marta maktabda shunday qilganim esimda. Bungayam besh yil bo'lgandir.

Xolman undan yapaloq idishni olib qo'ydi.

– Mehmonlarga spirtli ichimlik beriladi. Lekin shunisi qulay.

Klerfe atrofga alangladi:

- Bu yerdagilarning hammasi bemormi?
- Yo'q. Mehmonlar ham bor.
- Rangparlari xastalar bo'lsa kerak?
- Aksincha. Ular soppa-sog'lar. Endigina tog'ga ko'tarilishdi, shuning uchun ham rangpar. Qancha muddatga kelding?
- Ikki-uch kunga. Qayerga joylashsam bo'ladi?
- «Palasotel»ga. U yerda yaxshi qovoqxona bor.

Klerfe oynadan qarab, boya mashinadan qo'rqib ketgan chanaga qo'shilgan otlarni ko'rdi. Ular eshikka yaqinlashishdi. Ostonada yotgan it mo'ynali telpak kiygan erkak tomon otildi.

- Kim bu? - so'radi Klerfe.
- Ayolmi?
- Yo'q, erkak?
- Boris Volkov degan rus.
- Sovetlardanmi?
- Yo'q, muhojir. Na kambag'al, na sobiq knyazlardan. Otasi qatl etilishidan avval Londonda hisob raqami ochgan, onasi-ning har biri olcha danagidek keladigan bir hovuch zumradi bor edi. Ularni yutib olib o'tganmi yoki korsetiga tiqqanmi, hech kim bilmaydi.

Klerfe jilmaydi:

- Bularni qayerdan bilasan?
- Bu yerda qancha uzoq yashasang, aholi haqida shuncha ko'p ma'lumotga ega bo'lasan, - istehzoli jilmaydi Xolman. - Ikki haftadan keyin sport mavsumi tugaydi, biz yil oxirigacha bu kichik qishloqda yolg'iz qolamiz.

Qora kiyimli, past bo'yli kishilar Klerfe va Xolmanga turtilib, ularning yonidan o'tib ketishdi. Stollariga joylashishgach, ispan tilida suhbatlasha boshlashdi.

- Kichkina qishloqcha bo'lsa-da, turli millatlar bor ekan, - dedi Klerfe.

- Gapingda jon bor. Ajal hech qachon millat tanlamaydi.

Klerfe chanadan tushayotgan ayoldan ko'zini olib, Xolmanga tikildi.

– Senga nima bo'ldi? – so'radi u. – Haliyam dunyo qayg'u-simi?

Xolman bosh chayqadi:

– Yo'q. Lekin ba'zida menga bu bino katta zindondek tuyuladi. Yorug', shinam bo'lsa ham, baribir zindon.

Klerfe javob bermadi. U boshqa qamoqxonalarni ham, Xolman nega bunday xayolga borganini ham bilardi. Hamma gap mashinada edi. U «Juzeppe»dan xavotirda. Klerfe yana oynaga qaradi. Quyosh juda pastlab, oppoq qorni bamisoli qondek qip-qizil tusda tovlantirardi. Rus bilan ayol ostonada gaplashib turishardi.

– Xotinimi? – so'radi Klerfe.

– Yo'q.

– O'zimam shunaqa, deb o'ylagandim. Ayol betobmi?

– Ha. Erkak ham.

– Ularga qarab, kasal, deb o'ylamaysan.

– Har doim shunday. Bu dard odamni ma'lum muddat xuddi guldek yashnatib yuboradi. Bu holat adoyi tamom bo'lguningcha davom etadi. Lekin u paytga kelib, hech kim senga qaramay qo'yadi.

Ostonadagilar ichkariga kirishdi. Klerfega ular urishib qolgandek tuyuldi. Rus erkak ayolga ohista, lekin qat'iyat bilan nimadir dedi. Ayol bosh chayqaganicha tez-tez lift tomon yurdi. Hamrohi uning ortidan borish uchun qadam tashladi-yu, keyin ortiga o'girilib chanasi tomon yurdi.

– U bu yerda yashamaydimi? – so'radi Klerfe.

– Yo'q. Shu atrofda uyi bor.

Stakanni bo'shatgan Klerfe o'rnidan turdi.

– Mehmonxonaga boraman, yuvinib olay. Qayerda birga ovqatlansak bo'ladi?

– Shu yerda. Men ham yoningda bo'laman. Bir haftadan buyon tana haroratim joyida. Faqat quyosh botgandan keyin chiqishga ruxsat yo'q. Ovqatlari yomon emas. Kasalxonaning ovqatiga o'xshamaydi. Mehmonlarga yengil vino ham berishadi.

– Mayli. Qachon?

– Qachon istasang. To‘qqizda uxlashga yotamiz. Xuddi bolardek.

– Xuddi askarlardek, degin. Uxlamasang – ta‘ziringni yeysan! Jiddiy poyga oldidan ham vaqtli uxlarging-ku.

Xolmanning yuzi yorishdi.

– Ha-ha, shunday desa ham bo‘ladi.

Ayol yana xollda paydo bo‘ldi. U tashqariga yo‘l olganida oq sochli xonim uni to‘xtatdi va shoshib nimalarnidir tushuntira boshladi. Ayol jahl bilan orqaga o‘girildi va Xolmanga ko‘zi tushib, unga yaqinlasha boshladi.

– Timsohoy chiqqani qo‘ymayapti, – dedi u. – Kecha haroring baland edi, deydi. Chanada ham ucholmas ekanman. Agar yana bir marta shunday qilsam, Dalay-Lamaga aytib berarmish...

Shundan keyin Klerfeni sezib jim bo‘ldi.

– Lilian, bu – Klerfe, – dedi Xolman. – Sizga u haqda gapirgandim. Do‘stim kutilmaganda tashrif buyurdi.

Ayol tiniq nigohlarini unga tikdi.

– Qayerdan keldingiz?

– Riveredan.

Klerfe ayol nega buni so‘raganini tushunmadi. U yana Xolmanga o‘girildi.

– Timsohoy menga, o‘rningda yot, dedi, – davom etdi to‘lqinlanib. – Boris ham. Siz-chi? Yotmaysizmi?

– To‘qqizgacha yotmayman.

– Menam kelaman. Kechki nazoratdan so‘ng. Meni qamab qo‘yishlariga yo‘l qo‘ymayman! Ayniqsa, bugun tunda.

Ayol parishonlik bilan Klerfega bosh silkib xolldan chiqdi.

– Bu gaplarning bari senga xuddi xitoy tilidek qiyin tuyulayotgandir? Dalay Lama – bu professorimiz. Timsohoy esa katta hamshira.

– Bu ayol kim?

– Lilian Dyunkerk. Senga aytmadimmi? U belgiyalik, onasi fransuz bo‘lgan, ota-onasi o‘lib ketishgan.

– Chiroyli ayol ekan. Nega arzimas narsaga ham jahli chiqyapti?

Xolman bir muddat jim qoldi.

– Har gal sanatoriyda biror kimsa vafot etsa, shunday bo'ladi, – dedi u xijolat tortgandek. – Chunki kimningdir o'limi hayotining bir parchasini olib ketadi... Uning dugonasi vafot etdi.

\* \* \*

Sanatoriyning yuqori qavatida sira mehmonxonaga o'xshamasdi, u kasalxona edi.

Lilian Dyunkerker dugonasi Agnes Somervill o'lgan xonayonida to'xtadi. Ichkaridagi shovqinni eshitib, eshikni ochdi.

Tobutni olib ketishgandi. Deraza oynalari ochiq, ikkita baquvvat farrosh pol yuwardi. Suv shaloplar, lizol va sovun hidi anqir, mebellar surilgan, kuchli chiroq nuri xonaning hamma burchagini yoritib yuborgandi.

Lilian ostonada turib qoldi. Avvaliga u boshqa xonaga kirib qoldim, deb o'yladi. Keyin shkaftga itqitilgan kichik duxoba ayiqchani ko'rdi. Uni marhuma ko'z qorachig'idek asrardi.

– Uni olib ketishdimi? – so'radi u.

Farroshlardan biri qaddini rostladi.

– O'n sakkizinchi xonadaginimi? Yo'q, uni yettinchiga ko'chirishdi. U yoqdan kechqurun olib ketishadi. Bu yerni yig'ishtiryapmiz, ertaga yangi bemor keladi.

– Rahmat.

Lilian eshikni yopib, yo'lak bo'ylab yurib ketdi. U yettinchi raqamli xonani bilardi. Bu kichik xonacha bo'lib, yuk lifti yonida joylashgandi. Unga marhumlarni tashishardi. «Xuddi jomadon kabi», – o'yladi Lilian. Keyin o'lgandan asar ham qolmasligi uchun sovun va lizol bilan hamma joyni yuvib chiqishadi.

Lilian Dyunkerker yana o'z xonasida edi. Markaziy isitish tizimidan guvillagan tovush kelar, barcha chiroqlar yoqilgandi.

«Men aqldan ozyapman, – o‘yladi u. – Tundan qo‘rqyapman. O‘zimdan ham qo‘rqyapman. Nima qilay? Uyqu dori ichib, chiroqni o‘chirmay uxlasammi? Balki Borisga qo‘ng‘i-roq qilib, u bilan gaplashsam-chi?»

Shu xayolda telefonga qo‘l cho‘zdi-yu, lekin go‘shakni ko‘tarmadi. U Boris nima deyishini va o‘sha so‘zlari haqiqat bo‘lishini ham bilardi. Lekin bundan nima foyda? Faqat aqlga tayanib yashab bo‘lmaydi. Insoniyat tuyg‘u bilan yashaydi, tuyg‘ularga esa kim haqligining farqi yo‘q.

Lilian deraza yonidagi kresloga cho‘kdi.

«Yoshim yigirma to‘rtida, – o‘yladi u. – Agnes bilan yoshimiz teng. Lekin Agnes o‘ldi. To‘rt yildan buyon tog‘da yashayman. Undan oldin to‘rt yil urush bo‘ldi. Hayot haqida nimalarni bilaman? Vayronalar, Belgiyadan quvg‘in, ko‘zyoshlari, qo‘rquv, ota-onamning o‘limi, ochlik, keyin yana ochlik va qochoqlik sabab kelib chiqqan kasallik. Ungacha yosh bola edim. Tunda shaharlar qanday ko‘rinishda bo‘lishini allaqachon unutib yubordim. Ko‘cha va maydonlarni nurafshon etuvchi chiroqlar yog‘dusi haqida nimalarni bilaman? Faqat to‘silgan derazalar, qorong‘ida portlagan bombalar yomg‘irini bilaman, xolos. Men faqat hujum, pana joy qidirish va qahratonni eslab qolganman. Xona sovuq bo‘lsa-da, bir bo‘lak non topilsa, shuning o‘zi baxt bo‘lib qolgandi, o‘q tegmaydigan pana joy topish – baxt. Keyin esa sanatoriya tushdim».

Lilian derazaga diqqat bilan tikildi. Pastda xizmatchi va ta‘minlovchilarga mo‘ljallangan chanalar turardi. Sal narida krematoriy chanalari. Hademay Agnes Somervillni olib ketishadi. Bir yil ilgari u o‘z oyoqlari bilan sanatoriyniing asosiy eshigidan mo‘ynalarga burkanib, qo‘lida katta guldasta bilan kirib kelgandi. Endi esa sanatoriyni xizmatchilarga mo‘ljallangan orqa eshikdan tark etyapti, xuddi qarzini to‘lamagan mijozdek. Bor-yo‘g‘i olti hafta oldin u Lilian bilan sayohatga chiqish uchun rejalar tuzgandi.

Sayohat! Qo‘l yetmas xayol, sarob.

Telefon jiringladi.

U shoshilmay go'shakni oldi.

– Ha, Boris, o'zimni yaxshi his etyapman... Ha, bilaman, shunday tuyulyapti. Chunki hammamiz bir joyda yashaymiz... Ha, ko'pchilik tuzalib ketadi... Ha, ha... Yangi dorilar... To'g'ri, pastda, shaharlarda o'layotgan odamlar foizi bu yoqdagidan ko'ra ko'proq... Urushda millionlab odamlar o'lganini ham bilaman... Boris, bu biz uchun tabiiy hol, o'lim juda ko'p. To'g'ri, ko'nikishimiz kerak, bilaman, ba'zilar uchun bu qiyin... Boris, ishon, o'zimni yaxshi tutyapman... Albatta... yo'q, kelma, ha, seni yaxshi ko'raman, Boris, – Lilian go'shakni qo'ydi.

– O'zimni yaxshi his qilyapman, – shivirladi u va soatga qaradi.

Vaqt to'qqizga yaqinlashib qolgandi. Oldinda tuganmas tun. U o'rnidan turdi. Nima bo'lsa ham yolg'iz qolmaslik lozim! Oshxonada hali odamlar bo'lishi kerak.

Xolman va Klerfedan tashqari oshxonada janubiy amerikaliklar – ikki erkak va bitta semiz ayol o'tirardi. Uchala-si ham qora kiyingan, tilini yutgandek jim edi. Ular xonaga osig'liq yorqin lampa ostida o'tirishar, uzoqroqdan qaralsa, qora ko'lankalarga o'xshashardi.

– Ular bogotalik, – dedi Xolman. – Ko'zoynak taqqan erkakning qizi o'lim to'shagida yotipti. Unga telefon orqali xabar berishgan. Qarindoshlari kelganidan keyin qiz biroz o'nglandi. Endi ularning boshi qotgan: ketishni ham, qolishni ham bilishmayapti.

– Nega? Faqat onasi qolib, boshqalari ketaversa ham bo'ladi-ku?

– Semiz ayol – onasi emas. O'gay. Manuela bu yerda shu ayolning puliga yashaydi. Aslida ulardan hech kim qolmoqchi emas, hatto otasi ham. Ular allaqachon Manuelani unutilib yuborishgan. Besh yildan buyon qizga Bogotadan chek jo'natishadi, Manuela esa shu yerda yashaydi va har oy ularga xat yozadi. Otasi bilan o'gay onasining o'z farzandlari bor, Manuela buni bilmaydi. Manuelaning ahvoli og'irlashib qolmaguncha hammasi yaxshi ketayotgandi. Qiz og'irlashgach,



obro'larini o'ylab kelishga majbur bo'lishdi. Ayol erining bir o'zini jo'natishni istamagan. U o'lgudek rashkchi, qolaversa, o'ta semizligini ham biladi. Hamroh sifatida ukasini ham o'zi bilan ola kelgan. Bogotada o'gay ona Manuelani uydan haydagan, degan gaplar yuribdi. Shu bahonada o'gay qizini yaxshi ko'rishini ko'rsatib qo'ymoqchi. Shundan ma'lumki, gap faqat rashkda ham, obro' haqida ham emas. Agar bir o'zi qaytsa, odamlar yana gapirishadi. Mana, nima uchun ketishmayapti!

– Manuela-chi?

– Bular kelgach, to'satdan qizga mehrlari tovlanib qoldi. Sho'rlik Manuela... Umrida mehr ko'rmagani uchun o'zini shunday baxtli his qildiki, natijada sog'aya boshladi. Qarindoshlari esa sabrsizlikdan kun sayin semirishyapti. Menimcha, asabiylikdan ochlikni his qilib, tinmay shirinlik yeyishyapti-yov. Bir haftadan keyin tezroq o'lmagani uchun Manuelani yomon ko'ra boshlashadi.

– Yoki bu joylar ma'qul kelib, biror qandolatchilik do'koni sotib olib, shu qishloqda o'rnashib qolishadi, – dedi Klerfe.

Xolman kuldi:

– Namuncha xayollaring noxush bo'lmasa.

Klerfe bosh chayqadi:

– Xayolim emas, tajribam noxush.

Uchta semiz birvarakayiga o'rnidan turib, miq etmasdan og'ir qadamlar bilan eshikka yo'nalishdi. Ular ostonaga yetganda, oshxonaga otilib kirgan Lilianga urilib ketishlariga sal qoldi. Lilian shunday vajohat bilan bostirib kirdiki, semiz ayol qo'rqqanidan orqaga tisarildi.

U shoshib Xolman va Klerfe o'tirgan stolga yaqinlashdi.

– Men arvohga o'xshaymanmi? – shivirladi u. – Balki o'xsharman?! Halitdan-a?

Lilian sumkachasidan ko'zgu oldi.

– Yo'q, – dedi Xolman.

Lilian ko'zguga qaradi.

«Hozir u oldingidan boshqacha, – o'yladi Klerfe. Yuzi asabdan burishmagan, silliq, ko'zlaridagi shaffoflik ham yo'qolgan». Lilian ko'zgusini bekitdi.

– Nega bunday qilyapman? – to'ng'illadi u. – Timsohoy shu yerdamidi?

– Yo'q, – javob berdi Xolman, – bizni haydash uchun hozir har daqiqada paydo bo'lishi mumkin.

– Bugun tunda eshikka Jozef qorovul bo'ladi. Chiqishimiz mumkin. Qochamiz, – shivirladi Lilian. – Biz bilan ketasizmi?

– Qayerga? – so'radi Klerfe.

– «Palas-bar»ga, – dedi Xolman. – Biz ba'zan sabru bardoshimiz tugaganda shunday qilamiz... Xizmatchilar eshigidan chiqib «Palas-bar»ga, katta hayot tomonga qochamiz.

– «Palas-bar»da arzirli hech narsa yo'q. Hozir o'sha yerdan kelyapman.

– Bizga arzirli narsa bo'lishi shart emas. Hech zog' bo'lmasa ham mayli. Bizni sanatoriydan tashqarida bo'layotgan hamma narsa qiziqtiradi. Bu yerda arzimas narsalarga xursand bo'lishga ham o'rganasan, kishi.

– Chiqishimiz mumkin, – dedi Lilian Dyunkerk. – Men qaradim, bizni hech kim kuzatmayapti.

– Ilojim yo'q, Lilian, – dedi Xolman. – Bugun tunda haroratim oshdi. Negaligini Xudo biladi! Qayerdan paydo bo'ldi, hayronman! Menimcha, hammasiga shu yaramas poyga mashinasini ko'rganim sabab bo'lsa kerak.

Lilian Dyunkerk unga qahr bilan tikildi. Farrosh paydo bo'lib, pol artish uchun stullarni stol ustiga qo'ya boshladi.

– Hatto baland harorat bilan ham qochgan paytlarimiz bo'lgan, – dedi Lilian.

– Bugun borgim kelmeyapti, Lilian.

– Shu eski, loyga botgan poyga mashinasi sababmi?

– Ha, uning uchun ham, – dedi Xolman xijolat tortib. – Uni yana haydagim kelyapti. Bir paytlar yana mashina haydashim mumkinligiga ishonmay qo'ygandim. Endi esa... Boris siz bilan bora olmaydimi?

– Boris meni uxlayapti, deb o'ylayapti. Bugun kunduzi uni chanada uchishga majbur qilgandim. Endi ko'nmaydi.

Farrosh pardalarni surdi. To'satdan derazadan oy nuri bilan nurafshon bo'lgan tog', yastangan o'rmon va hamma

yoqni qoplagan oppoq qor ko'rindi. Bularning hammasi bepoyon va kimsasizlikdan huvullab yotgandek edi.

Ulkan zalda mung'ayib o'tirgan uch kishi o'ta g'arib ko'rinardi. Farrosh lampalarni o'chira boshladi. Har bir lampa o'chganida xona ichiga tabiatning bir parchasi kirib kelgandek tuyulardi.

– Mana, Timsohoy ham keldi, – dedi Xolman. Katta hamshira eshik yonida paydo bo'ldi. Klerfe Lilianning asabiylashganini sezdi. Hamshira ularga yaqinlashdi. Sovuq nigoh tashlab, baquvvat tishlarini ko'rsatib jilmaydi:

– Har doimgidek tungi sayohatni boshladingizmi? Dam oladigan payt bo'ldi, janoblari! – U Lilian hamon o'rniga yotmagani haqida og'iz ochmadi. – Dam olish vaqti bo'ldi! – takrorladi u. – Hamma o'rniga yotsin! Tez! Ertaga ham kun bor.

Lilian o'rnidan turdi.

– Bunga ishonchingiz komilmi?

– Yuz foiz, – dedi hamshira sovuq tirjayib. – Siz uchun – Dyunker xonim, uyqu dori tayyorlangan, stolingizda. Xuddi morfey og'ushida yotgandek orom olib uxlaysiz.

– Bizning Timsohoyimiz siyqasi chiqqan jumlar qirolichasi, – dedi Xolman. – Bu haliyam tuzuk gapirgani. Bu sog'liq himoyachilari kasalxonaga tushgan odamlar bilan nega bunchalik xushmuomala so'zlashisharkan? Xuddiki, bemorlar go'dak yoki ahmoqday.

– Ular tanlagan kasblari uchun bizdan o'ch olishmoqda, – dedi Lilian nafrat bilan. – Agar restoran xizmatchilari va hamshiralardan bu huquq tortib olinsa, ular norasolikdan o'lib qolsa ajabmas.

Ular xollda lift yonida turishardi.

– Qayerga ketyapsizlar? – so'radi Lilian Klerfedan. U javob berishga shoshilmadi.

– «Palas-bar»ga, – dedi birozdan so'ng.

– Meni ham o'zingiz bilan ola ketasizmi?

U yana javobga oshiqmadi. Chana bilan to'qnashuv ko'z oldidan o'tdi. Rusning kibrli qarashini esladi.

– Nega olib ketmas ekanmiz? – dedi Klerfe.

Chana otel yonida to'xtadi. Klerfe Lilian yengil poyabzal kiyib chiqqanini sezdi. U qizni bir necha qadam narigacha ko'tarib bordi. Qiz avvaliga qarshilik qildi, keyin esa taslim bo'ldi, Klerfe ostonaga yetgach, Lilianni yerga qo'ydi.

– Mana! – dedi u. – Ipak poyabzallarni qutqarib qoldik. Barga kiramizmi?

– Ha. Biror nima ichishim kerak.

Barda odam ko'p edi. Yuzi qizarib ketgan chang'ichilar og'ir botinkalarda raqs maydonchasida gursillab o'ynashardi. Orkestr juda baland ovozda kuy chalardi.

Ofitsiant bar peshtaxtasi yoniga kichikroq stol va ikkita stulni surdi.

– Sizga o'tgan galgidek aroqmi? – so'radi u Klerfedan.

– Yo'q, glintveyn yoki bordo, – Klerfe Lilianga qaradi: – sizga-chi?

– Menga aroq, – javob berdi u.

– Demak, bordo, – dedi Klerfe. – Menga bir yordamingiz kerak, ovqatdan keyin spirtli ichimlik icholmayman.

Lilian unga shubhalanib qaradi: u o'ziga xuddi kasaldek muomala qiladiganlarni yoqtirmasdi.

– Rost, – dedi Klerfe. – Aroqni ertaga istaganingizcha ichamiz. Bir-ikki shishasini sanatoriya ham yashirincha kiritib yuboraman. Bugun esa sheval buyurtma qilamiz. Bu vino shu qadar yengilki, uni Fransiyada juda yaxshi ko'rishadi.

– Siz Venne vinosini ichganmisiz?

– Ha, – dedi Klerfe.

U yolg'on gapirgandi, «Otel de Pyramid»da montrashe ichgandi.

– Yaxshi.

Ofitsiant yaqinlashib shivirladi:

– Janob, sizni telefonga chaqirishyapti. Kabina eshikning o'ng tomonida.

Klerfe o'rnidan turdi:

– Siz ungacha ming to'qqiz yuz o'ttiz yettinchi yilgi shevalni keltirib ochib turing, – dedi va kabina tomon ketdi.

– Sanatoriyadanmi? – asabiylashib so‘radi Lilian, u qaytib kelgach.

– Yo‘q, Kanndagi kasalxonadan qo‘ng‘iroq qilishdi. Bir tanishim olamdan o‘tibdi.

– Ketishingiz kerakmi?

– Yo‘q, – javob berdi Klerfe. – Nima desam ekan, bu u uchun baxt...

– Baxt?!

– Ha. U poygada halokatga uchragan, o‘lmaganida baribir majruh bo‘lib qolardi.

Lilian unga sinchkov tikildi.

– Majruhlr ham yashashni istaydi, shuni hech o‘ylab ko‘rganmisiz? – so‘radi u.

Klerfe darrov javob bermadi. Uning quloqlari ostida ayol kishining umidsizlikka tushgan, chinqiroq ovozi aks-sado berardi: «Endi men nima qilay? Silva menga hech narsa qoldirmadi! Kelib menga yordam beringlar! Bir chaqasiz qoldim! Hammasiga sizlar aybdorsiz! Sizlar va la‘nati poygalarining aybdor!»

U noxush xotiralarni xayolidan quvdi.

– Hammasi qaysi nuqtadan qarashga bog‘liq, – dedi u Li-lianga tikilib. – Tanishim barcha mexaniklar bilan o‘ynashib yuradigan bir ayolni telbalarcha sevardi. Juda qoni qaynoq poygachi edi, lekin doim o‘rtamiyona darajada yurardi. Bu hayotda poygada yutish va shu ayoldan boshqa hech narsani yaxshi ko‘rmagan. Boshqa hech narsani xohlamagan ham. Va u haqiqatni bilmay vafot etdi. U oyog‘idan ayrilganida sevgilisi hatto, yuziga qarashdan ham bosh tortdi. Xayriyatki, o‘zi bundan bexabar holda vafot etdi. U baxtliligicha hayotdan ko‘z yumdi.

– Shunday deb o‘ylaysizmi? Balki hech narsaga qaramay, yashashni istagan bo‘lsa-chi?

– Bilmadim, – dedi Klerfe gapini yo‘qotib. – Lekin men bundanda baxtsizroq o‘lim topganlarni bilaman. Siz-chi?

– Bilaman, – dedi qaysarlik bilan Lilian. – Lekin ularning barchasi imkon bo‘lganda yana yashagan bo‘lardi.

Klerfe bir zum jim bo'ldi. «Nimalar haqida gaplashyapman o'zi? – o'yladi u. – Va kim bilan? Bu gaplarni o'zimni ishontirish uchun aytmayapmanmi? Silvaning xotini telefon-da shu qadar sovuq ovozda chinqirdiki...»

– Taqdirdan hech kim qochib qutula olmaydi, – dedi u besabrlik bilan. – Qachon ajali yetishini ham hech kim bilmaydi. Shunday ekan, vaqt bilan savdolashishdan ne naf? Bizning kelajagimiz keyingi nafasgacha davom etadi, xolos. Keyin nima bo'lishini hech kim bilmaydi. Oxirida bizni kutadigan narsa – faqat umid va sarob.

– Ichamizmi?

– Ana, Boris kelyapti! – dedi Lilian. – Buni bashorat qilsam ham bo'lardi!

Klerfe rusni Liliandan oldin ko'rdi. Volkov odamlar ko'p bo'lgan peshtaxta osha bir-bir bosib, sekin yurib kelardi. U Klerfeni ko'rsa ham ko'rmaganga oldi.

– Chana seni kutyapti, Lilian, – dedi u.

Qiz Volkovga o'girildi. Uning yuzi quyoshda toblangan bo'lsa-da, oqarib ketdi. Qoshlari chimirildi. Tanasi xuddi sakrashga tayyorlanayotgan mushuknikidek tarang tortildi.

– Chanani jo'natib yubor, Boris, – dedi u xotirjam. – Bu – Klerfe. U bilan bugun kunduzi tanishganding.

Klerfe odatdan ko'ra biroz sovuqqonlik bilan o'rnidan qo'zg'aldi.

– Nahotki? – so'radi Volkov takabburlik bilan. – Ha-ya, darhaqiqat. Ma'zur tutasiz, – u Klerfega ko'z tashlab qo'ydi. – Siz otlarni hurkitib yuborgan sport mashinasida edingiz, shundaymi?

Uning gap ohangidan Klerfe yashirin masxarani sezdi. U javob bermadi.

– Balki yodingdan ko'tarilgandir, ertaga rentgenga borishing kerak, – dedi Volkov Lilianga o'girilib.

– Unutganim yo'q, Boris.

– Dam olishing va uxlashing kerak.

– Bilaman. Lekin bugun kechqurun sanatoriyda buning iloji yo'q.

U xuddi yosh bolaga tushuntirgandek dona-dona qilib gapirardi.

Bu g'azabni bosishning yagona yo'li edi. Klerfe rusga achinib ketdi. Volkov o'zini o'zi noqulay vaziyatga tushirgandi.

– O'tirishni istamaysizmi? – taklif qildi u Volkovga.

– Rahmat, – javob berdi sovuqqina qilib rus, xuddi qarshisida «yana nima xizmat», deb ofitsiant turgandek.

U ham Klerfening ovoqidagi kinoya ohangini sezgandi.

– Men bu yerda bir kishini kutib turibman, – dedi u Lilianga murojaat qilib. – Agar ungacha fikringdan qaytib qolsang, chanalar...

– Yo'q, Boris! – Lilian ikki qo'llab sumkachasiga yopishib oldi. – Yana biroz shu yerda qolmoqchiman.

Volkov Klerfening joniga tegib ulgurgandi.

– Dyunkerk xonimni bu yerga men olib keldim, – dedi u xotirjam. – Nazarimda, uni qaytarib olib borib qo'yishga qur-bim yetadi.

Volkov qaddini rosladi.

– Meni noto'g'ri tushunyapsiz, deb qo'rqaman, – dedi u quruqqina qilib, – lekin bu mavzuda gapirishdan foyda yo'q.

U Lilianga yengil ta'zim qilib, peshtaxta yoniga qaytdi.

Klerfe joyiga o'tirdi. U o'zidan yozg'irardi: «Nega bu mashmashaga aralashdim? Endi yigirma yoshli yigitcha emasman-ku!»

– Nega u bilan keta qolmayapsiz? – so'radi u.

– Mendan qutulmoqchimisiz?

Klerfe jilmaydi. Agar shu savolni boshqa ayol berganida, tannozlik qilyapti, deb yoqtirmagan bo'lardi. Qizig'i, Lilianning tilidan bu so'zlar unchalik qo'pol eshitilmadi va u Klerfening oldida qadrini yo'qotmadi.

– Yo'q, – dedi Klerfe.

– Unda ketmaymiz, – qiz peshtaxta tomonga ko'z tashlab oldi. – Boris ham qoldi, – shivirladi u alam bilan. – Meni qo'riqlayapti. Yon beradi, deb o'ylayapti.

Klerfe butilkani olib o'ziga va unga yarim ryumkadan quydi.

– Yaxshi. Keling, unda kim ko'proq o'tirish o'ynaymiz.

Lilian unga qaradi:

– Siz tushunmayapsiz, buning rashkka aloqasi yo'q, – e'tiroz bildirdi u.

– Shundaymi? Unaqada men rashk nimaligini bilmas ekanman.

Lilian unga jahl bilan qarab qo'ydi.

«O'ziga nimalarni ravo ko'ryapti bu kelgindi, do'stlarining o'limi haqida xuddi sport yangiligidek bemalol gapiradigan bu azamat biror nimani anglashga qodirmi o'zi?»

– Volkov baxtsiz, u bemor va men haqimda qayg'uryapti, – dedi sovuqqina qilib. – Odam sog'lom bo'lsa, o'zining ustunligini his qilishi oson.

Klerfe butilkani nari surdi. «Makkora qiz xolislikni saqlab qolmoqchi, – o'yladi u, – uni bu yerga olib kelganim uchun minnatdorlik bildirish o'rniga menga tashlanyapti!»

– Balki, – dedi u befarqlik bilan. – Nahotki, sog'lom bo'lish jinoyat bo'lsa?

Endi qizning ko'zlarida boshqa ma'no mavjlandi.

– Albatta, yo'q, – to'ng'illadi. – Nima deyayotganimni o'zim ham bilmayapman. Yaxshisi, keta qolay.

U stoldan sumkachasini oldi-yu, lekin o'rnidan turmadi.

– Ryumkangizdagini ho'plab ham qo'ymadingiz, – dedi Klerfe. – Axir o'zingiz, ichmasam bo'lmaydi, dedingiz-ku!

– Ha, lekin...

– Tortinmay aytavering. Men darrov xafa bo'ladiganlardan emasman.

– Shunaqami? Bizda esa hamma arazchi.

– Men unaqa emasman. Endi esa ryumkangizdagini iching.

U indamay ichdi.

Ular ko'chaga chiqqanda qor yog'ardi. Boris allaqachon ko'zdan yo'qolgan. Chanasi ham ko'rinmasdi. Ular tog'ga chirmashgan yo'l bo'ylab keta boshlashdi. Otlar bo'ynidagi qo'ng'iroq mayin jiringlardi. Birozdan keyin boshqa bir qo'ng'iroq ovozi eshitildi. Izvoshchi otlarni chiroq yonida to'xtatib, qarshisidan kelayotgan chanaga yo'l berdi. Tog'dan



tushib kelayotgan pastgina arava ularning yonidan ovozsiz o'tdi, unda ustiga qora kleyonka yopilgan uzun quti bor edi.

Klerfe Lilianning qo'llari musht bo'lib tugilganini ko'rdi. Aravadagi brezent tagidan gullar ko'rinib turardi. Aravakash cho'qinib olib, yo'lida davom etdi.

Hamma o'z xayollari bilan bo'ldi, chana sanatoriyni yon eshigiga kelib to'xtadi. Elektr chirog'i qorda sariq dog' hosil qilgandi.

Bu sariq doira ichida bir qancha yashil barglar yotardi.

Lilian Dyunkerk Klerfega o'girildi.

– Hech narsa yordam bermaydi, – dedi u kinoya bilan jilmayib. – Bir muddat buni esdan chiqarasan... Lekin butkul qochib qutulib bo'lmaydi. U eshikni ochdi.

– Rahmat, – shivirladi u.

– Yaxshi suhbatdosh bo'lolmaganim uchun uzr. Lekin bugun kechqurun yolg'iz qololmasligimni bilardim.

– Men ham.

– Siz nega?

– Xuddi siz aytgan sababga ko'ra. Kanndan qo'ng'iroq bo'lganini boya sizga aytdim.

– Lekin siz buni baxt, dedingiz-ku.

– Baxtni turlicha tushunish mumkin. Xullas, gapirsa gap ko'p.

Klerfe qo'lini cho'ntagiga tiqdi.

– Mana sizga aroq. Xayrli tun.

Qorda bir soatcha sayr qilgach, Klerfening ko'zi o'rmon chekkasidagi to'rtburchak binoga tushdi. Uning gumbazsimon tomidan qora tutun ko'tarilardi. Klerfening ko'nglini noxush xayollar chulg'adi. U bu o'ylardan xalos bo'lish uchun bir necha yil umrini besamar sarflagandi.

– Anovi nima? – so'radi u do'kon yonida qor kurayotgan yigitchadan.

– Umi? Krematoriy, janob! – yigitcha belkurakka tayandi.

– Endi undan ko'p foydalanishmayapti. Lekin ilgari, Birinchi jahon urushidan oldin bu yerda juda ko'p odam vafot etardi.

Qishda bilasiz, yerni kovlash qiyin. Krematoriy ancha qulay. Bu qirq yildan buyon turibdi.

– Demak, buni dunyoda krematoriy urfga kirmasidan oldin qurgan ekansizlar-da?

Yigitcha Klerfega tushunmay tikildi.

– Biz har qanday sohada doimo oldinda yurganmiz, janob, – u to‘rtburchak binoga qovog‘ini uyub tikildi, endi undan yengil tutun ko‘tarilardi. – Haqiqatdan ham hozir krematoriy urfga kirgan.

– Shuni aytaman-da, – ma‘qulladi Klerfe. – Nafaqat bu yerda. Yigitcha tasdiq ma‘nosida bosh silkidi.

– Otamning aytishicha, odamlar o‘limga nisbatan hurmatni yo‘qotishgan. Bunga ikkita jahon urushi sabab bo‘lgan.

Tutun to‘xtadi. Klerfe sigaret yoqdi. Tushunarsiz sababga ko‘ra tutun chiqib turgan paytda chekkisi kelmadi. U yigitga ham sigaret uzatdi.

– Otangiz nima ish bilan shug‘ullanadi?

– Biz gul sotamiz. Agar sizga biror narsa kerak bo‘lsa, bilib qo‘ying, bizda qishloqdagi olibsotarlardan ko‘ra arzon. Mol-larimiz ham yaxshi. Bugun ertalab bir dunyo yangi mol keldi.

Klerfe o‘ylanib qoldi. Belgiyalik isyonkor qizga gul jo‘nat-sa, nima bo‘ladi? Balki manman rusning battar jahli chiqar? U do‘konchaga kirdi. Do‘kon ayanchli ahvolda edi, bir-ikkita boshqalaridan ajralib turgan guldastani aytmaganda, gullar ham o‘rtamiyona. Klerfe guldondagi oq nastarin va orxide-yaning katta novdasiga ko‘zi tushdi.

– Yap-yangi! – dedi past bo‘yli kishi. – Bugun keltirildi. Bu a‘lo navli orxideya. Kamida ikki hafta so‘limay turadi. Noyob nav.

– Ularni o‘rab bering, – dedi Klerfe cho‘ntagidan Lilian barda unutib qoldirgan qo‘lqopni chiqararkan. – Buni ham o‘rab bering. Konvert yoki qog‘oz topiladimi?

\* \* \*

Sanatoriyda sukunat hukmron edi. Lilianning qarshisida Klerfe sovg'a qilgan aroq idishi turardi.

Qo'ng'iroq jiringladi.

Lilian go'shakni oldi.

– Ha, Boris... Yo'q, albatta, yo'q... Agar shunday yo'l tutganimizda hozir qay ahvolda bo'lardik... albatta, kel... ha, bir o'zim. Tong saharlab kim ham kelardi yonimga?

Lilian yana balkonga chiqdi. Bir xayoli aroqni bekitmoqchi ham bo'ldi-yu, keyin fikridan qaytib, butilkani ochdi.

Ichimlik muzdek edi.

– Xayrli tong, Boris, – dedi u eshik yopilib ochilganini eshitib. – Men ichyapman. Ichasanmi? Unda stakan ola kel.

Shezlongda cho'zilgancha uni kuta boshladi. Volkov stakan ko'tarib balkonga chiqdi. Lilian yengil tortib xo'rsindi: «Xudoga shukr, nasihat o'qimadi». Volkov o'ziga ichimlik quydi. Lilian stakanini tutdi, unga ham to'ldirib quydi.

– Nega ichyapsan, azizam? – so'radi rus. – Rentgendan qo'rquapsanmi?

– Yo'q, Boris, hayotdan zavqlanyapman.

U qizga hayron bo'lib tikildi:

– Dalay-Lama rentgen haqida biror nima dedimi?

– Yo'q. Nima ham derdi? Hech narsani bilishni istamayman.

– To'g'ri qilasan, – dedi Volkov. – Shuning uchun ichamiz.

U bir ko'tarishda stakanni bo'shatib, butilkani olib qo'ydi.

– Menga yana ozroq quygin, stakanlar kichkina.

– Bemalol.

Lilian uni kuzata boshladi. U Borisning «ichma» deya fikridan qaytarishini kutardi. Lekin Boris aqlli edi, qizning xayolidan o'tayotganlarni ilg'agandi.

– Yana quyaymi? – so'radi u.

– Yo'q, – Lilian stakandagini ichmay stolga qo'ydi. – Boris, – dedi u, – biz bir-birimizni juda yaxshi bilamiz. Men seni, sen meni yaxshi tushunamiz, bizning fojiamiz ham shunda.

– Haqsan, – dedi Volkov. – Buyuk fojia!

Lilian ko'zini yumdi.

– Ba'zida juda ahmoqona biror ishga qo'l urgim keladi. Nimadir qilib, bu shisha qafasni sindirsam-u, keyin boshim og'gan tomonga qarab ketsam...

– Men ham, – dedi Volkov.

Lilian ko'zini ochdi:

– Sen ham?

– Hammaning shunday qilgisi keladi, azizam, – dedi Volkov.

– Nega unda shunday qilmaysan?

– Chunki baribir hech narsa o'zgarmaydi. Unda o'zimning qafasda o'tirganimni yanada kuchliroq his qilgan bo'lardim.

– Bilaman, Boris. Men ham shu haqda gapiryapman. Negaligini o'zing bilasan. Rentgendan qo'rqyapman, lekin qo'rquvimni ko'rsatishni istamayman.

U motorning guvillaganini Borisdan oldin eshitdi. Klerfening mashinasi aylana yo'ldan yurib, sanatoriyga yetib kelgach, to'xtadi.

– Nega uni yoqtirmaysan?

Volkov bir zum jim qoldi. Uning biroz bukchaygan yelkalari kumushrang osmon fonida qora dog'dek ko'rinardi. U qo'lidagi stakanni aylantirar, shishaga tushib singan nurdan stakan billurdek tovlanardi.

Volkov jilmaydi:

– Balki bir paytlar unga o'xshash bo'lganim uchundir.

– Shu sabab bo'la oladimi?

– Nega bo'lmas ekan? O'sha paytlarni esimga solishlarini xohlamayman. Qachon ketarkan?

– Bilmadim, balki ertaga ketar.

– U yerdan kelgan odamlar o'zlari bilan doim behalovatlik olib kelishadi.

Lilian ko'zini yumdi.

– Uyqung kelyaptimi? – so'radi Volkov.

– Ha. Ichimlik elityapti.

Nimyopiq ko'zlari ostidan Volkovning shezlong yonidan o'tib ketganini ko'rdi.

Lilian qattiq hayajonlanardi, u uxlay olmasdi. Yotish, kitob o'qishni ham istamasdi. «Hammasi aroqdan», o'yladi u.

Birozdan keyin o'rnidan turib pastga tushdi.

Klerfeni yolg'iz ko'rib hayratlandi. Uni Xolman bilan kelgan, deb o'ylagandi. Klerfe ko'cha eshigi yonidagi o'rindiqa o'tirardi.

– Mashinangiz qani? – so'radi u. – Motor ovozi eshitgandek bo'ldim.

– Mashinani yo'lda qoldirdim. Tepaga chiqa olmadim.

– Xolman sababmi?

– Ha, – dedi Klerfe.

– Qani o'zi?

Shu mahal motorning guvillagani eshitildi.

– Anovi tomonda. «Juzeppe»ni sinab ko'ryapti, – dedi Klerfe.

Lilian o'rnidan turib, sanatoriy eshigi tagidagi maydon chetiga yaqinlashdi.

U archa daraxtlari ortidan sekinlik bilan ko'tarilib kelayotgan mashinani ko'rdi.

– U kelyapti! – qichqirdi qiz Klerfega qarab. – Uni to'xtating!

– Nega? Mashina haydashni unutmagan hali.

– Buning uchun emas! U zotiljamga yo'liqishi mumkin.

– Issiq kiyingan-ku.

– Usti ochiq sport mashinasi haydaydigan darajada issiq emas. To'xtating, uni!

Qaltis tik yo'llardan ko'tarilgan mashina sanatoriyni ortda qoldirdi.

– To'xtating dedim! – qichqirdi Lilian. – U xuddi telbalardek haydayapti. Oqibati yomon bo'lishi mumkin.

U yo'lning o'rtasiga yugurib chiqdi.

– Ehtiyot bo'ling, u sizni urib ketadi-ku, – Klerfe jonholatda qizni chetga tortdi.

Lahza o'tmay mashina sanatoriy yonidan qayrilib, guvilagancha tog'dan pastga qarab uchib ketdi. Ruldagi Xolman kulganча ularga qarab qo'l siltab o'tdi.

– Kechikdingiz, – dedi Klerfe Lilianning qo'lini qo'yib yuborarkan.

– Uni to'xtatish kerak edi! Nega to'xtatmadingiz?

– Bu yerda yashagan davrida Xolman qachon hozirgidek kulgan yo xursand bo'lganini ko'rgansiz? Men ko'rmanman.

– Kechqurun kulishga holi qolmaydi... Harorati oshib ketadi.

– Men taqiqlangan narsaning foydasiga ishonaman. Bu ham terapiya, – dedi Klerfe. – Siz ishonmaysizmi?

– Boshqalar uchun ishonmayman.

Klerfe kulib qo'ydi.

– Xolman siz o'ylagandek metin irodali emas, intizomiga ham havas qilib bo'lmaydi. Kecha kechqurun ham tinchgina uxlagani yo'q. Uxladim dedi-yu, ortimizdan «Juzeppe» turgan garajga yugurdi. O'sha yerda poyga uyushtirgan. Menga garajda ishlaydigan yigitlar aytishdi. Mashinadan tushganida juda kayfiyati yomon ekan, yigitlarning aytishicha, u xuddi oyparastdek tinmay g'o'ldirarmish. Shuning uchun bugun ertalab mashinani olib keldim va Xolmanga, uni haydashing mumkin, dedim.

– Demak, bunga uni o'zingiz undabsiz-da?

– Men unga kalitni berib, «Juzeppe» qayerda turganini aytdim, – dedi Klerfe. – Unga shuning o'zi yetarli bo'ldi.

Klerfe Lilianni ko'tarib, yonidagi o'rindiqqa o'tqizdi.

– U qaytguncha kutib turasizmi? Lekin u hali-beri qaytmasa kerak.

Lilian javob bermadi, lekin ketmadi ham. Klerfe unga qaradi. «Naqadar yosh, – o'yladi u. – Kechqurun biroz yoshi kattadek ko'ringandi. Qiziq, odatda, aksi bo'lardi».

– Intizomli bo'lish – maqtovg'a loyiq xislat, – dedi Klerfe. – Lekin ba'zida u pand berishi ham mumkin. Irodali odam qoqilib ketsa, chiroyli ko'rinmaydi. Ba'zida odamiylikni

unutmagan ham yaxshi. Undan ko'ra Xolman tavakkal qilsin, biroz shamollasa ham mayli. Keyin o'ziga ishonchi ham ortadi. Bu ehtiyot bo'lib o'zini nogiron sanagandan ko'ra yaxshiroq. Nahotki, fikrimga qo'shilmasangiz?

Lilian to'satdan Klerfega nisbatan nafrati qo'ziganini his qildi.

– Shamollash bu yerda o'lim bilan barobar! – dedi u g'azab bilan. – Lekin bu sizni qiziqtirmaydi-ku, to'g'rimi? Sizga nima farqi bor? Siz bemalol «o'lim – u uchun baxt edi» deyishingiz mumkin, chunki u mashina haydab, o'zini buyuk poygachi bo'laman, deb ishontirdi-ku.

Lilian gapini tugatib bo'lmasdan, gapirganiga pushaymon yedi.

Klerfe indamadi.

Yana mashinaning ovozi eshitildi, keyin o'zi ham ko'zga tashlandi. Kichkina mashina xuddi o'qdek qishloq orqasidan uchib o'tib, dovonga olib boradigan shosse tomon o'tib ketdi.

– Uning o'rnida bo'lganingizda nima qilardingiz? – so'radi Lilian.

Klerfe unga o'girildi:

– Menmi? Menimcha, ortga qaytmasdim. Dovondan pastga qarab haydardim.

Qiz sinchkovlik bilan tikildi:

– Keyin-chi?

– Keyin oxirgi marta o'zimdagi bor g'ayratni ishga solardim, hayotga xuddi dushmanim yoki jazmanimga tashlangandek otildim, toki yiqilmagunimcha... Bu yaxshiroq... – U tutildi. – Biroq balki men ham yig'lab nola qilardim, emaklab taqdirdan yana bir soat, bir kun, bir daqiqa umr tilab olgan bo'larmidim... Ko'z o'ngimda men kutmagan odamlar shunday yo'l tutishgan. Hech kim kelajakda nima bo'lishini bilmaydi. – U Lilianga tikildi. – Axir siz emasmi, kecha kechqurun, hammaning yashagisi keladi, hatto nogironning ham, hatto eng yomon sharoitda bo'lsa ham, degan.

– Ha, – dedi Lilian uning nigohiga dosh bera olmay. – Lekin o'zingiz menga kechagi kun – uzoq o'tmish, demagan-midingiz?

Uzoqdan yana motorning ovozi eshitildi. Ovoz tez yaqinlashardi.

– Xolman qaytyapti, – dedi Klerfe.

– Ha, qaytyapti, – takrorladi Lilian kinoyali jilmayib.

U dovondan pastga yurmadi.

Klerfe unga ko'z qirini tashladi.

– Sizga juda chiroyli ekaningizni aytishganmi sira?

– Ha, – dedi Lilian, uning nigohiga dosh berib, o'rnidan turayotib. – Qolaversa, hozirgidan chiroyliroq tarzda aytishgan.

\* \* \*

Lilian qorong'i xonaga kirishni yomon ko'rardi, shu sabab har doim chiroqni o'chirmas, lekin navbatchi hamshira doim uni o'chirib qo'yardi.

Bu gal ham shu takrorlandi.

Lilian chiroqni yoqdi.

Stolda oq lenta bilan o'ralgan karton quti turardi.

«Gullar, – o'yladi u. – Kimdan? Albatta, Borisdan bo'lsa kerak, boshqa kimdan ham bo'lardi?»

U qutini lentadan bo'shatdi, qopqog'ini ochib papiros qog'ozini chiqardi... va titragancha gullarni qutisi bilan polga otib yubordi.

Qutidagi oq orxideya edi...

Gullar gilam ustida sochilib ketdi. Yonidagi qora qo'lqop xuddi uzilib yotgan qo'ldek ko'rinardi. Lilian orxideyalardan ko'z uzolmay qoldi. Ularni oldin ko'rganiga shubha yo'q. Lilian gullarni sanadi, hammasi to'g'ri, ular xuddi shuncha edi. Bunaqa orxideyalarni bu yerdagi gul do'konida sotishmasdi. Axir uning o'zi shunday gullarni qidirgan va topolmagach, Syurixga buyurtma bergandi-ku! Hozir polda sochilib yotgan



bu gullarni uning o'zi Agness Somervillning tobuti ustiga qo'ygandi.

Lilian gul novdasini xuddi ilondan hazar qilgandek sekin surdi. Keyin derazani ochib, gullarni qog'oz bilan tutgancha, tashqariga uloqtirdi. Qutini gullar orqasidan otdi.

Orxideyalarni uloqtirgan Lilian Klerfening xatini ko'rmasdi. Bu hodisa unga narigi dunyodan ishoradek tuyuldi. Qora qo'lqop qayerdan kelganini ham tushunmadi, u o'z qo'lqopini eslolmadi. Uni ham poldan olib, shoshgancha derazadan uloqtirdi.

«Juda asabiy bo'lib boryapman, – o'yladi u. – Yo'q joydan narigi dunyo asoratlari ko'zimga ko'rinyapti. Bu gullar oddiy gul do'konidan sotib olingani kundek ravshan, uni arvohlar u dunyodan yo'llamagan-ku. Endi esa ular yerparchin bo'lib qorda yotibdi».

Lilian oynaga yaqin borib qaradi va qichqirib yuborishdan o'zini zo'rg'a tiydi. Orxideyalar yo'q edi. Yengil tuman bo'lgani bilan u qorni ko'rib turar, atrof jimjit bo'lib, gulni olgan hech zog' ko'rinmasdi. Quti ham yo'qolgandi. Hammasi xuddi havoga singib ketgandek ko'zdan g'oyib bo'lgandi. Qorda faqat qo'lqop yalpayib yotardi. Kichkina, qop-qora, yurakka vahima soladigan qo'lqop.

Lilian oynani ochdi. «Bu yerdan ketish kerak, – o'yladi u. – Lekin qayerga? Borisning yonigami? Uning javobi ma'lum. Balki ikkinchi qavatga, Dolores Palmesning yoniga borish kerakdir. Doloresning xonasiga bugun yashirinch a bir necha kishi to'planishadi, u yerda patefon va plastinka bo'ladi va har doimgidek asabiy, zavqsiz bazm uyushtirishadi. Nima qilsin? Balki Xolmanning yoniga borar, u nima deyishini ham bilardi. Yo'q, sanatoriydan butunlay ketishim kerak».

U bir qarorga kelolmay qiynalardi. Keyin «Palas otel»ga qo'ng'iroq qilib Klerfeni so'radi.

Birozdan keyin yigit telefonni oldi.

– Meni olib ketgani kela olasizmi? – so'radi u.

– Hozirmi?

– Ha.

– Yaxshi. Tezda yetib boraman.

U pastga tushganda, Klerfe xizmatchilar eshigi yonida turardi.

– Mening gullarim bu yerga qayerdan kelib qoldi? – so‘radi u.

Lilian uning nigohi qaratilgan tomonga o‘girildi. Undan bir necha metr narida qorda boyagi gullar yotardi. Quti ham shu yerda edi. Lilian undan ko‘z uzmadi. Keyin tepadan qaraganda qorda oq gullar va oq quti ko‘rinmaganini tushunib yetdi.

– Bu siznikimi? – so‘radi u. – Siz menga gul yuborganmidingiz?

– Ha, – dedi Klerfe. – Ko‘rinib turibdiki, gullarim sizga yoqmagan.

– Ularni qayerdan oldingiz?

Klerfe unga hayron bo‘lib qaradi.

– Bugun kunduzi gul do‘konidan sotib oldim. Nega so‘rayapsiz?

– Orxideyalar... Kecha Agnesning tobuti ustiga qo‘ygan orxideyalarim bular... O‘xshash bo‘lishi mumkin emas... Aynan o‘zi... aynan!

– Bu yog‘i g‘alati bo‘ldi-ku! – bosh chayqadi Klerfe. – Yo tavba! Endi tushundim! – qichqirib yubordi u kutilmagan-da. – Bu gullarni men krematoriy yaqinidagi do‘kondan sotib olgandim. Hammasi tushunarli. Krematoriyda ishlaydigan uddaburonlardan biri ularni yoqib yuborish o‘rniga olib qolgan. O‘zim ham hayron bo‘ldim, bu qadar noyob gullar bunday nochor do‘konga qayerdan kelib qoldi, deb. Demak, bunaqa ishlarni oldin ham qilishgan! Obbo, shovvozlar-ey! Bunaqalar hech narsani isrof qilishmaydi. Yolg‘onlari fosh bo‘lishi ehtimoli kam. Gullarning barchasini esa eslab qolib bo‘lmaydi. Qarang-a, bu yerda bitta-yu bitta orxideya novdasi bo‘lishini va u yana o‘zingizga qaytib kelishini kim o‘ylabdi deysiz? Mingtadan bittada uchraydigan holat... – Klerfe shun-

day deya Lilianning qo'ldan tutdi, qiz dir-dir titrardi. – Endi nima qilamiz? Esankirab o'tiraveramizmi yoki odamlarning uddaburonligiga qoyil qolib, kulamizmi? Menimcha, biror nima ichib olishimiz kerak. Ketdik.

– Bema'nilik, – to'ng'illadi Lilian.

– Boshqa bema'ni holatlardan ko'p ham farq qilmaydi, – dedi Klerfe. – Bir gal qochish uchun yaqindagina o'ldirilgan odamning kiyimlarini kiyishga majbur bo'lganman. Shundan boshqa choram yo'q edi, aksincha, qocha olmasdim, qochmasam, meni o'ldirishardi. Haligacha qilgan ishimni o'ylasam, asabim buziladi. Eng yomoni, kiyimda hali egasi-ning tafti bor edi. Kiyim issiqligini kutmagandim, lekin jasad sovub ulgurmagan ekan. Men uning hamma libosi, hatto ich kiyimini ham kiyishga majbur bo'lgandim. Murda menga o'z taftini berdi, lekin qo'rquvdan akashak bo'lishimga bir bahya qoldi. Baxtinga tasodifan o'likning barmog'ini pichoq bilan kesib yubordim. Bundan vahimaga tushib, o'zimni qo'lga oldim. Ketdik.

– Gullar-chi? – shivirladi Lilian. – Ularni bu yerda qoldirib bo'lmaydi.

– Nega? – dedi Klerfe. – Axir bu gullarning na sizga, na menga va na o'lgan qizga aloqasi bor. Ertaga sizga boshqa guldasta yuboraman. Esingizdan chiqaring! Mana, qo'lqopingiz.

Klerfe chana tomonga o'girildi va izvoshchining nigohiga ko'zi tushdi. U xotirjam, lekin qiziqish bilan orxideyalarga qarab turardi. Klerfe hozir ularni mehmonxonaga kuzatib qo'ygach, gullarni olgani qaytib kelishini tushundi. Xudo biladi, bu gullar yana qayerda paydo bo'ladi?

– Biz o'liklardan qo'rqqanligimiz kerak, – dedi u chanalar ilonizi yo'ldan sirg'anib ketayotgan mahal.

– Ko'p narsa qilmasligimiz kerak, – to'ng'illadi Lilian.

Klerfe uning hamon hayajonda ekanini sezdi.

– O'lgan odamning kiyimini kiyib, tunni kutib daryo bo'yi-da bir necha soat yotganman, – dedi u. – Haliyam g'ijinib yotgan bo'lsam-da, birdan askarligimda kiygan kiyimim

ham marhumlarga tegishli bo'lganini tushundim. Bizning tilimiz, bilimimiz, baxtiyor va tushkun onlarimiz va hatto, Xudo haqidagi tushunchamiz ham – bularning zamirida bir haqiqat yotadi: biz hayvonlarga berilmagan, faqat insonga xos aql sabab o'lim haqligini angladik.

«Bu g'alati tun bo'ldi. Men qochish haqida o'ylamagandim, tushkunlikka tushmaslik uchun o'lim haqida o'y surdim, bu ko'nglimga biroz taskin bergandi», – o'yladi Lilian.

Klerfe Lilian so'zlariga diqqat bilan quloq solayotganini ko'rdi. Qiz oldinga engashgancha unga tikilib turardi.

Chana otel yonida to'xtadi. Qorni bosmaslik uchun ostonaga bir necha taxta tashlangandi. Lilian tushdi. Sportchilar og'ir chang'i botinkalari bilan u yoqdan-bu yoqqa yurishar, novdadek nozik Lilian oldinga engashgancha pal-tosini bag'riga bosib, poshnali tuflida o'tib borarkan, xuddi farishtadek nafis ko'rinardi.

Klerfe uning ortidan ergashdi. «Nimalar deyapman o'zi?» o'yladi u. – Axir Xolman bu mavzular taqiqlanganini aytib, ogohlantirgandi-ku. Lekin bu yoshgina qiz nuqul o'lim haqida gapirarkan. Balki uni ajaldan boshqa narsa qiziqtir-mas. Menimcha, bu mavzu yuqumli bo'lsa kerak».

Shunga qaramay bu muloqot bir soat oldin Lidiya Morelli bilan telefondagi suhbatidan ko'ra ma'niliroq edi. Lidiya Morelli uni Rimga qaytishga undagandi, u ayollar-ga xos makrlarning barchasidan xabardor va bittasini ham qoldirmay ishlatadiganlardan edi.

– Keling, bugun oqshom faqat behuda gaplarni gaplasha-miz, – dedi Lilian.

\* \* \*

Adyol tep-tekisligidan qariyaning tanasi yo'qdek tuyu-lardi. Uning yuzi azobdan burishgan, lekin kirtaygan ko'zla-rining yolqini so'nmagandi. G'ijimlangan sigaret qog'ozini eslatuvchi terisi ostidan tomirlari shishib turardi. Qariya tor xonada, ingichka karavotda yotardi. Karavot yonidagi

tumbochkada shaxmat taxtasi turibdi. Cholning ismi Rixter bo'lib, yoshi saksonda. U umrining yigirma yilini shu sanatoriya o'tkazgan. Barcha xodimlar Rixter bilan faxrlanishardi. Shifokorlarga irodasiz bemorlar uchrab qolsa, ular doim Rixterni namuna qilib ko'rsatishardi. U shifokorlar uchun xazinaning o'zi edi. Rixter o'lim to'shagida yotardi, lekin ajaldan darak yo'q edi.

Lilian uning bosh tomonida o'tirardi.

– Bu yoqqa qarang, – dedi Rixter, shaxmat taxtasiga ishora qilib. – Xuddi etikdo'zga o'xshab o'ynaydi-ya. Hayronman, Renyega nima bo'ldi?

Shaxmat Rixterning jonu dili. Urush payti Rixterning «Montana»dagi sheriklarining barchasi yoki ko'chib ketishdi, yoki vafot etishdi.

Bir necha oy Rixter bilan shaxmat o'ynaydigan odam bo'lmadi, u hamma narsaga befarq bo'lib, ozib-to'zib ketdi. Shundan so'ng bosh shifokor Syurix shaxmat klubi a'zolari bilan gaplashib, ularni Rixter bilan o'ynashga ko'ndirdi.

Avvaliga besabr Rixter o'z yurishlarini telefonda aytib turardi, lekin bu juda qimmatga tushgach, pochtaga rozi bo'ldi.

Maktublar uzoq yo'l bosgani sabab Rixter ikki kunda bir yurish qila olardi, xolos.

Keyin Rene paydo bo'ldi. U Rixter bilan bir qo'l shaxmat o'ynashi bilan qariya o'zini baxtiyor his qildi. Va nihoyat, unga munosib raqib topilgandi. Lekin nemislarning harbiy asirlar lageridan qaytgan Rene Rixterning nemisligini bilgach, u bilan o'ynashdan bosh tortdi.

Rixter yana darmonsizlana boshladi. Rene ham yotib qoldi.

Ikkalasi ham shaxmatni deb o'lib turgan bo'lsa-da, qaysarlikni qo'yishmasdi. Vaziyatdan chiqish yo'lini yamaykalik habash topdi. U ham kasal edi. Habash o'rnida yotgancha Rixter va Renening har biriga alohida-alohida xat yozdi va ikkalasiga ham ichki telefon orqali shaxmat o'ynashni taklif qildi.

Ikkalasi ham xursand bo'lishdi. Lekin bitta muammo bor edi, habash shaxmat o'ynashni bilmasdi. Lekin ko'p o'tmay

bu vaziyatdan chiqish yo'lini ham o'zi topdi. U Rixterga qarshi oq donalar bilan, Renega qarshi esa qora donalar bilan o'ynay boshladi.

Aslida unda shaxmatning donasi ham yo'q edi. Uning vazifasi Rene va Rixterning yurishlarini o'ziniki qilib, ularga yetkazib turishdan iborat edi.

Urush tugagach, ko'p o'tmay habash vafot etdi. Rene va Rixter ham qashshoqlashgani sababli telefonsiz xonaga ko'chib o'tishga majbur bo'lishdi. Endi ularning biri uchinchi qavatda, ikkinchisi ikkinchi qavatda yashardi.

Habashning vazifasi Timsohoyga o'tdi, yurishlarni palata hamshiralari aytib turishardi. Ikkala raqib hali ham habash bilan o'ynayapmiz, deb o'ylashardi, ularga tomog'i og'rigani sabab habash gapirolmaydigan bo'lib qolgan, deyishgandi. Renega turib yurishga ruxsat berilmaguncha, hammasi yaxshi ketayotgandi. O'rnidan turishi bilan u birinchi o'rinda habash bilan uchrashishni istadi va shundan keyin barchasi fosh bo'ldi.

Bu vaqtga kelib Rene urush haqidagi alamlarini biroz unutgandi. Rixterning qarindoshlari Germaniyada parvoz vaqti vafot etganini eshitib, u bilan yarashdi va ikki sherik bir-biri bilan bemalol shaxmat o'ynay boshlashdi.

Keyin Rixter bilan Renening yana tobi qochdi va endi ularga boshqa bemorlar baholi qudrat yordam bera boshlashdi. Shu jumladan, Lilian ham.

Uch hafta oldin Rene vafot etdi. Bu paytda Rixterning ham ahvoli og'ir edi, shu sabab unga sherigining o'limi haqidagi xabarni aytishga hech kim jur'at qilolmadi.

Rixterni kimdir aldab turishi kerak edi, bu rolga Timsohoy kirishdi. Oxirgi paytlarda u o'yinni sal-pal o'rganib olgandi, lekin tabiiyki, Rixter uchun jiddiy raqib bo'lolmasdi. Hamon Rene bilan o'ynayapman, deb o'ylaydigan Rixterni kuchli shaxmatchining to'satdan dumbulga aylanib qolgani hayratga solardi.

– Siz shaxmat o'ynashni o'rganishingiz kerak, – dedi Rixter Lilianga. – Istasangiz o'rgataman. Tez o'rganasiz.

Lilian bosh chayqadi. Rixterning ko'm-ko'k ko'zlarida qo'rquv yarq etdi. U Rene o'lib, sheriksiz qolishdan qo'rqardi.

– Ishonavering, – dedi Rixter. – Shaxmat fikrlashingizni butkul o'zgartirib yuboradi. Bu o'yin odamzoddan juda uzoqda... Ikkilanish va sog'inchdan ham... Bu juda abstrakt o'yin, odamni tinchlantiradi. Shaxmat olamida tashvishlar ham... o'lim ham yo'q. U yordam beradi. Bizga shu kerak-ku, to'g'rimi? Biz bir narsani istaymiz – tonggacha omon bo'lishni...

– Ha, – dedi Lilian. – Bu yerdagilar ko'p narsa xohlashmaydi.

– Xo'sh, bugundan boshlaymizmi? – so'radi Rixter.

– Yo'q, – dedi hafsalasiz Lilian. – Endi bundan ma'ni yo'q. Bu yerda ko'p yashamayman.

– Ketyapsizmi?

– Ha, ketyapman.

«Nimalar deyapman?» o'z gapidan o'zi cho'chib ketdi Lilian.

– Sog'aydingizmi?

Qariyaning xirillagan ovozi qahrli chiqdi, xuddiki Lilian uni aldab qochib ketmoqchidek.

– Men butunlay ketmayapman, – shoshib qo'shimcha qiladi u. – Bir muddat bo'lmayman, keyin qaytib kelaman.

– Hamma qaytib keladi, – dedi Rixter biroz tinchlanib. – Hamma.

– Yurishingizni Renega yetkazaymi?

– Foydasi yo'q. Unga mot qo'ydim, desam ham bo'ladi. Renega ayting, boshidan boshlaganimiz yaxshi.

«Ha, boshidan boshlagan ma'qul», o'yladi qiz.

Tushdan so'ng Lilian yosh hamshiradan so'nggi rentgen suratlarini ko'rsatishni so'radi. U eshikni yopishga ham ulgurmay, Lilian qora suratni oldi va chiroqqa teskari tutib ko'zdan kechira boshladi. U suratdagi belgilarni yaxshi tushunmasdi, lekin Dalay Lama unga bir necha marta qora dog'larni ko'rsatganini eslaydi. Oxirgi paytlarda u ko'rsatmay qo'ygandi.

Lilian suratga, uning yaltiroq kulrang qora sirtiga tikildi: hayoti shu suratga bog'liq edi.

Mana yelka suyagi, mana umurtqasi va butun skeleti, ular o'rtasida tushunarsiz mash'um narsa ko'zga tashlanar, aynan shu narsa sog'liq yoki kasallikdan dalolat edi. U o'zining oldingi suratlarini, chaplashib ketgan kulrang dog'larini esladi va ularni qidirdi. O'sha dog'lar bu suratda ham bor, faqat biroz kattalashgandek edi.

Lilian keskin o'girildi. Tillarang abajur ostidan tillarang nur bir tekis taralib turardi. Xonada sukunat hukmron, Lilianning xayolida sukunat javobi yo'q savolga undan javob kuttayotgandek edi. U ko'zguga o'girildi.

– Xo'sh, natijalar qanday? – orqasidan yosh hamshiraning ovozi eshitildi. Rezina shippakda sassiz yurib kelgan hamshira suratni olib ketgani kirgandi.

– Oxirgi ikki oyda ikki kiloga ozdim, – dedi Lilian.

– Ko'pam bezovta bo'lmang. Ko'proq ovqat yeng. Ancha tuzalib ham qoldingiz.

– Siz sira kasal bo'lganmisiz?

– Yo'q, hech qachon, agar qizamiq va qizilchani hisobga olmasa. Siz ham tez orada ko'rmagandek bo'p ketasiz, – odatga ko'ra dedi hamshira. – Kuzda xurujlar bo'lib turadi.

– Bahorda ham, – achchiq jilmaydi Lilian. – Yozda ham, kuzda ham.

– Tinchlanishga harakat qiling. Professorning aytganlarini ham bajarish kerak!

– Ha, xuddi shunday qilaman, – dedi Lilian birdan sabri tugab.

– Ko'proq ovqatlaning. Shunda tezroq yo'qotgan vazniniz o'rnini to'ldirasiz.

Hamshira ostonada turardi.

– Bugundan boshlang. Kechki ovqatga vanil qaylali, shokoladli sufle.

Hamshira ketdi, Lilian esa hamon harakatsiz turardi. Nahotki, bu bir daqiqa ilgari kirgan xonasi bo'lsa?



Eshik taqillab, Xolman kirdi.

– Klerfe ertaga ketadi. Bugun tunda oy to'ladi. Shu sabab «Tog'dagi kulba»da odatdagidek bayram. Yuring, qochib o'sha yerga boramiz. Axir bu Klerfe bilan oxirgi oqshom. Shunday oqshomni bu yerda g'amboda o'tkazib zarilmi? Yuring, biz bilan.

Lilian javob bermadi.

– Dolores Palmer va Sharl Ney ham bormoqchi, – dedi Xolman. – Agar biz bu yerdan soat o'nda qochib chiqsak, keyin ayni muolaja payti qaytib kelamiz. U bugun tungi soat birgacha ishlaydi.

– Siz o'zgaribsiz, – yoqtirmaygina dedi Lilian. – Oldin ancha ehtiyotkor edingiz.

Xolman kulib yubordi:

– Hali yana bo'larman. Ertadan boshlab. Klerfe ketadi-yu, yana sukunat va jimlik cho'kadi. Ertadan boshlab eng ehtiyotkor va itoatkor mijozga aylanaman. Siz-chi? Xo'sh, soat o'nda sizni olib ketgani kelaymi?

– Ha.

– Yaxshi. Demak, bugun nishonlaymiz.

– Aynan nimani? – so'radi Lilian.

Xolman shoshib qoldi.

– Har kim o'zining biror bayramini nishonlaydi, – dedi u.

– Masalan, hali tirikligimizni. «Juzeppe» kelganini. Oy to'lganini...

– ...va ertadan itoatkor mijozga aylanishimizni.

– Nima bo'пти, bunisiga ham roziman!

Xolman ketdi.

«Ertaga, – o'yladi Lilian. – Ertaga sanatoriyni odatiy yumushlari bizni kiprik qoqmay yutib yuboradi, xuddi tinmay yog'ayotgan ho'l qorni yutayotgan yer kabi, yumshoq va sokin, barcha tirik jonni ko'mib borayotgan qor kabi... Faqat meni emas, – o'yladi u. – Faqat meni emas».

«Tog'dagi kulba» yorqin nur sochardi. U qishloqdan ancha balandlikda joylashgan; har oyda bir marta oy to'lganda

u tuni bilan ishlardi. Shu tunda mijozlar mash'alalar ko'tarib aylanib yurishardi.

Sanatoriya bemorlari uchun «Tog'dagi kulba»da bo'ladigan bayramlar xuddi maskarad kabi edi. Sharl Ney va Xolman o'zlarini hech kim tanimasligi uchun mo'ylov yopishtirib olishgandi. Sohibjamol Dolores esa sochlariga to'rli sharf tashlab, yuziga vual tutib olgandi.

Lilian sharf ham, vual ham taqishni istamadi. U o'zining kundalik kiyadigan ko'k shim va mo'ynali jaketida edi.

U juda bezovta ko'rinardi. Bu tunda qandaydir dramatizm bor edi: oy goh bulut parchalari orasidan chiqib kelar, goh yana berkinardi, bulutlarning soyalari oppoq tog' yonbag'irlariga to'shalar va nishabliklar jonlangandek bo'lardi, xuddi ulkan flamingo baquvvat qanotlari bilan osmon uzra uchib yurgandek tuyulardi.

– Qachon ketmoqchisiz? – so'radi Lilian Klerfedan.

– Ertaga tushdan keyin. Kech tushguncha dovondan o'tib olishim kerak. – U qizning ko'ziga tikildi. – Men bilan ketasizmi?

– Ha, – javob berdi qiz.

Klerfe kulib yubordi, u qizning gapiga ishonmadi.

– Yaxshi, – dedi u. – Faqat ko'p narsa olmang.

– Menga ko'p narsaning keragi ham yo'q. Qayerga boramiz?

– Eng avvalo, siz jiningizdan battar yomon ko'radigan qordan uzoqroqqa ketamiz. Lago Madjiordagi Tessinga boranimiz yaxshi. Bahor o'sha yerdan boshlanadi. Hozir u yerda hamma narsa gullagan.

– Keyin qayerga boramiz?

– Parijga.

– Yaxshi, – dedi jiddiy Lilian.

– Ey, Xudo, – shivirladi Xolman. – Dalay Lama keldi! Ana, eshik yonida turibdi!

To'rtalasi baravar tepakal, rangpar, kulrang kostyum kiygan professor tomonga o'girilishdi.

U «Tog'dagi kulba»da hukm surayotgan quvnoq sarosimaga ko'z tashladi. Keyin eshikdan uzoq bo'lmagan joydagi stol tomonga yurdi.

– Balki tuyog'imizni shiqillatarmiz, – xavotirlanib so'radi Xolman.

– U sizni tanimaydi, – dedi Lilian. – Mo'ylovingiz bor-ku.

– Sizni-chi? Doloresni-chi?

– Agar o'girilib o'tirsak, u Lilian va Doloresni orqasidan ko'radi, – dedi Sharl Ney. – Shunda qizlarni ham tanimaydi.

– Baribir taniydi! Uning ko'zi rentgen. Lekin urinib ko'rsak bo'larkan. Lilian, mening joyimga o'tiring.

Lilian bosh chayqadi.

– Siz-chi, Dolores?

Bir lahza o'ylanib turgan Dolores o'rnidan turib, Dalay Lamaga teskari o'girilib o'tirdi. Lilian vrachga tikildi, u ham qizga qarab turardi.

– Kulgili! – dedi u. – Bu yerda beixtiyor masxarabozga aylanasan.

– Barcha odamlar kulgili, – e'tiroz bildirdi Klerfe. – Agar shunday qabul qilinsa, yashash osonroq bo'ladi.

– Ertaga soat nechchida ketasiz? – qo'qqisdan so'radi Lilian. U qizga qarab hammasini tushundi.

– Qachon xohlasangiz, – javob berdi u.

– Yaxshi. Unda meni olib ketgani soat beshda keling.

Volkov kirganda Lilian jomadonini tayyorlayotgandi.

– Yo'l bo'lsin, azizam? – so'radi u. – Taraddudning nima keragi bor? Baribir bir-ikki kundan keyin jomadoningni bo'shatasan.

U ilgari ham bir-ikki marta yo'l tadorigini ko'rgan. Har yili bahor va kuzda xuddi qushlar kabi bu yerdan uzoqlarga uchib ketish istagi paydo bo'ladi. Shundan keyin bir necha kun, ba'zan bir haftagacha Lilianning xonasida jomadon goh paydo bo'lar, goh yo'qolar, bu uning jur'atini yo'qotib, fikridan qaytmagunicha davom etardi.

– Men ketyapman, Boris, – dedi u. – Bu gal rostdan ketaman.

U eshik kesakisiga suyangancha jilmayib turardi.

– Bilaman, azizam.

– Boris! – qichqirdi u. – Bas qil. Endi hech nima yordam bermaydi. Men baribir ketaman!

– Yaxshi, azizam.

Lilian Borisning muloyim munosabati uni xuddi o'rgimchak to'ridek o'rab, falaj qilayotganini his qildi.

– Men Klerfe bilan ketyapman, – dedi u. – Bugun!

Borisning yuzi o'zgardi.

– O'zim ketmoqchiydim, lekin jur'atim yetmay qolishidan cho'chib, unga hamroh bo'lyapman. Bir o'zim bularning bar-chasiga qarshi kurasha olmayman.

– Menga qarshi, – dedi Volkov.

U eshikdan uzoqlashib, jomadonlar yoniga keldi. Qizning ko'ylaklari, sviterlari va tuflilariga ko'z tashladi, birdan qalbi-da qattiq og'riq turdi. Yaqin do'stini ko'mib kelib, endi o'zini qo'lga olganda, to'satdan uni yodga soladigan biror buyumni ko'rib qolganda bo'ladigan qalb og'irig'i edi bu.

Volkov Lilian rostdan ketmoqchiligini tushundi.

– Azizam, – dedi u nafasi qaytib. – Sen ketmasliging kerak.

– Ketishim kerak, Boris. Senga yozmoqchi edim. Mana, qara, – u stolda turgan qog'oz solinadigan savatchani ko'rsatdi. – Lekin yozolmadim. Qo'limdan kelmadi. Bekorga ovora bo'lma, buni tushuntirib berolmayman. Keyin xayrlashmasdan ketmoqchi ham bo'ldim, yetib borganimdan keyin yozaman, deb o'yladim, lekin bunday qilolmasdim. Meni qiynama, Boris...

«Meni qiynama, – o'yladi u. – Ular doim shunday deyi-shadi. Ojizlik va o'zini yaxshi ko'rish timsoli bo'lgan ayollar, birovga ozor berayotganliklarini o'ylab ham ko'rishmaydi. Agar o'ylaganlarida undan ham battar bo'lishi mumkin, chunki ularning shafqat tuyg'usi xuddi safdoshlari bomba portlashidan o'lim bilan olishib yotgan, o'zi esa omon qolgan askarnikiga o'xshab ketadi, bu shafqat xuddi «Xudoga shukur, menga tegmadi, men omon qoldim», deyayotgandek...»

– Klerfe bilan ketyapsanmi?

– Bu yerdan Klerfe bilan birga ketaman, – dedi Lilian yuragi siqilib. – U meni Parijga olib borib qo'yadi. Parijda har kim o'z yo'lidan ketadi. U yerda amakim yashaydi. Pullarim unda. Men Parijda qolaman.

Bu haqiqatdan uzoqligini o'zi ham bilardi, lekin hozir gaplariga o'zi ham ishonardi.

– Meni tushun, Boris, – dedi u.

– Nega seni tushunishlarini istaysan? Axir ketyapsan-ku, shuning o'zi yetarli emasmi?

Lilian boshini egdi.

– Ha, shuning o'zi yetarli. Ayama, ur yana.

«Ur yana, – o'yladi u. – Naq yuragingga xanjar urib, og'riqdan titrab turganingda, «ur yana» deb nola qiladi, xud-diki, sen qotildek».

– Men seni urmayapman.

– Sen bilan qolishimni istayapsanmi?

– Shu yerda qolishingni istayapman. Farqi shunda. «Men ham yolg'on gapiryapman, – o'yladi u. – U yonimda qolishini istayman, chunki undan boshqa hech kimim yo'q – uni yo'qotsam, hech narsam qolmaydi. Ey Xudo, uni yo'qotmasligim kerak!»

– Men hayotingni xuddi qadrini yo'qotgan puldek u yoqdan-bu yoqqa itqitishingni istamayman.

– Bu shunchaki gap, Boris, – e'tiroz bildirdi Lilian. – Agar mahkumga bir yil ozodlikda yashab, keyin qamoqda o'lib chirib ket, deya taklif qilishsa, seningcha, u nima qiladi?

– Sen qamoqda emassan, azizam. Sen o'zing hayot, deb ataydigan narsa haqida noto'g'ri tasavvurdasan, – dedi Volkov.

– Albatta. Axir men hayotni bilmayman-da. To'g'rirog'i, uning faqat bir tomonini bilaman – urush, yolg'on va muhtojlik. Agar ikkinchi tomonidan hafsalam pir bo'lgan taqdirda ham, u men bilgan birinchi tomonidan ko'ra yomon bo'lmaydi. Men bilgan hayotdan ko'ra boshqacha hayot ham bo'lishi kerak, men bilmaydigan, kitoblar, musiqa va kartinalar

tilida gapiradigan, meni hayajonga soladigan, o'ziga torta-digan tomoni ham bo'lsa kerak... – u jim bo'ldi. – Bu haqda boshqa gaplashmaylik, Boris. Gaplarim soxta chiqyapti. Tilimga ko'chishi bilan soxtaga aylanyapti. So'zlarim xanjar-dek. Lekin seni xafa qilishni istamasam-da, har bir so'zim haqoratdek jaranglayapti. Agar o'zim rost gapirayotganimga ishonsam-da, hayotda hammasi boshqacha bo'lishi mumkin. O'zing ko'rib turibsan-ku, men hech narsani tushunmayman.

Qiz unga qaradi.

Ko'zlarida so'nib borayotgan muhabbat, shafqat va shu bilan birga adovat bor edi, chunki rus uni to'xtatib qolishni istayapti va u unutishni istagan narsa haqida gapirishga majbur qilyapti.

– Unda Klerfe ketaversin, bir necha kundan keyin seni jalb qilgan birinchi uchragan odamning orqasidan ergashib ketaverish qanchalik nodonlik bo'lishiga o'zing amin bo'lasan.

– Boris, – xo'rsindi Lilian. – Nahotki, hamma gap faqat begona erkakda bo'lsa?

Volkov javob bermadi. «Ahmoqman, – o'yladi u. – Uni o'zimdan sovutish uchun qo'limdan kelgan barcha ishni qil-yapman! Nega jilmayib, sen haqsan, demayapman? Nega sinovdan o'tgan usuldan foydalanmayapman? Tutib qolmoqchi bo'lgan – yo'qotadi-ku. Kim tabassum bilan qo'yib yuborsa, o'shanga mahkamroq yopishishadi o'zi. Nahotki, shuni unutgan bo'lsam?»

– Yo'q, – dedi u. – Gap faqat boshqa erkakda bo'lmasligi ham mumkin. Agar shunday bo'ladigan bo'lsa, nega mendan, birga ketamizmi, deb so'ramayapsan?

– Sendan?

«Noto'g'ri gapirdim, – o'yladi. – Yana xato qildim. Nega yopishib oldim?»

– Bu gapni qo'ya turaylik, – dedi.

– O'zim bilan hech narsa olmoqchi emasman, Boris, – davom etdi u. – Seni yaxshi ko'raman, lekin o'zim bilan hech narsa olmoqchi emasman!

– Hammasini unutmochimisan?

«Yana bir xato», o'yladi umidsizlikka tushib.

– Bilmadim, – dedi Lilian xomush. – O'zim bilan biror narsa olib ketishimning iloji yo'q. Hayotimni murakkablashtirma.

Volkov qotib qoldi. U javob bermasligi kerakligini bilardi, lekin shunga qaramay, tushuntirgisi kelardi. Ya'ni ikkala-sining sanoqli kunlari qolganini, vaqti kelib umri poyoniga yetayotganida hozir qadriga yetmayotgan damlari u uchun eng qadrlisi bo'lishini tushuntirishni juda istardi. O'shanda qattiq afsuslanishi, hatto tiz cho'kib, hozir zerikarli tuyulgan kunlarini yana bir kun, hech bo'lmasa, bir soatga uzaytirgin, deb yolvorishini aytgisi keldi. Lekin u boshqa narsani ham bilardi, agar hozir ko'nglidan o'tayotganlarini aytsa, hammasi o'ta chuchmal eshitalishi mumkin.

– Alvido, Lilian, – dedi u.

– Meni kechir, Boris.

– Muhabbatda kechiriladigan narsa yo'q, – jilmaydi u.

\* \* \*

Lilian xayollarini jamlashga urinardi. Qo'qqisdan paydo bo'lgan hamshira uni Dalay Lama chaqirayotganini aytdi.

Professordan xushbo'y sovun va antiseptik belem hidi kelib turardi.

– Sizni kecha «Tog'dagi kulba»da ko'rdim, – gap boshladi u sovuqqina ohangda.

Lilian indamay bosh silkidi.

– Tashqariga chiqish mumkin emasligini bilasizmi?

– Albatta, bilaman.

Dalay Lamaning rangpar yuzi bir lahzaga qizardi.

– Demak, buyruqqa bo'ysunmaslik siz uchun odatiy hol, shundaymi? Unaqada sizdan sanatoriyni tark etishni so'rashga majburman. Ehtimol, didingizga mos keladigan boshqa bir joy qidirib ko'rarsiz?

Lilian yana javob bermadi. Dalay Lamaning kinoyasi uning diqqatini oshirdi.

– Men katta hamshira bilan gaplashdim, – qizning sukutini qo‘rquv deb tushungan professor gapida davom etdi. – Uning aytishicha, bunday holat birinchi marta ro‘y bermayotgan ekan. U sizni bir necha marta ogohlantirgan bo‘lishiga qaramay, e‘tibor bermabsiz. Bunday ishlar sanatoriyni nufuziga to‘g‘ri kelmaydi...

– Tushunaman, – uning gapini bo‘ldi Lilian. – Bugun kechqurun sanatoriyni tark etaman.

Dalay Lama shoshib qoldi.

– Bu qadar shoshishingiz shartmas, – dedi u biroz jimlikdan so‘ng. – O‘zingizga mos joy topguningizcha kutib turishingiz mumkin. Yoki topib qo‘yganmisiz?

– Yo‘q.

Professor gapini yo‘qotib qo‘ydi. U ko‘zyoshlar va kechiring, yana bir bor imkon bering, degan iltijolarni kutgandi.

– Freyleyn Dyunker, nega o‘z salomatligingizga o‘zingiz ziyon yetkazyapsiz? – so‘radi u nihoyat.

– Barcha qoidalarga amal qilib yashaganimda ham ahvolim o‘nglanmadi.

– To‘satdan ahvolingiz og‘irlashgani uchun barcha tartiblarni buzish kerakmi? – jahl qildi professor. – Bu nodonligingiz qimmatga tushadi. – Dalay Lama qahrli ko‘ringani bilan o‘zini mehribon hisoblardi. – Bu behuda o‘ylarni boshingizdan chiqarib tashlang.

U qizni yelkasidan tutib sekin silkidi.

– Endi esa xonangizga borib, bugundan boshlab barcha tartiblarga amal qiling.

Lilian yelkasini siltab, professorning qo‘lini siqdi.

– Baribir tartiblarga amal qilmayman, – dedi u xotirjam. – Shuning uchun sanatoriyan ketganim ma‘qul, deb o‘ylayman.

Dalay Lama bilan suhbat Lilianni qo‘rqitish o‘rniga fikrini yanada qat‘iylashtirdi. Bu suhbat Boris uchun qiynalayotgan vijdonini azobdan xalos etdi. Chunki uning ketishdan boshqa chorasi qolmagandi. U o‘zini xuddi uzoq zaxirada o‘tirib,



so'ng jangga kirgan askardek his qilardi. Ortga yo'l yo'q. Aynan shu uni olg'a yurishga, qonli jangga va hatto, o'limga ham tik boqishga undardi.

– Ortiqcha muammo yasamang, – o'shqirdi Dalay Lama. – Bu atrofda boshqa sanatoriy yo'q-ku, qayerga borasiz?

U qizning qarshisida turar, tobora sabri tugab borardi. To'g'ri, u qizga ketaver, dedi, lekin bu qaysar mushuk shu gapni ushlab olib, endi qaytib olishini kutyapti.

– Bizning tartiblarimiz... Aslida ular ko'pmas, qolaversa, sizlarning foydangiz uchun o'rnatilgan, – qizishdi u. – Qanday kunlarga qoldik, sanatoriyada anarxiya hukmron bo'lmasa, boshqa chorasi bormi? Axir bu qamoq emas-ku! Yoki siz boshqacha fikrdamisiz?

Lilian jilmaydi.

– Fikringizga qo'shilaman, – dedi u. – Endi men sizning bemoringiz emasman. Men bilan yosh bola yoki mahkuma bilan gaplashgandek emas, odamdek gaplashishingiz mumkin.

Jomadonlar yo'lga taxt edi.

«Bugun kechqurun, – o'yladi Lilian, – tog'lardan uzoqqa ketaman». Ancha yillardan buyon uni birinchi marta mavhum onlarni kutish zavqi qamrab oldi. U yillar davomida kutiladigan shirin orzular, mo'jizalarni emas, balki bir necha soatdan keyin yuz beradigan narsani betoqatlik bilan kutardi. O'tmish va kelajak tarozining pallasida teng turardi. Lilian nafaqat yolg'izlikni, balki hamma narsadan mosuvolikni his qilardi. U o'zi bilan hech narsa olmadi va qayerga ketayotganini ham bilmasdi.

U Volkovning yana kelishidan cho'chisa-da, uni yana bir bor ko'rishni istardi. Birdan eshikning tirnalgani va sekin g'ingshigan tovush eshitildi. Lilian eshikni ochishi bilan xonaga Volkovning ovcharkasi otilib kirdi. Lekin uning o'zi ko'rinmadi. Eshikni yopgan Lilian oppoq yo'lak bo'ylab xuddi o'g'ridek alanglab keta boshladi. U hech kimga ko'rinmay xolldan chiqib olmoqchi edi, ammo katta hamshira uni lift oldida kutib turardi.

– Professor qolishingiz mumkinligini yana bir bor aytib qo'yishimni tayinladi.

– Rahmat, – dedi Lilian va yo'lida davom etdi.

– Esingizni yig'ing, Dyunkerk xonim. Ahvolingiz qandayligi o'zingizga ma'lum. Hozir iqlimni o'zgartirmasligingiz kerak. Yozda balki...

Lilian yo'lidan qolmadi.

Stolda bridj o'ynab o'tirgan bir necha kishi boshini ko'tarib qaradi, xollda boshqa hech kim yo'q edi. Sanatoriyda hozir dam olish soati.

Boris kelmapti. Xolman uni ostonada kutib turardi.

– Agar rostdan ham ketishga qaror qilgan ekansiz, hech bo'lmasa poyezdda keting; – dedi katta hamshira.

Lilian bir so'z demay unga po'stini va jun ro'molini ko'rsatdi. Timsohoy ensasini qotirib qo'l siltadi:

– Bu qutqara olmaydi! O'zingizni ataylab nobud qilmoqchimisiz?

– Boshqalar bunday qilmaydimi? Biz sekin yuramiz. Qolaversa, yo'l ham uzoq emas.

U yana bir qadam tashlasa bo'ldi.

– Sizni ogohlantirdik, – dedi hamshira yasama befarq ovozda. – Biz aybdor emasmiz va sizdan qo'limizni yuvib, qo'ltig'imizga urdik.

– Qo'lingizni yuvib nima qilasiz, shundoq ham sterillangan-ku. Xayr! Hammasi uchun rahmat sizga.

U tashqariga chiqdi. Qor juda qattiq uchqunlayotganidan ko'zlari qamashib ketdi.

– Xayr, Xolman!

– Ko'rishguncha, Lilian. Yaqinda ortingizdan yetib boraman.

Xolman tinmay kulardi. «Xudoga shukr, – o'yladi u. – Menga nasihat o'qishni bas qilishdi». Xolman unga po'stinini ki-yishga yordam berdi, ro'molini ham o'rab qo'ydi.

– Sekin haydayman, – dedi Klerfe. – Quyosh botsa, mashina tomini ko'tarib qo'yaman. Ikki yoningiz esa shamoldan himoyalangan.

- Yaxshi, - dedi u. - Ketsak bo'ladimi?
- Hech narsani unutmadingizmi?
- Yo'q.
- Agar unutsangiz ham jo'natib yuborishadi.

Bu narsa Lilianning xayoliga kelmagandi, eshitib biroz tinchlandi. Chunki ketsam sanatoriy bilan bog'lab turgan barcha rishtalar uziladi, deb o'ylagandi.

- Ha, rostdan ham jo'natib yuborishlarini iltimos qilish mumkin-ku, - dedi Lilian.

Mashina yo'lga tushdi. Xolman ularga qo'l siltab qoldi. Boris esa qorasini ko'rsatmadi.

Lilian atrofga qaradi. Boyagina quyoshli ayvonda hech kim yo'q edi, to'satdan odamlar paydo bo'lishdi. Shezlonglarda yotgan bemorlar o'rnidan turib, oyoq uchida ko'tarilgan-cha ularni kuzatib turishardi. Sanatoriyning maxfiy telegrafi bo'lgan voqeani odamlarga oqizmay-tomizmay yetkazgan va endi motor ovozini eshitganlar o'rnidan turib, pastga qarashardi. Ko'm-ko'k osmon fonida borgan sari odamlarning zanjiri ingichkalashib borardi.

- Buqalar jangini tomosha qilish uchun yig'ilgan tomoshabinlarga o'xshashadi-ya, - dedi Klerfe.

- Ha, - qo'shildi Lilian. - Unda biz kimmiz? Buqalarmi yoki matadorlar?

- O'zingni matador deb o'ylasang-da, har doim buqa bo'lishga to'g'ri keladi.

Mashina oppoq daradan emaklagandek ketib borar, dara ustida zangori osmon xuddi jilg'adek jilvalanardi. Dovon ortda qoldi, lekin yo'lning ikki tomonini hamon balandligi ikki metrغا yetadigan qor tepalar qurshab turardi. Ularning ortidan hech nimani ko'rib bo'lmasdi. Qayerga ko'z tashlama - hamma joyda qor, devorlar va ko'm-ko'k osmon chizig'i ko'rinadi, xolos. Lilian o'zini o'rindiqqa tashlagancha o'tirar, ba'zan yuqori va pastni farqlamay qolardi, qayer oppoq, qaysi tomon ko'm-ko'k - bilib bo'lmasdi.

Keyin atrofni yelim va ignabargli daraxtlar hidi tutdi va qo'qqisdan ularning ro'parasida jigarrang pastqam uycha-

lardan iborat kichik qishloqcha paydo bo'ldi. Klerfe mashinasini benzokolonka oldida to'xtatdi.

– Oyog'imizning chigalini biroz yozsak ham bo'lar. Yo'l ochiqmi? – so'radi u yoqilg'i quyish joyidagi yigitchadan.

– Salomat bo'ling!

– Nima? – Klerfe yigitchaga qaradi. – Ie, oshna biz tanishmiz-ku! Isming Herbertmidi yoki Helmut...

– Hubert.

Yigitcha yoqilg'i stansiyasi oldidagi ikki ustunga yopishtirilgan katta temir peshtaxtaga ishora qildi. Unda shunday lavha bitilgandi:

H. HERING.

AVTOMOBILLAR TA'MIRI VA GARAJ

– Bu eski peshtaxtami? – so'radi Klerfe.

– Yo'q, yap-yangi.

– Nega ismingni to'liq yozmading?

– Shunisi ma'qul. Ismimni Herman, deb o'ylashsin dedim-da.

– Nazarimda, familiyangni o'zgartirsang yoki hech bo'lmasa, bu qadar katta harflar bilan yozmasang yaxshi bo'lardi.

– Ie, shundoq ham shu paytgacha nodon bo'lgan ekanman, – dedi u. – Ayniqsa endi, nemis mashinalari yana paydo bo'lgandan keyin ham familiyamdan foydalanmasam bo'lmas. Qanaqa choychaqa olayotganimni tasavvur ham qila olmaysiz. Yo'q, janob, bu men uchun daromad manbai, o'zgartirmayman.

Klerfe uning charm kurtkasiga qaradi.

– Bu ham shu daromad manbaidanmi?

– Bu hali hammasi emas. Mavsum tugaguncha chang'i bo'tinkasi va paltolik ham bo'lvolaman. Gapimga ishonavering.

– Balki adashayotgandirsan. Ko'pchilik aynan shu familiyang uchun choychaqa bermay o'tib ketayotgandir.

Yigitcha istehzoli ishshayib, mashina g'ildiraklariga zanjir tashladi.

– Bu yerga yana qaytib kelib, qishki sport turlari bilan shug'ullanishni istaganlar unday qilmaydi. Umuman olgan-

da, xavotirga o'rin yo'q. Birovlar endi u yo'qligidan xursand bo'lib berishyapti, boshqalar u bilan bog'liq yoqimli xotiralari bo'lgani uchun. Bu peshtaxta osilgandan keyin ancha-muncha narsani o'rgandim. Sizga benzin kerakmi, janob?

– Ha, kerak, – dedi Klerfe, – naqd yetmish litr. Lekin uni sendan emas, boshqa biror senchalik uddaburrondan bo'lmgandan sotib olaman.

Bir soatlar yo'l yurishgach, qor ortda qoldi. Dalalar qop-qora va zaxtab bo'lib, maysazorlarda o'tgan yilgi may-salar sarg'ayib ko'rinardi.

– To'xtataymi, dam olasizmi? – so'radi Klerfe.

– Hozircha yo'q.

– Qor quvib yetvoladi, deb qo'rquyapsizmi?

Lilian bosh silkidi.

– Qorni qaytib ko'rgim kelmayapti.

– Kelasi qishgacha ko'rmaysiz.

Lilian javob bermadi. «Kelasi qishgacha», o'yladi u. Qish unga xuddi yulduzlardek olis tuyuldi. Uning qo'li hech qachon yetmaydigan darajada olis.

– Balki biror nima icharmiz? – so'radi Klerfe.

– Mayli, Lago Majiorega qachon yetamiz?

– Bir necha soatdan keyin. Qorong'i tushganda.

Klerfe mashinani qishloq mehmonxonasi yonida to'xtatdi. Ular mehmonlarga ajratilgan xonaga kirishgach, yoshgina ofitsiant qiz chiroqni yoqdi. Xona devorlariga bug'u va qushlarning tasviri tushirilgan gravyuralar osilgan edi.

– Qorningiz ochmadimi? – so'radi Klerfe. – O'zi biror nima yeganmidingiz?

– Hech nima.

– O'zim ham shunaqa bo'lsa kerak, deb o'ylagandim. – U ofitsiantga o'girildi. – Nimangiz bor?

– Salyami, kolbasalar va shubliklar.

– Ikki hissa shublik va bir necha bo'lak qora non. Yana yog' va vino ham olib keling. Fendan bormi?

– Ha, bor.

- Unda bizga fendan. O‘zingiz nima ichasiz?
- Slivyanka, agar qarshi bo‘lmasangiz, – dedi qiz.
- Qarshi emasman.

Lilian deraza yonidagi burchakda o‘tirgancha, Klerfe bilan qizning suhbatiga quloq solardi.

Chiroqning qizil nuri tokchadagi shisha idishlarga urilib, yashil va qizg‘ish tovlanardi. Deraza ortidagi daraxtlarning qop-qora soyasi tungi yashil osmonga bo‘y cho‘zgan, qishloq uylarida ilk chiroqlar yiltillay boshlagandi. Hammasi sokin va tabiiy ko‘rinardi. Bu oqshom isyonni ham, qo‘rquvni ham bilmasdi. Lilian ham shu oqshomning bir qismiga aylanib, xotirjam tortib qolgandek edi. Qutuldi! Shuni o‘ylagani sari nafasi bo‘g‘ziga tiqilgudek bo‘lardi.

– Shublik bu – qishloq yog‘li kolbasalari, – tushuntirdi Klerfe. – Juda mazali. Balki sizga yoqmasligi mumkin.

– Menga hamma narsa yoqadi.

Ofitsiant shaffof vino keltirdi va kichik stakanlarga quydi. Keyin o‘ziga atalgan ichimlikni ko‘tarib:

– Salomatligingiz uchun! – dedi.

Ular stakanlarni bo‘shatishdi. Shundan keyin Klerfe mehmonxonani tomosha qildi va uning ancha g‘aribona ekaniga e‘tibor berdi.

– Bu hali Parij emas, – dedi u jilmayib.

– Men uchun bu Parij atrofidagi birinchi shahar.

Tun oydin, yulduzlar porlab turardi. Klerfe «Juzeppe»ni perrondagi yuk platformalarining biriga yukladi. Uning mashinasidan tashqari tonnel orqali ikkita limuzin va qizil rangli sport mashinasi ham ketishi kerak edi.

– Mashinada qolishni istaysizmi yoki vagonga chiqamizmi? – so‘radi Klerfe

– Bu yerda qolsak ustimiz kir bo‘lmaydimi?

– Yo‘q. Bu elektrovoz.

Temiryo‘lchi siljib ketmasligi uchun mashina g‘ildiraklari ostiga tirkovuch qo‘ydi. Boshqa yo‘lovchilar ham mashinalarida qolishdi. Ikkala limuzinning ham tepa chirog‘i yonib turardi.

Vagonlar ulandi, poyezd Sen-Gotard tunneliga qarab yurib ketdi.

Tunnel devorlari nam edi. Chiroqlar yonginasidan shamoldek zuvillab o'tib turardi. Birozdan keyin Lilianning nazari-da u chuqur shaxtaga tushib borayotgandek tuyula boshladi. Havo og'ir va namiqqandek edi. Poyezd shovqini esa ming qayta aks-sado bergandek bo'lardi.

Lilianning ko'zi ustida lipillab turgan limuzin chiroqlari unga xuddi do'zaxga yo'l ko'rsatayotgandek tuyuldi.

– Bu balo qachon tugaydi? – qichqirdi u.

– Chorak soatdan keyin. Sen-Gotard – Yevropadagi eng uzun tonnellardan biri.

Klerfe unga mehmonxonada to'ldirib olgan yapaloq flya-gasini uzatdi. – Bunga o'rgansangiz bo'lardi. Ma'lumotlarga ko'ra, yaqinda shu tarzda yashashni boshlaymiz. Oldin bom-badan saqlaydigan joylar, keyin yer osti shaharlari.

– Qayerdan chiqamiz?

– Ayrolodan. U yerdan Italiya bir qadam.

Birinchi oqshomning o'zidayoq Lilianni xavotir egallab olayotgandi. U afsus va pushaymonlik qorong'ilikdan chiqib kelgan kalamushlardek bostirib kelishini kutardi. Lekin yerning g'uldirayotgan toshli qornida yurish barcha xayollarini miyasidan chiqarib tashladi.

Qattiq qo'rquv o'z iskanjasiga oldi. Bu har bir yer ustida yashaydigan tirik jonga xos, tiriklay ko'milishdan qo'rquv hissi edi. U osmon va yorug'likni intiqib kutishdan boshqa har qanday tuyg'uni unutdi.

«Muncha tez o'zgarmasa hamma narsa, – o'yladi u. – Bir necha soat oldin baland tog' tepasida edim va pastga tushishni istardim. Endi yer ostida ketib boryapman, lekin tez-roq yuqoriga chiqishni istayapman».

Limuzinlarning biridan uchib chiqqan qog'oz parchasi ularning old oynasiga yopishib qoldi.

– Har doim va har qayerda kavsh qaytaradigan odamlar bor, – dedi Klerfe. – Ular hatto do'zaxga ham o'zlari bilan buterbrod olvolishadi.

U qo'lini chiqarib, oynaga yopishgan qog'ozni olib tashladi.

Yana bir qog'oz yonginasidan uchib o'tdi. Lilian kulib yubordi. Uning ortidan katta bir narsa kelib mashina oynasiga urildi.

– Bulochka, – dedi Klerfe. – Bu janoblar faqat kolbasasini yeb, nonini tashlab yuborisharkan. Qorni to'yib qolgan, nonko'rlar.

Lilian qulay joylashib oldi. Tonnelda sirli nimadir bor edi. O'sha sirli nimadir qizga yopishib qolgan hamma narsani bir sidra yechib olayotgandek edi. Qattiq shovqin tirnoqlari bilan Lilianning o'tmishini sidirib tashlagandek bo'ldi. Sanatoriya joylashgan eski sayyora bir umrga ortda qoldi. Daryoni ikki marta kechib o'tish mumkin bo'lmaganidek, ortga yo'l yo'q. U to'satdan yer qa'ridan otilib chiqqan, bir vaqtning o'zida qulayotgan va oldinga sudrayotgan yangi sayyorada paydo bo'ldi. Xayolida faqat bir narsa aylanardi: u qutulib chiqdi! U tirik!

So'nggi daqiqalarda nazarida, uni xuddi uzun yerosti yo'lidan sudrab ketishayotgandek tuyuldi, qulayotgan devorlar boshiga tegay-tegay deb oldinga, kutilmaganda o'ra oxirida paydo bo'lgan nurga qarab katta tezlikda yaqinlashib borardi.

U qotib qoldi. Bir muddatdan keyin shovqin o'rniga odatiy taqillagan tovush eshitildi va hammasi tinchib qoldi. Poyezd to'xtadi. U yengil harakatlanadigan kulrang yaltiroq bulut bilan qoplangandi. Bu yerostining sovuq o'lik havosi bilan almashgan hayot shabbodasi edi. Birozdan so'ng Lilian yomg'ir yog'ayotganini sezdi. U mashina tomiga sekin urilayotgan tomchilar shovqiniga quloq tutdi, yengil havodan nafas oldi va kaftini yomg'irga tutdi.

– Aksincha bo'lgani yaxshi edi, – dedi Klerfe. – U yerda yomg'ir, bu yerda esa havo ochiq bo'lganida edi. Hafsalangiz pir bo'ldimi?

U bosh chayqadi.



– O'tgan yilning oktabridan buyon yomg'ir ko'rganim yo'q.

Klerfe unga qaradi.

– Unda boshqa gap. To'rt yildan buyon tog'dan tushmadingizmi? Bu xuddi qayta tug'ilishga, ya'ni xotiralar bilan birga qayta tug'ilishga o'xshaydi.

– Urush, o'lim, qochish, vayronagarchilik xotiralari bilan tug'ilgan. Qalbimning tub-tubida esa bolalik allaqachon yo'qolgan. U shunchalar uzoqda qolib ketganki, boshqa xotiralar qavat-qavat bo'lib uni bosib qolgandek.

Klerfe mashinasini shosse tomonga burdi.

– Shu yerdan benzin olamiz, qonli xotiralarni sotib boyiydigan Hubert Heringdan emas.

U kalitni mexanikka berib, Lilianga o'girildi.

– Sizga havasim kelyapti. Yoshlik g'ayratini saqlab qolgan holda hammasini qaytadan boshlash imkoniyatingiz bor.

Poyezd ketdi, uning qizil chiroqlari yomg'ir devori ortiga bekindi. Mexanik kalitni qaytarib olib keldi. Mashina orqasi bilan yurib shossega chiqdi. Klerfe qayrilib olish uchun tormozni bosa turib, Lilianga ko'z tashladi. U shovqin solayotgan yomg'ir tomchilaridan pana bo'lish uchun tepasi yopilgan mashinaning bir burchagida xira chiroq nurlari ostida mung'ayib o'tirardi. Uning yuzi mashinaning soati, tezligi va masofa o'lchagich uskunalari, chiroqlari nuri yorug'ida xuddi shu barcha uskunalar va vaqt izmiga bo'ysunmasdek ko'rindi. Lilian naqd ajalning o'zi bilan kimo'zar o'ynayotgandi.

Klerfe to'satdan bu poyga oldida boshqa barcha avtomobil poygalari bolalar o'yinidek bo'lib ko'rinishini tushundi.

«Uni Parijga olib borib qo'yishim bilan – yo'qotaman», o'yladi u.

– Parijda nima qilish haqida o'ylab ko'rdingizmi? – so'radi Klerfe.

– U yerda amakim yashaydi. Pullarimni ham u boshqaradi. Shu paytgacha menga har oyga yetadigan darajada mablag' yuborib turardi. Endi hamma pulimni olmoqchiman.

Katta mashmasha bo'lsa kerak hali. U meni haliyam o'n olti yosh, deb o'ylaydi.

– O'zi necha yoshdasiz?

– Yigirma to'rtga saksonni qo'shing.

Klerfe kulib yubordi.

– Ajoyib. Bir paytlar men ham o'ttiz olti plyus saksonga kirgandim... urushdan qaytgan yillarim.

Lilian u tomonga o'girildi.

– Keyin nima bo'ldi? – so'radi u tezgina.

– Keyin qirqqa kirdim, – dedi Klerfe tezlikni oshirib.

Mashina shosse bo'ylab pastga qarab yura boshladi. Shu mahal orqadan boshqa motorning guvillagani eshitildi. Bu o'sha tonnel orqali birga o'tib kelgan qizil sport mashinasi edi. Uning haydovchisi benzin quyish uchun biroz to'xtagan, endi esa xuddi to'rtta emas, o'n oltita silindri bordek guvillardi.

– Bunaqalar o'zgarmaydi. Poyga qilmoqchi. Keling, ko'zini moshdek ochib qo'yamiz. Yoki xomxayollarini buzmaganimiz ma'qulmi? Dunyodagi eng tezyurar mashinaga egaman, deb o'ylay qolsinmi?

– Mayli, o'ylay qolsin.

– Yaxshi.

Klerfe «Juzeppe»ni to'xtatdi. Qizil mashina ham to'xtab, haydovchisi signal chaldi. U bermalol o'tib ketaversa ham bo'lardi, joy mo'l edi. Lekin u nima qilib bo'lsa-da, poyga uyushtirmoqchi edi.

– Nima ham derdik, – dedi Klerfe va yana motorni o't oldirdi. Odamzod shunaqa, ajal bilan o'ynashgisi keladi.

Faidoga yetguncha qizil mashina ularning izidan qolmadi. U Klerfeni quvib o'tishga rosa urindi.

– U ajalini quvib yuribdi.

Klerfe mashinani to'xtatdi-yu, shu zahoti yana gazni bosdi.

– He, etikdo'z! Bizni quvib o'taman, deb kelib urilishiga sal qoldi. Klerfe mashinasini yo'lning o'ng tomoniga olib, benzokolonka oldida to'xtatdi. Bu gal qizil mashina to'xta-

madi. U guvillagancha ularning yonginasidan uchib o'tib ketdi. Haydovchi ularga g'ijinib qarab, qo'l siltab qo'ydi.

Birdan atrofga sukunat cho'kdi. Irmoqning shildirashi va yomg'irning mayin shivalashidan boshqa hech narsa eshitilmasdi. «Mana buni baxt desa bo'ladi, – o'yladi Lilian. – Hayot chig'iriqlaridan oldingi bir daqiqalik sukunat».

Bu tunni, jilg'aning mayin shildirashi va ho'l yaltiroq shossen u bir umr unutmaydi.

Ko'p yurmasdan qalin tuman qoplamiga duch kelishdi. Klerfe kichik chiroqlarini ham yoqdi. U juda sekin yurardi. Birozdan keyin yana yo'l chetlari ko'rina boshladi. Yuz metr oldinda tumanni yomg'ir yuvib ketgan bo'lib, keyin yana tumanga sho'ng'ishdi.

Ular endigina tumanni yorib chiqishganda, Klerfe tuyqus tormozni bosdi. Ulardan sal narida bir g'ildiragi to'siqdan oshib, jarga osilib qolgan qizil sport mashinasi turardi. Mashina oldida soppa-sog' haydovchini ko'rib biroz yengil tortishdi.

– Mana buni omad desa bo'ladi, – dedi Klerfe.

– Omad? – alam bilan bo'kirib yubordi haydovchi. – Mashinam-chi? Ahvolini qarang. Kamiga sug'urta ham qilinmagan. Qo'lim ham lat yedi!

– Qo'lingiz chiqqan bo'lishi mumkin, bu vahima qilishga arzimaydi. Qimirlayaptimi? Omon qolganingizga xursand bo'lsangiz-chi.

Klerfe tushib, pachaqlangan mashinaga ko'z tashladi.

– Ba'zan shunaqa to'siqlarning ham foydasi tegadi.

– Hammasiga siz aybdorsiz, – pishqirdi jabrlanuvchi. – Meni tez haydashga siz majbur qildingiz! Hammasiga siz javobgarsiz. Nega meni o'tkazib yubormadingiz? Nega poyga uyushtirdingiz?..

Lilian kulib yubordi.

– Bu xonim nega kulyapti? – so'radi dovdirab qolgan haydovchi.

– Buni sizga aloqasi yo'q. Bugun baxtli kun ekan, sizga bir narsani tushuntirib qo'ymoqchiman: xonim boshqa sayyoradan tushgan, hali bizning odatlarimizni bilmaydi. U jonin-

giz omon qolganiga xursand bo'lish o'rniga mashina uchun yig'layotganingizga kulyapti. Xonim bunaqa narsalarga umuman tushunmaydi. Men esa aksincha, sizga qoyil qolyapman. Yaqin atrofdagi qishloqdan sizga mashina yuboraman, olib ketishadi.

– Shoshmang! Bunday oson qutula olmaysiz! Quvlashmachoq o'ynashga meni siz majbur qildingiz. Agar siz bo'lmaningizda, men xotirjam haydardim...

– Hamma aybni boy berilgan urushga to'nkashni maslahat beraman, – dedi Klerfe.

Haydovchi «Juzeppe»ning raqamlariga qaradi.

– Fransuzlarniki! Pullarimni qanday olaman endi? – u qalam va bir parcha qog'oz tutgan chap qo'lini har tarafga sil-tardi. – Menga raqamingiz kerak! Menga raqamingizni yozib bering! Ko'rmayapsizmi, chap qo'lda yozolmayman.

– O'rganing. Men bundan battar narsalarga ham o'rgan-ganman.

Klerfe yana mashinaga o'tirdi. Haydovchi uning izidan qolmay kelaverdi.

– Javobgarlikdan qochmoqchimisiz?

– Ha. Lekin sizni olib ketgani mashina yuboraman.

– Nima? Meni shu yomg'irda ko'chada qoldirmoqchimisiz?

– Ha. Chunki mashinam ikki o'rinli. Chuqur-chuqur nafas oling, tog'larni tomosha qiling, omon qolganingiz uchun Xudoga shukur qiling va sizdan ko'ra yaxshiroq odamlar ham bu hayotdan ko'z yumgani haqida o'ylang.

Ular burilishlardan birma-bir o'tib pastga tushib bori-shardi.

– Bu zerikarli yo'l, – dedi Klerfe. – U Lokarnogacha cho'zil-gan. Keyin ko'l boshlanadi. Charchamadingizmi?

Lilian bosh chayqadi.

«Charchadim! – o'yladi u. – Zerikdim ham. Nahotki, yo-nimda o'tirgan bu buqadek baquvvat odam iztirob chekayot-ganimni sezmayotgan bo'lsa? Menga nima bo'layotganini tushunmasa? Men tasavvur qilgan dunyo shakli birdan eriy

boshlagani va men bilan so'zlasha boshlaganini sezmayaptimi? Yomg'irlar ham, nam qoyalar ham, vodiylar-u olovlar ham gapira boshlaganini nahotki bilmayapti?

Nahotki, endi hech qachon tabiat bilan xuddi Tangrining beshigida yotgandek uyg'un bo'la olmasligim, bu dunyo qarshisidagi qo'rquvim xuddi mitti qushchanikidek bo'lishini anglaganimni, bu ko'chalar, daraxtlar, mashinalar, qishloq mehmonxonalari, deraza ortidan eshitilgan gitara tovushi, Osoniya, Kreshchiano, Klaro, Kastioneva, Bellinsona kabi ismlar men uchun hech qachon bo'lmagandek izsiz yo'qolishini tushunmaydi? Xuddi elak kabi hamma narsani yo'qotishimni, tutib qololmasligimni anglamayaptimi? Hech narsani uzoq ushlab qolishga qodir emasligimni bilmayaptimi?»

– Hayot bilan birinchi uchrashuvingiz ma'qul bo'ldimi?  
– so'radi Klerfe. – Shaxsiy mulki uchun ko'zyosh to'kadigan, hayotini bir chaqaga ham olmaydigan odam-chi? Yoqdimi?

– U ahmoq ekan.

– Hali bunaqa ahmoqlarning ko'pini ko'rasiz.

«Men o'zimni anglamoqchiman, – o'yladi Lilian. – Boshqalar bilan nima ishim bor».

– Bu yerda turfa xillik bor, – dedi u Klerfega. – U yoqda – tog'da har bir odam o'z hayotini juda muhim, deb hisoblardi. Men ham.

Ko'chalar, chiroqlar mashinaning yonginasidan o'qdek uchib o'tardi. Ko'p o'tmay katta maydon ko'rindi.

– O'n daqiqadan keyin yetib kelamiz, – dedi Klerfe. – Bu Lokarno.

Guldirab o'tgan tramvay ularning yo'lini to'sib turib qoldi. Klerfe so'kindi. Lilian tramvayga xuddi me'moriy yodgorlikni ko'rgandek tikildi. Tramvay ko'rmaganiga to'rt yil bo'libdi.

To'satdan oldilarida kumushrang, behalovat va keng ko'l yastandi. Yomg'ir tindi. Past suzib borayotgan bulutlar oy atrofidan yugurib o'tishdi. Sokin qirg'oqdagi maydon ko'rindi.

– Qayerda to'xtaymiz? – so'radi Lilian.

– Qirg'oq bo'yidagi «Tamaro» otelida.

– Bu yerdagi otellarni qayerdan bilasiz?

– Urushdan keyin bu yerda bir yil yashaganman, – dedi Klerfe. – Ertaga ertalab sizga bu haqda gapirib beraman.

U mashinasini kichik mehmonxona oldida to'xtatib, jomadonlarni tushirdi.

– Bu otel egasining katta kutubxonasi bor. Uni olim desa ham bo'ladi. Tog'dagi otelda esa Sezann, Utrillo va Tuluz Lotrekning kartinalari osilgan. Bu yerning odamlari shunaqa! Istasangiz, hoziroq ovqatlangani boramiz.

– Qayerga?

– Brissagoga, Italiya chegarasida. Bu yerdan o'n daqiqalik yo'l. Restoran «Jardino» deb ataladi.

Lilian atrofga alangladi.

– Bu yerda glitsiniya gullarkan!

Klerfe mashinasini baland tosh zina oldiga qo'ydi. Ular kichik restoranchaga ko'tarilishdi. U vino, go'sht, qisqichbaqa, guruch va pishloq buyurdi.

– Siz bu yerda yashaganmisiz? – so'radi Lilian.

– Ha, salkam bir yil. Urushdan keyin. Bir necha kun qolaman, deb o'ylagandim – uzoq qolib ketdim. Bu men uchun muolaja edi. Darddan forig' bo'lishim kerak edi. Men hech ish qilmasdan, quyoshda toblanib yotgancha davolanganman. Soatlab osmonga, ko'lga boqib, ko'zlarim bitta nuqtaga tikilishni bas qilmaguncha hammasini unutishga harakat qilganman.

Lilian yengil italyan vinosidan ichdi. Nazarida, butun olam dam olayotgandek edi.

– Bu yerda juda mazali taom tayyorlasharkan. Yoki men adashyapmanmi?

– Yo'q, haqsiz. Egasi har qanday katta otelda shef oshpaz bo'lsa arziydi.

U stakanni stolga qo'ydi.

– Men baxtliman, Klerfe, – dedi u. – Ochig'ini aytishim kerak, bu so'zning ma'nosini esdan chiqarayotgandim.

– Sizni tushunaman.

\* \* \*

Lilian o'z xonasining derazasi yonida turardi. Deraza ortidan ko'l ko'rinardi. Tun. Shamol. Bahor shamoli daraxtlar va daryo sathlariga urilib shovqin solardi. Klerfe xonaga kirib qizni quchdi.

– Qo'rqmaysanmi?

– Nimadan?

– Men boshqa narsadan, poyga payti ikki yuz kilometr tezlikda ketayotganimda old g'ildiragimning pokrishkasi yorilib ketishidan qo'rqaman.

Shu damda Lilian Klerfe bilan bir-birlariga juda o'xshash ekanliklarini angladi.

Ikkalasi ham tolei kulmagan odamlar edi. Klerfening kelajagi navbatdagi poygagacha, Lilianniki esa keyingi qon yo'talgacha yastanib yotardi.

– Bu haqda bitta hikoya bor. Parijga bir asirni qatl etish uchun olib kelishadi. Sovuq bo'lgani uchun yo'l cho'zilib ketadi. Yo'lda askarlar isinib olish uchun vino ichishga to'xtashadi. Ular rahm qilib o'limga hukm qilingan asirga ham ichkilik berishadi. U butilkani qo'liga oladi va askarlarga tikilib, shunday deydi: «Umid qilamanki, hech biringizning yuqumli kasalingiz yo'q». Shundan keyingina vinodan ichadi. Yarim soatdan keyin boshidan judo bo'ladi. Bu voqeani o'n yoshligimda buvim aytib bergandilar. Buvim har kuni bir butilka vino ichardi. Uni, yosh o'lib ketadi, deb bashorat qilishgandi, lekin u hamon tirik. Bashoratchilari esa allaqachon o'lib ketishdi. Bardan shampän vinosi olib chiqqandim. Aytishlaricha, u bahorda odatdagidan qattiqroq ko'pirar ekan. Shampän vinosi tabiat uyg'onayotganini his qilarmish.

Klerfe butilkani tokchaga qo'ydi, lekin keyin u yerdan yana oldi.

– Bu yerga qo'yish mumkin emas. Oy nuri shampän vinosi iforini o'ldiradi. Buni ham buvimdan bilib olganman.

U eshik tomonga yurdi.

- Klerfe, – chaqirdi Lilian. U o'girildi.
- Men u yerdan yolg'iz qolish uchun ketmaganman, – dedi.

\* \* \*

Ularning qarshisida Parij shahriga tutashgan kulrangsimon xunuk, yomg'irga o'rangan hududlar yastanib yotardi. Lekin yo'l yurganlari sayin shahar ularni o'ziga shaydo qilardi. Xuddi Utrillo va Pissarroning kartinalarida tasvirlangandek chorraha va ko'chalar yilt etib o'tar, kulrang ko'rinish kumush rangga aylanib borardi. To'satdan daryoga duch kelishdi. Undagi ko'prik, yuk kemalari va kurtak ocha boshlagan daraxtlar, qatorlashgan kitob do'konchalari va Senaning o'ng qirg'og'idagi tosh binolar ko'zga tashlandi.

- Shu yerdan Mariyu Antuanettani olib ketishgan, – dedi Klerfe, – boshidan judo qilish uchun. Shu joy ro'parasidagi restoranda mazali taomlar tayyorlashadi. Nazarimda, bu yerda ochlik bilan tarix bir-biriga bog'liq, shekilli. Qayerda to'xtashimizni xohlaysan?

- Ana u yerda, – dedi Lilian narigi qirg'oqdagi ayvoni yorug' kichik otelga ishora qilib.

- Bu otelni bilasanmi?

- Qayerdan ham bilardim.

- Shu yerda yashagansan-ku.

- Bu yerda yashagan paytimiz biz sabzavot do'koni yer-to'lasida yashiringanmiz.

- Balki o'n oltinchi okrug taraflarda yoki amakingnikida qolganing yaxshidir?

- Amakim shunday ziqnaki, o'zi ham bir xonali uyda yashayotgan bo'lsa kerak. Otelga borib, bo'sh xonasi bor-yo'qligini so'raylik. Parijning qayerida yashaysan?

- «Ris» otelida.

- O'zim ham shunaqa bo'lsa kerak deb o'ylagandim, – dedi Lilian.



– Boshqa joyda yashashga ham pulim yetadi.

Ular Sen-Mishel bulvari ko'prigi va Grand Ogyusten qirg'oqlaridan o'tib, Bisson oteli yonida to'xtashdi. Ular mashinadan tushishi bilan otel eshigida jomadon ko'targan xizmatchilar paydo bo'lishdi.

– Kimdir ketyapti shekilli, menga xona ham bo'shadi.

– Rostdan ham shu otelda qolmoqchimisan? Birinchi bo'lib shu otelga ko'zing tushgani uchunmi?

Lilian bosh silkidi:

– Ha. Umuman olganda, hech kimning maslahatiga quloq solmay, shunchaki yashamoqchiman.

Bo'sh xona topildi. Lilianning baxtiga u ikkinchi qavatda edi. Otelda lift yo'q ekan. Zina eski bo'lib, pillapoyalari yedirilib ketgan. Kichik xonaning mebellari kam, ammo karavoti chakkimas, vannaxonasi ham bor edi. Jihozlar yangi, lekin arzon, faqat barokko uslubidagi stolni hisobga olmaganda. Bu stol xonada xuddi xizmatkorlar orasidagi shahzodaga o'xshab ko'rinardi.

Xona gulqog'ozlari eski, elektr chirog'i ham xiragina edi, lekin derazadan daryo jilvalanib ko'rinar, qirg'oqda Parij Muqaddas ona cherkovi qo'ng'iroqxonasi ko'zga tashlanardi.

– Istagan paytingda bu yerdan ketishing mumkin, – dedi Klerfe.

– Qayerga? Sening yoningga – «Ris»gami?

– Mening yonimga emas, shunchaki «Ris»ga, – javob berdi Klerfe. – Urush payti u yerda boshqa familiya bilan soqol qo'yvolib, eng arzon xonalarida yarim yilcha yashaganman. Otelning ikkinchi yarmida, oynalari Vandom maydoniga qaragan xonalarda yuqori martabali millatchilar yashashardi. Juda tahlikali damlar edi.

Xizmatchi jomadonlarni olib kirdi.

– Kechqurun seni olib ketgani kelaymi, birga ovqatlana-mizmi? – so'radi Klerfe keta turib.

– Shunaqayam ahmoqona savol bo'ladimi? Albatta, kel, – dedi Lilian.

– Yaxshi. Soat to‘qqiz bo‘ladimi?

– Bo‘ladi.

Qiz uning ortidan qarab qoldi. Parijga yo‘lga chiqqanlaridan buyon u biror marta Askonda kechgan tun haqida og‘iz ochmadi. «Fransuz tili juda qulay, – o‘yladi u. – Sendan sizga o‘tish yoki aksincha gapirish juda o‘ng‘ay, xuddi so‘z o‘yini-dek». «Jezeppe» motorining qattiq tovushini eshitib, deraza yoniga yaqinlashdi.

Mishel bulvarida yashil chiroq yondi. Xuddi tozi itlar galasidek mashinalar oqimi «Juzeppe»ning ortidan quvishardi. Lilian buncha ko‘p mashinani oldin qachon ko‘rganini eslay olmadi. Urush payti mashinalar kam edi. U chuqur xo‘rsindi. «Men hali bunday derazalardan ko‘p qarayman, – o‘yladi u. – Ular hayotga qaragan derazalar bo‘ladi!»

Lilian jomadonlarini bo‘shatdi. U o‘zi bilan juda kam narsa olgandi. Puli ham kam edi. Amakisiga qo‘ng‘iroq qilgandi, hech kim go‘shakni ko‘tarmadi. Qayta-qayta qilavergach, begona ovoz javob berdi. Amakisi ancha yillardan buyon telefondan voz kechgan ekan. U birdan vahimaga tushdi. «Nahotki, vafot etgan bo‘lsa?» – o‘yladi u. Taajjub, har doim uning xayoliga birinchi bo‘lib shu fikr keladi. Balki ko‘chib ketgandir? U manzillar kitobini so‘radi. Otelda faqat eski kitob mavjud edi, urushning birinchi yillarida chop etilgani, yangisi ularda yo‘q ekan. Parijda hamon ko‘mir kam edi. Kechga yaqin xona sovub ketdi va qiz paltosini egniga tashladi.

Derazadan xonaga loyga belangan g‘ira-shira qorong‘ilik sudralib kirib keldi. Lilian bu manzara tushkunlikka solishini yaxshi bilardi. Biroz isinish uchun vanna qabul qilib, o‘rniga kirdi. Yo‘lga chiqqandan buyon birinchi marta yolg‘iz qoldi... Puli nari borsa, bir haftaga yetadi. Qorong‘i tushishi bilan qo‘rquv chulg‘ab olib, yolg‘izlik hissini kuchaytirdi. Amakisini endi qayerdan topadi? Balki bir necha haftaga ketgandir, balki baxtsiz hodisa ro‘y bergandir. Balki Klerfe ham bu katta shaharda izsiz yo‘qolar, biror otelga joylash-

sa-yu, boshqa u haqda eshitmasa ham, ko'rmasa ham, keyin nima qiladi?

Lilian titrab ketdi. Haqiqiy hayot sovuq va yolg'izlik bilan to'qnash kelgan Lilianning barcha romantik orzularini kulga aylantirdi.

Shu damda sanatoriyni issiq xonasida markaziy isitish tizimi quvurlari sekin guvillab ishlab turibdi...

Eshik taqilladi. Yo'lakda ikkita o'ram tutgan xat tashuvchi turardi. Uning qo'lida gul bor edi. Ularni faqat Klerfe yuborgan bo'lishi mumkin. G'ira-shira qorong'ilikda u xat tashuvchiga yaxshigina choychaqa berdi. Ikkinchi o'ramdagisi jun adyol edi. «Bu senga kerak bo'ladi» – deb yozgandi Klerfe. – Parijda hali ko'mir kam».

Lilian adyol o'ramini ochdi, uning orasida ikkita lampochka turardi. «Fransiyadagi otel egalari elektr energiyasini tejashadi. Maslahatim, xonangdagi lampochkalarni bularga almashtir, ko'rasan, hayot ko'zingga yorug'roq ko'rinadi».

Qiz Klerfening maslahatiga amal qildi. Endi hech bo'lmasa o'qish uchun sharoit bor. Xat tashuvchi gazeta ham olib keldi. U gazetalarni ko'zdan kechirdi-da, ko'p o'tmay chetga tashladi. Xabarlar ichida unga taalluqli gaplar yo'q. Uning vaqti kam edi. Baribir keyingi yil kim prezident bo'lishi va qaysi partiyaning qo'li baland kelishini ko'rmaydi. Bu narsalar uni qiziqtirmasdi. Uni faqat bir narsa – o'z shaxsiy hayoti qiziqtirardi. Lilian kiyindi. Amakisining oldingi manzili unda saqlanib qolgandi, yarim yil ilgari amakisi o'sha manzildan maktub yuborgandi. O'sha yerga borib surishtirish kerak.

Amakisi hamon o'sha uyda yashar, faqat telefon tutmayotgandi.

– Pullaringmi? – so'radi amakisi. – O'zing bilasan, har oy Shveysariyaga – senga pul jo'natib turardim. Jo'natmalarga ruxsat olish juda qiyin. Xuddi shunday Fransiyada ham har oy pul berib turishim mumkin. Qaysi manzilga yuborib turay?

– Men har oy olmoqchi emasman. Hammasini birdan olmoqchiman.

– Nega?

– O‘zimga kiyim-kechak xarid qilmoqchiman.

Qariya unga anqayib qaradi.

– Xuddi otangga o‘xshaysan. Agar u...

– Otam allaqachon dunyodan o‘tgan, Gaston amaki.

Gaston o‘zining keksalik sabab burishgan qo‘llariga tikildi.

– Puling ko‘p emas... Bu yerda nima qilmoqchisan? Qani endi, menda Shveysariyada yashash imkoni bo‘lsa? Bu – axir, baxt-ku!

– Men Shveysariyada emas, kasalxonada yashadim.

– Sen pulning hisobini bilmaysan. Bir-ikki haftaga qolmay tagiga suv qo‘yasan. Yo‘qotib qo‘yishing ham mumkin...

– Ehtimol, – dedi Lilian. Amakisi unga qo‘rqa-pisa qarab oldi.

– Ularning hammasini ishlatib yuborsang, keyin nima bo‘ladi?

– Qo‘rqmang, sizga og‘irligim tushmaydi.

– Turmushga chiqsang bo‘lardi.

Lilian kulib yubordi. U amakisining muddaosini tushundi. U Lilian uchun javobgarlikni boshqa birovning yelkasiga yuklamochi edi.

– Rost, turmushga chiqishing kerak, – takrorladi Gaston. – Istasang, birortasi bilan tanishtirib qo‘yaman. Istaysanmi?

Lilian yana kuldi. Cholning qanday yo‘l tutishi unga qiziq edi. «Yoshi saksonga qarab ketyapti, – o‘yladi u. – Lekin o‘zini yana sakson yil keyingi ishlarni rejalashtirib qo‘yishi lozimdek tutadi-ya».

– Yaxshi, – dedi u. – Endi ayting-chi, yolg‘iz qolganingizda nima qilasisiz?

Kutilmagan savoldan qariya dovdirib qoldi.

– Ko‘p narsa... bilmadim. Men doim band bo‘laman. G‘alati savol bo‘ldi-ku. Nega so‘rayapsan?

– Hamma narsani olib, boshingiz oqqan tomonga ketish, bor pulingizni sarflash fikri sira xayolingizga kelganmi?

– Otangning o'zisan! – dedi chol. – U hech qachon burch va mas'uliyat nimaligini bilmagan. Senga yana vasiy tayinlash haqida o'ylab ko'rish kerakka o'xshaydi.

– Bunday qila olmaysiz. Sizningcha, men pullarimni havoga sovurayotgan bo'lsam, menimcha esa siz umringizni havoga sovuryapsiz! Hamma o'z fikrida qolgani ma'qul. Pullarimni ertadan kechiktirmay yetkazing. O'zinga tezroq ko'ylak sotib olmoqchiman.

– Qayerdan olmoqchisan? – shoshib savol berdi chol.

– Balensiagadan. U mening pullarim ekanini unutmang.

– Otang...

– Ertagacha, – dedi Lilian va cholning peshonasiga labini tekkizib xayrlashdi.

– Quloq sol, Lilian. Nodonlik qilma! Kiyimlaring shundoq ham yaxshi. Bu olifta chevarlarning liboslari juda katta pul turadi.

– Ehtimol, – dedi Lilian va yo'lning narigi betidagi kulrang binolar oynalarga ko'z tashladi.

– Xuddi otangning o'zisan, – kekxa amakisi chin dildan va-himaga tushib qolgandi. – Bir tukung boshqamas. Agar uning xom xayollari bo'lmaganida, sen hozir beg'am-betashvish yashayotgan bo'larding.

– Gaston amaki, aytishlaricha, bizning davrimizda puldan qutulishining ikkita yo'li bor ekan. Biri – pulni yig'ib, keyin inflyatsiya payti hammasidan ayrilish, ikkinchisi – uni o'zingga sarflash. Qaysi biri ma'qul? O'zingiz qanday kun ko'ryapsiz?

Gaston qo'l siltadi:

– Ko'rib turibsan. Hozir hech kimga osonmas. Men bir faqir odamman. Lilian alanglab amakisining xonasi chiroyli qadimiy jihozlar bilan bezatilganini ko'rди: yumshoq oromkursilar, billur qandil, devorda bir necha yaxshi kartinalar osilib turardi.

– Har doim xasis bo'lgansiz, Gaston amaki. Nega hali ham ziqnaligingiz qolmagan?

Gaston bir muddat bitko'zlari bilan unga tikilib qoldi.

– Shu yerda yashashni xohlaysanmi? Lekin uyim tor.

– Uyingiz tor emas, ammo bu yerda yashashni istamayman. Necha yoshga kirdingiz? Menimcha, dadamdan yigirma yosh kattasiz.

Chol dovdirab qoldi.

– Bilib turib nega so'rayapsan?

– O'limdan qo'rqmaysizmi?

Gaston birpas jim bo'ldi.

– Juda tarbiyasiz bo'p ketibsan, – dedi keyin sekingina.

– To'g'ri aytasiz, buni so'ramasligim kerak edi.

– Hali bardam-baquvvatman. Agar tez orada merosga ega bo'laman, deb o'ylayotgan bo'lsang, adashasan.

Lilian arazlab tumtayib olgan amakisiga qaradi:

– Yo'q, o'ylamayapman. Otelda yashamoqchiman, sizga og'irligim tushmaydi.

– Qaysi otelda? – shoshib so'radi chol.

– «Rele Bisson»da.

– Xayriyat! Agar «Ris»ga joylashganingda ham hayron bo'lmasdim.

– Men ham, – dedi Lilian.

\* \* \*

Klerfe uni olib ketgani kirdi. Birgalikda «Ran Vefur» restoraniga borishdi.

– Bu yerdagi hayot bilan ilk uchrashuving qanday kechdi? – so'radi u.

– O'zimni xuddi mangu yashaydigan odamlar davrasiga tushib qolgandek his qilyapman. Har holda, ular o'zlarini shunday tutishyapti. Xayollarida faqat pul, hayot haqida unutilib qo'yishgan.

Klerfe kulib yubordi.

– Urush payti hamma, agar tirik qolsam, butkul boshqacha yashayman, xatolarimni takrorlamayman, deb o'ziga so'z bergandi. Odamzot tez unutadi.

- Sen ham hammasini unutdingmi? - so'radi Lilian.
- Qattiq harakat qildim. Lekin qo'limdan kelmadi.
- Balki shuning uchun ham seni yaxshi ko'rsam kerak.
- Meni yaxshi ko'rmaysan, agar rostdan sevganingda bu haqda gapirmagan bo'larding.
- Balki seni kelajak haqida qayg'urmaganing uchun sevarman.
- Unda sanatoriydagi barcha erkaklarni yaxshi ko'rishingga to'g'ri kelardi. Kel, yaxshisi, qovurilgan pista qo'shilgan eler yeb, montrashe bilan ichamiz.
- Seni nega sevaman o'zi?
- Chunki yoningdaman. Hayotni sevganing uchun. Men sen uchun hayotning bir nomsiz zarrasiman, xolos. Bu - xavfli.
- Kim uchun xavfli?
- Kimning ismi bo'lmasa, o'sha uchun xavfli. Uni istagan paytda almashtirish mumkin.
- Meni ham, - dedi Lilian.
- Bunga ishonchim komil emas. Mening o'rnimda biror aqlli odam bo'lganida, allaqachon qochib ketardi.
- Ko'pam ko'ngil qo'yganing yo'q menga.
- Ertaga ketyapman.
- Qayerga? - so'radi Lilian ishonqiramay.
- Rimga borishim kerak.
- Men esa Balensiagaga borishim kerak. Ko'ylak olmoqchiman. Bu Rimdan ham narida.
- Rostdan ketyapman, yangi shartnoma imzolashim kerak.
- Yaxshi, - dedi Lilian. - Demak, yosh chevarlar bilan xatarli sarguzashtlarni boshlasam bo'larkan. Gaston amakim jon deb menga vasiy tayinlagan yoki erga bergan bo'lardi.
- Klerfe unga tikildi:
- U seni yana bandi etmoqchimi, hali erkinlik nimaligini tuyib ulgurmasingdan-a?
- Erkinlik nima o'zi?
- Klerfe jilmaydi:

– O‘zim ham bilmayman. Bilganim shuki, erkinlik degani mas‘uliyat va maqsadsiz yashash, degani emas. Uning qandayligini bilgandan ko‘ra qanaqa bo‘lmasligini tushunish osonroq.

– Qachon qaytasan? – so‘radi Lilian.

– Bir necha kundan keyin.

– Rimda sevganing bormi?

Klerfe javob berishga shoshilmadi.

– Ha, – dedi birozdan so‘ng.

– O‘zim ham shunaqa deb o‘ylagandim, – xotirjam javob berdi Lilian.

– Nega?

– Yolg‘iz yashaganingga ishonmasdim. Axir sen bilan tanishishimdan oldin men ham yolg‘iz emasdim-ku!

– Endi yolg‘izmisan?

– Ha, – dedi Lilian yuzi yorishib.

Klerfe unga hayratlanib qaradi.

\* \* \*

Klerfe Rimda salkam ikki haftacha qolib ketdi. U idoraga, kafega va ustaxonalarga bordi. Bu orada Lilianni umuman eslamagan kunlari ham bo‘ldi. Lekin ayrim kunlari juda sog‘inib esladi. Lilian unda ajib taassurot uyg‘otgandi. Ilgari hech bir ayol unda bu tuyg‘uni uyg‘otolmagan. Lilian unga o‘z tengdoshlaridan ortda qolgan, endi esa ularga yetib olish uchun harakat qilayotgan boladek tuyulardi. Lekin bir hafta Rimda Lidiya Morelli bilan yashagan Klerfe Lilian uning tengi emasligini tushundi. Lilianga ko‘proq vaqtini bag‘ishlaydigan odam kerak. Xuddi Volkovga o‘xshagan. Volkov faqat u uchun yashardi. Klerfe esa boshqacha munosabatlarga o‘rgangan. U hech narsaga o‘zini butkul bag‘ishlashni istamasdi. Unga Lidiya Morelliga o‘xshagan ayol kerak. Uning yonida Lilian juda yosh va talabchan hamda o‘ta go‘l ko‘rinardi.



O'ylay-o'ylay shu qarorga kelgan Klerfe biroz yengil tortdi va shartnoma imzolab bo'lgan bo'lsa-da, yana bir necha kun Rimda qoldi. Keyin Lidiya Morellini ko'ndirib, uni ham Parijga olib keldi.

\* \* \*

Lilian Balensiagaga yo'l oldi. Uning ko'ylaklari kam edi, bori ham urush payti tikilgan bo'lib, allaqachon urfdan chiqqan. Ayrim ko'ylaklari unga onasidan qolgan, keyin arzon tikuvchi uni qayta tikib bergan, boshqalari esa urush payti sotilgan arzon-garov matolardan edi. Bor-yo'q liboslaridan faqat ikkitasi ko'k va och kulrang kostyumi hali kiysa bo'ladigan ahvolda edi. Ularni ham bir necha yillardan buyon kiyadi, lekin fasoni butkul urfdan chiqib ulgurmagan.

Modellar namoyishi boshlandi. Lilian zalda o'tirgancha ayollarni kuzata boshladi. Ko'pchiligining yoshi o'tgan va haddan ziyod bo'yanishgandi. Ayrimlari esa xuddi qashqaldoqdek shaqillashardi, to'g'ri, ular orasida o'z husniga ishongan chiroylilari ham bor edi. Tomoshabinlar orasida amerikaliklar ham bo'lib, bu ayollarning takabburligi kishi-ning ensasini qotirardi, to'da orasida erkaklar ham ko'zga tashlanardi.

Lilian to'rtta kostyumni tanlab oldi. U har birini kiyib ko'rayotganda sotuvchi qiz unga o'ta xushmuomalalik bilan munosabatda bo'ldi.

– Juda yaxshi tanladingiz, – dedi u. – Xuddi siz uchun tikilgandek. Bunaqasi kam uchraydi. Ko'pchilik ayollar o'zlariga yoqadigan kiyimlarni xarid qilishadi, siz esa o'zingizga yarashganini tanlarkansiz... Bu keng libosda juda ochilib ketdingiz.

Lilian ko'zgudagi aksiga qaradi. Parijda yuzi va yelkalari tog'dagiga qaraganda ancha qoraygandek tuyuldi. Yangi ko'ylak uning qomatiga yarashib, istarasini ham ochib yuborgandi. U juda ochilib ketdi, uning Parijda hech kimni tanimaydi-

gan, atrofga befarq boqadigan nigohi o'ziga allaqanday ma'yus joziba baxsh etardi, bundan tashqari qandaydir yurakni jiz ettiradigan parishonlik ham bor edi unda. U qo'shni bo'lmalardagi ayollarning ovozi eshitar, ayollar chiqayotib unga xuddi raqobatchidek boshdan-oyoq tikilishardi. Lekin Lilian ular bilan orasida hech qanday bog'liqlik yo'qligini bilardi.

Ko'ylaklar unga erkaklarni ilintirish uchun qurol emasdi. Uning maqsadi, faqat o'zi uchun hayotni sevish edi.

To'rtinchi kun kiyim o'lchash xonasiga bosh sotuvchi keldi. Bir haftadan keyin Balensiaganing o'zi ham kirib keldi. Ular xaridorlarga liboslarni dabdaba bilan namoyish etish mumkinligini tushunib qolishgandi. Lilian kam gapirar, lekin sabr bilan ko'zgu oldida tura olardi. Liboslardagi ispan bezaklari uning yosh qomatiga biroz anduh cho'kkandek ko'rsatar, lekin bu sezilarli darajada emasdi. U xuddi meksika sholro'mollaridek qora yoki yorqin qizil ko'ylaklarni kiyganida yoki matadornikidek kalta kurtkalar va keng paltolarni egniga ilganida barcha e'tibor uning yuziga qaratilardi. Yuzidan faqat ungagina xos bo'lgan g'amginlik taralib turardi.

– Tanlovingizga gap yo'q, – dedi bosh sotuvchi. – Bu liboslar sira urfdan chiqmaydi. Ularni uzoq yillar kiyib yurishingiz mumkin.

«Uzoq yillar», – Lilian jilmaygancha dedi:

– Menga bular faqat shu yil uchun kerak...

Sotuvchi unga baliq terisiga o'xshagan kulrang, kumushrang yaltiroq libosni ko'rsatdi.

– Eng so'nggi fason. Kiyib ko'rasizmi?

Lilian bosh chayqadi.

– Yetarli. Boshqa pulim yo'q.

– Bir kiyib ko'ring. Nazarimda, sizga yoqadi. Narxi ham chakkimas.

Lilian bu yaltiroq baliq po'stiga o'xshagan libosni kiyib ko'rdi. Bu kiyimda xuddi hozirgina dengiz ichidan chiqib kelgan suv parisiga o'xshab qoldi. Ko'ylak rostdan ham arzon edi.

– Firmamiz ushbu ko'ylakni aynan siz kiyishingizni istayapti, – dedi bosh sotuvchi.

\* \* \*

Ikki hafta Lilian Dyunkerk xuddi girdob ichida yashagandek bo'ldi. U o'zini ko'ylaklar va tuflilar orasida xuddi mast qilguvchi ichimliklar yerto'lasiga tushib qolgandek his qilardi. Keyin u hisob varaqlarini Gaston amakisiga yubordi.

Chunki amakisi unga odatdagidek har oy yuboradigan ulushini bergandi. U hamon qimmatbaho qog'ozlarni tugatish ko'p vaqt olishini bahona qilardi.

Hayajonlangan Gaston ertasi kuniyoq yetib keldi. U xonada yugurar, Lilianni mas'uliyatsizlikda ayblar va to'satdan, menikiga ko'chib o'tasan, degan talabni ham qo'ydi.

– Meni nazorat qilib turishingiz uchunmi?

– Yo'q. Pulni tejashing uchun. Shuncha mablag'ni ko'ylaklarga sovurish gunoh. Ular tilladanmi, namuncha qimmat?

– Ular rostdan ham tilla, faqat siz buni sezmayapsiz.

– Yaxshi foiz keltiradigan aksiyalarni latta-puttalar uchun sotish... – nasihat o'qishda davomi etdi Gaston. – Senga vasiy tayinlash kerak!

– Urinib ko'ring. Fransiyaning har qanday sudyasi meni tushunadi va menga emas, sizga vasiy tayinlash kerak, degan qarorga keladi. Agar yaqin kunlarda barcha pulimni qaytarib bermasangiz, bundan ikki barobar ko'p ko'ylak sotib olaman va pul hisobini sizga yuboraman.

– Ikki barobar ko'p latta-putta?! Esingni yebsan...

– Yo'q, Gaston amaki, men emas, siz esingizni yegansiz. Axir o'zingizga hech narsani ravo ko'rmaydigan siz emasmi, o'zingiz yomon ko'radigan merosxo'rlaringiz kamchilik ko'rmay yashashi uchun shunday qilyapsizmi? Bo'ldi, bu haqda boshqa gaplashmaylik. Birga tushlik qilamizmi? Bu yerda yaxshi restoran bor. Sizning sharafingizga ko'ylaklarimdan birini kiyaman.

– Hech qachon! Endi shunga ham pul sarflashim qoluvdi.

– Men sizni tushlikka taklif qilaman. Tushlik payti men-ga nasihat o‘qishda davom etishingiz mumkin. Hozir qornim och, xuddi olti soat mashq qilgan chang‘ichidek och qoldim. Kiyimlarni kiyib-yechaverib, xuddi sport bilan shug‘ullan-gandek ochqadim. Meni pastda kutib turing. Besh daqiqada tayyor bo‘laman.

Lilian bir soat deganda pastga tushdi.

G‘azabdan rangi oqarib ketgan Gaston uni bir chekkada kutib turardi. Lilian amakisi uni bir qarashda tanimaganidan xursand bo‘ldi.

– Bu – men, Gaston amaki.

Gaston yo‘talib qo‘ydi.

– Ko‘zim yaxshi ko‘rmayapti, – to‘ng‘illadi u. – Seni oxirgi marta qachon ko‘rgandim.

– Ikki hafta oldin.

– Yo‘q, uni aytmayapman.

– Besh yil oldin... O‘shanda yarim och va tahlikada edim.

– Endi-chi? – so‘radi Gaston.

– Endi ham ochman, lekin qarorim qat‘iy.

Gaston cho‘ntagidan pul chiqardi.

– Bu ko‘ylaklarni kim uchun sotib olding?

– O‘zim uchun.

– Balki biror...

– U yoqda, tog‘da kuyovlikka munosib erkaklar faqat chang‘i sporti murabbiylari edi. Lekin ular faqat chang‘i sporti kiyimidagina chiroyli ko‘rinishardi. Boshqa payt o‘ta beso‘naqay va xunuk....

– Demak, butkul yolg‘izsan?

– Ha, lekin sizchalik emas, – dedi u restoran tomonga yo‘l boshlab.

– Nima yeysan? – so‘radi Gaston. – O‘zim seni mehmon qi-laman. Lekin mening qornim to‘q. Nima buyurtiray? Ehtimol, hali ham yengil parhez taomlaridan yesang kerak? Quymoq, mevali salat va olchali vino buyuramizmi?..

– Avvalo, menga dengiz tipratikanini buyurtiring, – dedi Lilian. – O'n ikkitadan kam bo'lmasin.

Gaston beixtiyor taomning narxiga qaradi.

– Dengiz tipratikani sog'liq uchun zarar.

– Faqat ziqnalarning sog'lig'i uchun. Ular tipratikan go'shtidan bo'g'ilib qolishadi. Keyin qovurilgan go'sht ham buyuring.

– Menimcha, bu juda o'tkir taom. Balki qaynatilgan tovuq go'shti yoki suli bo'tqasi buyurtirganimiz ma'quldir. Axir sanatoriya shunaqa ovqat yegansizlar-ku, to'g'rimi?

– Ha, Gaston amaki. Men shunchalik ko'p qaynatilgan tovuq go'shti va suli bo'tqasi yeganmanki, bu bir umrga yetadi. Qolaversa, chiroyli tabiat manzarasini ham yetarlicha tomosha qilganman. Bas. Go'shtga qo'shimcha qilib Shato Lafit<sup>1</sup>dan ham bir butilka buyuring. Balki siz unaqasini ichmassiz?

– O'zimni bunchalik taltaytira olmayman. Endi ancha qashshoqman, azizam Lilian.

– Bilaman. Shuning uchun siz bilan ovqatlanish ham butun boshli tomosha.

– Nima? Nega?

– Vinoning har qultumida yuragingizning qoni oqadi.

– Jin ursin! – to'satdan Gaston jahl qildi. – Shu ham hayot bo'ldimi? Yana shundoq ajoyib vino ichib turganingda-ya? Kel, boshqa narsalar haqida gaplashaylik. Men ham dengiz tipratikanini tatib ko'rsam bo'ladimi?

Lilian unga likopchasini uzatdi. Gaston shosha-pisha uch-tasini paqqos tushirdi. U ovqatga ko'p pul sarflashni istamasa-da, lekin vinoni maza qilib sipqordi. Pulini to'layaptimi, demak – ko'proq ichishi kerak.

– Bolam, – dedi u butilkani bo'shatgach. – Vaqtning tez o'tishini qara. Esimda, sen bolaligingda...

Lilianning qalbida qattiq og'riq turdi.

---

<sup>1</sup> Shato Lafit – fransuz qizil vinosi.

– Bu haqda hech narsa eshitishni istamayman, Gaston amaki. Faqat bir narsani menga tushuntiring, nega menga Lillian, deb ism qo'yishgan? Menga bu ism umuman yoqmaydi.

– Otang shuni istagan.

– Nega, axir?

– Qahvaga qo'shimcha likyor ichasanmi? Shartreza ham yo'q. O'zim ham shunday deb o'ylagandim! – Gaston erib bordi. – Yaxshi, unda ikki bokal shampan vinosi buyuramiz. Ha, aytgancha otang...

– Nima?

Gastonning bir ko'zi uchardi.

– Urushgacha u bir necha oy Nyu-Yorkda yashagan. Bir o'zi. Keyin esa ismingni Lillian qo'yishimizni talab qilgan. Onangga farqi yo'q edi. Keyin eshitishimcha, Nyu-Yorkda uning... nima desam ekan, Lillian ismli bir ayol bilan otang o'rtasida o'ta jo'shqin muhabbat bo'lgan ekan. Kechir, meni o'zing majbur qilding gapirishga...

– Xudoga shukr, – dedi Lillian. – Men esa onam bu ismni kitoblardan o'qib topgan bo'lsa kerak, deb o'ylab yurardim. U ko'p kitob o'qirdi-da.

Gaston qushnikidek kichik boshini silkidi.

– To'g'ri, otang umuman o'qimasdi. Sen-chi, Lili? Sen endi shunday yashamoqchimisiz? Buni to'g'ri, deb hisoblaysanmi?

– Sizdan ham xuddi shu haqda so'ramoqchiydim. Vinoni ichayotganimizdan keyin qandaydir odamgarchiligingiz uyg'ongandek bo'ldi.

Gaston konyakdan bir ho'pladi.

– Sening sharafingga bayram uyushtiraman bugun.

– Oldin ham shunday deb tahdid qilgandingiz.

– Kelasanmi?

– Faqat bir piyola choy ichgani bo'lsa, bormayman.

– Yo'q, tushlikka taklif qilaman. Yaxshi vinolardan asrab qo'yanman. Bor-yo'g'i bir necha dona qolgan, lekin hozir ichadiganimizdan qolishmaydi.

– Yaxshi, boraman, – dedi Lilian.

– Ochilib ketgansan Lili, lekin o'ta betgachoparsan. O'ta! Otang bunaqa emasdi.

«Betgachopar, – o'yladi Lilian. – U nimani betgachoparlik deb hisoblaydi? Men rostdan shunaqamanmi? Balki xushmuomalalik bilan yolg'on gapirishga, achchiq haqiqatni yaxshi muomala bilan o'rashga mening vaqtim yo'qdir».

\* \* \*

Derazadan Sen-Shapel ibodatxonasining o'tkir ignadek minorasi ko'rinib turardi. Oftob charaqlagan kunlarning birida Lilian u yerga bordi. Kun yarmiga yetib qolgan, ibodatxonaning baland derazasining rang-barang oynalarini yorib o'tgan oftob nurlari sabab ibodatxona xuddi quyosh nurlaridan to'qilgan inga o'xshab ko'rinardi.

Ranglar shu qadar yorqin ediki, Lilian xuddi o'zini rang-barang suvda suzib yurgandek his qildi.

Ibodatxonada Liliandan boshqa bir necha amerikalik askarlar ham bor edi, lekin ular ko'p o'tmay ketishdi. U o'rindiqlarda nurga burkanib o'tirardi. Bu dunyodagi eng nafis va shohona mato ediki, u kiyimlarini yechib tashlab, shaffof parchaning tanasida jilvalanishini ko'rgisi kelardi. Bu nurlar sharsharasi yer qonunlariga bo'ysunmaydigan parvoz etish baxtini beradigan, sarmast qiladigan tuyg'u edi. U go'yo nur bilan nafas olayotgandek edi. Ko'k, yashil, qizil ranglar qoniga qo'shilib oqayotganini, o'pkasiga quyilayotganini, tanasi va ongi yo'qolib, faqat nur qolayotganini his etardi. Bu nur xuddi rentgen nurlari kabi tanasini zabt etdi. Farqi shundaki, rentgen suyaklarni yalang'ochlaydi, bu nur esa yurakni tez urishga va qonni ko'pirtirishga sabab bo'ladigan o'sha sirli kuchni ochib yuborgandi. Bu yengil taskin edi. U bu kunni hech qachon unutmaydi. Butun hayoti, kelajagi xuddi shu ari uyasiga o'xshash zaldagi kabi yengil, soyasiz nurga, afsussiz baxtga, kulsiz gulxanga o'xshashini istardi.

Darvozabon ikkinchi bor uning yelkasidan yengil turti.

– Xonim, ish vaqtimiz tugadi.

Lilian o'rnidan turdi. Qarshisida charchagan, bezovta chehra turardi. Lilianning ko'nglidan o'tgan narsalarni bu odam tushunmasdi.

– Bu yerda anchadan buyon ishlaysizmi? – so'radi u qariyadan.

– O'n olti yildan buyon.

– Bu yerda kunni o'tkazish juda yoqimli bo'lsa kerak!

– Yo'qdan ko'ra bor ish-da, – dedi darvozabon. – Lekin puli tirikchilikka zo'rg'a yetadi. Hammasiga pulning qadrsizlanishi sabab.

Qariya umrida hech bo'lmasa bir marta bu nurning mo'jizasini his qilganmikan – bunisi Lilianga mavhum. Bu yerda – Parijda hayotni hamma shunchaki odatiy hol, deb qabul qiladi. U sumkasini titkilab pul oldi. Qariyaning ko'zlari chaqnab ketdi. Lilian bu qariyani ayblab bo'lmasligini tushundi. Uning uchun bu qog'oz parchalarida hayotning barcha sir-sinoatlari mujassam, non va ichimlik uchun, boshini yostiqqa qo'yish hamda xonaga pul to'lash uchun shu qog'oz parchalari kerak.

\* \* \*

Ko'ylaklar tayyor bo'lgach, Lilian ularni shkafga solib qo'ymasdan xona bo'ylab osib chiqdi.

Duxoba ko'ylagini karavoti ustiga ildi. Kumush ranglisini yoniga qo'ydi. Tunda bosinqirashdan baqirib uyg'onganida, xuddi qutqaruv arqoni kabi ko'ylaklariga qo'l cho'zishni va tushida dodlagancha oxiri yo'q quduqqa tushib ketayotganda ko'ylaklariga osilib g'ira-shira qorong'ilik orasidan hayotga, odamlar orasiga qaytishni o'ylardi. Lilian qo'llari bilan ko'ylaklarini siypalarkan, uning matosini his qilardi. O'rnidan turib, xona bo'ylab yurar, ba'zida u o'zini do'stlari davrasida o'tirgandek sezar, devorlarga osilgan ko'ylaklari, qatorlashib



terilib turgan tillarang, qora va jigarrang ingichka poshnali tuflilariga zavqlanib tikilardi.

U yarim tunda xonani aylanib o'z xazinasini ko'zdan kechirarkan, parcha matosidan tikilgan libosini oy nuriga tutardi, keyin shlyapasi va tuflisini kiyib ko'zguga qarardi. Oy nurida o'zining nurdek musaffo aksiga sinchiklab tikilardi. U yuziga va yelkalariga qarab, nahotki yuz terim salqigan, yelkalarim bukchayib qolgan bo'lsa, deb o'ylar, keyin oyoqlariga tikilib, nahotki oyoqlarim cho'pdek ozib ketgan bo'lsa, deb xavotirlanardi.

«Hali emas, – o'yladi u. – Hali u darajaga bormadi». Keyin o'zining so'zsiz, sharpasimon o'yinini davom ettirardi.

\* \* \*

Klerfe Lilian bilan yana uchrashganida unga uzoq tikilib qoldi. Qiz juda o'zgarib ketgandi.

Gap faqat ko'ylakda emasdi. U yaxshi kiyinadigan ko'plab ayollarni bilardi. Lidiya Morelli ham libos tanlash bo'yicha uncha-muncha chevarni dog'da qoldirardi.

Lilianning o'zi o'zgargandi. Qiz bilan xayrlashganida u xuddi harakatlari beso'naqay o'smir qizdek edi, endi esa ayni guldek ochilgan ayolga aylanganda qayta ko'rishishdi. Bu ayol bolalikning sirli chegarasini bosib o'tgan bo'lsa-da, hali jozibasini yo'qotmagan, ammo o'zining latofatiga ishonchi komil edi.

Klerfe to'satdan nega Rimda uzoq payt ushlanib qolgani va Lidiya Morellini birga olib kelib ahmoqlik qilganini tushundi. O'zini yo'qotmaslik uchun Lilianning har bir xatti-harakatidan soddalik, go'llik qidira boshladi. Masalan, his-tuyg'ularining jo'shqinligi bilan ularni izhor etishini javagaga tushgan, deb ta'riflar, lekin aslida unday emasdi. Lilian xuddi tor akvariumga tashlangan gulmohi balig'idek o'zini to'rt tomonga urar va suv tubini larzaga solardi. Endi baliq akvariumda emas, o'z uyida edi va endi hech qanday to'siqqa

urilmasdi, u o'zining chaqqon harakatlaridan zavqlanar va badanining kamalakdek tovlanishiga mahliyo bo'lardi.

– Gaston amakim mening sharafiga kichikroq kecha uyushtirmoqchi, – dedi Lilian.

– Shunaqami?

– Ha, u meni turmushga bermoqchi.

– Hali ham shu fikrdami?

– Fikri oldingidan ko'ra qat'iyroq. U agar ko'ylak sotib olishni bas qilmasam, nafaqat o'zi, balki men ham kasodga uchrashimdan xavotirda.

\* \* \*

Ular yana «Ran Vefur» restoraniga kelishdi. Ofitsiant bu gal ham qovurilgan pista bilan ekler keltirdi, ularni montrashe bilan ichishdi.

– Rimdan qaytganingdan keyin kamgap bo'lib qolding, – dedi Lilian.

Klerfe unga qaradi.

– Nahotki?

Lilian jilmaydi.

– Balki hozirgina bu yerga kelgan ayol sababchidir?

– Qanaqa ayol?

– Uni ko'rsatishimni istaysanmi?

Klerfe Lidiya Morelli kirib kelganini sezmay qolgandi. Jin ursin, nega aynan shu yerga keldi? Lidiya aviatsiya sanoati korchalonlaridan bo'lmish Jonson bilan birga edi. Lidiya Morelli vaqtini bekorga o'tkazmasdi, axir unga bugun ertalab, «kechqurun uchrashamiz», deb aytgandi-ya. Klerfe u nega aynan bu yerga kelganini ham bilardi. Bundan bir necha yillar ilgari u Lidiyani shu restoranga olib kelardi. Bundan buyon restoranlarni ehtiyot bo'lib tanlashga to'g'ri keladi.

– U bilan tanishmisan?

– Ko'plab boshqa tanishlarim kabi...

U Lidiya Lilianni kuzatayotganini sezdi, Lilianning nima kiygani-yu, bu libosni qayerdan, qanchaga olganigacha bilishiga ishonchi komil edi. U Lidiya Lilianning tuflisi qancha turishini bilishiga ishonardi. Hatto ularni ko'rmagan bo'lsa-da. Bu masalada Lidiya bashoratchi edi. Agar Klerfe o'ylab ish qilganida, bu vaziyatga tushmagan bo'lardi, lekin endi bo'lar ish bo'lgan ekan, bundan foydalanishi kerak. Axir eng oddiy tuyg'ular aslida eng kuchli tuyg'ular hisoblanadi. Ulardan biri – rashk. Lilian uni rashk qila boshlasa, yanada yaxshi. U shundoq ham Rimda uzoq qolgani uchun o'zini koyirdi.

– U did bilan kiyinarkan, – dedi Lilian.

Klerfe bosh siltadi:

– U shu bilan mashhur.

Endi u Lilian Lidiyaning yoshi haqida fikr bildirishini kutardi. Lidiya qirqqa kirgandi, kunduzlari unga o'ttiz yosh berish mumkin, lekin oqshom chiroqlari munosib yoritib turganda yigirma besh yoshlilarga o'xshab ketardi. Lidiya boradigan restoranlarning chiroq nurlari uni shunday ko'rsatsa kerak.

Lekin Lilian Lidiyaning yoshi haqida og'iz ochmadi.

– Chiroyli ekan, – dedi u. – Orangizda muhabbat bormi?

– Yo'q, – dedi Klerfe.

– Ahmoq ekansan, – dedi Lilian. Klerfe unga og'zi ochilib tikildi.

– Nega?

– U juda chiroyli-ku. Kim u o'zi?

– Italiyalik.

– Rimdanmi?

– Ha, – dedi u. – Rimdan. Nega so'rayapsan? Rashk qilyapsanmi?

Lilian qo'lidagi ryumkani xotirjamlik bilan stolga qo'ydi.

– Rashk qilmayapman, – dedi u xotirjam. – Bunga vaqtim ham yo'q.

Klerfe unga qattiq tikildi. Boshqa har qanday ayolning tilidan bu so'zlar siyqasi chiqqandek yangragan bo'lardi. Le-

kin Lilian tilidan emas va Klerfe buni tushunardi. U samimiy gapirardi. Har lahzada u o'zi bilmagan holda g'azabga to'lib borardi.

– Balki boshqa narsalar haqida ham gaplasharmiz?

– Nega? Parijga boshqa ayol bilan qaytib kelganing uchunmi?

– Bo'lmagan gap! Bunaqa ahmoqona fikr qayoqdan miyangga keldi?

– Aynan ahmoqona bo'lgani uchun. Shunday emasmi?

Klerfe bir zum jim bo'ldi, keyin:

– To'g'ri, bu ahmoqlik, – dedi sekingina.

– Diding chakki emas ekan.

Klerfe keyingi savolni kutib jim bo'ldi. U faqat rostini gapirishga shaylanib turardi. Bugun ertalab Lilian bilan shunchaki gaplashib yurish va bu hech kimga xalaqit bermasligi haqida o'ylagandi, lekin endi undan boshqa hech kimni ko'rgisi kelmasdi. U o'z aybi bilan qopqonga tushganini bilar va bundan jahli chiqardi, qolaversa, o'tmishdagi xatolarni hech qanday vosita bilan tuzatib bo'lmasligini ham bilardi. Lilian uning qo'lidan eng xavfli paytda, jangsiz chiqib ketdi. Unga erishish uchun bitta yo'l qolgandi, ya'ni xuddi shu tarzda harakat qilish lozim, bunday janglarga odatda, ko'r-ko'rona kirishilardi, uni yo'qotmaslik uchun hammasini tan olishi kerak.

– Seni sevib qolishni istamagandim, Lilian, – dedi u.

Qiz jilmaydi.

– Lekin bu sabab emas-ku. Faqat maktab o'quvchilari shunday yo'l tutadi.

– Muhabbatda hamma o'zini xuddi maktab o'quvchisidek tutadi.

– Muhabbat? – dedi Lilian. – Bu juda keng tushuncha! Uning ortida nimalar yashirinmagan deysiz... – U Lidiya Morelliga nigoh tashladi. – Hammasi sen o'ylagandan ko'ra osonroq. Ketdikmi?

– Qayerga?

– Otelga qaytmoqchiman.

Klerfe bir soʻz demay hisob-kitob qildi. Ular Lidiya Morelli oʻtirgan stol yonidan oʻtib eshik tomon yoʻl olishdi. U oʻzi-ni Klerfeni koʻrmaganga oldi. Ular xizmatchi mashinani olib chiqib burchakka qoʻyguncha tor koʻchada kutib qolishdi. Li-lian oʻgirilib Klerfega mashinani koʻrsatdi.

– Mana u xiyonatkor «Juzeppe». Meni otelga olib borib qoʻy.

– Yoʻq. Oldin Pale-Royalga boramiz. Bogʻ hali ochiqmi? – soʻradi u shveysardan.

– Albatta, janob.

– Men u yerda boʻlganman, – dedi Lilian.

– Istaging nima?

– Qoʻshxotinli boʻlmoqchimisan?

– Bas qilgin. Ketdik.

\* \* \*

Ular Pale-Royal ravoqlari ostidan yurib ketishdi. Oq-shom salqin edi, bogʻdan tuproq va bahor hidi ufurib tur-rardi. Yelib turgan shamol tungi havodan koʻra iliqroq edi. Klerfe toʻxtadi.

– Soʻrama. Hech narsani tushuntirishimni soʻrama. Bu-ning iloji yoʻq.

– Nimani tushuntirmoqchisan?

– Hech narsani.

– Rostdan ham hech narsanimi? – soʻradi Lilian.

– Men seni sevaman.

– Har narsani bahona qilib janjal chiqarmaganim uchunmi?

– Yoʻq, – dedi Klerfe. – Buni yoqlamayman. Men seni bosh-qalarga oʻxshamagan gʻayrioddiy mojaro qilganing uchun se-vaman.

– Men hech qachon mojaro chiqarmayman, – javob berdi Lilian moʻynali jaketining yoqasini koʻtarib. – Mojaro chiqa-rishni bilmasam kerak!

Qiz uning qarshisida turar, sochlarini iliq shamol o'ynardi. Qiz unga butkul begonadek tuyuldi. U hech qachon bilgan bu ayolni yo'qotishga ham ulgurdi.

– Seni sevaman, – dedi u yana va qizni bag'riga bosdi. Hamma narsaga befarqlarcha qarab turgan Lilian ko'zlarini katta ochgancha shamolning ovozigacha quloq tutardi.

Sabri tugagan Klerfe uni yengil silkitdi:

– Bir nima desang-chi? Biror nima qilsang-chi! Undan ko'ra meni haydab yuborganing yaxshi edi. Yoki tarsaki tushir! Lekin tosh haykalga o'xshab turma.

Qiz qaddini rostladi, Klerfe uni quchog'idan bo'shatdi.

– Nega seni haydashim kerak? – so'radi u.

– Demak, qolishimni istayapsan?

– Bugun oqshom «xohlash» so'zi menga xuddi cho'yandek tuyuldi. Uni hech narsa qila olmaysan. U juda mo'rt.

U qizning ko'zlariga tikildi.

– Nazarimda, rostdan xayolingdan o'tgan gaplarni aytyapsan, – dedi u birozdan keyin.

U hayron qoldi. Lilian esa jilmaydi:

– Bo'lmasam-chi. Axir boya aytdim-ku, hammasi sen o'y-lagandan ko'ra osonroq, deb.

Klerfe nima deyishni bilmay jim qoldi.

– Yur, seni otelga olib borib qo'yaman, – dedi u nihoyat. Qiz indamay unga ergashdi, xotirjam yonma-yon ketaverdi.

«Menga nima bo'lyapti? – o'yladi u. – Nega gangib qoldim? Undan ham, Lidiya Morellidan ham jahlim chiqyapti, aslida faqat o'zimdan jahlim chiqishi kerak, boshqalardan emas».

\* \* \*

Ular mashina yonida turishganida restoran eshigida Lidiya Morelli va uning hamrohi paydo bo'lishdi. Lidiya yana Klerfeni ko'rماغanga oldi o'zini. Lekin qiziquvchanlik ustun keldi. Klerfe, Lilianni himoya qilishimga to'g'ri keladi, deb o'y-lagandi, lekin shu ondayoq bunga hojat yo'qligini tushundi.

Otelning ikki xizmatchisi bir-biri bilan baland ovozda urishib, ko'chada yo'l harakatini to'xtatib, ularga mashinalarni keltirguncha ikki ayol o'rtasida bir qarashda o'ta beziyon suhbat bo'lib o'tdi. Bu suhbat juda iltifotli edi. Agar boshqa payt bo'lganda Lidiya Morellining qo'li baland kelgan bo'lar edi. U Liliandan katta, ancha tajribali va tili yaxshigina zahar edi. Lekin hammasi boshqacha bo'ldi. Tashqaridan qaraganda Lidiyaning zarbalari xuddi paxtaga tekkandek tuyulardi. Lilian unga shunday kamtarlik bilan munosabatda bo'ldiki, har qancha ehtiyotkor bo'lmasin, Lidiya tajovuzkordek ko'rindi. Bu mag'lubiyatga teng edi. Hatto sherigi ham uning qiziqib qolganini sezdi.

– Mana mashinangiz, janob, – dedi shveysar. Tor ko'chadan chiqqan Klerfe mashinasini burdi.

– Ajoyib g'alaba! – dedi u Lilianga o'girilib. – U baribir hech nimani bila olmadi. Kimsan, qayerdan kelgansan, qayerda yashaysan?

– Agar istasa, hammasini bilib olishi mumkin, – dedi Lilian beparvo.

– Kimdan? Mendanmi?

– Tikuvchimdan. U ko'ylakni kim tikkanini tushundi.

– Menimcha, senga baribir, shundaymi?

– Baribir, – dedi Lilian tungi havoni sipqorib. – Rozilik maydoni bo'ylab yuraylik. Bugun yakshanba, favvoralarning chiroqlari yoqilgan.

– Nazarimda, sen hamma narsaga befarqsan, shundaymi? – so'radi u qiz tomonga o'girilib jilmayar ekan.

– Agar chuqur o'ylab ko'rilsa, ha, shunday.

– O'zim ham shunday deb o'ylagandim, – to'ng'illadi Klerfe. – Senga nima bo'ldi o'zi?

\* \* \*

Klerfe maydonni sekin aylanib chiqdi. Chiroq nurlari Lilianning yuzini silab o'tardi. «Men o'lishimni bilaman, – o'y-

ladi u. – Buni sendan yaxshiroq bilaman, mana, gap nimada, sen uchun shunchaki gap bo'lib tuyulgan narsa men uchun ham yig'i, ham nola, ham xursandchilik. Sen uchun odatiy narsalar – men uchun baxt va hammasini taqdir tuhfasini, deb qabul qilaman».

– Qara, favvoralar! – dedi u.

Kumush, kulrang Parij osmoni ostida yaltirab turgan favvoralar goh osmonga ko'tarilib pastga tushar, goh bir-birini quvgan oqim jildirab, mangulik ramzi bo'lgan yodgorlik po-yiga to'planar, tinimsiz harakatlanib yerning eng qadimiy allasi bo'lmish shaffof tovushda kuylardi. Bu qo'shiq abadiy hayot va shaxsning mangu mahv bo'lish nag'masi edi.

– Kel, Ron Puenga ham boramiz, – dedi Lilian. – U yerda ham favvoralar bor.

Klerfe indamay Yelisey dalalaridan yurib ketdi. Ron Puen-da ham suvning o'sha qo'shig'ini tinglashdi. Lekin bu yerda favvora atrofida sariq lolalardan kichik gulchamanlar qad rostlagandi.

– Bularning bariga ham befarqmisan? – so'radi u.

Lilian nigohini qorong'ida shildirayotgan irmoqdan olib unga qaratdi. «U qiynalyapti, – o'yladi qiz. – Uni pushaymon yedirishim juda oson bo'ldi».

– Befarqman, deb umid qilaman, – dedi u. – Men unga qarab erib boryapman. Nahotki, meni tushunmasang?

– Yo'q. Men hech narsaga qarab erib ketishni istamayman, men doim o'zimni kuchli his qilishni istayman.

– Men ham istayman.

U mashinani to'xtatib undan bo'sa olishni istardi. Lekin bu ishi nima bilan yakun topishini bilardi.

Undan ko'ra gulzorni yakson qilish, sariq lolalarni ezish, hamma narsani har tarafga uloqtirib, Lilianni bag'riga bos-gancha boshi oqqan tomonga qochishni xohlardi... Lekin qayerga? Uni olib qochib biror ishonchli joyga yashirish va bir umrga bu iltijoli boqadigan ko'zlarga bandi bo'lishni istardi.



– Seni yaxshi ko‘raman, – dedi u. – Barini unut. U ayolni ham unut.

– Nega? Seningcha, shu paytgacha men yolg‘iz bo‘lganmanmi?

«Juzeppe» to‘satdan bir sakrab to‘xtadi.

– Sanatoriyni aytyapsanmi? – so‘radi u.

– Parijni aytyapman.

U qizning ko‘zlariga sinchkov tikildi. Lilian jilmaydi.

– Men yolg‘iz qola olmayman. Endi esa meni otelga oborib qo‘y. Charchadim.

– Yaxshi.

Klerfe Luvr yonidan yurib, Konserjeridan ham o‘tdi va Sen-Mishel ko‘prigiga chiqdi. U nima qilishni bilmasdi. U jon deb Lilianni koyigan bo‘lardi-yu, lekin bunga haqqi yo‘q edi. U shu paytgacha Klerfe gapirgan gapni tan olgandi. Shubhalanishga hojat yo‘q. Klerfe bir narsani – uni yo‘qotmaslikni istardi. Lilian birdan dunyodagi eng qadrli va ardoqli odamga aylangandi. U biror chora qo‘llashi lozim edi. Otel oldida u bilan shunchaki xayrlashish mumkinmas. Shunday qilsa, uni qaytib ko‘rmaydi. Bu – so‘nggi imkoniyat. Uni to‘xtatib qolish uchun biror sehrli so‘z o‘ylab topishi lozim. Bo‘lmasa u mashinadan tushib, loqaydlarcha jilmayadi va otel eshiklaridan kirib ko‘zdan yo‘qoladi.

Uni vestibyulidan baliq va sarimsoq piyoz hidi anqib turgan mehmonxona yutib yuboradi. Keyin aylanma zinlardan ko‘tarilib xonasiga ravona bo‘ladi. Klerfening eng so‘nggi ko‘rgani uning ingichka to‘pig‘i bo‘ladi. Lilian xonasiga yetib borganida esa uning yelkasidan ikkita qanot o‘sib chiqadi va ko‘chaga qarab uchadi. U Sen-Shapel ibodatxonasi tomon uchmaydi. Balki Balensiaga liboslarida Valpurgiyevga uchadi, u yerdagi shaytonlarning hammasi frak kiygan bo‘ladi. Barchasi poygachi rekordchilar, kamida oltita tilda bemalol gapiradigan, barcha faylasuflarni yod olgan, pianinochilar, boks bo‘yicha chempionlar va shoirlar.

Mehmonxona portesi esnab qo‘ydi.

– Bufet kaliti bormi sizda? – so‘radi Klerfe.  
– Albatta. Sizga nima kerak? Vishi, shampän, pivo?  
– Muzlatkichdan bir banka ikra olib keling.  
– Buning iloji yo‘q, janob. Kalitlar xonimda.  
– Unda burchakdagi «Laperuz» do‘koniga yugurib borib keling. U hali ochiq. Sizni shu yerda kutib turamiz, o‘rningizni bildirmayman.

U cho‘ntagidan pul chiqardi.

– Ikra yegim kelmayapti, – dedi Lilian.

– Nima yeging kelyapti?

Lilian javob berishga shoshilmadi.

– Klerfe, – dedi u birozdan so‘ng. – Shu paytgacha kech bo‘lganda hech kimni qabul qilmaganman. Sen aynan shuni bilmoqchi eding, to‘g‘rimi?

– Rost, – gapga aralashdi porte. – Xonim doim uyga yolg‘iz qaytadi. Bu yaxshi emas, janob. Sizga shampän vinosi olib kelaymi? Bizda o‘ttiz to‘rtinchi yil hosilidan tayyorlangan «Pernion uyi» shampani bor, istasangiz...

– Olib keling! Tilla odam ekansiz! – qichqirdi Klerfe. – Yeguliklar ham bormi?

– Men mana bunaqa kolbasa yemoqchiman, – dedi Lilian porte yeb o‘tirgan ovqatiga ishora qilib.

– O‘zimirni sizga beraman, xonim. Bufetda bunaqasi ko‘p.

– Bufetdan kolbasa olib keling, – buyurdi Klerfe. – Bir burda qora non va bir bo‘lak pishloq ham ola keling.

– Pivo ham, – qo‘shimcha qildi Lilian.

– Ko‘nglingiz shampän tusamayaptimi, xonim?

Portening yuzi tundlashdi, u choychaqa miqdori pasayishidan xavotirda edi.

– Har ehtimolga qarshi bir butilka «Perinon uyi»dan ola keling, – dedi Klerfe. – O‘zim icharman. Bugun bir narsani nishonlamoqchiman.

– Nimani?

– Tuyg‘ular isyonini, – Klerfe portening o‘rnini egalladi. – Boring! O‘rningizga navbatchilik qilib turaman.

- Bu bilan muomala qilishni bilasanmi? - so'radi Lilian navbatchi doskasini ko'rsatib.

- Albatta. Urush payti o'rganganman.

Qiz tirsagini stolga tiradi.

- Urush payti ko'p narsani ko'rgan ekansan-a. To'g'rimi?

- Juda ko'p narsani. Deyarli doim urush bo'ladi-ku.

\* \* \*

Ijarachilardan biri bir butilka suv so'radi, boshqasi esa ertalab soat oltida uyg'otib qo'yishni tayinladi. Klerfe hammasini yozib oldi. Unga hayron bo'lib tikilgan kalbosh janob o'n ikkinchi xonaning kalitini, ikkita yosh ingliz qizga esa xonalarining kalitini olib berdi. Birozdan keyin vestibyulga sarxush erkak kirib keldi va Liliandan, «Bo'shmisiz, narxingiz qancha?» - deb so'radi.

- Ming dollar, - dedi Klerfe.

- Hech bir ayolning narxi buncha emas, tentak, - dedi mast-alast kishi va yana qorong'i sohilda ko'zdan yo'qoldi, birozdan keyin o'sha tomondan suvning shaloplagini eshitildi.

Porte butilka va kolbasa ko'tarib keldi va: «Agar yana biror narsa kerak bo'lsa «Tur d'Arjan» yoki «Laperuz»ga borib kelishga tayyorman, velosipedim bor,» - dedi.

- Ertaga, - dedi Klerfe. - Hozir bo'sh xonangiz bormi?

- Xonimning xonasi bor-ku.

- Xonim turmushga chiqqan. U mening xotinim, - dedi Klerfe yana porteni hayron qoldirib. Xotini bo'lsa, bo'sh xona nega kerakligini porte sira tushunmasdi.

- Oltinchi xona bo'sh, - dedi u. - Xonimning xonasi bilan yonma-yon.

- Yaxshi. Bularni o'sha yerga elting.

Porte xaridlarni xonaga olib bordi, choychaqani ko'rib esa tuni bilan velosipedda janobning topshiriqlarini bajarishga tayyorligini ma'lum qildi.

Porte barchasini bajarishga so'z berib ketdi. Birozdan keyin muz ko'tarib qaytib keldi va shundan keyin ularni butkul tinch qo'ydi.

– Agar bugun tunda seni yolg'iz qoldirsam, boshqa hech qachon ko'rmasam kerak, deb o'yladim, – dedi Klerfe.

Lilian deraza rafiga o'tirdi.

– Men bu haqda har tun o'ylayman.

Klerfe qalbida qattiq og'riq tuydi. Lilianning chehrasi derazadan tushib turgan oy nurida yanada ma'yus ko'rindi. U birdan Lilianning yolg'izligini his qildi. Ha, aynan yolg'izligini, tark etilganligini emas.

– Seni yaxshi ko'raman, – dedi u. – Buning senga qizig'i bormi-yo'qmi bilmadim-u, lekin men rost gapiryapman.

Qiz javob bermadi.

– Bu gaplarni bugungi voqea sabab aytmayotganimni tushunasam, deb umid qilaman, – davom etdi u, yolg'on gapirayotganini o'zi ham anglamay. – Bugungi oqshomni unut. Bu tasodifan yuz berdi, ahmoqlik qildim, butkul chalkashib ketdim. Hayotda hech qachon seni xafa qilishni istamagan bo'lardim.

Qiz yana biroz jim turdi:

– Nazarimda, men xafa qilishlaridan himoyalanganman, – dedi u o'ylanib. – Gapim samimiy. Balki bu menga boshqa narsaning o'rnini to'ldirish uchun berilgandir.

Klerfe nima deb javob berishni bilmasdi. U Lilian nima haqida gapirayotganini tushunib turar, lekin nazarida, hammasi aksincha edi. Balki ikkalasi ham haq bo'lib, bir-birlarini to'ldirishayotgandir.

– Tunda jisming yaltillarkan, xuddi ichidan nur taratadigan chig'anoq kabi, u nurni yutmaydi, aksincha aks ettiradi. Rostdan pivo ichmoqchimisam?

– Ha. Yana Lion kolbasalarini ham ta'tib ko'rmoqchiman. Non bilan. Bundan hayratga tushmaysanmi?

– Men hech narsadan hayratga tushmayman. Men o'zimni xuddi butun umr shu tunni kutgandek his qilyapman. Xud-

diki, butun olam sarimsoq hidi anqib turgan mehmonxona zalidan tashqarida qolib nobud bo'lgan-u, faqat biz ikkimiz qutulib qolishga ulgurgandekmiz.

– Nahotki, biz ulgurdik?

– Ha. Quloq sol, atrof qanday tinchib qoldi.

– Aksincha, sen tinchib qolding, – javob berdi u. – Chunki maqsadingga erishding.

– Nahotki, erishgan bo'lsam? Nazarimda, eng mashhur chevarnikiga tushib qolgandekman.

– Mening zabonsiz do'stlarimni nazarda tutyapsanmi? – Lilian xona bo'ylab ilib tashlangan ko'ylaklariga nazar tashladi. – Tunlari ular menga ertaknamo ballar va karnavallar haqida so'zlaydi. Lekin bugun ularning menga keragi yo'q. Balki hammasini yig'ib javonga ilib qo'yarman.

– Qo'y, turaversin. Ular senga nimalarni so'zlaydi?

– Ko'p narsani. Ba'zida dengiz haqida. Chunki men dengizni ko'rmaganman.

– Dengizga albatta, boramiz, – dedi Klerfe va unga bir stakan muzdek pivo uzatdi.

– Faqat bir necha kundan keyin. Oldin Sitsiliyaga borishim kerak. U yerda poyga bo'ladi. Lekin yutish imkonim yo'q.

– Sen doim g'olib bo'lishni istaysanmi?

– Ba'zan bu juda zarur. Idealistlar pulni qayerga sarflashni bilishadi.

Lilian kuldi.

– Buni Gaston amakimga ham aytaman.

Klerfe karavot boshida ilingan kumushrang parchadan tikilgan ko'ylakka sinchiklab tikildi.

– Aynan Sitsiliyaga mos, – dedi u.

– Uni kecha tunda kiygandim.

– Qayerda?

– Shu yerda?

– Bir o'zingmi?

– Bir o'zim.

– Endi hech qachon yolg'iz bo'lmaysan.

– Yolg'iz bo'lmaganman ham.

– Bilaman, – dedi Klerfe. – Senga, yaxshi ko'raman, deganida, xuddi bu uchun mendan minnatdor bo'lishing kerak, degandek bo'lyapman. Aslida unday deb o'ylamayapman. Uf... bema'ni gaplarni gapiryapman, chunki o'rganmaganman.

– Yo'q, sen bema'ni gaplarni gapirmayapsan.

– Har bir erkak agar u ayolga yolg'on gapirmayotgan bo'lsa, ahmoqona so'zlarni gapiradi.

– Kel, «Pernion uyi»ni och. Non va kolbasa yesang, o'zinga ishonching kamayadi. Nimani hidlayapsan? Mendan nimaning hidi kelyapti?

– Sarimsoq, oy va men sira fahmlab ololmayotgan yolg'on hidi.

– Xayriyat. Unda yerga qaytaylik. Yerdan oyoqning uzilishi juda oson-da.

\* \* \*

Qayerdadir kanareyka sayrardi. Klerfe uni tushimda eshityapman, deb o'yladi. Uyg'ongach, atrofga alanglab, bir zum qayerdaligini anglolmadi. Oppoq bulutlarni yorib o'tgan quyosh shu'lasini xuddi daryodek shiftida mavjlanardi, xona to'ntarilib qolganga o'xshardi, pol shiftida, shift esa polda.

Vannaxona eshigi ochiq bo'lib, undan ko'rinib turgan deraza ham ochiq edi. Derazadan ro'paradagi uyning kanareykali qafas ilingan derazasi ko'rinib turardi.

Ichkarida nonushta emas, tushlik qilib o'tirgan ayol ham ko'zga tashlandi.

Klerfe qo'li bilan paypaslab soatni topdi. U adashmagandi. Soat o'n ikkiga yaqinlashib qolibdi. Anchadan buyon bunchalik kech uyg'onmagandi. Qattiq ochiqqanini his qildi. Eshikni sekin ochdi. Ostonada bir o'ram tugun turar, uning ichida kecha kechqurun buyurgan narsalarining barchasi bor edi. Porte va'dasida turgandi. Klerfe vannani suvga to'ldirib yu-

vindi, keyin kiyinib tarandi. U Lilianning xonasini yarim tunda tark etgandi. Lilian uning yonida uxlab qolgan bo'lsa-da, lekin Klerfe o'z xonasiga qaytishni ma'qul ko'rdi. Kanareyka tinimsiz sayrardi. Semiz ayol qahva bilan olmalı pırog yeya boshladi. Klerfe qirg'oq ko'rinib turadigan deraza yoniga keldi. Tashqarida hayot qaynardi.

Sahhoflar do'konlarini allaqachon ochgan, daryoda kichik kemachalar suzib yurardi. Klerfe engashib qo'shni derazada turgan Lilianni ko'rdi. Klerfe uni kuzatayotganini sezmagani qiz oynadan savatni chiqarib, arqon orqali pastga tushira boshladi. Ularning xonasi tagidagi kafe yonida ustritsa sotadigan sotuvchi o'tirgan bo'lib, yonida qutilar turardi. Bu ish Lilianga tanish edi. Savat tushgach, sotuvchi uni ho'l suv o'tlari bilan to'ldirdi va tepaga qaradi:

– Sizga qanaqasidan bo'lsin? Moren yoki belon? Bugun belon yaxshiroq.

– Olti dona belon, – javob berdi Lilian.

– Yo'q, o'n ikkita soling, – gapga aralashdi Klerfe. Lilian uni ko'rib kulib yubordi.

– Avval nonushta qilmaysanmi?

– Ustritsa yegim kelyapti. Yengil puyi ham, apelsin sharbati o'rniga.

– O'n ikkitami? – so'radi sotuvchi.

– O'n sakkizta, – dedi Lilian. Keyin Klerfega o'girilib qo'shimcha qildi: – bu yoqqa kel, o'zing bilan vino ham olvol.

Klerfe kafedan bir butilka puyi va ikkita ryumka oldi. Bundan tashqari non, yog' va pishloq olishni ham unutmadi.

– Tez-tez shunaqa qilib turasanmi? – so'radi Klerfe.

– Deyarli har kun. Bugun har ehtimolga qarshi shu tarzda kechki ovqatni ham yemoqchiman. Chunki bugun Gaston amakim mening sharafimga bazm uyushtiradi. Istasang, seni ham taklif qiladi.

– Yo'q.

– Yaxshi. Bu bazmning maqsadiga to'g'ri kelmaydi ham. U menga boyvachcha kuyov topmoqchi-ku. Balki sen ham boydirsan?

– Men bor-yo'g'i bir necha hafta boy bo'laman. Agar yetar-  
licha badavlat kuyov chiqsa tegasanmi?

– Menga vino quy, bo'lar-bo'lmas gaplarni gapiravermay,  
– dedi qiz.

– Sendan har narsani kutsa bo'ladi.

– Qachondan buyon shu fikrga kelding?

– Sen haqingda ko'p o'yladim.

– Qachon?

– Tushimda. Nima qilishingni oldindan bilish qiyin. Sen  
menga noma'lum qonunlarga bo'ysunasan.

– Nima bo'пти? Buning zarari yo'q. Bugun nima qilamiz?

– Bugun kunduzi men bilan «Ris» oteliga borasan. U yer-  
da seni biror burchakka o'n besh daqiqa bekityib qo'yaman,  
jurnal o'qib turguningcha men kiyimlarimni almashtirib  
chiqaman. Keyin Gaston amakingga qasdma-qasd tushlik  
qilamiz.

Qiz javob bermadi, indamay derazaga o'girildi.

– Istasang, ungacha sen bilan Sen-Shapel ibodatxonasiga  
borishga roziman, – dedi Klerfe. – Yoki Parij ibodatxonasi-  
ga. Hatto muzeyga borishga ham tayyorman. Xullas, men  
hamma narsaga tayyorman, Eyfel minorasiga ham, Senada  
«Bato» paroxodida suzishga ham tayyorman.

– Sena bo'ylab sayr qilib bo'ldim. U yerda menga boyvach-  
cha qassob muhabbat izhor qildi.

– Eyfel minorasiga-chi, bordingmi?

– Yo'q. U yerga sen bilan birga boraman, azizim.

– O'zim ham biluvidim. Baxtlimisan?

– Baxt nima o'zi?

– Haqsan, – dedi xijolat tortib Klerfe. – Uning nimaligini  
kim ham bilardi? Balki u jar yoqasida muvozanat saqlashdir.

\* \* \*

Gaston amakisinikidagi tushlikdan so'ng vikont de Pestr  
Lilianni o'z mashinasida otelga olib borib qo'ydi. Bazm juda



zerikarli bo'ldi, lekin dasturxon yaxshi edi. Amakisi bir necha ayol va olti nafar erkakni chaqirgandi. Ayollar xuddi kirpi kabi tikanli edi, qanaqasiga muomala qilma, baribir yoqtirmay, ensa qotirishadi. Ularning bari turmushga chiqqan bo'lib, hech biri bashang kiyinmagandi. Erkaklarning to'rt nafari bo'ydoq, lekin barchasi birdek badavlat edi. Ikkitasi yosh, eng keksa va eng boyi vikont de Pestr edi.

Pestr qulay joylashib o'tirib oldi.

– Nega chap qirg'oqda yashaysiz? Romantik bo'lganingiz uchunmi? – so'radi u Liliandan.

– Tasodifan. Boshqa hech qanday sababi yo'q.

– Siz Vandom maydonida yashashingiz kerak.

– Ajoyib, – dedi Lilian. – Odamlar mening qayerda yashashim kerakligini o'zimdanda ko'ra ko'proq bilishadi.

– Vandom maydonida kichikroq kvartiram bor, rassom atelesiga o'xshash, lekin o'zim kam boraman u yoqqa.

– Uni menga ijaraga bermoqchimisiz?

– Istasangiz beraman.

– Narxi qancha bo'ladi?

– Pul haqida gapirishning nima keragi bor? Vaqtingiz bo'lganda borib ko'ring. Istagan paytingiz u sizning ixtiyoringizga o'tadi.

– Menga hech qanday shart qo'ymaysizmi?

– Hech qanday. Albatta, har zamonda men bilan birga restoranga borishga rozi bo'lsangiz, xursand bo'laman. Lekin bu shartga kirmaydi.

– Xolis odamlar hali ham bor ekan bu dunyoda, – dedi Lilian.

– Kvartirani qachon borib ko'rmoqchisiz? Istasangiz, ertaga ko'ring. Ruksat bersangiz, ertaga sizni tushlikka taklif etaman.

Lilian uning ozg'in ingichka yuziga va oppoq mo'yloviga qaradi.

– Umuman olganda, amakim meni erga bermoqchi, – dedi u. Pestr kulib yubordi.

– Hali oldinda vaqtingiz bemalol. Amakingiz eskicha qarashli odam.

– Kvartirada ikki kishiga joy yetarlimi?

– O‘ylashimcha, yetadi. Nega so‘rayapsiz?

– Mabodo u yerga do‘stim bilan ko‘chib o‘tsam, deb so‘rayapman-da.

Pestr unga hayron bo‘lib tikildi.

– Bu variantni ham o‘ylab ko‘rish kerak, – dedi u birozdan so‘ng. – Ochig‘i, ikki kishi uchun kvartira torroq bo‘ladi, chammamda. Bir muddat yolg‘iz o‘zingiz yashab tursangiz-chi? Oldin Parijni tomosha qiling. Bu yerda imkoniyatlar siz o‘ylagandan ko‘ra ko‘p.

– To‘g‘ri aytasiz.

Mashina to‘xtagach, Lilian tushdi.

– Ertaga sizni olib ketgani soat nechchida kelay? – so‘radi vikont.

– Men hali o‘ylab ko‘rishim kerak. Gaston amakimdan so‘rab ko‘rsam, e‘tiroz bildirmaysizmi?

– Sizning o‘rningizda unday qilmagan bo‘lardim. Uni be-korga bezovta qilishning nima keragi bor? Bunday qilmaysiz ham.

– Nega?

– Biror ishni qilmoqchi bo‘lgan odam so‘rab o‘tirmaydi. Siz juda chiroyli va yoshsiz, madmuazel. Men sizni o‘zingizga munosib gardishga o‘ray olsam, o‘zimni baxtli his qilardim. Ko‘pni ko‘rgan insonning gapiga ishonib, bu yer sizga qanchalik jozibali ko‘rinmasin, barchasi vaqtni behuda sovurishdan boshqa narsa emas. Sizga hashamat kerak, katta boylikka munosibsiz. Xushomad uchun ma‘zur tutasiz, lekin mening ko‘zim o‘tkir. Bilmasam, gapirmayman. Xayrli tun, xonim.

\* \* \*

Lilian zinadan ko‘tarildi. Avvaliga Gaston amakisi uyush-tirgan kuyovlar ko‘rgazmasi kulgusini qistatgandi. U o‘zini

hayot go'zalliklari bilan chalg'itilayotgan o'lim arafasidagi jangchiga o'xshatdi. Keyin birdan zerika boshladi. U tiriklay o'la boshlagan bu odamlar orasida o'zini, yagona sog'lom odam, deb hisoblardi. Suhbatlarini tushunmasdi. U befarq qaragan narsalar ular uchun o'ta muhim, u intilgan narsalar esa ular uchun bir chaqalik qiymatga ega emas.

Vikontning taklifida jon bordek tuyuldi unga.

– Xo'sh, Gaston amaki seni qoyil qoldirdimi? – yo'lakdan Klerfening ovozi eshitildi.

– Shu yerdamisan? Tungi restoranga bormadingmi? Hatto ichmabsan ham.

– Bunaqa narsalarga ishtiyoqim so'ndi.

– Meni kutdingmi?

– Ha, – dedi Klerfe. – Sen sabab o'ta serfazilat bo'lib bor-yapman. Boshqa ichgim ham kelmayapti, sensiz.

– Oldin icharmiding?

– Ha. Poygalar paytida va ba'zida halokatlar orasida doim ichardim. Menimcha, qo'rqqanimdan ichganman. Balki o'zimdan qochish uchun shunday qilgandirman. Endi bularning bari o'tib ketdi. Bugun kunduzi Sen-Shapel ibodatxonasida bo'ldim. Ertaga esa hatto Klyupi muzeyiga bormoqchiman. Seni men bilan ko'rgan tanishlarimdan birining ta'kidlashicha, shu muzeyda osilib turgan suratli gilamda tasvirlangan yakkashoxli xonimga o'xsharkansan. Mashhur bo'lib ketyapsan. Xo'sh, yana biror joyga boramizmi?

– Bugun kechqurun bormaymiz.

– Bugun sen, hayot oshxonadan iborat, deydigan burjuynikida mehmonda bo'lding, ular hayotning ko'plab yelkanlari bor, har qanday lahzada ag'anab ketishi mumkin bo'lgan kema ekanligini qayoqdan ham bilishsin! Ularni unutib, dam olishing kerak.

Lilian kulib yubordi.

– Ichibsanda?

– Yo'g'-e, menga buning keragi yo'q. Nahotki, yana biror joyga borging kelmayotgan bo'lsa?

– Qayerga?

– Sen eshitgan har bir ko'cha va mayxonaga kirib chiqishimiz mumkin. Bashang kiyingansan. Garchi ko'chaga chiqishni istamasang ham qanday sharoitda bo'lsa-da, bu ko'ylaklaringni odamlarga ko'rsatishimiz kerak. Ko'ylaklarga nisbatan ham mas'uliyatni his etish kerak.

– Odamlarga nisbatan shartmasmi?

– Shartmas.

– Yaxshi. Sekin-asta ko'chalarni aylanamiz unda. Ularning hech birida qor yo'q. Har bir burchagida gul sotishadi. Yur, binafsha sotib olamiz.

Klerfe mashinasini tirbandlikdan olib chiqib otel ostona-siga qo'ydi. Otel yonidagi restoran endi yopilayotgandi.

– Firoqdagi oshiq, – dedi kimdir Klerfening yonginasida turib. – Bu rolga qarilik qilmaysanmi?

Klerfe o'girilib Lidiya Morellini ko'rdi. U sherigidan oldin restorandan chiqib, kutib turgandi.

– Shak-shubhasiz, – dedi u.

Lidiya yelkasiga oq palantin tashlab olgandi.

– Sen yangi ampuadasan. Bu juda kulgili, azizim. Yana shu yoshgina nodon qiz bilan-a?

– Mana buni maqtov desa bo'ladi, – javob berdi Klerfe. – Agar sen shunday deyayotgan bo'lsang, demak u rostdan ham husnda tengsiz.

– Go'zal! Nodon! Parijdan katalakdek ijaraga olib, Balensi-agadan uchta ko'ylak tiktirgani bilan...

– Uchta? Menimcha, unda bunaqa ko'ylaklardan o'ttizta bo'lsa kerak. Uning egnida ko'ylaklar har gal yangicha ko'rinadi. – Klerfe kulib yubordi. – Qachondan buyon sen izquvarga o'xshab yosh qizaloqlarning ortidan tekshirib yuradigan bo'lding?

Lidiya unga jahl bilan javob qaytarmoqchi bo'ldi-yu, lekin shu mahal restorandan sherigi chiqib qoldi. Klerfe uni tani-madi. Lidiya sherigining qo'lidan xuddi sovuq qurol ushla-gandek tutgancha, Klerfening yonginasidan o'tib ketdi.

Lilian esa bir necha daqiqa o'tib paydo bo'ldi.

– Menga hozirgina seni juda go'zal, deyishdi, – dedi unga Klerfe. – Seni biror joyga bekitib qo'yishim kerak, shekilli.

– Kutib zerikmadingmi?

– Yo'q. Agar odam ancha payt kimnidir kutmagan bo'lsa, kutish uni o'n yoshga yashartiradi. Balki yigirma yoshga ham, – Klerfe Lilianga qaradi. Nazarida, endi hech qachon kutmaydigandek tuyuldi.

– Men esa har doim nimadir kutganman.

Lilian restorandan tepakal kishi bilan chiqqan qaymoq-rang ko'ylakli ayolning ortidan qarab qoldi. Ayolning bo'ynida yong'oq kattaligidagi olmos yaltirab turardi.

– Yaltillashi ko'zni qamashtiradi-ya, – dedi Lilian.

Klerfe javob bermadi. Qimmatbaho toshlar u uchun nozik mavzu edi. Agar ular Lilianning xayolini o'g'irlasa, har doim uning toshga ehtiyojini qondiradigan kishilar topilishi mumkin.

– Qimmatbaho toshlarga qiziqmayman, – dedi Lilian xuddi uning fikrini o'qigandek. «Bu uchun juda erta va juda kech», – o'yladi u.

– Yangi ko'ylak kiydingmi? – so'radi Klerfe.

– Ha, uni bugun yuborishdi.

– Ko'ylaklaring nechta?

– Shu bilan birga sakkizta. Nega so'rayapsan?

«Lidiya Morelli yaxshigina xabardor, shekilli», o'yladi Klerfe.

– Gaston amakim dahshatga tushadi, – dedi Lilian kulib. – Hamma hisob varaqalarini unga yubordim. U faqat bir narsani bilmaydi – bu ko'ylaklar menga bir umrga yetishini. Endi dunyodagi eng zo'r tungi restoranga boraylik. Fikringga qo'shilaman. Ko'ylaklarning ham o'z haq-huquqi bor.

\* \* \*

– Yana biror joyga boramizmi? – so'radi Klerfe, soat tongi to'rtga yaqinlashganda.

– Ha, boramiz, – dedi Lilian. – Charchamadingmi?

Klerfe Liliandan charchamadingmi, deb so'rashi mumkin emasligini bilardi.

– Hozircha yo'q. Senga yoqdimi?

– Qo'rqinchli.

– Yaxshi. Unda boshqa restoranga boramiz. Lo'lilar xor aytadiganiga.

Monmartr va Monparnasda biroz kechikib bo'lsa-da, urush oqibatlarini bartaraf etish bilan mashg'ul edilar.

Rang-barang kabare va tungi restoranlar tutun bilan qoplangandi. Ular xuddi suv ostida turgandek ko'rinardi. Bu yerda bo'ladigan voqealar bir-birini tinimsiz takrorlardi. Agar Lilian bo'lmaganda Klerfe zerikib o'lardi. Lekin bularning bari Lilian uchun yangi edi, u voqeaning aslini ham, boshqalar ko'rayotgan jihatini ham ko'rmasdi. U o'zi istagandek ko'rardi. Uning nazarida qovoqxonalar olovli girdobga, choychaqa izidan quvadigan orkestr esa ertakmonand kapellaga o'xshardi.

Raqqosalar, beadab va nodon juvonlar bilan to'lgan zallar, tunni uyida emas, vaqtichog'lik bilan o'tkazish uchun yoki yengil bitimlar tuzish istagidagilar va sarguzashttalablar uning ko'z o'ngida eng yaxshi timsollarga aylanardi. Chunki u shunday ko'rishni istardi va shuning uchun kelgandi.

«Bu yerda to'planib turganlardan uni mana shu jihati ajratib turibdi, – o'yladi Klerfe. – Ularning bari yoki sarguzashtga yoki biznesga yoki o'zidagi bo'shliqni jazning shovqini bilan to'ldirishga intilishadi. U esa hayot izidan yuguryapti, faqat hayot izidan, u xuddi aqldan ozgandek hayotni ov qilyapti, xuddiki hayot oq bug'u yoki ertakdagi yakka-shox kabi. U poygaga shunday kirishganki, undagi g'ayrat boshqalarga ham yuqadi. To'xtashni ham, ko'zdan kechirishni ham bilmaydi. U bilan o'zingni goh qari-qartangdek, goh yosh boladek his qilasan. Shunda esdan chiqqan yillar orasidan kimningdir yuzi balqib chiqadi, oldingi orzular, havaslar soyasi tiriladi, keyin to'satdan xuddi g'ira-shiralik-

da chaqqan chaqmoqdek allaqachon unutilgan hayotning betakrorligi hissi paydo bo'ladi».

Lo'lilar sinchkov qop-qora ko'zlari bilan tikilib, stol atro-fida aylanishar va xushomadona bukilib kuylashardi. Lilian ularning qo'shig'iga mahliyo bo'lib qolgandi. «Ularning qo'shig'ida kuylanayotgan barcha narsa haqiqatdek tuyulyapti unga, – o'yladi Klerfe. – Uning qarshisida keng dasht, u esa tundagi yolg'iz nolani eshitadi, yolg'izlikni sezadi va odam himoya istagan gulxanni birinchi bo'lib ko'radi. Hatto eng eski, siyqasi chiqqan qo'shiqni ham insoniyatga bag'ishlangan madhiya, deb qabul qiladi, bunday qo'shiqlarning har birida u dardni va tutib bo'lmas g'amni his etadi. Lidiya Morelli ham o'zicha haq, bularni hammasini u o'ta soddalik deyishi mumkin, aynan shu narsalar uchun ham Lilianni yaxshi ko'rish mumkinligini tan olmasam, meni jin ursin!»

– Nazarimda, ko'p ichvordim, – dedi u.

– Qanday paytda juda ko'p, deb hisoblaysan?

– O'zimni yo'qota boshlaganda.

– Unda men doim ko'proq ichishni istayman. Men o'z menimni yomon ko'raman.

«Uni hech narsa qo'rqita olmaydi, – o'yladi Klerfe. – Qovoqxona hayoti ramziga, har qanday chaynalgan gap esa unga maftunkorlik va donolikdek tuyulmoqda. Bunga chidab bo'lmaydi. U hayoti poyoniga yetayotganini biladi, bu holatga ko'nikib bo'lgan, bu fikr uning ko'ziga butun dunyoni o'zgartirib yuboradi, u qo'rquv nimaligini bilmaydi, uni pastkashlik ham, tahqirlashlar ham qo'rqita olmaydi. Nega men qattiq qo'rquvni his qilyapman, undan ko'ra hayot girdobiga o'zimni otsam bo'lmaydimi?»

– Men seni yaxshi ko'raman, – dedi u.

– Bu gapni hadeb takrorlayverma, – dedi qiz. – Faqat uzoqdan yaxshi ko'rish mumkin.

– Faqat seni emas.

– Unda buni tez-tez takrorlagin, – dedi. – Bu menga suv va havodek zarur.

Klerfe kulib yubordi.

– Ikkalamiz ham haqmiz, umuman olganda, kimning bizda nima ishi bor? Qayerga boramiz?

– Otelga. Men ko'chmoqchiman.

Klerfe hech narsaga hayron qolmaslikka qaror qildi.

– Yaxshi. Unda borib narsalaringni yig'ishtiraylik, – dedi u.

– Men yig'ishtirib bo'lganman.

– Qayerga ko'chishni istaysan?

– Boshqa biror bir otelga. Ikki tundan buyon xuddi shu paytda menga qandaydir bir ayol qo'ng'iroq qilyapti. U ayol menga bu yerdan yo'qol, bu sening joying emas, deydi. Va shunga o'xshagan ko'p gaplarni aytadi.

Klerfe Lilianga qaradi:

– Nega portega, menga ulamang, deb qo'ya qolmaysan?

– Aytdim, lekin u har qanday yo'llar bilan yana qo'ng'iroq qiladi. Kecha portega, men uning onasiman, deпти. U boshqacha talaffuzda gapiradi, fransuz emas.

«Lidiya Morelli», – o'yladi Klerfe.

– Nega menga aytmading?

– Nega? Nima, «Ris»da bo'sh xonalar yo'qmi?

– Albatta, bor.

– Bo'ldi-da. Gaston amakim qayerda yashashimni eshitsa, hushidan ketib qoladi.

\* \* \*

Lilianning buyumlari yig'ishtirilmagandi. Klerfe portedan bir nemis mayori tashlab ketgan katta sandiqni vaqtinchaga olib turdi va unga Lilianning ko'ylaklarini joylay boshladi. Lili bu vaqtda karavotga o'tirib nuqul kulardi.

– Bu yerdan ketgim kelmayapti, – dedi u. – Bu yerni yaxshi ko'rib qoldim. Lekin men hech narsadan afsuslanmay yaxshi ko'raman. Tushunyapsanmi?

Klerfe boshini ko'tardi.



– Tushunyapman, deb qo'rqaman. Sen hech nimadan ayrilganingga afsuslanmaysan.

Lilian yana kuldi. U karavotda oyog'ini uzatib o'tirardi.

– Endi bular muhimmas. Sanatoriydan ketgan ekanman, demak, hamma joydan keta olaman.

«Xuddi shunday meni ham tashlab keta oladi, – o'yladi Klerfe. – O'ylab ham o'tirmaydi, xuddi mehmonxonalarni yengilgina almashtirgandek».

– Qara, nemis mayorining shpagasi qolib ketipti, – dedi u. – Vahimaga tushganidan unutib qoldirgan shekilli, nemis mayori uchun bu uyatli ish. Bu shpagani sandiqda qoldiraman. Bilasanmi, sen biroz sarxushsan, ochig'i, bu senga juda yarashadi. Yaxshiyamki, ikki kun oldin senga «Ris»dan xona buyurtirib qo'ygandim. Bo'lmasa biz portening yonidan indamay o'tib ketishimiz qiyin bo'lardi.

Lilian o'rnidan turmay, shpagani qo'liga oldi va boshi uzra ko'tardi.

– Sen menga yoqasan. Shuning uchun ham sira isming bilan chaqirmayman.

– Meni hech kim ismim bilan chaqirmaydi.

– Unda men ismingni aytishim kerak ekan.

– Bo'ldi, – dedi Klerfe. – Shpagani o'zing bilan olmoqchimisani?

– Shu yerda qoldira qol.

Kalitni cho'ntagiga solgach, Lilianga paltosini uzatdi.

– Juda ozib ketibmanmi? – so'radi u.

– Yo'q, meningcha biroz to'lishgansan.

– Endi bu juda muhim, – to'ng'illadi u. Chamadonlar ortilgan taksi ularning ortidan yo'lga tushdi.

– Mening «Ris»dagi xonam Vandom maydoniga qaraganmi? – so'radi Liliana.

– Ha. U nemislar tomonga qaragan. Urush payti u yerda nemislar yashagan. Kambon ko'chasiga qaragan xonalarda esa oliy irqdan bo'lmagan odamlar yashagan. O'shanda qoidalar shunaqa bo'lgan.

– Sen qayerda yashagansan?

– Bir paytlar men harbiy asirlar lagerida bo'lganman. Akam esa Vandom maydoniga qaragan xonalarda yashagan. Biz elzaslikmiz. Akamning otasi nemis bo'lgan, meniki esa fransuz.

– Akang seni ozod qila olmadimi?

Klerfe kuldi.

– U meni bu yerdan uzoqlarga jo'natishga jon deb rozi bo'lgan bo'lardi. Tupkani tagiga bo'lsa-da. Osmonga qara, kun yorishyapti. Qushlar qanday sayrayotganini eshityapsanmi? Shaharda uni faqat tongda tinglash mumkin. Butun tun bo'yi restoranda o'tirib, tongda uyga qaytayotib, tabiat ishqibozlari sayroqi qorayaloqlarning musiqasidan bahramand bo'lish mumkin.

Ular Vandom maydoniga qayrilishdi.

Bugun tongda keng maydon ancha osuda tuyuldi, bulut bo'lishiga qaramay maydon yorqin sariq rangga burkangandi.

– Odamlar qadimda qanday chiroyli binolar qurishganini ko'rsang, beixtiyor ular bizdan ko'ra baxtliroq bo'lishgan, degan fikr keladi xayolingga, – dedi Lilian. – Seningcha ham shundaymi?

– Menimcha unday emas, – dedi Klerfe otel podyezdida mashinasini to'xtatarkan. – Men hozir ham baxtliman. Baxt nimaligini bilamizmi, yo'qmi, menga farqi yo'q. Ha, men shu lahzada baxtliman, hozir shu osuda maydonda sen bilan birga turganimdan baxtliman. Uxlab turganingdan keyin birgalikda Sitsiliyaga boramiz. U yerda «Targa Florio» nomli poygada ishtirok etaman.

\* \* \*

Sitsiliyada bahor avjida edi. Har kuni bir necha soat «Targa Florio» poygasi o'tishi kerak bo'lgan shossenini yopib qo'yishardi. U yerda mashg'ulotlar bo'lardi. Boshqa vaqt ham poygachilar past tezlikda, yo'lning o'ziga xos burilishlari,

balandu pastlarini eslab qolish uchun bu yo'ldan o'tib qaytishardi.

Shu sabab kecha-yu kunduz oppoq shosse va oppoq hudud motorlarning qudratli guvillagan ovozidan titrab turardi.

Klerfening sherigi yigirma to'rt yoshli italyan Alfredo Torriani edi. Ikkalasi ham kun bo'yi trassada bo'lishardi. Kech-qurunlari esa oftobda kuyib, ochlik va suvsizlikdan o'lay deb qaytib kelishardi.

Klerfe Lilianga mashg'ulotlarga qatnashishni taqiqlab qo'ydi.

U boshqa poygachilarning xotinlari yoki sevgililariga o'xshab Lilian ham unga yordam berish maqsadida sekundomer yoki sochiq tutgancha kun bo'yi avtomobil firmalari tomonidan qurilgan boksda oyoq tagida o'ralashib yurishini istamasdi.

Klerfe Lilianni dengiz bo'yida villasi bor do'sti bilan tanishtirdi. Uning ismi Levalli edi. Lilianni o'sha villaga joylash-tirdilar.

Levallining tunes tutish bilan shug'ullanadigan shaxsiy flotiliyasi bor edi.

Klerfe o'ylay-o'ylay shu qarorga kelgandi. Levalli o'ta tarbiyali, semiz, tepakal va xotinlarga suyagi yo'qlardan emasdi.

Lilian kun uzog'i dengiz bo'yida yoki bog'da cho'zilib yotar, Levallining villasini o'rab turgan bu xushmanzara bog'ning har yerida marmar haykalchalar uchrar, bog' xuddi Eyxendorfning she'rlarida ta'riflangandek go'zal edi.

Lilian Klerfeni uzoq vaqt ko'rmay qolsa, unga hatto so-kin apelsinzorlargacha eshitiladigan motorning guvillashi yoqimli tuyulardi.

Motor ovozini Lilianga gullagan daraxtlarning xushbo'y hidi bilan birga shamol olib kelardi. Bu o'ta zamonaviy baraban ohanglarini eslatuvchi ovoz dengiz to'lqinlari bilan qo'shilib ketardi.

Bu g'alati musiqa edi, lekin Lilianning nazarida Klerfe-ning ovozini eshitgandek bo'lardi.

Klerfe kun bo'yi uning ko'ziga ko'ringandek bo'lardi va Lilian qaynoq osmon, dengizning oppoq yog'dusiga o'zini bag'ishlardi.

Klerfe u qayerda bo'lmasin, doim uning yonida edi. Tangrilar haykallari soyasida uxlaganda ham, o'rindiqla Petrarkani o'qiganda ham, hech narsani o'ylamay dengizga mahliyo bo'lganda ham, yoki kun botayotgan sirli damda ayvonda o'tirganda ham.

Uzoqdan eshitilayotgan ovoz osmon baraban gumburlashi bilan to'lganda ham, oqshom ham eshitilib turar, Lilianning qoni ham uning ohangiga mos gupirardi. Bu so'zsiz, muhabbat edi.

Klerfe oqshomda o'sha shovqin bilan birga kirib kelardi. Mashina villaga yaqinlashganda momaqaldiroqdek o'kirishni boshlardi.

– Bu zamonaviy askarlar xuddi antik davr tangrilariga o'xshaydi, – dedi Levalli Lilianga. – Ularning kelishlari haqida bizga chaqmoq va yashinlar xuddi Yupiterning farzandlaridek xabar beradi.

– Nega ularni yoqtirmaysiz?

– Men umuman avtomobillarni yoqtirmayman. Ularning shovqini menga urush paytidagi bombardimonchilarning ovozi eslatadi.

O'ta ta'sirchan bo'lgan baqaloq Shopenning musiqasi yozilgan plastinkani qo'ydi. Lilian unga o'ychan tikildi. «Qiziq, – o'yladi u. – Odamlar nega bunchalar bir yoqlama fikrlaydi. U faqat o'z tajribasini tan oladi va faqat shu yerda shaxsan menga xavf tug'diradi, deb hisoblaydi. Nahotki musiqa bilimdoni bo'lgan bu tarbiyali odam uning flotiliyasi qirg'in solayotgan tuneslar nimani his qilishini sira o'ylab ko'rmagan bo'lsa?»

\* \* \*

Bir necha kundan keyin Levalli uyida katta bazm uyush-tirdi. U Sitsiliya va Janubiy Italiyadan yuztacha mehmon tak-

lif qildi. Shamlar va lampionlar yonib turar, yulduzli tun iliq, dengiz xuddi ulkan ko'zgu kabi ufqda muallaq turgan boshqa sayyoradan yuborilgandek, katta oy aks etishi uchun yaratilgandek edi.

Lilian qoyil qoldi.

– Sizga yoqdimi? – so'radi Levalli.

– Bularning bari – men orzu qilgan manzaralar.

– Hammasimi?

– Salkam hammasi. To'rt yil tog'larda qor qoyasida qamalda o'tirganimda, men shunaqa bayramni orzu qilgandim...

– Juda xursandman, – dedi Levalli. – Hozir bayramlarni kamdan-kam tashkil qilyapman.

– Nega? Ular odatga aylanib qolishidan qo'rqasizmi?

– Unday emas. Bayramlar... qanday qilib to'g'ri tushuntir-sam ekan... meni qayg'uga soladi. Bayram uyushtirib nimanidir unutmocchi bo'lasan... lekin unutish qo'lingdan kelmaydi.

– Men hech narsani unutishni istamayman.

– Nahotki? – muloyimlik bilan so'radi Levalli.

– Endi istamayapman, – dedi Lilian.

Levalli jilmayib qo'ydi.

– Aytishlaricha, qadimda bu yerda Rim villasi bo'lgan ekan, tez-tez katta bazmlar uyushtirilarkan, olov purkaydigan Etna qoshida go'zal rimlik ayollar xursandchilik qilishgan ekan.

– Qadimgi rimliklar jumboq yechimini topishga yaqin bo'lishgan, degan fikrga qanday qaraysiz?

– Qanaqa jumboq?

– Biz nega yashayapmiz?

– Nahotki biz yashayapmiz?

– Balki yashamayotgandirmiz, agar o'zimiz ham bu haqda savol berayotgan bo'lsak. Bu haqda gap boshlaganim uchun ma'zur tutasiz. Biz italyanlar melanxolikmiz, aslida boshqacha ko'rinsak-da... har holda, biz melanxolikmiz.

– Odamlarning hammasi shunaqa, – dedi Lilian. – Hatto ahmoqlarning ham hammasi quvnoq emas.

Klerfening mashinasi yaqinlashayotganini eshitgan qiz jilmaydi.

– Aytishlaricha, bu villaning oxirgi sohibasi tong otishi bilan o'z jazmanlarini o'limga hukm qilarkan. Bu rimlik ayol o'ta romantik bo'lib, illyuziyaga boy tun tugagach, tong bilan kirib keladigan umidsizlikni yomon ko'rarkan.

– Naqadar murakkab! – xitob qildi Liliانا. – Jazmanlarini tong otguncha qo'yib yuborsa bo'lmas ekanmi? Yoki o'zi ketsa?

Levalli uning qo'lidan tutdi.

– Har doim ham bu oddiy bo'lavermaydi. Odam o'zidan o'zi qochib qutula olmaydi.

– Bu har doim oson, agar biror narsaga bog'lanib qolish kishini chegaralashini va cheklashini unutmangiz.

Ular musiqa chalinayotgan tomonga yurishdi.

– Siz hech qanday shaxsiy mulkka ega bo'lishni istamay-sizmi? – so'radi Levalli.

– Men hamma narsaga egalik qilishni istayman, bu degani – hech narsaga egalik qilmayman, degani.

Levalli uning qo'lini o'pdi.

– Mana, jumboq qayerda, – dedi u. – Endi sizni sarv daraxtlari yonigacha kuzatib qo'yaman. U yerda tagidan yoritiladigan shisha polli raqs maydonchasi tashkil qilganmiz. Men bunaqa maydonchalarni Riverining yozgi restoranlarida ko'rganman va o'zimga ham shunaqa yasatishni istadim. Mana sizning askarlaringiz, bugun bu yerga Neapol, Palermo va Rimning yarmidan ko'pi yig'ilgan.

\* \* \*

Bog'dagi bazmni kuzatib turgan Levalli Klerfega dedi:

– Yoki tomoshabin, yoki harakatdagi shaxs bo'lishing kerak.

– Yoki unisi, yoki bunisi.

– Men faqat tomoshabin bo'lishni istayman. Ikkalasini ham birlashtirishni istaganlar komillikka erisha olmaydi.

Ular terassada o'tirgancha, sarv daraxti ostida raqs tushayotgan ayollarni kuzatib o'tirishardi.

Lilian shahzoda Fiola bilan raqs tushardi.

– U naq otashning o'zi, – dedi Levalli Klerfega qarab.

– Raqs tushishini qarang. Pompey mozaikalarini eslaysizmi? San'atkorona yaratilgan ayollar shuning uchun ham go'zal, ularda hamma narsa tasodifan sohib tashlangandek. Faqat husnlariga chizgi berilgan. Kritdagi afsonaviy Minos qasridagi kartinalarni ko'rganmisiz? Exnaton davridagi misrliklar tasvirlangan kartinalarni-chi? Odobsiz raqqosalar va ko'zlari ohunikidek, yuzlari ingichka yosh malikalarini-chi? Ularni barchasining yuragida olov bor. Endi esa raqs maydonchasiga qarang. Biz elektr, shisha va texnika yordamida yasagan soxta do'zax olovini ko'ring, ayollar xuddi unda suzib yurganga o'xshaydi. Bu maydonchani yasashdan maqsadim ham shu edi. Pastdan sun'iy do'zax olovi bilan yoritilgan, gulxan ularning etaklarini yamlayapti va borgan sari yuqorilayapti. Raqs tushayotgan malaklarning yuzlari va yelkalariga esa oy va yulduzlarning sovuq yog'dusi tushib turibdi. Bu o'xshatishni to'xtatish ham, bir muddat o'ylash ham mumkin. Eh, bizni yarim tangriga aylanishga yo'l qo'ymaydigan, otaga – oila boquvchisiga aylantiradigan bu ayollar qanchalar go'zal, ular bizga, sizni iloh deb bilamiz, deyishadi-da, aldab o'z tuzoqlariga tushirishadi. Ular naqadar go'zal!

– Ha, ular ajoyib.

– Ularning har birida Sirseya qoni oqadi. Eng kulgilisi, bunga ularning o'zi ham ishonadi. Ularda yoshlik gulxani yonadi, lekin ortlaridan ko'rinmas sharpa ham ergashyapti – manfaatparastlik soyasi hamda tez orada ular orttiradigan o'n kilo vazn, oilaviy hayotdan zerikish soyasi, mayda maqsad va mayda gaplar, ruhiy charchoq va o'z-o'zini tinchlantirish, hadsiz bir xillik va sekin-asta yaqinlashayotgan keksalik sharpasi. Faqat ularning bittasiga bu narsalar xavf solmaydi. Fiola bilan raqs tushayotgan, siz olib kelgan xonimga. Uni topishga qanday erishdingiz?

Klerfe yelka qisdi.

– Uni qayerdan topdingiz?

Klerfe javob berishga shoshilmadi.

– Sizga taqlid qilib gapiradigan bo'lsam, men uni Aida qirolligi ostonasidan topdim. Ancha yillardan beri birinchi marta sizni bunday nazmga oshufta kayfiyatda ko'rishim.

– Har doim ham bunday kayfiyatga tushishning imkoni bo'lavermaydi. Aida qirolligi darvozasi yonida... Sizni boshqa so'roqqa tutmayman.

Shuning o'zi tasavvurlarni uyg'otishga yetarli. Siz uni umidsizlik botqog'idan faqatgina Orfey qutqarishi mumkin bo'lgan zulmat ichidan topgansiz.

– Ehtimol.

– Qanchalik g'alati tuyulmasin, Orfeyga ayolni do'zaxdan qutqarish qimmatga tushgan, u yanada qo'rqinchli yolg'izlikka mahkum bo'lgan. Siz bu qurbonlikka tayyormisiz, Klerfe?

Klerfe jilmaydi:

– Men irimchiman. Bunaqa savollarga javob bermayman, ayniqsa poyga oldidan.

\* \* \*

– Bugun Oberon oqshomi, – o'yladi Lilian goh Fiola, goh Torriani bilan raqs tusharkan. – Bu yerda hamma narsa sehr-langon: bu yorqin nur, bu ko'k sharpalar va goh haqiqiy, goh xayoliy tuyuladigan hayotning o'zi ham jodulangan. Qadam tovushlari umuman eshitilmaydi, hamma narsa musiqa ostida sassiz odimlamoqda. Qor bosgan sanatoriyada haroratim oshib karavotda yotganimda, Neapol yoki Parijdan keltirilgan musiqani tinglaganimda bunaqa bayramni qanchalar xohlagandim. Tun, dengiz sohili, osmonni oy yoritib turibdi, shamolning har epkini mimoza va apelsin daraxtlari iforini olib keladigan bu tunda o'lishga haqqim yo'qdek. Odamlar uchrashadi va bir lahza birga bo'lib, yana boshqa birovning qo'ynida bo'lish uchun olomon orasida ko'zdan g'oyib



bo'lishadi. Qarshingda yangi-yangi chehralar, lekin qo'llar o'sha-o'sha. Nahotki shu rost bo'lsa? Sal narida sevgilim bir dilgir, ammo bu ertakmonand bog'ning sohibi bilan o'tiribdi, bilib turibman, ular men haqimda gaplashishyapti.

Ehtimol, dilgir Levalli gapirayotgan bo'lsa kerak, u mendan sirim haqida so'ragandi, hali ham shuni bilib olmoqchi, shekilli. Nazarimda, shunga o'xshash bir ertak bor edi, pakana odam yashirincha hammaning ustidan kuladi, chunki hech kim uning sirini bilolmaydi. To'g'rirog'i, hech kim uning ismini topa olmaydi. Lilian o'zicha jilmaydi.

– Nimalarni o'ylayapsiz? – so'radi Fiola.

– Bir ertakni esladim, undagi pakana odamning bor-yo'q siri hech kim uning ismini topa olmaganida edi.

Fiola ham jilmaydi. Uning quyoshda qoraygan yuzida tishlari yanada oppoq bo'lib yaltilladi.

– Balki bu sizning ham siringizdir? – so'radi u.

Lilian bosh chayqadi.

– Ismning nima ahamiyati bor?

– Ayrimlar uchun ism hamma narsa.

Raqs tushayotib Klerfening yonidan o'tarkan, Lilian uning o'ychan tikilib turganini sezdi.

«U hech qanday savol bermasligi bilan meni o'ziga bog'lab oldi», – o'yladi u.

– Xuddi juda baxtli odamdek jilmayyapsiz, – dedi Fiola. – Balki sizning siringiz shundadir?

«Ahmoqona savol, – o'yladi Lilian. – Nahotki unga ayol kishidan, baxtlimisiz, deb so'rash odobsizlik bo'lishini o'rgatishmagan bo'lsa?»

– Siringiz nimada axir? – betoqatlandi Fiola. – Buyuk ke-lajakdami?

Lilian yana bosh chayqadi.

– Mening kelajagim yo'q. Bu ko'p narsani yengillashtirishini tasavvur ham qila olmaysiz.

\* \* \*

– Fiolaga qaranglar, – dedi kekxa grafinya Vitelleshi, – xud-diki, bazmda bu notanish ayoldan boshqa qiz-juvon yo'qdek.

– Hayron qolarli joyi yo'q, – dedi kekxa Tereza Marketti.  
– Agar u boshqa bir xonim bilan shuncha uzoq raqs tushgani-da, hamma uni fotihalangan, deb o'ylandi, yoki bo'lmasa xonimning akalari u qizga uylanmasa, o'zlarini haqoratlangan, deb hisoblagan bo'lishardi.

Vitelleshi buklama dastali ko'zoynagi bilan Lilianga sinchiklab tikildi.

– Bu qiz qayerdan paydo bo'lib qoldi o'zi?

– Italiyalik ekan.

– Ko'rinib turibdi. Chala aslzodalardan bo'lsa kerak.

– Xuddi mendek, – piching qildi Tereza Marketti. – Menda amerikalik, hind va ispan qoni oqmoqda. Shunga qaramay, men otamning dollari bilan Ugo Markettiga yordam berdim. Mening ko'magim bilan u yarim vayronaga aylangan koshonasini tiklab, kalamushlarni haydab, ishini yo'lga qo'yib oldi.

Grafinya Vitelleshi o'zini eshitmaganga oldi.

– Sizga gapirish oson, bor-yo'g'i bitta o'g'lingiz bor, yana hisobingizda pul aylanib turibdi. Mening esa to'rtta qizim va bo'g'zingacha qarzim bor. Fiola uylanishi kerak. Axir qayoqqa qarab ketyapmiz, yosh bo'ydoqlarimiz o'zlariga xotinlikka ingliz manekenchi qizlarini tanlashsa-ya. Shundoq ham badavlat bo'ydoqlarimiz kam. Qizig'i, bu hozir urfda. Mamlakatni ochiqdan ochiq talon-taroj qilishyapti.

– Buni taqiqlaydigan qonun ishlab chiqish vaqti keldi, shekilli, – kinoyaomuz davom etdi Tereza Marketti. – Ularning pulsiz ukalari ham badavlat amerikalik xonimlarga uylanishini taqiqlab qo'yishsa yaxshi bo'lardi, axir amerikalik boy xonimlar ham to'ygacha bo'lgan jo'shqin muhabbatdan so'ng erining haramida yolg'iz umr kechirishga mahkum bo'lishini bilishmaydi-ku.

Grafinya yana hech nimani eshitmaganga oldi o'zini. U o'zining ikki qiziga yo'l-yo'riq ko'rsatish bilan band edi. Fiola Liliandan uzoqlashdi va bog'da qo'yilgan stollardan biri yonida to'xtadi. Torriani Lilianni Klerfe yoniga yetakladi.

– Nega men bilan raqs tushmayapsan? – so'radi u Klerfedan.

– Men faqat o'rnimdan qimirlamagan holda sen bilan raqs tushyapman.

Torrian kulib yubordi:

– Oyog'ini sudray olmayapti. U Monte-Karlodagi poygada ishtirok etmasligi kerak edi.

– Unga raqs tushish mumkinmasmi?

– Yo'g'-e, mumkin, faqat u o'ta mag'rur.

– Bu haq gap, – dedi Klerfe.

– Ertadan keyin bo'ladigan poygada ishtirok eta oladimi?

– Bu umuman boshqa gap. Karachchola tos suyagi singanda ham poygada qatnashib g'olib bo'lgan.

– Poygadan oldin o'zingni ehtiyot qilishing kerakmi? – so'radi Lilian Klerfedan.

– Yo'g'-e, albatta yo'q. Shunchaki, raqs tushishga qiynalaman.

Lilian Torriani bilan birga raqs maydonchasiga qaytdi. Levalli yana Klerfening yonidan joy oldi.

– U naq olovning o'zi, – dedi u. – Yoki xanjar. Bu nurlanib turgan koshinlar o'ti didsizlikdan dalolat, nima dedingiz? – dedi u biroz o'ylanib turgach. – Oyning o'zi yetarlicha yorug'lik berib turibdi. Luidji! – qichqirdi u yoniga qarab. – Raqs maydonchasi tagidagi chiroqni o'chir va eski grappadan bir butilka olib kel. – Keyin Klerfega o'girilib: – Bu ayolga qaraganim sayin meni g'am bosyapti, – dedi kutilmaganda. Qorong'ilikda Levallining yuzi qayg'u-hasratga botgandek ko'rindi. – Ayol go'zalligi meni qayg'uga soladi. Nega?

– Chunki u o'tkinchiligini bilasan va uni to'xtatib qolishni istaysan.

– Shu, xolosmi?

– Bilmadim. Menimcha, shuning o'zi yetarli.

– Go'zallik sizni ham qayg'uga soladimi?

– Yo'q, – dedi Klerfe. – Meni butkul boshqa narsa g'amga botiradi.

– Sizni tushunaman. – Levalli qo'lidagi ryumkani bo'shatdi. – Bu narsalar menga tanish. Lekin men ulardan qochib yuraman. Semizligimcha qolishni istayman. Boshqacha bo'lishini istamayman, iching, do'stim.

Ular ryumkani bo'shatib jim qolishdi. Lilian yana ularning yonginasidan o'tib ketdi.

«Mening kelajagim yo'q, – o'yladi u. – Kelajagi yo'q degani – yer qonunlariga bo'ysunmaslik degani. U Klerfega nigoh tashladi. Shu tomonlama u bilan o'xshashmiz, – deya o'yladi yana, – uning bor-yo'q kelajagi poygadan poygagacha bo'lgan vaqti».

U sekin shivirlab nimadir dedi. Klerfe o'tirgan joyni qorong'ilik qoplagandi. U yigitning yuzini g'ira-shira ko'rardi. Lekin u Klerfeni ko'rishi shartmas. Hayotda odamning yuziga qarash shartmas. Uni sezishning o'zi kifoya.

\* \* \*

– Nechanchi o'rindaman? – so'radi Klerfe mashinasini moy quyish joyida to'xtatarkan. Shovqin ovozi bosib ketdi.

– Yettinchi, – qichqirdi Torriani. – Yo'l qanday?

– Dabdala. Bu issiqda rezina xuddi uvildiriqdek yeyilib ketyapti. Lilianni ko'rdingmi?

– Ha. U tribunada o'tiribdi.

– Bu yerda sekundomer ko'tarib, o'ralashib yurmaganiga ham shukur.

Torriani Klerfening og'ziga limonad solingan krujka tutdi. Murabbiy yugurib keldi:

– Xo'sh, tayyormisizlar?

– Biz sehgarmasmiz-ku! – o'shqirdi katta mexanik. – O'ttiz soniyada hech kim g'ildiraklarni almashtirib ulgurmaydi.

– Bo‘laqolinglar! Tezroq!

Bakka katta bosim bilan benzin quyildi.

– Klerfe, – dedi murabbiy. – Dyuval sizdan oldinda ketyapti. Ortidan yetvoling. Toki nafasi qaytmaguncha siqib boravering. Keyin uni orqada tuting. Bizga boshqa narsaning keragi yo‘q. Ikkala birinchi o‘rin ham bizniki bo‘ladi.

– Bo‘ldi! Tayyor! – qichqirdi katta mexanik. Mashina o‘kiringancha oldinga otildi.

«Ehtiyot bo‘lish kerak, – o‘yladi Klerfe. – G‘ijimlab qo‘ymasam bo‘ldi!»

Oppoq va yaltiroq tribuna ko‘z o‘ngidan yilt etib o‘tib ketdi. Keyin yana shosse boshlandi. Ko‘zni qamashtiradigan ufqda ko‘rinib turgan chang buluti orasidagi ko‘lanka Dyuvalling mashinasi edi.

Birozdan so‘ng to‘rt yuz metr uzunlikdagi balandlik boshlandi.

Klerfe Madoni tog‘ tizmasi, limonzorlar, zaytun daraxtlari, shosse, g‘ildiraklar tagidan otilayotgan shag‘al yomg‘iri, qaltis burilishlarni ko‘rdi. Motorning qaynoq nafasini, oyog‘i qiziyotganini his qildi. Qandaydir hasharot xuddi snaryad kabi himoya ko‘zoynagiga urildi. U kaktuslardan iborat devorni, qiyaliklarning ko‘tarilish va burilishlarini aniq ko‘rib borardi. Keyin ko‘z o‘ngida jigarrang Kaltavuturo qal‘asi yastandi. Chang borgan sari quyuqlashib borardi. To‘satdan boshqa bir poygachining o‘rgimchaksimon mashinasiga ko‘zi tushdi.

Klerfe burilishda tezlikni oshirdi. U qat‘iyat bilan bostirib borardi. O‘n daqiqalardan so‘ng u oldinda ketayotgan mashinani aniq-tiniq ko‘rdi. Bu Dyuval edi. Klerfe unga osilib oldi, lekin Dyuval ham yo‘l beray demasdi. Har gal Klerfe o‘zishga uringanda yo‘lini to‘sardi. U Klerfeni ko‘rmagan bo‘lishi mumkin emasdi. Ikki marta qaltis burilishlarda mashinalar shunchalar bir-biriga yaqinlashdiki, poygachilar bir-birining ko‘ziga qarashga ham ulgurishdi. Dyuval atay unga xalaqit berardi.

Mashinalar bir-birining ortidan quvardi. Klerfe shosse yuqoriga ko'tarilib, keng burilish ko'rinmaguncha shoshmadi. Endi u oldinni ko'ra olardi. U oldinda unchalik qaltis bo'lmagan burilish borligini ham bilardi. Dyuval Klerfe uni o'ng tomondan oshib o'tishiga xalaqit berish uchun shossening chetidan yurib burilishga kirdi. Klerfe shuni kutib turgandi. Burumni kesib o'tib u Dyuvalning yonginasidan haydab ketaverdi. Klerfening mashinasi qiyshayib borardi, lekin u bor mahoratini ishga solib mashinani to'g'irladi, hayron bo'lgan Dyuval bir lahza tezlikni paysaytirdi, bundan foydalangan Klerfe undan o'zib ketdi.

Klerfening ortidan chang buluti qoldi. G'ubor orasidan u tuynugidan tutun chiqib turgan viqorli Etnani ko'rdi. Ikkala mashina ham Polissa tomonga – masofaning eng yuqori cho'qqisiga qarab uchib borar, Klerfe oldinda edi.

Klerfe Dyuvaldan oldinlab, oppoq changni yorib chiqqanida ko'm-ko'k osmonga ko'zi tushdi. Yuziga hayotbaxsh xushbo'y sof havo urilganda, motorning issiq havosini, poygalariga hushi yo'q, oddiy, ulkan va osuda dunyoni his qilganda, quyoshni yana ko'rganda, vulqon ortda qolganda va tog'ning bukrisiga yetganda o'zini xuddi Prometeydek his qildi. Klerfe o'ziga Etna lavasidek qaynoq quvvat yog'ilib kelayotganini tuydi. U aniq bir narsani emas, o'ziga bo'ysunuvchi mashinasini va vulqon kraterining otashini, toblangan ko'k metallga o'xshash osmonni tinsiz o'ylardi. Polissigacha deyarli uchib bordi, toki shosse to'satdan pastga qarab qiyalab bormaguncha tezlikni pasaytirmadi. Keyin burilib, pastga yeldi.

Bu yerda tezlikni hammadan yaxshiroq pasaytira oladigan odam g'alaba qozonadi. Klerfe Fiume vodiysi tomonga – pastga uchib borardi, keyin yana to'qqiz yuz metr balandlikka, yalang'och qoyalarga qarab ko'tarildi, u xuddi ulkan arg'amchida uchayotgandek bo'lardi, to Kollenzogacha shu ahvol takrorlandi. Keyin palmalarni, agavalarni, gullar va maysalarni, dengizni ko'rdi. Kampo Felichidan dengiz qirg'og'idagi bitta yagona yo'l kesimi boshlanadi.

Klerfe protektordan teshilgan qoplamani almashtiraman, deb to'xtaganda Lilianni esladi. U tuman orasidan qarab, turfa gullar solingan qutidek rang-barang tribunani ko'rdi.

Vulqon guvillashiga qo'shilib ketgan motorning o'kirishi ham o'chdi.

To'satdan atrofni qamragan sokinlik sabab u xuddi vulqon krateridan otilib chiqqan lkardek his qildi o'zini, keyin sekinlik bilan qanot qoqib yer bag'riga qaytdi, tribuna – uni quchoq ochib kutib turgan, chehrasi butun dunyo ramzi bo'lgan kimsa yoniga qo'ndi.

– Bo'laqol! – qichqirdi murabbiy.

Mashina yana oldinga intildi, lekin Klerfe endi yolg'iz emasdi. Xuddi osmonda parvoz qilayotgan flamingo sharpa-si singari Lilianga bo'lgan tuyg'usi bilan yonma-yon uchardi, sharpa goh ortda qolar, goh o'zib ketar, lekin doim yongina-sida edi.

\* \* \*

Keyingi aylana boshlanganda mashina bo'ysunmay qoldi. Klerfe uni boshqarishga urinardi-yu, lekin orqa g'ildiraklar quloq solmasdi. Uni rul yordamida to'g'irlamoqchi bo'ldi, ammo qo'qqisidan qarshisidan burilish chiqdi. Odamlar xuddi chivinlar asalga yopishgani kabi burilishga yopirilishdi. Mashina quturgandek o'zini goh o'ngga, goh chapga tashlay boshladi, rul qo'lidan chiqib borardi.

Klerfe tormozni bosdi, burilish yaqin qolgandi. U qattiq tormoz berib keyin yana gazni bosdi, rul qo'lini aylantirib yubordi. U yelkasida nimadir qarsillaganini sezdi, burilish yashin tezligida yaqinlashib borardi, yaltirab turgan osmon fonida odamlar uch barobar kattalashib, borgan sari o'sib borishardi. Ularni aylanib o'tishning iloji yo'q edi. Ko'kdan Klerfening ustiga qora narsa quladi. U tishlari bilan allanarsaga yopishib oldi, nazarida, kimdir qo'lini sug'urib olishga urinayotgandi, jonholatda rulga yopishib oldi, yelkasiga

qorong'ilik aro bostirib kelayotgan qaynoq lava tomchilar, shu holatda ham qaysarlik bilan ko'zni qamashtiradigan ko'k parchasiga termulardi. U ko'kdan ko'zini uzmas va tagida mashina raqs tushayotganini his qilardi, keyin birdan bo'shliqni ko'rdi, bu yagona bo'shliq bo'lib, unda ikki oyoqli gigantlar yo'q edi, shunda u yana keskin rulni burdi va akseleratorni bosdi. Mo'jiza ro'y berdi. Mashina bo'ysunib odamlarning yonginasidan o'tib tepalikka chiqib ketdi va toshlaru butalar orasida to'xtadi. Orqa g'ildirakning qoplamasi yorilib mashina yo'lga qapishib qoldi.

Klerfe o'zi tomonga yugurib kelayotgan odamlarni ko'rdi. Avvaliga ular xuddi suvga tosh otilganda sachragan tomchilar kabi har tarafdin yopirishdi. Keyin baqirgancha ortga qaytishdi. Klerfe ularning bujmaygan basharasini, oldinga uzatilgan qo'llarini, o'radek ochilgan og'izlarini ko'rdi. Klerfe ular nima xohlashayotganini bilmasdi. «Ular meni o'ldirishni istashyaptimi yo tabriklashnimi?» – o'yladi u. Endi unga baribir edi. Faqat bir narsadan xavotirda edi – ular mashinaga teginmasligi, unga yordam bermasligi kerak. Bo'lmasa masofani o'zgartirib yuborishardi.

– Qaytinglar! Yo'qol hammang! Teginmanglar! – baqirdi u o'rnidan turmay. Shunda yana og'riq his qildi. Iliq nimadir ko'k kombenzoniga tomchilardi. Klerfe qonni ko'rdi. U olo-monga tahdid qilmoqchi, mashinasidan nariga haydamoqchi bo'lardi-yu, faqat bitta qo'lini ko'tara olardi.

– Teginmanglar! Yordam bermanglar! – Klerfe tebrangancha mashinadan tushdi va radiator oldida turib oldi. – Yordam bermang! Bu mumkin emas!

Odamlar to'xtashdi. Ular uning o'zi harakatlana olishini ko'rishdi. Uning jarohati og'ir emasdi. Jarohatlangan yuzidan qon oqardi. Klerfe mashina atrofini aylanib yugurdi.

G'ildirak g'ilofi yirtilgan bo'lib, bir necha joyidan protektori chiqib qolgandi. Klerfe so'kindi. Ikkinchi marta omadsizlikka duch kelishi. U shoshilib protektorni kesdi va sug'urib olib, g'ilofni tekshirib ko'rdi. Unda hali havo bor edi, kamroq



edi-yu, lekin burilishlarda qattiq haydamasa, bir-ikki silkinishga bardosh beradigandek tuyuldi.

Klerfening yelka suyaklari butun edi, faqat qo'li chiqqandi. U rulni bitta qo'lda boshqarib bo'lsa-da, yo'lda davom etishga urinib ko'rishi kerak.

Yoqilg'i quyish punktigacha yetib borsa bo'ldi, Torriani bilan o'rin almashadi, u yerda mexaniklar, vrachlar bor.

– Yo'ldan qochinglar! – baqirdi u. – Mashinalar kelyapti!

Bu gapni ikki marta qaytarishiga hojat qolmadi. Tog'lar orasidan mashina motorining guvillagani eshitildi, tovush butun dunyoni qoplab, lahzada sayin yaqinlashib kelardi.

Odamlar tog' qiyaliklariga tirmashib chiqa boshlashdi. Shu lahzada shinalarning chiyillagani eshilib, mashinalar Klerfening yonidan o'qdek uchib o'tishdi. O'tishdi-yu, burilish ortida ko'zdan yo'qolishdi.

Klerfe yana rulga o'tirdi. Begona mashina tovushi unga vrach qiladigan har qanday ukoldan ko'ra yaxshiroq ta'sir qilgandi.

– Qoch, hammang! – bo'kirdi u. – Men yuryapman.

Mashina orqaga silkindi, Klerfe rulni shosse tomonga burganida motor o'kirib yubordi. Klerfe tezlikni oshirib yo'lga tushdi, endi u sekinroq haydar va faqat tezroq yoqilg'i quyish shoxobchasiga yetib borish haqida o'ylardi. Hademay to'g'ri yo'l boshlanadi, burilishlar kam qoldi, to'g'ri yo'lda u mashinani bemalol boshqara oladi.

Orqadan motor ovozi eshitildi, uni yana bir mashina quvib o'tdi. Tishini tishiga bosgan Klerfe orqadan paydo bo'lgan mashinaning yo'lini to'sishga urindi. U birovga xalaqit berayotganini va bu taqiqlanganini ham, odobdan emasligini ham bilardi, lekin o'zini boshqara olmasdi. Klerfe toki orqadan kelayotgan mashina burilishda chap tomondan oshib o'tmaguncha yo'lning o'rtasidan ketaverdi. Klerfedan o'zib ketgan poygachi unga qo'lini siltadi va changdan oppoq bo'lib ketgan yuzini burdi.

U Klerfening jarohatlangan yuzini va yirtilgan g'iloflarni ko'rdi. Bir lahzada Klerfe poygachi unga nisbatan rahm-shafqat

his qilganini sezdi, uning ham ko'ngli yumshadi, lekin ortidan yana bir mashinaning ovozini eshitishi bilan birodarlik hissi o'z o'rnini g'azabga bo'shatdi. Bu g'azab sababsiz va chorasiz edi.

«Jazoim shu mening, – o'yladi u. – Orzu-xayollarga berilib yurmasdan, yo'lni kuzatish kerak edi. Faqat havaskorlaringina poygani romantika, deb o'ylashi mumkin. Poyga payti poygachi va mashinadan boshqa narsa bo'lmasligi kerak. Uchinchisi faqat xavf-xatar bo'lishi mumkin, to'g'rirog'i, har qanday uchinchi narsa xavf keltiradi. Dunyodagi barcha flamingolarni jin ursin! Men mashinani to'xtatib qolsam bo'lardi. Burilishlarda ehtiyot bo'lishim, g'iloflarni asrashim kerak edi, endi kech, juda ko'p vaqt yo'qotdim, yana bir la'nati mashina ortimdan quvib kelyapti, ortidan boshqasi. To'g'ri yo'l mening dushmanim. Lilianni ham jin ursin, bu yer uning joyi emas. O'zinga ham ming la'nat, men bunga noloyiqman!»

\* \* \*

Lilian tribunada o'tirardi. Bo'ysunmaslikka harakat qilsa-da, o'rindiqlarda tiqilib o'tirgan olomonning hayajoni unga ham ta'sir qilardi, odamlarning to'lqinlanishiga qo'shilmaslikning iloji yo'q edi.

Ko'plab motorlar tovushi ham narkozdek ta'sir qilar, quloqqa urilib miyani falajlardi.

Oradan biroz vaqt o'tib, quloq shovqinga ko'nikkanida reaksiya boshlanadi. Guvillagan shovqin shosseda ro'y berayotgan voqealardan alohida mavjuddek edi. Shovqin ajralib chiqib, xuddi bulutdek havoda osilib turardi. Pastda esa kichik rang-barang mashinalar yilt-yilt etib ko'zga tashlanardi.

Bularning bari qandaydir bolalar o'yiniga o'xshab ketardi, oq va rangli kombenzondagi mayda odamchalar g'ildiraklarni oldiga solib aylantirishar, domkratlarni ko'tarib yugurishar, murabbiylar bayroqchalar va jadvallarni balandga ko'tarishar, vaqti-vaqti bilan ovoz kuchaytirgichdan diktorning

ovozi yangrar, u poyganing har daqiqa va soniyasini sharhlab turardi. Uning gaplarini birdan anglab olish qiyin edi.

Otchopar ham, buqalar jangi ham xuddi shunday o'yinni eslatardi. Odamlar unga jon-jahdlari bilan berilib ketishadi, chunki xatarning o'zi o'yinga aylanardi. Hayotiga bu o'yin xavf solmayotganlar esa uni jiddiy qabul qilishmasdi.

Lilian xayollarini jamlashga urindi. U o'zini olomon bilan hamnafas, deb his qilgisi kelardi. Lekin ko'nglida nimadir uyg'ondi, bu yangi tuyg'u bo'lib, u bema'ni jinnilikni boshqalardek jiddiy qabul qilishga xalaqit berardi.

Lilian juda uzoq vaqt o'limga yaqin yashagan. Shu sabab ham bu olov bilan o'ynashuv unga beadablik bo'lib tuyulardi.

Poygachilar unga tez yurayotgan mashinalarning oldini kesib o'tishga urinayotgan bolalardek tuyulardi.

Tovuqlar ham ko'pincha shunday qilishadi va g'ildiraklar ostida qolib nobud bo'lishadi. Lekin kap-katta odamlar o'zlarini shunday tutganda, zavq bag'ishlash o'rniga ranj uyg'otishi kerak-ku.

Hayot Lilian uchun muqaddas edi, o'lim ham xuddi shunday. Ular bilan hazillashish yaxshi emas. Jasurlik bu – qo'rquvning yo'qligi emas, birinchisi – ongga xatarni joylasa, ikkinchisi – g'aflat natijasi.

– Klerfe! – dedi kimdir Lilianning yonginasida. Qiz qo'rqqanidan sapchib tushdi. U xatarni anglab ulgurmasdan oldin sezgandi.

– Unga nima bo'ldi?

– U allaqachon o'tishi kerak edi.

Tribunadagi odamlar bezovtalana boshlashdi.

Lilian Torriani pastdan turib qo'l siltaganini, keyin shos-sega ishora qilganini ko'rdi. U bu bilan xavotirga o'rin yo'q, demoqchidek edi, go'yo.

Bu narsa Lilianni boshqa narsalardan ham ko'ra ko'proq qo'rqitdi.

«Unga biror shikast yetgan», – o'yladi Lilian, lekin o'rnidan jilmadi. Uning qo'lidan hech narsa kelmasdi. Bu la'na-

ti yo'lning burilish va qayrilishlarining biri yonida Klerfega taqdirning qo'li yetgan. Soniyalar xuddi qo'rg'oshin osilgandek sekin o'tar, daqiqalar yillarga cho'zilardi.

Oq tasmadek shossedagi bu karusel unga yomon tushdek ko'rina boshladi.

Kutish azobidan qalbida chuqur qora tuynuk paydo bo'lgandek tuyuldi. Radiokarnaydan to'satdan kimningdir dadil ovozi yangradi:

– O'n ikkinchi raqamli Klerfening mashinasi burilishda yo'ldan chiqib ketdi. Hozircha u haqda boshqa ma'lumot yo'q.

Lilian holsizlanib boshini ko'tardi. Hammasi oldingidek edi, osmonning ko'k shu'lasi, rang-barang liboslar, Sitsiliya bahorining betakror oppoq lavasi. Lekin allaqayerda, uzoqlarda rangsiz nuqta, tuman buluti paydo bo'ldi, unda bir odam o'lim bilan olishyapti yoki unga taslim bo'ldi. Nazarida, kimningdir nam qo'li Lilianni bo'g'ayotgandek bo'ldi. U yana o'limning dahshatini his qildi. Nafas olishdan to'xtasang bo'ldi – davomi jimjitlik. Butkul had-hududsiz sokinlik, fano.

Lilian atrofga alangladi. Nahotki, faqat ugina buni anglab yetdi? Nahotki, faqat ugina o'zini barcha hujayralari sochilib ketgandek, havosiz bo'g'ilayotgandek, xuddi yolg'izlikda o'layotgandek his qilgan bo'lsa? Atrofidagi odamlarning yuzida shov-shuvga tashnalikni ko'rди. Ular uchun o'lim ermak edi. Ular o'limdan ochiqchasiga bo'lmasa-da, zavqlanishardi. Bu tuyg'uni soxta afsuslanish bilan niqoblashardi, yolg'on qo'rquv va o'zlariga ajal soya solmagani uchun ichki quvonch bilan zavqlanishardi.

– Klerfe tirik! – e'lon qildi diktör. – Uning jarohati og'ir emas. Uning o'zi mashinani masofagacha olib keldi. U kel-yapti.

Tribunada yengil shovur eshitildi. Lilian odamlarning yuzi qanday o'zgarganini ko'rди. U birdan yengil tortdi. Kimdir ajalning qo'lidan omon chiqdi, kimdir sinmadi, jasorat ko'rsatib yo'lida davom etyapti. Har bir tomoshabin xuddi

Klerfening mashinasini o'zi boshqarayotgandek o'zida jaso-rat his qildi.

Bir muddat o'ynoqi xotinboz o'zini qahramondek, tan-tiq shilqim esa o'zini jasur, o'limdan nafratlanadigandek his qildi. Har qanday xavf-xatarning hamrohi bo'lgan shahvat bu odamlar qonini jumbushga keltirardi. Mana, nima uchun ular dam olish kunlari bu kabi o'yinlarga pul sarflashadi!

Lilian g'azab pardasi ko'zini qoplayotganini his qildi. U bu odamlarning barchasidan nafratlanardi. Yelkalarini rost-layotgan erkaklarni ham, ko'z ostidan nigoh tashlab turgan ayollarni ham yomon ko'rardi. U atrofga tarqalgan achinish to'lqinini ham, olomonning muruvvatini ham yomon ko'rar-di. U hatto Klerfega nisbatan ham nafratni his qildi, bu tuyg'u kutilmagan qo'rquvdan keyin paydo bo'lganini bilsa-da, ba-ribir Klerfeni ham yomon ko'rib ketdi, shu o'lim bilan o'y-nashadigan o'yinda ishtirok etgani uchun ham undan ranjidi.

Sanatoriyni tark etganidan beri birinchi marta Volkovni esladi. To'satdan Klerfega ko'zi tushdi. Uning qonga belan-gan yuzini, uni mashinadan olib tushishganini va oyoqda zo'rg'a turganini ko'rdi.

\* \* \*

Mexaniklar mashinani ko'zdan kechirishardi. Ular tezda g'ildiraklarni almashtirishdi. Torriani Klerfening yonida tu-rardi.

– Yana shu la'nati pokrishka, – dedi Klerfe. – Rulni bitta qo'llab boshqarishga to'g'ri keldi. Lekin mashinaga ziyon yetmadi. Endi sen haydaysan.

– Tushunarli! – qichqirdi murabbiy. – Bo'laqol, Torriani! Torriani bir sakrab mashinaga o'tirdi.

– Tayyor! – dedi katta mexanik. Mashina shosse bo'ylab uchib ketdi.

– Qo'lingizga nima qildi? – so'radi murabbiy. – Sindirdin-gizmi?

– Yo‘q. Chiqdi shekilli. Yelkamdan. Qanday bo‘lganini o‘zim ham bilmayman.

Vrach yetib keldi. To‘satdan turgan og‘riqdan Klerfening ko‘zidan o‘t chiqib ketgandek bo‘ldi. U yerdagi qutiga o‘tirib qoldi.

– Bo‘ldimi? – so‘radi u. – Torriani oxirigacha turib beradi, deb umid qilaman.

– Sizga mumkinmas, – tayinladi vrach.

– Bint bilan bog‘lab qo‘ying, – tayinladi murabbiy. – Kengroq bint olib yelkasini ham o‘rang. Har ehtimolga qarshi yelimlab ham qo‘yish kerak.

Vrach bosh chayqadi:

– Bint yordam bermaydi. Rulga o‘tirishi bilan seziladi.

Murabbiy kuldi.

– O‘tgan yili u ikkala oyog‘ining kaftini kuydirib olgandi. Lekin masofani oxirigacha bosib o‘tgan.

Klerfe hamon quti ustida o‘tirar, o‘zini zaif va notavon sezardi. Vrach cho‘ziluvchan bint bilan yelkasini mahkam bog‘lab qo‘ydi.

«Ehtiyot bo‘lib haydashim kerak edi, – o‘yladi Klerfe. – Odamlarga tezlikni oshirish huquqi berilgani – bu o‘zini Xudo sanashi kerak, degani emas. Aytishlaricha, inson miyasi ishlab chiqaradigan vosita yordamida o‘z shaxsiy tezligidan o‘zib ketar ekan. Bu – yolg‘on. Burgut patlariga yopishib yuqoriga ko‘tarilgan bit o‘z tezligidan oshib ketgan bo‘lmaydimi?»

– Qanday qilib bu ahvolga tushdingiz? – so‘radi murabbiy.

– Hammasi shu la‘nati pokrishkani deb bo‘ldi! Mashina burilishda yo‘ldan chiqib, o‘zi bilan kichikroq daraxtni ham sudrab ketdi. O‘zim esa rulga urildim. Omadsizlikni qarang, jin ursin!

– Bu hali hech narsa emas. Yaxshiyamki, tormoz bilan boshqaruvi uchib ketmapti. Mashinangiz butun. Kim bilsin, yana kimlar o‘yindan chiqarkan, hali poyga tugamadi-ku.

Klerfe mexaniklar yechib olgan temir qismlariga qarab o‘ylanib o‘tirardi. «Men endi bu ishga qarilik qilaman, bu yer

mening joyim emas. Lekin bundan boshqa ish qo'limdan kelmaydi-ku!»

– Mana u! – qichqirib yubordi murabbiy ko'ziga binoklni yaqinlashtirib. – Chaqmoq va yashin! Mana u kelyapti, voy shaytonning malayi-yey! Uni hech kim quvib yetolmaydi endi! Biz juda o'zib ketdik!

– Biznikilardan kim hali ham poygada?

– Veber. U beshinchi o'rinda.

Torriani yonginasidan o'tib ketdi. Ularga qo'l siltagancha ko'zdan yo'qoldi. To'satdan murabbiy raqsga tusha boshladi.

– Dyuval chiqib ketdi! Torriani to'rt daqiqa yutdi! To'rt daqiqa-ya! Xudoning o'zi asrasin uni!

Torriani har bir aylanada oshib borardi.

– Shu shalog'i chiqqan aravada shuncha haydadi-ya, shovvoz! – baqirishda davom etdi murabbiy. – Peshanasidan o'pib qo'yardim hozir! Yashavor, tilla bola! U o'rtacha to'qson kilometr tezlikda haydayapti. Bunaqa yo'l uchun rekord natija bu!

Har bir doirada boy berganlarini qaytarib olayotgan Torrianiga Klerfe hasad qilmayman desa-da, yuragini alam kuydirib o'tdi.

Ular orasidagi o'n olti yillik farq o'z ishini qilayotgandi.

Ochig'i, har doim ham shunday bo'lmagan.

Karachchola son suyagi singanda ham chidab bo'lmas og'riqqa bardosh berib, o'zidan ancha yosh bo'lgan rekordchi-poygachilardan o'zib ketgandi.

Nuvolari va Lang urushdan keyin mahorat ko'rsatishdi, xuddiki, o'n yoshga yosharib ketgandek. Vaqti-soati yetib har bir poygachi o'z o'rnini boshqa bironvga bo'shatib beradi. Klerfe ham shu muddatga oz qolganini bilardi. Sportchining bor fojiasi shunda, agar vaqtida o'lmasang, unda vaqttni cho'zishingga to'g'ri keladi.

– Valentenining porsheni aylanmayapti. Monti ortda qolyapti! Endi uchinchi va to'rtinchi o'rinlar bizniki! – qichqirdi murabbiy. – Agar Torrianiga bir kor-hol bo'lsa, uning o'rniga chiqa olasanmi?

Klerfe murabbiy unga shubhalanib qaraganini sezdi. «Hozircha mendan so'rashyapti, – o'yladi u. – Hademay so'ramay qo'yishadi».

– Torriani kuchi yetguncha haydab tursin, – dedi u.

Murabbiy «ma'qul» degandek bosh irg'adi.

– Jarohatlangan yelka bilan burilishlarda mashina boshqarish o'z joniga qasd qilish bilan barobar.

– Tezlikni kamaytirishimga to'g'ri keladi.

– Yo Tangrim, – o'tirgan joyida ibodat qila boshladi murabbiy. – Veber va Torrianini o'zing asra! Shunday qilginki, Torellining tormozi ishdan chiqsin. Bordonining baki teshilsin, ilohim!

Har gal poyga mahali murabbiy birdan o'ta xudojo'y odamga aylanib qolardi. Lekin poyga tugashi bilan yana kufr ishlarga o'zini uradi.

Oxirgi aylana oldidan Torriani kutilmaganda taqqa to'xtadi. U butun tanasi bilan rulga osilib yotardi.

– Nima bo'ldi?! – baqirib yubordi murabbiy. – Boshqa hayday olmaysizmi? Tinchlikmi o'zi? Chiqaringlar uni mashinadan! Klerfe! Yo Tangrim, uni quyosh uribdi! Bahorda-ya! Siz hayday olasizmi? Mashinaga qaranglar...

Mexaniklar mashinani so'nggi aylana uchun tayyorlay boshlashdi.

– Klerfe! – murabbiy unga o'tinib qaradi. – Mashinani marragacha olib borishingiz kerak. Oldinda Veber. U sizdan ikki daqiqaga oshib ketdi. Biz yana besh daqiqa yo'qotishimiz mumkin. Lekin bu muhimmas. Baribir uchinchi bo'lasiz. Tezroq bo'ling, o'tiring!

Klerfe allaqachon mashinada edi. Torrianining ahvoli chatoq.

– Nima bo'lsa ham mashina marraga yetib borsin-da, – nola qilardi murabbiy.

– Uchinchi o'rin bo'lsa, yetadi! Bizga boshqa narsaning keragi yo'q. Bordonining kamerasi yorilsin, ilohim!

«Yana bir davra aylansam bo'ldi, – o'yladi Klerfe. – Hademay hammasi tugaydi. Yelkamning zirqirashiga chidasa



bo'ladi. Konslagerda bundan battar azoblarga chidaganman. Qachonlardir fashistlar bir bolakayning sog'lom tishlarini parmalashganini ko'rganman, ular bolakay do'stlarini so-tishini istashgan. Lekin u xoinlik qilmagan. Oldinda Veber. Qanday tezlikda yurganimning nima farqi bor. Yo'q, farqi bor. Ko'z oldimda nimadir aylanyapti. Jin ursin bu akseleratorni, uni qattiqroq bosishim kerak!»

\* \* \*

Buzuq mikrofondan diktorning ovozi chiyillab eshitildi:

– Klerfe yana poygada ishtirok etyapti. Torriani o'yindan chiqdi.

Klerfening mashinasi tribuna yonidan uchib o'tdi. Lilian uning bintlangan yelkasini ko'rib ulgurdi. «Ahmoq! – o'yladi u. – Hech qachon ulg'aymaydigan, g'o'r bola. O'ylamay ish qilish – jasorat, degani emas. U yana shikastlanadi. Sog'lom odamlar o'lim nimaligini bilisharmidi? Buni faqat o'pka kas-sallar sanatoriysida yashaydiganlar biladi, har nafasni buyuk mukofot, deb kurashadiganlar biladi».

Kimdir uning qo'liga tashrif qog'ozini tutqazdi. U qog'ozni uloqtirib, o'rnidan turdi. Yuzlab ko'zlar uni kuzatib turardi. Lilianning nazarida quyosh aks etib turgan yuzlab shishalar ortidan ergashgandek tuyuldi. «Naqadar bo'm-bo'sh nigoh-lar, – o'yladi Lilian. – Bu ko'zlar boqib turgani bilan hech nar-sani ko'rmayapti. Har doim shunday bo'lganmi?» U yana qor bosgan sanatoriyni esladi. «U yerda hammasi boshqacha, u yerdagi odamlarning nigohi sizni tushunadi. Nahotki, biror narsani anglashi uchun kishi fojiani, qashshoqlikni, azobni, o'lim nafasini boshidan o'tkazishi kerak?»

U tribunaning qatorlaridan tushib borar ekan, uning or-tidan ko'zguga o'xshagan ko'zlar kuzatib qolardi. «Ularning ko'zlarida nima aks etgan? – o'yladi u. – Har doim bir xil nar-sa. Bo'shliq va bu odamlar his qiladigan istak».

U xuddi shamol to'sig'ini yorib o'tgandek to'satdan taqqa to'xtadi. Bir soniyada teatr dekoratsiyasidek rang-baranglik ko'zdan yo'qolgandek bo'lib, Lilianga bu dekoratsiyaning panjaralari, asl mohiyati ko'ringandek tuyuldi. Bir lahzada uning ko'zi yarq etib ochildi. Panjaralar hamon joyida turar va ularga istagan dekoratsiyani o'rnatish mumkinligini tushundi. «Ehtimol, buni hech kim bilmas, – o'yladi u. – Chunki har bir odam bitta, yagona dekoratsiyada yashaydi. U bu dunyoda faqat shu qoplama mavjudligiga ishonadi. Dekoratsiyalarning son-sanog'i yo'qligini bilmaydi. U o'zining dekoratsiyasi fonida toki u eskirib, jandaga aylanib, xuddi eski lattadek tanasiga yopishib qolmaguncha yashaydi. Shunda odam endi donishmand keksalik keldi, men xom xayollarga berilish odatini tashladim, deya o'zini aldaydi. Haqiqatda esa hech narsani tushunmagan bo'ladi».

Lilian tribuna yonginasidan mashinalar xuddi snaryaddek uchib o'tganini ko'rди. Mashinalar ortidan yuziga issiq shamol urildi. «Donishmandlik doim navqiron, – o'yladi u. – Dunyoda bezaklar, niqoblar ko'p, o'yin hech qachon tugamaydi. Yalang'och panjaralarni ko'rib qo'rqib ketgan kishi turli dekoratsiyalardagi sahna ko'rinishlarini tasavvur qilib ko'rishi mumkin. Tristan va Izolda hech qachon o'lmagan. Romeo va Juletta ham, Gamlet ham, Faust ham o'lmagan».

U hech qachon hech narsa o'lmasligini tushundi, barcha narsalar boshqa narsaga aylanadi, xolos. Lilian bu yangi fikrlarini odamlar o'qishi kerak, deb o'yladi. U uchun dunyo tilla haykallari jonlangan zalga aylandi. Bu haykallar tamom degan so'zni uzoq-uzoqlarga, koinotning chekka burchagiga uloqtirishdi, bu so'z abgor ahvolda barcha tomonidan unutilishga mahkum bo'lib, g'arib holda uchib yurardi.

Lilian pastga tushganda Klerfega bo'lgan muhabbat dovuldek yopirilib, butun tanasini egallab oldi. Lilian to'satdan uni tashlab ketishini tushundi.

\* \* \*

Lilian samolyotda Rimga uchib bordi, u yerdan Parijga ketmoqchi edi. Klerfe unga bir necha kun, to yelkasi tuzal-maguncha Palermoda bo'lishni taklif qildi, keyin esa bahor yurgan yo'llardan shoshilmay sayohatga chiqishni, Sitsiliyadan boshlab butun Italiyani kezishni, Lombardiya ko'liga borishni, undan so'ng Fransiya va Belgiyadan o'tib, lolalarga ko'milgan Gollandiyaga sayr qilishni istagan edi.

Lekin Lilian kutishni istamadi. Uning ketgisi keldi. U hali uzoq yashashi kutilayotgan odamlarga nisbatan vaqtga boshqacha munosabatda edi. «Kecha» u uchun bir oy oldin-dek edi. Uning nazarida har bir tun bir haftaga cho'zilardi. Tun xuddi qora daradek bir kunni ikkinchisidan ajratib turardi. Uning hisobicha, Sitsiliyada bir necha oy qolib ketgan-dek edi. Endi u yolg'iz qolishni, xayollarini jamlashni istardi. Klerfega «Seni Parijda kutib olaman», deya va'da berdi.

U «Alitalia» avakompaniyasining samolyoti derazasidan pastga qarab turardi. Nazarida dalalar, maysazorlar, tog'lar harakatsizdek tuyulardi, vaholanki, samolyot eng tez avtomobildan ham ko'ra tezroq harakatlanayotganini bilardi.

«Hammasi ularga qayerdan qarayotganingga bog'liq», – o'yladi u.

Lilian ilgari sira samolyotda uchmagandi. Soxta vaznsizlik tuyg'usi uni hayratga soldi.

U o'zini go'yo Sen-Shapel ibodatxonasida quyosh nuridan sarxush bo'lgandagidek his qilardi.

Rimga yetib kelishdan chorak soat oldin yaltiroq bulut qatlami atrofni qamrab oldi-yu, yeru ko'k bir xil tusga kirdi. «Yerdan qaralsa, osmon hozir kulrang va qayg'uli ko'rinadi, – o'yladi Lilian. – Bu yerda esa xuddi sadafdek tovlanyapti».

Yana o'sha gap, hammasi qayerdan nazar tashlashingga bog'liq, ba'zan hayot bizga barchasini tushunish uchun oddiy saboqlar beradi. Lilian yana pastga qaradi. Bulut qatlami quyuqlashib, oppoq tog'larga aylana boshladi. To'satdan Li-

lianning ko'zi moviy osmonga tushdi, qorli cho'qqilar ko'zni qamashtiradigan darajada yaltirar, hammasi xuddi sanatoriydagi qish mavsumlaridek edi.

Uning ko'nglini mavhum g'amginlik egalladi. Samolyot qo'nishga harakat qilayotganda quvondi: u xuddi lochindek pastga – uzoqdagi Tibr shahri tomon parvoz qilardi.

Lilian Rimda ikki kun bo'ldi. Qattiq charchagani uchun faqat uxladi. Aviakompaniya idorasida Lilian Venetsiya tasvirlangan plakatni ko'rib qoldi.

U Parijga emas, Venetsiyaga borishga qaror qildi. Suv ustida qurilgan shaharni ko'rgisi keldi, u yerda uylar xuddi suvda suzib yurgandek tuyulardi. Ularni qaytgunicha ko'rib qolishni istardi. «Qaytgunimcha? – hayratlanib o'yladi u. – Lekin qayerga? Qayerga? Axir u bir paytlar o'zi o'qigan g'aroyib romandagi kabi oyoqsiz tug'ilgan, bir umr uchishga mahkum qush kabi yaralmaganmi? Uning o'zi shu taqdirni tanlamadimi?»

Lilian shu xayolda Klerfeni ogohlantirmay turib Venetsiyaga chipta sotib oldi. «Baribir u qaytguncha Parijga yetib boraman-ku», – o'yladi u.

Samolyot kechqurun, shahar pushti rangga bo'yalgan mahal qo'ndi. Ko'rfaz suvi harakatsiz edi, uylar va samo unda shunday tiniq aks etgandiki, samolyot osmonda uchyaptimi yoki dengizda – bilib bo'lmadi.

Lilian «Danieli» otelining burchak xonasini egalladi. Liftchi unga shu zahoti Jorj Zand va Alfred Myusse o'rtasidagi iztirobli muhabbat aynan ularning mehmonxonasida ro'y berganini ma'lum qildi.

– Kim kimni aldadi? – so'radi Lilian. – Yosh oshiq yigit o'zining kekxa jazmaninimi?

– Albatta, yo'q! – kinoyali kuldi liftchi. – Zand xonim janob Myussen chuv tushirdi. Bitta italyan vrachi bilan. Janob Myusse shoir edi.

Liftchining ko'zi chaqnab ketdi. Lilian unda hurmat bilan birga pichingni ham uqdi. «U o'zini o'zi aldagan, – o'yladi Lilian. – Bittasining yoniga borib, boshqasini ham eslagan».

Oqshom Lilian tor ko'chalar bo'ylab sayr qildi, keyin gondol qayig'iga chiqib, «La Feniche» teatriga yo'l oldi. Kirish eshigi binoning boshqa tomonida bo'lib, eshik yonida gondollar ancha kam edi. «Teatrga xuddi o'g'riga o'xshab kiranman, – o'yladi u. – Xuddi ilgari tog'dan sezdirmay tushib hayotga kirib borganimdek».

– Venetsiyada yolg'iz yurish mumkinmas, – dedi qayiqchi Lilian tushayotgan payt. – Ayniqsa, yosh va chiroyli qizlarga.

Lilian qizarib botayotgan ufqqa qaradi.

– Bu yerda o'zini yolg'iz sezish mumkinmi?

Qayiqchi liralarni cho'ntagiga soldi.

– Boshqa joylarga qaraganda ko'proq. Agar siz shu yerda tug'ilmagan bo'lsangiz, albatta, – qo'shimcha qildi u.

\* \* \*

Lilian zalga kirganda sahna pardasi endi ko'tarilgan, o'n sakkizinchi asr komediyasi namoyish etilayotgan edi. Lilian atrofga alangladi, zalni yoqimli nimqorong'ilik qoplagandi. Chiroq faqat sahnadan va sofitlardan tushib turardi. Bu dunyodagi eng chiroyli teatr edi, qadimda, hali odamlar elektr toki nimaligini bilmagan paytlarda bezakli naqshinkor ustunlar ko'plab chiroqlar nurida teatrni sehrli maskanga aylantirgan bo'lsa kerak. Lekin u hozir ham fusunkor edi.

Lilian yana sahnaga qaradi. U italyan tilini yaxshi tushunmasdi, shuning uchun pesaga e'tibor bermadi. Uni g'alati yolg'izlik va sog'inch tuyg'usi qamrab oldi. Nahotki, qayiqchi haq bo'lsa? Balki hamma gap u qat'iyat bilan bu oqshomdan noxushlik qidirayotganidadir. Teatrga kelasan, pesani tomosha qilasan, avvaliga hech nimani tushunmaysan, tushunganingda esa vaqting tugagan bo'ladi...

Sahnada yengilgina tomosha qo'yilayotganini bir qarashda tushunish mumkin edi. Quvnoq komediya, firibgarlik, ayvorona qiliqlar va sodda odam ustidan achchiq hazillar...

Lilian bu sahna ko'rinishi unga nega bunchalik qattiq ta'sir qilganini tushunmadi. U ichidan otilib chiqayotgan yig'ini zo'rg'a to'sib, lablariga dastro'molchasini mahkam bosib olgandi.

Faqat yig'i takrorlangandan keyingina u dastro'molchasi-da katta to'qrangli dog'larni ko'rdi va hammasini tushundi. U o'zini o'nglash uchun bir daqiqacha kutdi, lekin qon to'xtamasdi. Tashqariga chiqish kerak edi, biroq Lilian bir o'zi yura olishga madori yetishiga ishonmasdi. U fransuzchalab qo'shnisidan tashqariga chiqishda yordam berishini so'radi. Unga o'girilib ham qaramagan kishi norozi bo'lgancha bosh chayqab, rad javobini berdi. Qo'shni bor e'tiborini pesaga qaratgani uchun Lilian nima deganini tushunmadi ham. Shundan keyin Lilian chap tarafida o'tirgan ayolga o'girildi. U xotirasini titkilab italyan tilida «yordam bering» so'zini eslashga urinardi.

Lekin bu so'z sira miyasiga kelmasdi.

– Misericordia, – shivirladi Lilian va nihoyat. – Misericordia, per favore<sup>2</sup>!

Yoshi o'tib qolgan mallasoch ayol unga hayratlanib qaradi:

– Are you sick<sup>3</sup>?

Labiga ro'molchasini bosgancha Lilian chiqmoqchiligini ishora qilib tushuntirdi.

– Too many cocktails<sup>4</sup>, – dedi mallasoch xonim. – Mario, darling, help the lady to get some fresh air. What a mess<sup>5</sup>!

Mario bir so'z demay o'rnidan turdi va Lilianning qo'lidan tutdi.

– Faqat eshikkacha, – shivirladi u. Mario unga qatorlar oralab o'tishga yordam berdi. Kimdir boshini burib qaradi, aynan shu mahal sahnada abjir oshiq g'alabasini nishonlar-

<sup>2</sup> Misericordia, per favore – shafqat qiling. Shafqat, iltimos!

<sup>3</sup> Are you sick – siz kasalmisiz?

<sup>4</sup> Too many cocktails – siz juda ko'p kokteyl ichib yuboribsiz.

<sup>5</sup> Mario, darling, help the lady to get some fresh air. What a mess – Mario, azizim, xonimga chiqishga yordam bering, qanday ko'ngilsizlik.

di. Eshikni ochgan Mario Lilianga sinchkovlik bilan tikildi. Lilianning rangi oqarib, labiga bosilgan barmoqlari orasidan ko'kragiga qon tomchilardi.

– But, signora, you are really sick<sup>6</sup>, – dedi esankirab qolgan Mario. – Shell I take you a hospital<sup>7</sup>?

Lilian bosh chayqadi.

– Yo'q. Kasalxonaning keragi yo'q. «Danieli» oteliga... Mashina chaqiring... Taksi, iltimos... – u zo'rg'a gapirardi.

– Xonim, axir Venetsiyada taksi yo'q! Bizda faqat gondol qayiqlari bor. Yoki motorli qayiqlar. Siz klinikaga borishingiz kerak.

– Yo'q. Yo'q. Qayiq! Otelga bormoqchiman. U yerda vrach bo'lsa kerak. Iltimos, qayiqlar yoniga olib borib qo'ying... Hali ortga qaytishingiz ham kerak.

– Nega? – dedi Mario. – Lyusil kutib turadi. Baribir u ital-yanchani umuman tushunmaydi. Qolaversa, pesa ham zerikarli ekan.

U gondol to'xtatdi.

– Motorli qayiq yubor! Tezroq!

Tez orada qayiq yetib keldi. Lilian Mario ko'magida unga o'tirdi.

Lilian kresloga yonboshladi. Osmon yulduzli edi, ko'rfazda esa suv sayoz joydan o'tib bo'lmagani sabab qizil gurlyandalar suvgacha tushgandi, vaporet<sup>8</sup> shovqin solib yonlaridan suzib o'tdi, u yerda hayot qaynardi. Ko'prik ostida allaqanday tenor «Santa Lyuchiya»ni kuylardi. «Balki o'lim shudir, – o'yladi Lilian boshini orqaga tashlab, – balki o'limimdan oldin suvning shildirashini va qo'shiqlardan parcha eshtarman, boshim uzra yulduzlarni ko'rarman hamda mana bu tinimsiz «How are you feeling?»<sup>9</sup> deb so'rayotgan

<sup>6</sup> But, signora, you are really sick – sinora, siz chindan ham betob-siz.

<sup>7</sup> Shell I take you a hospital – sizni shifoxonaga jo'natamiz, ijozat bering.

<sup>8</sup> Vaporet<sup>8</sup> – shatakchi kema.

<sup>9</sup> How are you feeling – o'zingizni qanday his qilyapsiz?

odamni ko'rarman. Yo'q, bu hali o'lim emas», – o'yladi u biroz tin olgach. Mario unga qayiqdan tushishga yordam berdi.

– Hisob-kitob qiling, – shivirladi u otel eshigi tagida – kanal bo'yida turgan xodimga. – Men uchun to'lavoring va vrach chaqirtiring. Tezroq!

Mario uni xoll bo'ylab olib o'tdi. U yerda odam kam edi. Yosh liftchi hali ham navbatchilik qilardi. Lilian o'zini majburlab unga jilmaydi.

– Bu rostdan ham ko'ngilxiraliklar ro'y beradigan otel ekan, siz haq bo'lib chiqdingiz.

– Sizga gapirish mumkinmas, xonim, – dedi Mario. Bu o'ta odobli va ovozi yoqimli yigit Lilianga xaloskor farishtadek ko'rindi. – Vrach hozir yetib keladi. Doktor Pizani. U juda yaxshi vrach. Sizga gaplashish mumkinmas. Muz keltiring! – dedi yigit liftchiga o'girilib.

\* \* \*

Lilian bir hafta to'shakdan turmadi. Klerfega ham xabar bermadi.

Klerfe uni kasal holda ko'rishini istamasdi.

O'zi ham to'shakda yotgan mahali uni ko'rishni xohlama-di. Bu dard faqat unga tegishli edi, faqat o'ziga.

U uzzukun goh uxlar, goh mizg'ir edi, to yarim kechagacha uyqu aralash qayiqchilar qo'rs ovozda bir-biriga baqirib gapirganini, Skiavonida bog'langan qayiqqlar qirg'oqqa urilgan ovozlarini eshitardi. Vaqti-vaqti bilan vrach kelib turar, ba'zi-da Mario ham kelardi.

Vrach uni tushunardi, shunchaki biroz qon ketdi, unchalik vahimali emas, derdi. Mario esa gullar olib kelar, keksa xonimlar bilan muomala qilish qanchalik og'irligidan hasrat qilardi. Yosh, badavlat va tushunadigan qizni uchratishni orzu qilardi. U Lilianni nazarda tutmasdi. Lilianning zuvalasi boshqaligini allaqachon tushungandi. U bilan bemalol ochiqchasiga gaplashar, unga xuddiki, bir sohada faoliyat yuritayotgan do'stidek muomala qilardi.



– Sen ajal bilan yashaysan, men esa umri va vaqti tugab borayotganidan vahimaga tushgan ayollar bilan, – dedi u bir kuni kula-kula. – Yoki o'zing vahimadasan-u, oshig'ing esa ajal. Farqi shundaki, u senga sadoqatli. Lekin sen uni har qadamda aldab yuribsan.

Mario Lilianni kuldirardi.

– Keyin nima bo'ladi, Mario? Xonimlardan biriga uylanasanmi?

Mario jiddiy tortib bosh chayqadi:

– Yo'q. Men pul yig'yapman. Yetarlicha mablag'im bo'lgach, kichikroq shinam bar ochaman. Paduyeda unashtirilgan qizim bor. U fettuchinilarni shunaqa mazali tayyorlaydiki, qo'li juda shirin! Do'sting bilan birga biznikiga mehmonga kelasanmi?

– Boraman, – dedi Lilian. Mario uni uzoq yashashiga ishongandek ovutishga urinar, bu esa Lilianni juda ta'sirlantirardi. Aslida uning o'zi ham Xudo faqat u uchun mo'jiza yaratishiga ich-ichidan ishonardi. Axir uning o'zi ham barcha ehtiyot bo'l, deb taqiqlagan narsalar foyda keltirishiga ishonmaganmidi? Hamma ham mo'jiza kutadi. «Men ko'ngli bo'sh, aqlsizman, – o'yladi u. – Kimningdir qo'li meni chorasiz vaziyatda yelkamga qoqib qutqarib oladi, deb bolalarcha ishongan jinniman». Yuziga quyosh nuri tushib turgan Mario-ga tikilib, Sitsiliyada payti bir ingliz poygachisidan eshitgan gapini esladi. Poygachi roman xalqlarida hazil tuyg'usi yo'q, deb ta'kidlagandi, ular uchun bu – o'z mavqeini ko'rsatish usuli – allaqachon bosib o'tilgan yo'l, degandi. Yumor johillikka yo'g'rilgan madaniyat mevasi, o'n sakkizinchi asrda odamlar yumor nimaligini bilishmagan, lekin ular nazokatni yaxshi bilishgan va o'zlari bosib o'ta olmagan narsalarga e'tibor ham qaratishmagan. Fransuz inqilobi vaqtida o'limga hukm qilinganlar jallod yoniga ketayotganida, nazokatni saqlagan holda, o'zini xuddi saroyga ketayotgandek tutishgan.

Bir kuni Mario Lilianga papa suv bilan muborak qilgan tasbeh va naqshinkor Venetsiya xatdonini olib keldi.

– Men senga hech nima sovg'a qila olmayman, Mario, – dedi qiz.

– Menga sovg'aning keragi yo'q, birovga sovg'a berishni yaxshi ko'raman, chunki o'zim xayr-saxovat evaziga kun ko'rishga majburman-ku.

– Majbursan?

– Juda daromadli ish bo'lgani uchun undan voz kechish ham gunoh. Lekin ishimni oson, deb bo'lmaydi. Mendan hech narsa istamasliging juda yoqadi.

Lilian kulib yubordi. Mario uchun muhabbat ish edi.

Lilian yigit fikrini o'zgartirguncha ketib bo'ldi. Bu suhbatdan to'rt kun o'tib, vrachning e'tiroziga qaramay Lilian Parijga uchib ketdi.

\* \* \*

Klerfe Lilianni Parijda rosa izladi, keyin uni sanatoriyga qaytib ketgan deb o'yladi.

U yerga qo'ng'iroq qilib adashganini bildi. Oxir-oqibat, Lilian meni tashlab ketdi, degan xayolga bordi. U qizni Parijdan izlashda davom etdi, lekin hech qayerdan daragini topmadi. Hatto ezma Gaston amaki ham jiyani qayerdaligini bilmasligini va bilishni ham istamasligini ma'lum qildi. Keyin Klerfe uni unutishga va o'zining oldingi hayotiga qaytishga harakat qildi. U yana ichishni va ko'ngilochar sarguzashtlar izlashni boshladi. Lekin uning ko'nglini egallagan g'ashlik sira tark etmasdi. Ko'p o'tmay Lidiya Morelli Parijga keldi.

– Qushcha sendan voz kechdimi? – so'radi Lidiya.

– U seni juda xavotirga solibdi, shekilli. Ilgari boshqa ayollar haqida sira so'ramasding.

– Demak, seni tashlab ketibdi.

– Tashlab ketdi? Ahmoqona gap! – jilmaydi Klerfe.

– Bu dunyodagi eng qadimiy gap, – Lidiya undan ko'z uzmad.

– Nima, oilaviy mojaro uyushtirmoqchimisan?

– Sen sevib qolibsan, o'ziga bino qo'ygan do'stim.  
 – Sen esa rashk qilyapsan.  
 – Ha, men rashk qilyapman, sen esa qiynalyapsan. Mana, farqimiz nimada.

– Rostdanmi?  
 – Men kimni rashk qilishni bilaman, sen esa yo'q. Biror joyga borib o'tiraylik.

Klerfe Lidiyani restoranga olib bordi. Bu oqshom Klerfe-ning sarosimasi qahrga aylanib, u Liliandan g'azablana boshladi. Uni faqat erkaklarga xos alam egallab olgandi, chunki voz kechish tashabbusi undan chiqmadi. Lidiya uning og'riqli nuqtasiga urishni niyat qilgandi, buni epladi ham. Suhbat yakunida shunday dedi:

- Sen uylanishing kerak.
- Kimga?
- Bunisini bilmadim. Oila qurishga tayyor bo'libsan.
- Sengami?

Liliya jilmaydi:

– Yo'q, menga emas. Senga munosabatim yaxshi, shuning uchun senga turmushga chiqa olmayman. Qolaversa, puling kam. Yaxshisi, puli bor ayolga uylan. Unaqalar juda ko'p. Yana qachongacha poygachi bo'lib yurmoqchisan? Poyga faqat yoshlik payti yarashadi.

– Bilaman, Lidiya, – dedi Klerfe.  
 – Bunchalik sarosimaga tushma, hammamiz ham qariy-miz. Faqat kech bo'lmasdan oldin kishi hayotini yo'lga qo'yib olishi kerak.

- Kerak, deb o'ylaysanmi?
- Ahmoq bo'lma. Boshqa nima ham qilardik?

«Men esa hayotini yo'lga qo'yishni istamaydigan odamni bilaman», – o'yladi u.

– Xo'sh, qanday qarorga kelding? Kimga uylanishim kerak, Lidiya? Nechuk birdan mehribonliging tutib qoldi?

Lidiya sinovchan tikildi:

- Bu haqda gapiradigan vaqt keldi. Sen o'zgarding.

Klerfe bosh chayqadi.

– Xayr, Lidiya, – dedi u oʻrnidan turib. Lidiya unga yaqin-roq bordi.

– Qaytasan-ku, toʻgʻrimi?

– Necha yildan buyon tanishmiz?

– Toʻrt yil. Lekin muammomiz ham koʻp boʻlgan.

– Ha, birga oʻtkazgan yillarimiz kuya yegan parchaga oʻxshaydi.

– Shunchaki, ikkalamiz ham bir-birimiz uchun javob berishni istamaganmiz, ikkalamiz ham hech narsa berishni istamay, faqat ega boʻlishni istaganmiz.

– Bunisi ham, unisi ham notoʻgʻri.

– Biz bir-birimizga juda mos edik, Klerfe.

– Hech nimasi mos kelmaydigan boshqa odamlar kabi, shundaymi?

– Bilmadim.

Lidiya bir lahza uning pinjiga suqildi.

– Istasang, senga bir sirni ochaman?

– Qanaqa? Sirning oʻzi yoʻq, lekin hammasi sir edi, demoqchimisan?

– Yoʻgʻ-e, faqat erkaklar shunday deb oʻylashi mumkin. Men senga ayollar nima deb oʻylashini aytmoqchiman. Hammasi koʻringanidek yomon ham, yaxshi ham emas. Qolaversa, uzil-kesil yakuniy narsaning oʻzi yoʻq. Bugun kechqurun menikiga kel.

\*\*\*

Klerfe bormadi. Uning kayfiyati tushib, oʻzini yomon his qilardi. Bu holati oldingi tanish holatlarga sira oʻxshamasdi. U nafaqat Liliandan, balki oʻzining ham nimasidandir ayrilgandi. Oʻzi bilmagan holda Klerfe uning hayot tarzini qisman qabul qilgandi. «Ertasi yoʻq hayot, – oʻyladi u. – Bunday boʻlishi mumkin emas, ertangi kun mavjud, nima boʻlganda ham men uchun ertangi kun boʻlishi kerak».

«Lilianni deb hammadan uzoqlashdim, – ko'ngli g'ashlanib o'yladi Klerfe. – Uni deb o'zimni yigirma yilga yoshargandek hisobladim, ahmoq bo'lmasam shunaqa qilarmidim! Ilgari, Lidiya Morelli bilan uchrashib yurganimda kunlarim mazmunli o'tardi, endi esa bo'layotgan voqealarni eslab, xuddi maktab o'quvchisidek ish tutganimni tushunyapman. O'zimni xuddi yomon vino ichib, bosh og'rig'iga duchor bo'lgandek his qilyapman».

«Lilianga uylanishim kerak edi, – o'yladi u. – Lidiya haq, biroq o'zi o'ylaganchalik emas». To'satdan Klerfe o'zini erkin his qildi. Ilgari u sira uylanish haqida o'ylamagandi. Endi esa uylanish u uchun eng to'g'ri qaror bo'lib tuyula boshladi. U hayotini Liliansiz tasavvur qila olmasdi. Bu shunchaki asossiz romantika ham, ta'sirchanlik ham emasdi. Shunchaki, Liliansiz hayot unga bir xil va zerikarli, chirog'i o'chgan xonadek qorong'i tuyula boshladi.

\* \* \*

Klerfe Lilianni izlashda davom etdi. U Lilian yana «Bisson» oteliga joylashgan bo'lsa kerak, deb taxmin qildi.

Lilian yana bir necha kun yolg'iz yashadi. U o'zini ehtiyot qilishi lozimligini bilardi, lekin vaqtni ham zoye ketkazishni istamasdi. U o'zini sog'lom his qilmaguncha Klerfe uni ko'rmasligi kerak edi. Qiz ko'p vaqtini uxlash bilan o'tkazar, hech qayerga chiqmasdi. Xonasi derazasidan ajoyib manzara ko'zga tashlanardi: Sena qirg'oqlari, konserjlar, yuk kemalarini shatakka olgan kemalar, avtomobillar oqimi, Sen-Shapel ibodatxonasi gumbazi, Sen-Mishel xiyoboni, yam-yashil daraxtlar va iliq bahor oqshomlari... U bir umr derazasidan shunaqa manzarani ko'rishni orzu qilgandi. Klerfe uning chamadonlarini «Ris» mehmonxonasida qo'riqlab o'tirar, u esa o'zi bilan Sitsiliyaga olib ketgan ikkita kichikroq sakvoyaj bilan chegaralanib turardi.

Lilian o'zini kuchli dovuldan keyin eski ko'rfazga qaytgandek his qilardi, lekin ko'rfaz endi oldingidek emasdi.

Dekoratsiyalar o'zgargandi, to'g'rirog'i, dekoratsiyalar o'sha-o'sha-yu, lekin yoritish vositalari o'zgargandi. Chiroq nuri endi yorug'roq, aniqroq va beshafqatroq edi. Endi u omon qolmasligini bilardi. Shovqin asta-sekinlik bilan bosildi. Hademay u faqat yuragining urishini eshita boshlaydi.

Tuzalgandan keyin birinchi bo'lib Gaston amakini ko'rgani bordi. Jiyanini ko'rib avvaliga u qotib qoldi, keyin esa o'zini quvongandek ko'rsatishga urindi.

– Qayerda yashayapsan? – so'radi u.

– «Bisson» otelida. Unchalik qimmat emas, Gaston amaki.

– Tunda pullar o'z-o'zidan o'sib chiqadi, deb o'ylaysanmi? Shu tarzda davom etsang, hademay teshik tog'ora bilan qolasan. Pullaringni havoga sovurishni bas qilmasang, ular qancha vaqtga yetishini bilasanmi?

– Bilmayman. Bilishni ham istamayman.

«Ajalni shoshirishim kerak, shekilli», – o'yladi u achchiq jilmayib.

– Sen hech qachon pulingga yarasha yashamagansan. Oldin odamlar bor mablag'ining daromadigagina kifoya qilishgan.

Lilian kuldi.

– Aytishlaricha, Shveysariyaning chegarasidagi Bazel shahrida odamlar daromadining daromadiga yashamasa, uni pulni sovurishda ayblasharkan.

– Ha, Shveysariyada, – dedi Gaston amaki entikib. – Ularning puli qanaqa! Baxtli xalq ular. Keyin Lilianga tikilib turib dedi: – O'z uyimdan senga xona bo'shatib berishga tayyorman. Shunda hech bo'lmasa, otelga ketadigan pulingni tejsaysan.

Lilian atrofga alangladi. U yana Lilianni o'zining maydachuyda ishlariga tortyapti, «Yana kuyov qidiradi», – o'yladi qiz. Gaston amaki bir kun kelib o'z pullarini Lilian uchun sarflashi mumkinligidan cho'chirdi. Lekin u amakisiga bor haqiqatni aytishni istamasdi.

– Xavotir olmang, Gaston amaki, men sizga qimmatga tushmayman, – dedi u. – Har qanday sharoitda ham.

– Bualo seni ko‘p so‘radi.

– Kim u?

– Bualoning o‘g‘li, esingdami, ularning soat firmasi bor edi, juda obro‘li oila. Onasi...

– Esladim, o‘g‘li quyonlabmidi?

– Quyonlab emish! Namuncha beadab bo‘lmasang! Bu arzimagan narsa. Bunaqa holatlar qadimiy sulolalarda uchrab turadi. Qolaversa, unda jarrohlik operatsiyasi o‘tkazishdi, endi sezilmayapti ham. Erkak kishi husnda tengsiz bo‘lishi shartmas.

Lilian bu mitti va o‘ziga behad ishongan odamga tikildi:

– Gaston amaki, yoshingiz nechada?

– Yana eski gapingni boshladingmi? Yoshim o‘zingga ma‘lum-ku.

– To‘g‘rirog‘i, yana necha yil yashamoqchisiz?

– Yana adabsizlik qilyapsan. Bu haqda so‘ralmaydi. Odam qancha yashashi faqat Xudoga ayon.

– Xudoga ko‘p narsa ayon. Bir kun kelib u ko‘pgina savollarga javob beradi. Mening ham Xudoga beradigan savollarim bor.

– Nima?! – Gaston amakining ko‘zi kosasidan chiqqudek bo‘ldi. – Nimalar deyapsan?

– Hech nima, – Lilian otilib chiqayotgan g‘azabini zo‘rg‘a bosdi. Amakisi, ya‘ni o‘z olamining shoh va tangrisi allaqachon qarib-qartaygan bo‘lsa-da, baribir undan ko‘ra ko‘proq yashaydi. U hamma narsani biladi, hamma narsani o‘z qarichida o‘lchaydi va Xudoga ham hukmimni o‘tkazaman, deb o‘ylaydi.

– Gaston amaki, – Lilian xotirjam gapirishga urindi. – Agar hammasini boshqatdan boshlashning iloji bo‘lganda, boshqacha yashagan bo‘larmidingiz?

– Albatta, bu tabiiy.

– Qanday? – Lilianning ko‘nglida umid uyg‘ondi.

– Tabiiyki, frank tushayotgan paytda inflyatsiyaga duch kelmaslik choralarini ko‘rardim. O‘n to‘rtinchi yildayoq

Amerika aksiyalarini sotib olgan bo'lardim, o'ttiz sakkizinchi yildan kechiktirmay...

– Yaxshi, Gaston amaki, – uning gapini bo'ldi Lilian. – Sizni tushunaman, – uning qahri qayoqqadir yo'qoldi.

– Yo'q, hech narsani tushunmading. Puling juda kam qolgan, pulni shunday sovurish mumkinmi? Albatta, otang...

– Bilaman, Gaston amaki. Otam juda isrofgar bo'lgan! Lekin undan ham battarroq isrofgar bor...

– Xo'sh, kim ekan u?

– Hayot. U har birimizning umrimizni sodda odam firibgarga o'z pullarini boy bergandek sovuryapti.

– Bema'ni gap! Ayollarning diydioshi! Miyangdan chiqarib tashla bunaqa gaplarni. Hayot o'ta jiddiy narsa.

– To'g'ri. Shuning uchun ham u bilan hisob-kitob qilishimizga to'g'ri keladi. Menga pul bering va o'zingizni xuddiki, men sizning pullaringizni sarflayotgandek tutmang. Ular – meniki.

– Pul! Pul! Hayot haqida bilganing shu!

– Yo'q, Gaston amaki, hayot haqida siz bilgan narsa – faqat pul.

– Rahmat degin! Allaqachon bir chaqasiniyam qoldirmagan bo'larding, – Gaston istar-istamay chek yozib berdi. – Keyin nima bo'ladi? – alam bilan so'radi u, siyohi qurisin, deb chekni havoda siltalarkan. – Keyin nima bo'ladi?

Lilian unga tikilib qoldi. «Nazarimda, u qog'ozni ham iqtisod qiladi», – o'yladi u.

– «Keyin» men uchun mavjud emas, – dedi Lilian.

– Avvaliga hamma shunday deydi. Xonavayron bo'lgach, bosh egib kelishadi, keyin istasang-istamasang yig'ib-terganingni ularga sarflashingga to'g'ri keladi...

Lilianning yana g'azabi qo'zidi. U amakisining qo'lidan chekni sug'urib oldi.

– Aql o'rgatishni bas qiling! Yoki o'zingizga Amerika aksiyalarini sotib oling, o'rgildim sizdek yurtsevardan.

Ko'cha zax edi. Lilian amakisi bilan gaplashganda yomg'ir yog'ib turardi, lekin keyin yana quyosh chiqib ketdi. Quyosh



nuri ko'chadagi ko'lmaklarda ham aks etardi. «Osmon hamma joyda aks etadi, hatto ko'lmaklarda ham, – o'yladi Lilian. – Xudo ham hammaning ko'nglida aks etadi, hatto Gaston amakining ham». Uning kulgisi keldi. Gastonning ko'nglida Xudo borligiga ishonish qiyin edi. Umuman olganda, Lilian bilgan odamlarning ko'pchiligining ko'nglida Xudo borligiga ishonish qiyin. «Ular hayotni tushunishmaydi, – o'yladi u. – Ular xuddi abadiy yashaydigandek ish ko'rishadi. O'z idoralarida biqinib, ish stolidan bosh ko'tarishmaydi. Har biri o'zini Mafusaildan ham uzoqroq yashayman, deb o'ylaydi. Mana, ularning bor-yo'q siri».

Lilian yuztalik frankka birpas qarab turdi-da, uni Senaga otib yubordi. Bu bolalarcha isyon edi. Lekin Gaston amakining chekini tashlamadi. Lilian Sen-Mishel xiyobonigacha piyoda yurib bordi. Bu yerda hayot qaynardi. Odamlar o'zini har yoqqa urar, bir-birini turtib allaqayoqlarga shoshilishardi. Quyosh nurlari avtomobil bo'yoqlarida akslanar, motorlar guvillar, har kim o'z maqsadiga tezroq yetish uchun oshiqardi va bu mayda maqsadlar kishi hayotining so'nggi maqsadini to'sib qo'yardi, go'yoki u mavjud emasdek edi.

Hamma joyda shunday emasmi? Lilian ko'chani kesib o'tdi. Uning o'ng va chap tarafida olov purkayotgan ajdahodek bo'lib svetofor yonishini besabrlik bilan kutayotgan avtomobillar qatorlashgandi. Lilian ular orasidan go'yoki suzib o'tdi.

«Sanatoriyda hammasi boshqacha, – o'yladi u. – Oxirgi maqsad, u yerda qip-qizil va doim osmonda osilib turadigan quyoshga o'xshaydi. Odamlar shu quyosh ostida yashashar, uni ko'rmaslikka harakat qilishsa-da, undan yuz o'girishmasdi. Bu ularga so'nggi damgacha kuch bag'ishlardi. O'limi yaqinligini bilganlar va nihoyadan qochishning iloji yo'qligini sezganlar qo'rqmasdan ajalning yuziga tik qarashardi. Tik qaragan odam butkul o'zgarar, hatto o'z jallodidan ham ustundek bo'lardi».

Lilian otelga yetib keldi. Endi u boloxonada yashardi. Kafe oldida ustritsa sotuvchisi turardi.

– Bugun qisqichbaqalarim har kungidan ham yaxshi, – dedi u. – ustritsalar tugab bo'ldi. Endi faqat sentabrda chiqadi. Ungacha shu yerda bo'lasizmi?

– Albatta, – jilmaydi Lilian.

– Krevetka beraymi? Pushtisi chiroyli ko'ringani bilan eng yaxshisi kulranglari. Sizga qanaqasi, kulrangimi?

– Kulrangi. Hozir savat tashiyman. Yoniga yarim butilka muzdek vino ham qo'ying. Vinoni ofitsiant Simondan olasiz.

Lilian shoshmay zinadan ko'tarildi. Keyin savatni derazadan tushirib, masalliqalar solingach, qaytarib tortib oldi. Qiz deraza raxiga o'tirib, muzdek vinoni yoniga qo'ydi. Ofitsiant butilka yoniga sochiqqa o'ralgan ryumka ham solgandi. Lilian bir qultum vino ichib, krevetkalarni yeya boshladi. Hayot go'zal edi, u boshqa bu mavzuda o'ylashni istamasdi.

Ich-ichidan itoatkor bo'lib qolganini tushunar, lekin bo'yin eggisi kelmasdi. Harqalay, hozircha. Uning onasi og'ir operatsiyani boshidan o'tkazib, saratondan vafot etgan. Har doim ahvoli senikidan og'irroq odamlar topiladi. Junjikkan Lilian quyoshga qaradi. Nurlar yuzini silayotganini his qildi. Xuddi shu mahal Klerfe uni ko'rib qoldi. Allaqachon umidini uzib, shunchaki «Bisson» o'teli derazalari ostida sayr qilib yurganida qizga ko'zi tushdi.

\* \* \*

Klerfe eshikdan otilib kirdi.

– Lilian! Qayerda eding? – nafasini zo'rg'a rostlab baqirdi u. Lilian u yo'lni qanday kesib o'tganini ko'rib turgandi.

– Venetsiyada edim, Klerfe.

– Nega?

– Rimga kelishim bilan birdan Venetsiyani ko'rgim kelib qoldi.

Klerfe eshikni qarsillatib yopdi.

– Nega menga xabar bermading? Ortingdan Venetsiyaga borgan bo'lardim. U yerga kim bilan bording?

- Bu nima, tergovmi?
- Hozircha yo'q. Seni rosa qidirdim. U yerga kim bilan bording, deyapman?
- Seningcha, bu haliyam tergov emasmi?
- Seni sog'indim, axir. Xayolingga yomon fikrlar keldi. Nahotki, tushunmasang.

- Tushunaman, - dedi Lilian. - Krevetka xohlaysanmi? Ulardan dengiz va suvo'tlarining hidi kelib turibdi.

Klerfe krevetka solingan karton likopchani olib derazadan uloqtirdi.

Lilian likopchanning ortidan qarab qoldi.

- Yashil yopiq mashinaga tegdi. Sal qolsa usti ochiq mashinada ketayotgan semiz mallasoch xonimning naq boshiga tushardi. Iltimos, menga savat bilan arqonni uzatib yubor, ovqat yegim kelyapti.

Klerfening savatni ham krevetkalarining ortidan otgudek shashti bor edi, lekin u indamay savatni olib Lilianga uzatdi.

- Ayt, yana bir butilka vino solishsin, - dedi Klerfe. - Deraza tokchasidan tush, seni bag'ringa bosmoqchiman.

Lilian deraza raxidan sirg'alib tushdi.

- «Juzeppe» ham shu yerdami?

- Yo'q. Uni «Bentli» va «Rolls-roys»lar qurshovida, Vandom maydonida qoldirganman.

- Uni olib kel, Bulon o'rmoniga boramiz.

- Yaxshi, Bulon o'rmoniga boramiz, - dedi Klerfe qizdan bo'sa olarkan. - Lekin «Juzeppe»ni olib kelgani birga boramiz, bo'lmasa qaytgunimcha yana yo'qolib qolishing mumkin. Tavakkal qilgim kelmayapti.

- Meni sog'indingmi?

- Ba'zida sog'indim, yomon ko'rishdan to'xtagan paytlarim. Biror jazmaning o'ldirib qo'ymagan bo'lsinda ishqilib, deb xavotirlandim ham. Venetsiyada kim bilan bo'lding?

- Bir o'zim.

Klerfe unga sinovchan tikildi

- Xo'sh, ishondim ham deylik. Sendan hech nimani bilib bo'lmaydi. Nega menga xat yozmading?

– Biz bunga o'rganmaganmiz-ku. Sen ham ba'zida Rimga ketasan va u yerda bir necha hafta turib, to'satdan ma'shuqang bilan birga qaytasan-ku.

Klerfe kulib yubordi.

– Bir kun kelib buni yuzimga solishingni bilardim. Shu sabab qaytib kelmadingmi?

– Albatta, shu sabab emas.

– Afsus.

Lilian krevetkalar solingan savatni tortib olish uchun derazadan engashdi. Klerfe sabr bilan kutib turdi. Shu mahal eshik taqilladi, Klerfe eshikni ochib ofitsiantdan vino va ryumkani oldi. Lilian bandligidan foydalanib Klerfe xona-ga ko'z yugurtirdi. Lilianning tuflilari xona bo'ylab sochilib yotar, kresloda va eshigi nim ochiq shkafda kiyimlari osilib turardi. «U yana yonimda», – o'yladi Klerfe va birdan vujudini shu paytgacha o'ziga noma'lum bo'lgan halovat tuyg'usi egalladi.

Klerfe mamnun tikilib turganini sezgandek Lilian qo'li-dan savatni qo'ymay o'girildi.

– Hidining ajoyibligini! Yana qachondir dengizga boramizmi?

– Ha. Yozda Monte-Karloda poyga bo'ladi.

– Undan oldin borishning iloji yo'qmi?

– Mayli, qachon xohlasang. Bugunmi yo ertagami?

Lilian jilmaydi:

– Meni yaxshi bilasan-a. Bugun emas, ertaga.

U Klerfe uzatgan ryumkani oldi.

– Venetsiyada uzoq qolmoqchi emasdim, – dedi u. – Bir necha kunga borgandim.

– Nega unda uzoq qolib ketding?

– Tobim qochdi.

– Nima bo'ldi?

Lilian javob berishga shoshilmadi.

– Biroz shamollabman, – dedi saldan keyin.

Klerfe gapiga ishonmaganini sezdi. Bundan biroz xursand ham bo'ldi. U ishonmadimi, demak, qon ketishini ham u qa-

dar vahimali narsa, deb hisoblamasa bo'ladi. Lilian o'zini o'n kilo vazn tashlagan do'mboqdek baxtli his qildi va Klerfening yelkasiga boshini qo'ydi. Yigit uni mahkam bag'riga bosdi.

– Yana qachon ketasan? – so'radi u.

– Ketmayman, Klerfe. Faqat ba'zida bo'lmasligim mumkin.

Daryodan shatakchi kemanding tovushi eshitildi. Palubada yurgan bir ayol rangli kiyimlarni dorga yoyib chiqdi, kambuz eshigi ostonasida o'tirgan qizcha kattagina it bilan o'ynardi. Shatakchi kema egasi esa rulni boshqarib allaqanday kuyni hushtak qilib chalardi.

– Qara, – dedi Lilian. – Shunaqa manzarani ko'rsam havasim keladi. Oilaviy baxt. Xudo ham shunday bo'lishini istasa kerak.

– Agar sening ham shunday baxting bo'lganida, birinchi bekatdayoq tushib qolarding.

– Bu ularga havas qilishimga xalaqit bermaydi. «Juzeppe»ni olib kelgani boramizmi?

Klerfe ehtiyot bo'lib Lilianni ko'tardi.

«Juzeppe»ni olib kelishni ham, Bulon o'rmoniga borishni ham istamayman. Bu ishlarni qilishga hali ulguramiz.

\* \* \*

– Demak, meni asir etishga ahd qilibsanda, – kuldi Lilian. Klerfe kulmadi.

– Yo'q, seni asir etmoqchimasman, senga uylanmoqchiman.

– Nega?

– Chunki ajoyib kunlarning birida sen yana izsiz yo'qolib qolmasliging uchun.

– Axir «Ris» otelida chamadonlarimni qoldirgandim-ku. Sen, uylanish ayolning liboslaridan ham ko'ra ko'proq bog'lab turadi va u tezroq qaytib keladi, deb o'ylaysanmi?

– Men senga bir kuni qaytishing uchun emas, balki doim yonimda bo'lishing uchun uylanmoqchiman. Kel, bu masala-

ga boshqa tomondan yondashamiz. Sening puling kam qolgan. Mendan esa bir chaqa ham olishni istamaysan.

– O‘zingning ham puling yo‘q-ku, Klerfe.

– Men ikki poygadagi ulushimni saqlab qo‘yganman. Qolaversa, biroz mablag‘im bor va yana biroz pul ishlab topishim ham mumkin. Pullarim bu yil ikkalamizga bemalol yetadi.

– Yaxshi, unda keyingi yilgacha kutib turamiz.

– Kutishning nima keragi bor?

– Sen bu noto‘g‘ri fikr ekanini tushunib yetishing uchun. Xo‘sh, keyingi yil qaysi pulga menga ko‘ylak va tuflilar olib berasan? Axir o‘zing, shartnomam yil oxirida tugaydi, demaganmiding?

– Firmamiz menga vakillikni ishonib topshiryapti.

– Mashina sotmoqchimisani? – so‘radi Lilian. – Bu ishni bajarishingni tasavvur qila olmayapman.

– O‘zim ham. Lekin ko‘p narsani tasavvur qila olmagan bo‘lsam-da, yaxshi eplaganman. Masalan, senga uylanishni istashimni tasavvur qilolmagandim.

– Demak, hammasini birdan xohlayapsan? Ajoyib kunlarning birida nufuzli savdogar va namunali oila boshlig‘i bo‘lmoqchisan.

– Bu haqda xuddi dunyoviy fojiadek gapirasani-a?

Lilian o‘rnidan turdi.

– Avtomobillar savdosi bilan qayerda shug‘ullanmoqchisan?

Klerfe o‘ylanib qoldi.

– Tuluzada yaqinda vakansiya ochiladi.

– Ey, Xudo! – dedi Lilian. – Qachon?

– Bir necha oydan keyin. Kuzda. Eng kechi bilan yil oxirida.

Lilian barmoqlari bilan oy sanay boshladi.

– Hademay poygalardan mukofot olish uchun keksalik qilib qolaman, – dedi Klerfe o‘rnidan qo‘zg‘almay. – Men Nuvo-lari ham, Karachchola ham emasman. Biror joyga murabbiy bo‘lib ishga joylashishim ham mumkin edi. Lekin unda yana

u joydan-bu joyga ko'chib yurishimga to'g'ri kelardi, xuddi Chezarga o'xshab. Poygalar Afrika va Janubiy Amerikada ham o'tkazila boshlangach, u hatto qishda ham xotini bilan ko'risha olmayapti. Yo'q, men bunday yashashni istamayman. Hayotimni o'zgartirmoqchiman.

«Nega ularning hammasi hayotini o'zgartirishini istaydi? – o'yladi Lilian. – Nima uchun ular bir paytlar sevgan ayolida chuqur taassurot qoldirishda yordam bergan mashg'ulotini o'zgartirishni istashadi? Nahotki ularning kallasi-ga bu ish bilan o'sha ayolni yo'qotishi mumkinligi kelmasa? Hatto Mario ham oxirgi daqiqalarda xotinbozlikni yig'ishtirib, men bilan birga yangidan durustroq hayot kechirishni istab qolgandi. Mana endi meni sevib qoldim, deb o'ylayotgan Klerfe ham (aslida men ham uni sevgandim, chunki uni ham o'zimga o'xshab kelajagi yo'q, deb o'ylagandim) hammasini o'zgartirmoqchi va buning uchun xursand bo'lishimni ham istayapti».

– Mening ahvolimdagi ayollar turmushga chiqishi kerakmi yo yo'qmi, deb ko'p o'yladim, – dedi Lilian. – Lekin dailarning hech biri menga asoslidek tuyulmadi. Ayniqsa, bemor shaxmatchi ilgari surgan dalil. U o'lim oldidan yoningda yaqin odaming bo'lgani yaxshi, degandi. Bilmadim, u haqmi yoki yo'q, lekin mening nazarimda, bunday paytda odamga hech nima yordam berolmaydi. Qolaversa, o'lim to'shagidagi kishi atrofida yaqin odamlari to'da bo'lib to'plansa ham sezmasa kerak.

Kamilla Albei ham sanatoriyda o'lgandi. U o'limi oldidan jazmanlaridan biri yonida bo'lishini juda-juda istardi. Shu sabab u uchala xushtori bilan ham munosabatlarni uz-madi. Kun davomida ularning uchalasini ham uning boshiga yig'ish mumkin edi. U shuni rejalashtirib ham qo'ygandi. O'zining oxirgi surbet oshig'i bilan munosabatlarni shuning uchun ham cho'zib yurgandi.

Lekin Kamilla Albeini qishloqning kimsasiz ko'chalari-dan birida mashina urib ketdi. Oqibatda sho'rlik yarim soat

o'tmay vafot etdi. O'layotganida yonida hatto, o'sha surbet oshig'i ham yo'q edi.

U o'sha paytda Kindlarning qandolatxonasida shokoladli pirojniy yeb o'tirgan, uning o'sha yerdaligi hech kimning xayoliga ham kelmagan. Kamillaning qo'lini u umrida birinchi bor ko'rib turgan qishloq politsiyachisi tutib turgan. Kamilla undan shunday minnatdor bo'lganki, hatto qo'lini o'pmoqchi bo'lgan, lekin ulgurmagan...

– Lilian, – dedi uni xotirjam tinglab turgan Klerfe. – Nega doim javobdan qochasan?

– O'zing tushunmayapsanmi? – so'radi Lilian qo'lidagi tarog'ini qo'yib. – Nima o'zgardi, Klerfe? Bizni tasodif uchrash-tirdi. Nega hammasi qanday bo'lsa, shundayligicha qoldirish-ni istamayapsan?

– Seni yo'qotgim kelmayapti. Iloji boricha yonimda ushlab turmoqchiman. Buning nimasi yomon? Yo gapim noto'g'rimi?

– Bu yo'l bilan ushlab qolish noto'g'ri.

– Yaxshi, unda buni boshqacha ataymiz. Men endi eskicha yashashni istamayapman.

– Bu yog'iga xotirjam yashamoqchimisani? – Lilian g'ijim to'shakka ishora qildi.

– Sen doim yoqimsiz javoblar topa olasan. Fikrimni boshqacha ifodalashga ruxsat ber. Men seni sevaman va sen bilan yashamoqchiman. Bu gapimdan ham kulishing mumkin.

– Bu gapga sira kulmayman, – Lilian unga qaradi. Uning ko'zlari yoshga to'lgandi. – Eh, Klerfe! Bularning barchasi nodonlik, axir!

– Rostdanmi? – Klerfe o'rnidan turib uning qo'lidan tutdi. – Bizning, hammasi yaxshi bo'ladi, deb ishonchimiz komil edi-ku.

– Hammasini o'z holicha qoldir. Iltimos, Klerfe. Hech nimani buzma.

– Nimani buzdim?

«Bo'ldi, – o'yladi u. – Oilaviy baxtni Tuluzada, po'lat qolipga solingan kapalaklar qanotida qurib bo'lmaydi. Xudbinlik



kishining ko'zini ko'r qilib qo'yadi-da. Qiziq. Agar gap boshqa birovga tegishli bo'lganida u meni darhol tushungan bo'lardi, o'ziga tegishli bo'lgani uchun birdan ko'r bo'lib qoldi».

– Axir men betobman, Klerfe, – dedi Lilian biroz ikkilanib turgach.

– Bu sening yolg'iz qolishing mumkin emasligini yana bir bor isbotlaydi.

Lilian javob bermadi. «Boris meni tushungan bo'lardi, – o'yladi u. – Klerfe ham xuddi unga o'xshab gapiryapti. Lekin u Boris emas».

– «Juzeppe»ni olib kelgani boramizmi? – so'radi u.

– Uni o'zim olib kelishim mumkin. Meni kutib turasanmi?

– Ha.

– Riveraga qachon bormoqchisan? Tez oradami?

– Tez orada.

Klerfe to'xtadi.

– U yerda xarobaroq bir uydam bor.

Lilian yelkasiga qo'yilgan Klerfening qo'llariga ko'zgudan tikildi.

– Sening yangidan-yangi xislatlaringni kashf qilyapman, chin so'zim.

– Uning u yoq-bu yog'ini tuzatsa bo'ladi, – dedi Klerfe.

– Sotib yuborsang-chi?

– Oldin bir ko'rgin.

– Yaxshi, – dedi Lilian to'satdan toqatsizlanib. – Otelga borganingdan keyin chamadonlarimni bu yerga yubor.

– O'zim bilan olib kelaman.

Klerfe ketdi. Lilian qizarib turgan ufqqa termulib qoldi. Qirg'oqda bir necha baliqchi o'tirar, ikki bekorchiligi qirg'oq bo'yiga yoyib qo'ygandi. «Biz muhabbat, deb ataydigan tuyg'u ba'zida juda g'alati yo'llarni tanlaydi, – o'yladi u. – Bu men uchun emas. Lekin Klerfega nima bo'ldi?»

Axir u Klerfeni umrining har daqiqasini xuddi so'nggisi-dek qabul qilib, qadrlagani uchun yaxshi ko'rmaganmide? Tuluza! Qiz kulib yubordi. Lilian hech qachon o'z kasalligi

haqida gapirmasdi, u kasalda sog'lom odamni o'zidan itaradigan qandaydir kuch bor, deb hisoblardi. Lekin hozir ba'zida aksincha bo'lishi ham mumkinligini tushundi. Sog'lom odam betobga g'alati ko'rinishi mumkinligini, xuddi kamba-g'allashgan zodagonga kecha boyib qolgan to'pori g'alati ko'ringanidek tuyulishini o'yladi. Qiz o'zini xuddi Klerfe tashlab ketgandek his qildi. Nazarida, Klerfe uni tashlab boshqa to-monga, Lilianning qo'li yetmaydigan chiroyli, ko'rkam joy-ga o'tgandek edi. Klerfe endi tamom bo'lgan odam emasdi, uning kelajagi bor. Lilian yig'layotganini sezib hayron bo'ldi. Lekin u o'zini baxtsiz sezmasdi. Shunchaki, bu narsalarni o'zida uzoqroq tutib turgisi kelardi.

\* \* \*

Klerfe Lilianning jomadonlarini keltirdi.

– Ko'ylaklaringsiz shuncha uzoq muddat qanday yashading, tushunolmayapman?

– O'zimga yangilarini buyurtirdim. Ko'ylaklar muammo emas.

Lilian yolg'on gapirdi. U aslida ertaga Balensiaganing yoniga bormoqchi edi. Buning uchun o'ziga yarasha sabablar yetarli, deb hisoblardi. Birinchidan, Venetsiyadan qaytgani, u yerda o'limga chap berganini nishonlashi lozim edi. Bundan tashqari pulni ko'proq sarflab, Klerfening uylanish va Tuluzada yashab qolish taklifiga nisbatan e'tirozini bildirishni istardi.

– Balki senga bir necha ko'ylak sovg'a qilishimga ruxsat berarsan? – so'radi Klerfe. – Hozir men o'zimni boyvachcha, desam ham bo'ladi.

– Menga to'y ko'ylagi sotib olmoqchimisan? Bo'lajak to'yimiz uchun?

– Yo'q, aksincha. Venetsiyaga borganing munosabati bilan. Lilian kulib yubordi.

– Unday bo'lsa, menga ko'ylak sovg'a qilishing mumkin. Bugun oqshom qayerga boramiz?

– Bulon o'rmonida sovuq bo'lsa kerak?

– O'zimiz bilan palto olamiz. Chunki ancha salqin. O'rmonni aylansak bo'ladi, u hozir aynan yam-yashil bo'lgan palla. Benzindan ko'proq olvolgin. Katta shahar aholisi shunaqa bahorga ham qanoat qilaveradi.

Oqshomlari gulzorlar oldi mashinalarga to'lib ketar, har bir oynadan muhabbat bayrog'i hilpirardi. Lilian qora yupqa ko'ylagini oldi va oynadan hilpiratdi.

– Yashasin muhabbat! – dedi u. – Benazir va oddiy, kichik va katta! – qichqirdi u. Keyin Klerfega o'girilib so'radi: – yana qachon ketmoqchisan?

– Ketishim kerakligini qayerdan bilding? Sport kalendari-ni kuzatib boryapsanmi?

– Yo'q. Bizda kim kimni tashlab ketishi hech qachon aniq emas-ku.

– Hammasi o'zgaradi.

– Yil oxirigacha ketmaysanmi?

– Undan oldinroq ham uylanishim mumkin.

– Kel, avval uchrashuv va ayriliqni nishonlaylik. Qayerga ketyapsan?

– Rimga. Italiya bo'ylab ming millik poyga bo'ladi. Bir hafta qoldi. Men bilan borishing mumkin emas. Poyga shunaqa narsa, yuraverasan, yuraverasan, aqldan ozguncha yurasan. Yo'l qayerda, motor qayerda, o'zing qayerdaligingni ajratol-may qolguningcha yuraverasan.

– G'olib bo'lasanmi?

– «Mille Miliya» italiyaliklarning shoh raqamlari. Ochig'i, bir marta «Mersedes» firmasi nomidan chiqqan Karachcho-la g'olib bo'lgandi, lekin asosan italiyaliklar g'olib bo'lishadi. Torriani bilan men «Milli Miliya»da uchinchi jamoa bo'lib qatnashamiz. Har ehtimolga qarshi agar bir kor-hol ro'y bersa, biz poygaga tushamiz.

Lilian kiyim tanlay boshladi.

– Qaysi ko'ylagimni kiysam ekan? – so'radi u.

– Mening xonamda qolganlaridan birini.

Lilian shkafni ochdi.

– Bunimi?

– Ha, u menga yaxshi tanish.

– Axir uni sira ko'rmagansan-ku.

– Sening egningda ko'rmaganman, lekin menga baribir tanish. Bu ko'ylak bir necha tun xonamda osilib turgandi.

Lilian unga o'girildi.

– Rost gapiryapsanmi?

– Chin so'zim, – dedi Klerfe. – Ko'ylaklaringni ilib chiqib, tezroq ortingga qaytg'in, deb afsun o'qidim. Buni sendan o'rganganman. Ya'ni sehr-jodudan tinchlantirish uchun foydalandim. Axir ayollar sevgilisini tashlashi mumkin, lekin hech qachon libosidan voz kechmaydi.

Lilian ko'zgudan o'z ko'zlariga diqqat bilan tikildi.

– Demak, sen bilan mening sharpam bo'lgan?

– Yo'q, sharpang emas, sening ilon po'sting, sen ichidan chiqib kelarding.

– Men sen bilan boshqa ayol bo'lgan, deb taxmin qilgandim.

– Harakat qildim. Lekin sen meni afsunlab qo'ygansan. Boshqa ayollarga qarolmay qolganman, ular sening oldingda xuddi Dega raqqosalari oldidagi bo'yalgan qog'ozga o'xshaydi.

Lilian kulib yubordi.

– Nahotki, sen doim u chizadigan xunuk, semiz balet raqqosalarini aytayotgan bo'lsang?

– Yo'q. Men Levallining uyidagi rasmni aytyapman, olovli raqs tushayotgan raqqosani. Uning yuzi bir necha shtrix bilan chizilgan, unga qarab hamma o'z orzusini ko'rishi mumkin.

Lilian lab bo'yog'i va qalamni joyiga qo'ydi.

– Demak, doim biroz bo'sh joy qoldirish kerak ekan, rasmni oxirigacha chizish shartmas, bo'lmasa xayolotga o'rin qolmaydi. Sen ham shunday, deb o'ylaysanmi?

– Ha, – dedi Klerfe. – Odam doim o‘z orzusining asiriga aylanadi, birovnikiga emas.

– Asirga aylanasan yoki o‘zingni butkul yo‘qotasan.

– Unisi ham, bunisi ham. Bu xuddi tushga o‘xshaydi, ko‘pincha tong saharda ko‘riladigan tushga. Go‘yoki tubsiz chuqurga tushib ketayotgandek bo‘laverasan. Bu holat senga tanishmi?

– Ha, tanish, – dedi Lilian. – Sanatoriyda har kuni shu tushni ko‘rardim. Har gal cho‘chib uyg‘onganimda, nazarimda, toshdek pastga qulayotgan bo‘lardim. Vino bormi?

Klerfe unga ryumka tutdi. Lilian uning bo‘yniga qo‘l tashladi.

– Qanchalik g‘alati bo‘lmasin, – dedi u, – toki qulayotganingni eslar ekansan, demak, hali hech nima yo‘qotilmagan. Hayot aqlga zid fikrlarni yaxshi ko‘radi shekilli, senga hammasi joyida bo‘lib tuyulgan paytda, ko‘pincha kulgili holatga tushasan va jar yoqasiga kelib qolasan. Lekin hammasi tugadi, deb o‘ylaganingda, hayot senga tuhfalarini taqdim eta boshlaydi. Sen barmog‘ingni ham qimirlatmaysan, omadning o‘zi ortingdan kuchukchadek yugurib yuradi.

Klerfe uning yoniga o‘tirdi.

– Bularni qayerdan bilasan?

– Shunchaki, behuda gaplarni gapiryapman. Qolaversa, bu haqiqatning yarmi xuddi dunyodagi jamiki narsalar kabi.

– Muhabbat hammi?

– Muhabbat va haqiqat o‘rtasida qanday o‘xshashlik bor?

– Muhabbat haqiqatning aksi emasmi?

– Yo‘q, – dedi Lilian o‘rnidan turib. – Muhabbatning aksi – o‘lim. Muhabbatning achchiq sehri bizga qisqa vaqtga bo‘lsa-da, o‘limni unutishimizga yordam beradi. Shunday ekan, oz bo‘lsa-da, o‘lim bilan tanish bo‘lganlar muhabbat bilan ham tanish bo‘lishadi.

Lilian ko‘ylagini kiydi.

– Lekin bu ham yarim haqiqat. Axir o‘lim bilan tanish bo‘lish mumkinmi?

– Albatta, yo‘q. Biz faqat u muhabbatning emas, hayotning teskarisi ekanini bilamiz. Bor-yo‘g‘i shu. Lekin bu ham shubhali taxmin.

Lilian kulib yubordi. Klerfe yana oldingi holatiga qaytgandi.

– Bilasanmi, nima xohlayapman? – so‘radi Lilian. – Bir yo‘la o‘nta hayotni yashashni istayapman.

Klerfe uning ozg‘in yelkalarini siladi.

– Nega? Baribir bu bitta hayot bo‘ladi-ku. Faqat sening shaxsiy hayoting. Shaxmatchi birvarakayiga o‘nta raqibiga qarshi o‘ynaganda ham u baribir bitta – faqat o‘zining partiyasini o‘ynayotgan bo‘ladi.

Ular deraza yonida o‘tirishar, Konserji ustida xira shafaq osilib turardi.

– Dunyodagi hamma narsani aralashtirib tashlashni istayman, – dedi Lilian. – Bugun ellik yoshligimning bir soatini yoki bir kunini, keyin o‘ttiz yoshligimning, undan keyin esa sakson yoshligimning bir kunini yashasam deyman.

Yilma-yil yashashni istamayman, o‘zim istagan tartibdagi yillarda yashagim keladi. Vaqtning zanjiriga bog‘lanib yashashni istamayman.

– Menimcha, shundoq ham tez-tez o‘zgarib turasan... Qayerda ovqatlanamiz? Taksi to‘xtataymi? «Juzeppe»da ketish uchun havo ancha salqin. Soch turmagingdan xavotirdaman, – qo‘shimcha qildi Klerfe qizning hayron qaraganini ko‘rib.

Lilian eshikni yopdi. «U meni tushunmaydi, – o‘yladi u. – Men har qanday sehr-jodu bilan bo‘lsa-da, men hech qachon yashay olmaydigan yillarimni o‘limning qo‘lidan yulib olishni istashimni tushunmaydi. Lekin men hech qachon ezma sakson yoshli kampirga aylanmayman yoki hech qachon qariyotganini his qilib qo‘rqadigan ayol holiga ham tushmayman. Meni sevganlarning xotirasida doim yoshligimcha saqlanib qolaman. Boshqa mendan uzoqroq yashaydigan va yoshiga yosh qo‘shiladigan ayollarning barchasidan ustunlik tomonim shu».

– Kimning ustidan kulyapsan, meningmi? – so‘radi Klerfe zinadan tusha turib.

– O‘zimning, – dedi Lilian. – Faqat sababini so‘rama. Vaqti kelsa, hammasini bilib olasan.

\* \* \*

Ikki soatlardan keyin Klerfe uni qaytarib olib keldi.

– Bugunga yetar, – dedi u jilmayib. – Endi uxlashing kerak. Lilian unga hayron bo‘lib tikildi:

– Uxlashim?

– Ha, dam olishing lozim. Axir o‘zing, shu kunlarda tobim bo‘lmadi, deding-ku.

Lilian hazillashmayaptimi, deb ko‘zlariga tikildi.

– Rostdan shunday deb o‘ylaysanmi? – so‘radi u. – Bir kami menga, ko‘rinishing yomon, demaganing qoluvdi.

Vestibylulda porte ko‘rindi, u tushungandek jilmayib qo‘ydi.

– Bugun sizlarga yana salyami beraymi? Balki ikra ham istarsiz? Xo‘jayin bufetda ikra qoldirgan.

– Yo‘q, menga uyqu dori kerak, – dedi Lilian. – Xayrli tun, Klerfe.

U qizni to‘xtatdi.

– Meni tushun, Lilian. Men holatingga ortiqcha baho berib, ertaga charchab qolishingni istamayman.

– «Montana»da bunchalik ehtiyotkor emasding.

– U paytda bir-ikki kundan keyin ketaman va seni qaytib ko‘rmayman, deb o‘ylardim.

– Endi-chi?

– Endi esa bir necha soatni qurbon qilib bo‘lsa-da, sen bilan iloji boricha ko‘proq birga bo‘lmoqchiman.

Lilian kulib yubordi.

– Juda puxta o‘ylabsan! Xayrli tun!

Klerfe unga diqqat bilan tikildi.

– Tepaga qizil vino olib chiqing, – dedi u portega.

– Xo‘p bo‘ladi, janob.

– Ketdik. – Klerfe Lilianning qo‘lidan tutdi. – Seni xonangacha kuzatib qo‘yaman.

Lilian bosh chayqab qo‘lini tortib oldi.

– Bilasanmi, kim oxirgi marta menga xuddi shunaqa ishonchli dalil keltirgandi? Bu Boris edi. Lekin uniki ishonarliroq chiqqandi. Sen haqsan, Klerfe. Sen ham vaqtliroq uyquga yotganing ma‘qul. Poygadan oldin dam olishing kerak.

Klerfe unga jahl bilan qaradi.

Porte butilka va ikkita ryumka ko‘tarib qaytib keldi.

– Vinoning keragi yo‘q, – sovuqqina dedi Klerfe.

– Yo‘q, kerak.

Butilkani qo‘ltig‘iga qistirgan Lilian portening qo‘lidan bitta ryumkani oldi.

– Yaxshi dam ol, Klerfe. Ishqilib bugun tushimizda bo‘shliqqa qulayotganimizni ko‘rmaylik! Ilohim tushingda Tuluza-ni ko‘rgin.

Lilian unga ryumkani siltadi va zinadan ko‘tarila boshladi. Klerfe u ko‘zdan yo‘qolguncha qarab turdi.

– Konyak quyaymi, janob? – so‘radi porte. – Balki ko‘proq quyarman...

– O‘zingiz iching, – dedi Klerfe va portening cho‘ntagiga pul qistirdi.

Grand Ogyusten ko‘chasidagi qirg‘oq bo‘ylab yurib, «la Perigordin» restoraniga yetib bordi.

Yorug‘ oynalardan kechikkan mehmonlar restoranining asosiy taomi bo‘lmish cho‘g‘da pishirilgan tryufellarni paqqos tushirishardi. Keksa er-xotin taom haqini to‘lashdi, yoshgina sevishganlar esa bir-birlarini yonib-kuyib aldashardi. Klerfe yo‘lni kesib o‘tib, asta-sekin yopiq sarrof do‘konlari tomonga yurdi. «Boris, – o‘yladi u alam bilan. – Shu yetmay turuvdi!» Shamol o‘zi bilan Sena hidini olib keldi. Xuddi nafas olayotgandek qalqib turgan suv yuzida bir necha barja qorayib turardi, Ularning biridan garmonikaning (musiqada qo‘shimcha ton) nolasi taralardi.

Lilianning derazasidan nur jilvalanar, lekin pardalari yopiq edi. Klerfe pardalar ortidan qizning sharpasini sezib tu-



rardi. Derazalar ochiq bo'lsa-da, Lilian ko'chaga qaramasdi. Klerfe uning qiliqlari ahmoqona ekanini bilsa-da, o'zini to'xtata olmasdi. U o'ylagan narsasini gapirdi. Ular restoranda o'tirishgan mahali Lilian juda horigandek ko'ringandi. Hatto yuzi cho'zilib ketgandek tuyuldi. «Nahotki, birovdan xavotir olish jinoyat bo'lsa? Hozir u nima qilyapti ekan? Uxlashga tayyorlanyaptimi? – o'ylardi Klerfe. – Lilian men haliyam shu yerdaligimni bilib turibdi, axir «Juzeppe»ning motor tovu-shini eshitmadi-ku». Keyin u motorni o't oldirdi va katta tezlikda Rozilik maydoni tomon uchirib ketdi.

\* \* \*

Lilian butilkani karavot yoniga qo'ydi. U «Juzeppe»ning ovozi eshitdi. Keyin jomadondan suv o'tmaydigan yoping'ichini olib, egniga tashladi. Oqshom ko'ylagi bilan yoping'ich biroz yarashmagandek edi. Lekin kiyimini almashtirishni xohlamadi. U hali uxlashni istamasdi. Shundoq ham sanatoriya me'yorida ko'p yotgan, yetadi. Lilian pastga tushdi, porte shu zahoti uning yoniga yugurib keldi:

– Taksi chaqirtiraymi, xonim?

– Yo'q, kerakmas.

U piyoda yurib Sen-Mishel xiyoboniga yetib bordi. U yerda turli toifadagi erkaklar unga iltifot ko'rsata boshlashdi. U xuddi botqoqqa botgan-u, barcha pashshalar unga yopirilgandek his qilardi o'zini. Bir necha daqiqa ichida unga tiliga erk berganlar shivirlab, ehtirosdan saboq berishdi, u o'z qu-log'i bilan eshitganlaridan ko'chadagi daydi itlarning qo'shili-shini sof muhabbat, deyish mumkin edi.

Behayo so'zlar shovqinidan gangib qolgan Lilian qahvaxona oldidagi duch kelgan o'ringa o'tirdi. Fohishalar unga o'qraygan nigohlarini tashlashdi, bu ularning hududi edi, bu yerga so'roqsiz qadam bosganlarni burdalab tashlashga tayyor turishardi. Lilian o'tirgan joy birdaniga barchaning e'tiborini tortdi. Nomusli ayollar bunday paytda bu yerda yolg'iz

o'tirishmasdi, ayniqsa, bu qahvaxona yonida. Hatto amerikalik xonimlar ham bu yerga o'rtoqlari bilan kelishardi.

Qahvaxonada Lilian ko'plab takliflar oldi, bir erkak unga behayo suratlar sotib olishni, yana ikkitasi uni o'z himoyasiga olishni istashini bildirdi, uchta unga avtomobilda birga sayohat qilishni taklif qilishdi. Bundan tashqari unga arzon taqinchoqlar va terer kuchukvachchalarini sotib olishni ham ta'kidlashdi. Lilian sovuqqonlikni yo'qotmagan holda ofitsiantga choychaqa uzatdi va tezda shilqimlarni chekinishga majbur qildi. Shundan so'ng Liliانا nihoyat, bir ryumka vini tinchgina ichishga muvaffaq bo'ldi.

Qo'shni stoldagi rangpar kishi uning suratini chiza boshladi, bir savdogar unga duo yozilgan gilamchani tiqishtira boshlaganda, ofitsiant darhol uni nari haydadi. Birozdan so'ng Lilianning stoliga bir yigitcha yaqinlashib, o'zini bechora shoir deb tanishtirdi. Lilian shundan keyin bu yerda ortiq yolg'iz qolib bo'lmasligini tushundi, baribir tinchlik berishmaydi. So'ngra u shoirni birga vino ichishga taklif qildi.

Ammo shoir vino o'rniga buterbrod bilan mehmon qilishni o'tindi. Lilian unga rostbif buyurtirdi. Yigitchaning ismi Jerar ekan. Ovqatlanib bo'lgach, u qog'ozga qarab ikkita she'r o'qib berdi, yana ikkitasini yoddan o'qidi. Bu ajal va o'lim, yerdagi hayotning qisqa va befoydaligi haqida g'amgin she'rlar edi. Lilianning kayfiyati ko'tarildi. Shoir qiltiriq bo'lsa-da, ishtahasi yaxshi edi. Lilian undan: «yana bitta rostbifni qorningga joylaysanmi?» – deb so'radi. Shoir bu ish unga cho't emasligini aytdi va Lilianning she'riyatni yaxshi tushunishini maqtadi.

– Siz inson ro'shnolik ko'rmasdan yashashiga ishonasizmi, – dedi Jerar, – Yashashdan nima naf? U yana ikkita rostbifni paqqos tushirdi va uning she'rlari yanada g'amginlashib borardi. Keyin u o'z joniga suiqasd qilish haqida so'z yurita boshladi. O'zi istagan paytda joniga qasd qilishi mumkinligini aytdi.

– Lekin bugun emas, chunki bugun qornim to'ydi, balki ertaga jonimga qasd qilarkan, – dedi u.

Lilianning kulgisi keldi. Ozg'inligiga qaramay Jerar ko'rishidan sog'lom edi. U hali bermalol yana ellik yil umr ko'rishini mumkin.

\* \* \*

Klerfe bir muddat «Ris» oteli barida bo'ldi. Keyin Lilianga qo'ng'iroq qilishga qaror qildi. Go'shakni porte ko'tardi.

– Xonim otelda emas, – dedi u Klerfening ovozi tanib.

– Qayerda u?

– Yarim soat oldin chiqib ketdi.

Klerfe Lilian buncha vaqtli o'rniga yotmasligini esladi.

– O'zi bilan jomadon olmadimi? – har ehtimolga qarshi aniqlik kiritgisi keldi.

– Yo'q, janob, faqat egniga yoping'ich kiydi.

– Yaxshi, rahmat.

«Yoping'ich, – o'yladi Klerfe. – Undan har narsa kutish mumkin, u yengil kiyimda vokzalga borishi va u yerdan Volkovning oldiga jo'nashi ham mumkin. Boris mendan ko'ra tuzukroq.

Odam haqiqatdan sevib qolsa, qanchalar beso'naqay va beo'xshov bo'lib qolarkan-a. O'ziga bo'lgan ishonchi ham allaqayerga yo'qolarkan. O'zini yolg'iz sezib, maqtalغان tajribasi ham xuddi bug'dek havoga singib, o'zini muallaqdek his qilarkan. Yo'q, men uni yo'qotmasligim kerak».

Oteldagi porte Klerfega Lilian qaysi tomonga ketganini ko'rsatdi.

– Sena tomonga emas, janob, – dedi u tinchlantiruvchi ohangda. – O'ngga. Balki yana bir shahar aylanigisi kelgandir, u tezda qaytadi.

Klerfe sekin-asta yurib, Sen-Mishel xiyoboni bo'ylab yurib ketdi. Lilian mashina ovozi eshitishi bilan «Juzeppe»ni ko'rdi.

– O'lim-chi? – so'radi u likopchadagi pishloqni paqqos tushirayotgan Jerardan. – Agar o'lim hayotdan ham ko'ra mahzunroq bo'lsa, nima qilish kerak?

Jerar savolga savol bilan javob berdi:

– Kim biladi deysiz, balki hayot bizga jazo sifatida boshqa bir dunyoda qilgan gunohimiz uchun berilgandir. Balki hozirgi hayotimizning o'zi do'zaxdir, cherkovdagilar o'limdan keyin do'zax azobi haqida gapirib adashishayotgandir.

– Ular jannat rohatini ham va'da qilishadi.

– Unda biz barimiz tuban ketgan farishtalarmiz va barchamiz ma'lum muddat bu dunyoda qamoq azobini tortishimiz kerakdir.

– Lekin xohishga ko'ra qamoq muddatini qisqartirish mumkin-ku.

– Siz suiqasd haqida gapiryapsizmi? – hayajonlandi Jerar. – Lekin odamlar bu haqda o'ylashni ham istashmaydi. Biz undan qo'rqamiz. Axir suiqasd – ozod bo'lish degani-ku. Agar hayot-hayot emas, olov bo'lganida, biz nima qila olardik? Gulxandan sakrab chiqardik. Taqdirning sho'ri-g'avg'osi shundaki, biz...

«Juzeppe» ikkinchi marta qahvaxona yonidan o'tib ketdi.

«Bizda qoladigani shu – taqdirning sho'ri-g'avg'osi, – o'yladi Lilina. – Ba'zida mana shunaqa suhbatlardan keyin, bu yanada ohanrabodek tuyuladi».

U yo'lovchilarning yuziga diqqat bilan tikilib o'tayotgan Klerfeni kuzatib turar, Lilian undan o'n qadamcha narida o'tirgan bo'lsa-da, uni ko'rmasdi.

– Agar barcha istaklaringiz amalga oshsa, taqdirdan yana nima tilardingiz? Eng katta orzuvingiz nima o'zi? – so'radi u Jerardan.

– Faqat amalga oshmaydigan narsalarni orzu qilaman, – o'ylab o'tirmay javob berdi shoir.

Lilian unga minnatdor boqdi.

– Unda hech narsa tilamasangiz ham bo'larkan, – dedi u. – Hamma narsangiz bor ekan.

– O'zim uchun hech narsa so'ramayman, sizdek tinglovchi bo'lsa bo'ldi menga! – to'ng'illadi Jerar va Lilianning rasmini chizib bo'lib, stolga yaqinlashgan rassomni haydab soldi. – Bir umrga. Siz meni tushunyapsiz!

– Rasmni menga bering, – dedi Klerfe xafa bo'lib burilib ketayotgan rassomga.

U qahvaxonaga kirib, Jerarga yoqtirmay tikilib turardi.

– Yo'qoling bu yerdan, – dedi Jerar. – Ko'rmayapsizmi, biz suhbatlashyapmiz. Jin ursin, shundoq ham bizga tinchlik berishmayapti. Garson, yana ikki ryumka perno! Keyin bu janobni yo'qoting ko'zimdan!

– Uchta, – dedi Klerfe ularning yonidan joy olarkan.

Rassom hamon uning yonida turar, Klerfe unga pul uzatdi.

– Bu yer juda ajoyib ekan, – dedi u Lilianga o'girilib. – Bu yerga ilgariroq kelmaganimizdan afsusdaman.

– Ey, chaqirilmagan mehmon, siz kim bo'lasiz? – so'radi Jerar Klerfeni qiz bilan tanishish uchun har xil hiylalarga qo'l urayotgan qo'shmachi, deb o'ylab.

– Menmi, bo'tam? Men San Jermen de Pre jinnixonasining direktoriman, bu xonim esa bizning bemorlarimizdan biri. Bugun uning dam olish kuni. Hali biror kor-hol ro'y bermadimi? Vaqtida yetib keldimmi ishqilib? Garson, bu yerdan pichoqni olib qo'y, vilkani ham. Ehtiyot shart...

Shoirni shubha o'rab oldi.

– Rostdanmi? – shivirladi u. – Men har doim orzu qilardim...

– Qattiqroq gapiraverishingiz mumkin, – uning gapini bo'ldi Klerfe. – Bemor o'z holatidan mamnun. Chunki nima qilmasin, jazolanmaydi. U hech bir qonunga bo'ysunmaydi, u qanday ish qilsa-da, hatto qotillikka qo'l ursa-da, unga qonunning kuchi yetmaydi, uni baribir oqlashadi.

Lilian kulib yubordi.

– Aslida hammasi aksincha, – dedi u Jerarga o'girilib. – Bu odam mening sobiq erim. U jinnixonadan qochgan. Uning dardi shundaki, meni jinni deb hisoblaydi.

Shoirning aqli-hushi joyida, qolaversa, u fransuz edi. Hammasini tushunib, chiroyli jilmaygancha o'rnidan turdi.

– Ayrim odamlar juda kech ketadi, ayrimlar esa aksincha – juda erta, – dedi u. – Vaqtida ketganga nima yetsin... Zar-

do'sht shunday degandi. Xonim, ertaga shu yerda sizni she'r kutadi, uni ofitsiantga tashlab ketaman.

\* \* \*

– Kelganing yaxshi bo'ldi, – dedi Liliana. – Agar uyquga yotganimda, bularni ko'rolmasdim. Bu yashil rangni, isyonning shirin ta'mini va bu botqoqni his qilmasdim hamda undagi xirapashshalarni ham ko'rmasdim.

– Ba'zida ortingdan quvib yeta olmayman, – o'yga botgan-cha dedi Klerfe. – Kechir meni. Bir hafta ichida shunchalar ko'p va tez o'zgargansanki, bu o'zgarish boshqa ayollarda bir yilda ham ro'y bermaydi. Sen xuddi yoganing qo'lidagi gulga o'xshaysan: bir necha daqiqa ichida o'sishga ham, gullashga ham ulguradi...

«So'lishga ham», – o'yladi Lilian.

– Men shoshyapman, Klerfe, – dedi u. – Ko'p narsani ko'rishga ulgurishim kerak.

Klerfe uning qo'lini o'pdi.

– Men ahmoqman. Kundan-kunga nodonlashib boryapman.

– Kim ham o'zini donishmand, deb bilardi? Balki kelajakda aqlliyoq bo'larmiz.

– Ba'zida juda aqlli bo'lib ketasan. Bu meni biroz cho'chitadi.

– Men esa qo'rqmayman. Bular shunchaki gap-ku. Ortiq yurishga kuching qolmaganda so'z o'yini qila boshlaysan, keyin ularni unutvorasan. So'zlar xuddi favvoraga o'xshaydi, ularga bir muddat quloq solasan, keyin esa so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan narsalarni ham eshita boshlaysan.

Klerfe atrofga alangladi. Birdan unga Lilian ikkalasi xuddi sukunat devori ichida o'tirgandek tuyuldi. Ko'cha shovqini eshitilmasdi. Sukunat devoridan faqat favvoraning shildiragani, shamol belanchagida tebrangan barglar shitiri eshitilardi.

«Bu sukunat to'fondan kuchli, – o'yladi Klerfe, – u boshida bo'lgandi, oxirida ham mavjud, to'fonning o'zi sukunatdan tug'ilgan».

– Seni jonimdan ortiq yaxshi ko'raman, – dedi Klerfe.

Atrof jimjit. Hatto qahvaxonada qo'qqisdan boshlangan janjal ham bu sukunatni buza olmadi. Ko'z ochib-yumguncha allaqayerdan politsiyachi paydo bo'ldi. Bir necha jazoirliklar qo'l siltab baqirishar, qandaydir bir qiz qahvaxonadagi hamma narsani ag'dar-to'ntar qilib tashlagandi, ko'chadan gazeta sotuvchi bolakaylar qichqirib o'tib ketishdi.

Faqat Klerfe bilan Liliana jim o'tirishar, xuddi shisha skafandrga kirib notanish va behalovat ko'l tubiga tushganga o'xshashardi. Ular hech qanday tuyg'uni his qilishmas, yuraklari muhabbatga limmo-lim edi.

– Ketdik bu yerdan, – dedi Lilian. – Xonamda biroz vino qolgandi.

Ko'ylak bu – maskarad kostyumidan ham muhimroq narsa. Yangi kiyimda odam birdan sezilmasa-da, o'zgarib qoladi. Yangi libosni munosib kiyishni bilganlar undan o'zlariga nimadir olishadi, qanchalik g'alati tuyulmasin, ko'ylak va odam bir-biriga ta'sir etadi. Bu maskarad kiyinish bilan bog'liq emas. Kiyimga moslashish va shu bilan birga, o'ziga xoslikni yo'qotmaslik ham mumkin. Buni tushungan odamni liboslar ham asrab-avaylaydi. Kiyim ba'zida odamga har qanday ruhoniyydan ham, sadoqatsiz do'stlardan ham va hatto, sevgilisidan ham ko'ra ijobiy ta'sir etadi.

Lilian bularning barini bilardi. U yarashgan shlyapa butun boshli qonundan ko'ra ishonchli suyanchiq bo'lishi mumkinligini bilardi. Agar ko'ylak yupqa matodan tikilgan bo'lsa-yu, yarashib tushsa, shamollamaslik mumkinligini ham bilardi. Bu narsalar Lilian uchun kimyo qonunlaridek isbot talab qilmaydigan narsalar edi. Biroq Lilian shu bilan birga, og'ir qayg'uni boshdan kechirayotganda ko'ylaklar yaxshi do'st yoki ashaddiy dushman bo'lishi mumkinligini ham bilardi, ularning yordamisiz ayollar o'ziga ishonchini yo'qotishi, lekin ular yordam berganda ayollar qiyin vaziyatdan ham oson

chiqishi mumkin edi. Bular shunchaki bemaza gap emas, shunchaki arzimagan narsalar – hayot uchun muhim o‘rin tutishi mumkinligini unutmaslik kerak.

«Yetarli biliming bo‘lgani qanday yaxshi», – o‘yladi Liliyan. Bu erishishi mumkin bo‘lgan yagona ilinj edi. U hayotini boshqa kattaroq hodisa bilan boyitishga vaqt qolmagan, hatto isyon qilishga ham fursat yo‘q edi. Bir paytlar o‘zi orzu qilgan isyonni qilib bo‘ldi, endi esa o‘zining haqligiga shubha qilib o‘tiribdi. Ayni damda yagona xulosa – taqdir bilan hisob-kitob qilish qolgan.

Venetsiyada o‘pkasidan qon ketishi Lilianning umrini na faqat ko‘p kunlarga, balki haftalarga qisqartirgandek bo‘ldi. Lekin u tushkunlikka tushishni, shikoyat qilishni, afsuslanishni istamasdi. «Demak, endi yashashim uchun kam pul sarflanar ekan, shuning uchun ham o‘zimga chiroyli ko‘ylaklar sotib olishim kerak», – deb o‘ylardi. Bu ko‘ylakni u sinchiklab tanladi. Avvaliga u o‘ta bashang libos kiyib ko‘rdi, lekin keyin sipogina ko‘ylakni tanladi, bu barcha ko‘ylaklari ichida eng oddiysi edi. Eng bashang ko‘ylagi esa Klerfe sovg‘a qilgani. Lilian shu tarzda Tuluzaga nisbatan o‘z e‘tirozini bildirgandi.

Qiz bularning barchasi o‘ta zaif isyonlar ekanini bilardi. Lekin u endi odamlar o‘z hayotini biroz qiziqarli qilish uchun uyushtiradigan barcha katta va kichik fitnalardan uzoqda ediki, ularning farqiga ham bormasdi.

Shu sabab, mayda hiylalarga aralashish, ulardan rohatlanish uchun oz emas-ko‘p emas, katta kuch va g‘ayrat kerak, deb o‘ylardi Lilian. Shu sabab, boshqalarga hiyla-nayranglar qanchalik rohat bag‘ishlasa, unga ko‘ylak sotib olish shuncha zavq berardi. Shuning uchun ham Klerfega va hayotga bo‘lgan muhabbati uning miyasida chalkashib ketgandi. Lilian bu tuyg‘ularini o‘yinchoq qilib o‘ynardi. Goh havoga irg‘itar, goh tutib olardi, chunki ular hademay chilparchin bo‘lishini yaxshi bilardi. Havo shari yerga tushmaguncha unda uchish mumkin, lekin sharni Tuluzadagi shaxsiy uyga bog‘lab qo‘yishning iloji yo‘q.



\* \* \*

Georg beshinchi avenyusida aylanib yurgan Lilian vikont de Pestrni uchratib qoldi. Unga ko'zi tushgan vikont hayratini yashirmadi:

– Ko'rinishingizdan juda baxtliga o'xshaysiz! Sevib qoldingizmi?

– Ha. Ko'ylaklarni.

– To'g'ri qaror! – dedi Pestr. – Qo'rquv va qiyinchiliklarsiz muhabbat.

– Unaqasi bo'lmaydi.

– Yo'q, bo'ladi. Bu doim eng to'g'ri yo'l bo'lgan. Ya'ni yagona, o'z-o'ziga muhabbatning asosiy tarkibi shu.

Lilian kulib yubordi.

– Siz shuni qo'rquv va mashaqqatsiz muhabbat, deb hisoblaysizmi? Nazarimda, siz cho'yandan yasalgansiz.

– Unaqa emas. Shunchaki, men o'n sakkizinchi asr bolasi-man, juda kech tug'ilganman va barcha kech tug'ilganlarning taqdiriga sherikman. Meni tushunishmaydi. Istasangiz bu haqda batafsil gapirib berishim mumkin.

– Shartmas. Lekin «Fukke» ayvonida siz bilan bajonidil qahva ichaman.

– Yaxshi.

Ularni botayotgan quyosh nurlari tushib turgan deraza yoniga o'tqizishdi.

– Quyosh nurlari ostida o'tirish muhabbatdan so'z ochish bilan barobar. Siz hali ham Sena bo'yidagi kichik mehmonxonada yashayapsizmi?

– Shunaqa, shekilli. O'zim ham ba'zida bunga shubhalanib qolaman. Tongda derazani ochganimda, xayolimda Opera maydonining ur-yiqit to'poloni o'rtasida yotgandek tuyulaman. Tunlari esa shunday tuyg'u bo'ladiki, xuddi tinchgina qayiqqa yotib, suzib ketayotgandek bo'laman. Oqim meni Sena bo'ylab pastga olib ketayotgandek tuyuladi.

– Xayollaringiz g'alati, – dedi Pestr ryumkadagi sherrini icharkan. – Balki qahva o'rniga vino icharsiz?

– Yo‘q. Soat nechchi bo‘ldi?

– Besh bo‘ldi, – hayron bo‘ldi Pestr. – Siz soatga qarab ichasizmi?

– Faqat bugun shunaqa, – Lilian ofitsiantga ishora qildi. – Janob Lamber, poyga haqida biror gap eshitdingizmi?

– Albatta. Rimdan xabar keldi. Bir necha soat oldin. Butun Italiya radiopriyomnik yonida o‘tiribdi, desak ham bo‘ladi, qolganlar ko‘chaga yopirilib chiqishgan, – dedi ofitsiant hayajonlanib. – Har daqiqada poygaga eng qudratli mashinalar qo‘shiladi. Janob Klerfe janob Torriani bilan birga. Ular navbati bilan tushishmas ekan. Torriani unga mexanik sifatida hamroh bo‘ladi. Chunki bu sport mashinalari poygasi. Sizga radiopriyomnik olib kelaymi? Yonimda bor.

– Olib keling.

– Siz avtomobillar poygasiga qiziqasizmi?

– Shu safargisiga qiziqyapman.

– Qanaqa poyga o‘zi?

– Breshiyadagi ming millik poyga.

Ofitsiant prototiv radiopriyomnik keltirdi. U ashaddiy ishqiboz bo‘lib, bir necha soatdan buyon poyga yo‘nalishini kuzatib turardi.

– Mashinalarni birma-bir tushirishyapti, bir necha daqiqa oralatib almashtirishyapti, – tushuntirdi u Lilianga. – Eng tezyurarlari oxirida tushadi. Bu sekundomerli poyga. Hozir Milandan olib berishadi. Soat beshda so‘nggi yangiliklar xabar qilinadi.

Lamber radioning quloqlarini burab ovozini sozladi.

– Janob Lamberning priyomnigi Fransiyadagi eng zo‘r priyomnik, – dedi Lilian.

Radiodan g‘iyqillagan ovoz eshitildi. Milan radiostansiyasi siyosiy yangiliklarni o‘qib eshittira boshladi. Diktor xuddi tezroq sport yangiliklariga o‘tish uchun shoshayotgandek o‘qirdi.

– Endi Breshiyadan tayyorlangan eshittirishni boshlaymiz, – dedi u nihoyat, ovozi o‘zgarib. – Poygachilarning yarmi

yo'lda. Bozor maydonida shunchalar ko'p odam jamlangan-ki, qimirlashning iloji yo'q.

Priyomnikdan xirillagandek ovoz chiqdi. Keyin shovqin orasidan motorning o'kirgani eshitildi va shu lahzadayoq uzoqlashib o'chdi.

– Yana kimdir uchib o'tdi, – hayajonlanib shivirladi janob Lamber. – Bu «Alfa» yoki «Ferrari» bo'lsa kerak!

Ayvonga sukunat cho'kdi. Qiziquvchilarning ayrimlari ularning stoliga yaqinlashdi, ayrimlari boshini burib, quloq sola boshlashdi.

– Poygada kim birinchi?

– Bu haqda gapirishga hali erta, – dedi janob Lamber jiddiy tarzda. – Eng qudratli mashinalar poygaga endi tushadi.

– Nechta mashina ishtirok etyapti? – so'radi Pestr.

– Salkam besh yuzta.

– Yo qudratingdan! – dedi kimdir. – Qancha masofani bosib o'tishlari kerak?

– Bir ming olti yuz kilometr dan ko'proq, janob. O'rtacha tezlikda bu o'n besh-o'n olti soat degani. Balki undan kamroqdir. Lekin Italiyada yomg'ir yog'yapti. Breshiyada esa kuchli jala.

Eshittirish tugadi. Janob Lamber priyomnigini restoranga olib ketdi. Lilian esa o'yga tolib, o'zini stulning suyanchig'iga tashladi. U qarshisidagi yozgi qahvaxonani, bokallardagi muzlarning shiqirlashini, chinni idishlarning ovozini eshitib, ko'rib turar va shu bilan birga, ko'z o'ngida boshqa manzara ham zohir bo'lgandi. Xuddi suvdagi meduza kabi rangsiz, shaffoflik ortida Lilian kulrang Bozor maydonini aniq-tiniq ko'rib turardi, mashinalar xuddi arvohdek bir-birining ketidan quvib o'tib borayotganini ham ko'rdi. Mashinalar ichida ikki kishining hayoti uchqundek miltillab turar, o'z hayotini xavfga qo'yish ularning asosiy ishtiyoqi edi.

– Breshiyada yomg'ir yog'yapti, – takrorladi u. – Breshiya qayerda joylashgan o'zi?

– Milan va Veronaning o'rtasida, – javob berdi Pestr. – Bugun sizni kechki ovqatga taklif qilsam, degandim...

\* \* \*

Yomg'ir shiddati sabab uzilgan girlyandalar hamma joyda osilib yotardi. Ho'l bayroqlar shovqin solib xodalarga urilar, jala zabtiga olgandi. Xuddiki, bulutlarda ham ko'rinmas mashinalar poyga o'ynayotgandek edi.

Chaqmoq shovqini momaqaldiraq guldirashi bilan navbatlashib guvillardi. Bozor maydonidagi mashinalar shovqinini osmonda chaqmoq guldirab takrorlayotgandek tuyulardi.

– Yana besh daqiqa qoldi, – dedi Torriani.

Klerfe rulda edi. U ortiqcha zo'riqmayotgandi.

Klerfe g'olib bo'lish imkoni yo'qligini bilardi, lekin shu bilan birga, bu kabi musobaqalarda, ayniqsa, uzoq masofali poygalarda har xil kutilmagan holatlar ro'y berishini yaxshi bilardi.

U Lilian va «Targa Florio» haqida o'ylardi. O'shanda u avval Lilianni unutgandi, keyin esa uni yomon ko'ra boshladi, chunki ayni poyga avjiga chiqqan payti uni eslagani xalaqit bergandi. Unga Liliandan ko'ra poyga muhimroq edi o'shanda. Endi esa hammasi o'zgardi. Klerfe Lilianga ishonardi, lekin o'zining ichidagi ishonchsizlik sababini bilolmay boshi qotgandi. «Men hatto u Parijda qolgan-qolmaganini ham bilmayman», – o'yladi u. Ertalab Lilian bilan telefonda gaplashgandi, biroq shunday bo'lsa-da, nazarida, bu voqea ancha ilgari ro'y bergandek edi.

– Lilianga telegramma yo'lladingmi? – so'radi u.

– Ha, – dedi Torriani. – Yana ikki daqiqa qoldi.

Klerfe bosh silkidi. Ularning oldida hech kim yo'q edi. Endi kunning qolgan qismi va tunning yarmida dunyoda uning uchun sekundomer tutgan hakamdan muhimroq odam bo'lmaydi. «Shunday bo'lishi kerak, – o'yladi Klerfe. – Lekin aksi bo'ldi. Torrianiga rulni bersam bo'larkan, lekin endi kech».

– Yigirma soniya, – dedi Torriani.

– Yaratganga shukr!

Start beruvchi belgi berdi va mashina oldinga otildi. Odamlar uning ortidan qiyqirib qolishdi.

– Klerfe start oldi, – baland ovozda e’lon qildi diktor. – Torriani uning yonida mexanik...

\* \* \*

Lilian otelga qaytdi. U harorati oshayotganini his qildi, lekin bunga e’tibor bermaslikka qaror qildi. Endi uning harorati ba’zida bir, ba’zida ko’p darajada tez-tez oshib turardi. Lilian bu nimadan dalolatligini bilardi. U ko’zguga tikildi. «Ammo oqshomlari ko’rinishim yaxshi», – o’yladi kinoyali jilmayib. U o’zi o’ylab topgan hiyla haqida mulohaza qilardi. Harorati oshganini ham u o’zining foydasiga mengzay boshladi. Isitmasi sabab endi ko’zlari yolqinlanib, yuzi qizarinquirab turardi.

Ko’zgudan uzoqlasharkan, biryo’la ikkita telegramma ko’zi tushdi. Nahotki Klerfe... Uning yuragi qo’rquvdan hapqirib ketdi. Qisqa muddat ichida nima ro’y bergan bo’lishi mumkin? Lilian bir lahza bejirim taxlangan qog’ozchalarga tikilib qoldi. Keyin ehtiyotkorlik bilan ulardan birini qo’liga oldi. Telegramma Klerfedan edi: «O’n besh daqiqadan so’ng start olamiz. Toshqin. Flamingom, iltimos, uchib ketma».

Bitta qog’ozni qo’yib, ikkinchisini oldi. Qo’rquv hali ham tark etmagandi, ikkinchi telegramma ham Klerfedan edi. «Nega unday qilyapti? – o’yladi Lilian. Nahotki, poyga paytidagi har qanday telegramma yurakka xavotir solishini tushunmasa?»

Lilian oqshomga ko’ylak tanlash uchun shkafni ochdi. Shu payt eshik taqilladi. Ostona porte turardi.

– Sizga priyomnik olib keldim, xonim. Hech bir qiyinchiliksiz Milan va Rim to’lqinlarini tutishingiz mumkin.

Shunday deya u radioning qulog’ini buradi.

– Mana, yana bitta telegramma.

«Bugun yana nechta telegramma yuboradi u? – o’yladi Lilian. – Undan ko’ra qo’shni xonaga izquvar qo’ygani yaxshi emasmi?» Lilian ko’ylak tanladi. U eng so’nggisini – o’zi «venetsiyalik» deb nom bergan ko’ylakni kiyishga qaror qildi.

Shundan keyin telegrammani ochdi. Qog'ozchada Klerfega omad tilangandi. Qiziq, bu telegramma qayerdan kelib qoldi? Xona nimqorong'i edi, Lilian yana bir bor imzoga ko'z tashladi. Unda «Xolman» deb yozilgandi. U bu ismga uzoq tikilib qoldi. Keyin yuborilgan manzilini qidirdi. Telegramma «Montana» sanatoriysidan yo'llangandi.

Keyin qog'ozni ehtiyotlab stolga qo'ydi. «Bugungi kun sharpalarga tegishli, – o'yladi u o'rniga yotaturib. – Klerfe radiopriyomnik qutisida, u mashinasining ovozi xonani to'ldirishini kutyapti. Kamiga endi bu telegramma. Derazadan ko'plab so'zsiz chehralar tikilib turgandek, xuddi».

Bu sanatoriydan kelgan birinchi xabar edi. Lilian u yerga xat yozmasdi. Yozgisi kelmasdi. Chunki sanatoriyni bir umrga tark etgandi. Hech qachon u yerga qaytib bormasligiga ishonchi komil edi. U o'zini ochiq dengiz ustidan uchib o'tayotib, benzini tugagan uchuvchidek his qilardi. Shuning uchun ham ortga qayrilmay, yo'lida davom etayotgandi.

Lilian anchagacha harakatsiz o'tirdi. Keyin priyomnikni yoqdi. Rimdan sport yangiliklarini olib eshittirishardi. Xonaga to'fon bostirib kirgandek bo'ldi, shovqin ichidan poygachilarning ovozi eshitilar, qishloqlar va shaharlarning tanish va notanish nomlari eshitilardi.

Mantuya, Ravenna, Bolonya, Akvila soat va soniyalar tinmay eslatilib turilar, diktor yutib olingan har bir daqiqani katta hayajon bilan eslatar, keyin u buzilgan suv nasoslari va qiyshaygan porshenlar, singan benzin quyish moslamalari haqida gapirdi. Bu xabarlarini xuddiki, dunyo miqyosidagi fojiadek o'qirdi.

Nimqorong'i xonaga vaqt, ketidan har lahza ortidan quvayotgan poyga shovqini kirgandek bo'ldi. Ammo odamlar u yerda hayot ortidan quvishmasdi, ular ho'l shosse bo'ylab tezroq bir-biridan o'zish uchun kurashishardi. Ular baqirayotgan odamlar orasidan o'tib, qaysidir manzilga birinchi bo'lib yetib borish va u yerni ham o'sha lahzadayoq tark etish uchun kurashishardi. Bu jazavali poyga bir necha soat-

dan buyon uzluksiz davom etardi. Mashinalar ko'rimsiz qishloqchalar yonidan xuddi ortidan atom bombasi quvib kelayotgan kabi o'qdek uchib o'tishar, bularning barchasi besh yuzta mashinadan bir necha daqiqa oldinroq o'sha ko'rimsiz qishloqchani yonidan o'tish uchun edi.

«Nega bu menga ta'sir qilmaydi? – o'yladi Lilian. – Chunki poyga mening yuragimni Italiya yo'llarini egallagan million odamlar yuragini zabt etgani kabi maftun eta olmadi. Nega? Axir u boshqalardan ko'ra meni maftun etishi kerak edi-ku! Mening shaxsiy hayotim poygaga o'xshamaydimi?»

Axir uning o'zi taqdiridan kattaroq ulushni uzib oldinga intilmaganmide va yana sharpaning ketidan quvmayaptimi?

«Florensiyadan gapiramiz», tantanali e'lon qildi radiodagi ovoz. Lilian yana soat va lahzalarni, poygachilar familiyasini, avtomobillar markasini, musobaqa ishtirokchilarining o'rtacha tezligini va ayrim poygachilarning eng katta tezligi haqidagi ma'lumotlarni eshitdi. Keyin shu ovoz g'ururlanib e'lon qildi: «Agar oldinda ketayotgan mashinalar tezlikni kamaytirmasa, ular Breshiyaga rekord vaqt ichida yetib borishadi».

Bu jumla Lilianga ta'sir qildi. «Breshiyaga yetib borishadi, – o'yladi u. – Va yana o'sha kichik, ko'rimsiz qishloqchada paydo bo'lishadi, yana o'sha garajlarni, qahvaxonalarni va do'konchalarni ko'rishadi. Demak, o'limga chap berib, qochib chiqqan joylariga yana qaytib borishadi. Tongda ular o'lgudek charchab, oyoqdan qolib, kir qoplagan yuzlari xuddi niqob kiygandek holatga keladi, lekin baribir oldinga otilaverishadi, xuddi hayotdagi eng muhim narsa qartaga qo'yilgandek oldinga intilaverishadi. Ular oxir-oqibat o'zlarini chiqib ketgan qishloqchaga baribir qaytib borishadi-ku. Breshiyadan Breshiyagacha! Bundan ortiq bema'nilikni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Tabiat odamlarga mo'jizalarni mo'l-ko'l qilib tuhfa qilgan, u ularga o'pka va yurak bergan, aql bovar qilmas kimyoviy uskuna – jigar va buyraklarni bergan, bosh suyaklarini oppoq va yumshoq miya bilan to'ldirgan, bularning bari butun koinot tizimidan ham ko'ra hay-

ratlanarli. Nahotki odamzod bularning barini Breshiyadan Breshiyagacha bo'lgan masofani bosib o'tish uchun qurbon qilsa?!» Har bir odam «Breshiyadan Breshiyagacha bo'lgan masofani bosib o'tadi». Nahotki shunday bo'lsa? «Tuluzadan Tuluzagacha». Mag'rurlikdan mag'rurlikkacha. «Men-chi? – o'yladi u. – Men intilayotgan «Breshiya» qayerda? U Xolman-ning telegrammasiga tikildi. Yo'q, sanatoriyda emas. U yerda Breshiya ham, Tuluza ham yo'q. U yerda o'lim va hayot o'rta-sidagi har bir nafas uchun so'zsiz va tinimsiz kurash kechadi. U yerda Breshiya ham, Tuluza ham bo'lishi mumkinmas!»

Lilian o'rnidan turib xonani aylana boshladi. U ko'ylak-larini ushlab ko'rdi, nazarida, ulardan kul yog'ilardi. Keyin tortmadan cho'tka va taroqni oldi-da, yana shu tezlikda joyi-ga qaytarib qo'ydi. Xuddi oynadan mo'ralagan sharpa singari ko'ngliga shubha o'raladi. U tuzatib bo'lmas va dahshatli xa-toga yo'l qo'ymadimikan?

Lilian kiyina boshladi. Telegramma hamon stolda yotardi. Chiroq nuri ostida u xonadagi eng yorug' narsadek ko'rinar-di. Vaqti-vaqti bilan Lilian unga ko'z tashlab qo'yardi. Deraza ortidan suvning shaloplagani quloqqa chalinardi. U yerdan daryo va barglarning hidi kelardi.

«Tog'da hozir nima qilishayotgan ekan? – o'yladi Lilian va xotiralarga berildi. – Klerfe mashinasi chiroqlari yorug'ida qop-qorong'i Florensiya shossesi bo'ylab uchib borayotgan paytda sanatoriydagilar nimalar qilishyapti ekan?» Bir lah-za ikkilanib turgach, u go'shakni olib sanatoriy raqamlarini aytdi.

\* \* \*

– Siyena, – dedi Torriani. – Yoqilg'i quyib, orqa g'ildirak-larni almashtirish kerak.

– Tez oradami?

– Besh daqiqadan so'ng.

– Jin urgur, yomg'ir!

Klerfe kuldi:



– U nafaqat bizga, balki boshqalarga ham xalaqit beryapti. Hushyor tur, xizmat ko'rsatish punktidan o'tib ketmaylik.

Borgan sari uylar ko'payib borardi. Faralar ularni shovqin solayotgan yomg'ir orasidan sug'urib olardi, go'yo. Hamma joyda soyabon tutgan va suv o'tkazmaydigan yomg'irpo'sh kiygan odamlar turishardi.

Oppoq devorlar yiltillab o'tar, odamlar xuddi tomchidek har tomonga sochilardi. Chayqalayotgan soyabonlar to'fondan chayqalgan qo'ziqorinlarni eslatardi, oldinda kimningdir mashinasi u yoqdan-bu yoqqa chayqalardi.

– To'xta! – qichqirdi Torriani.

Tormoz shu zahoti ishga tushdi va mashina bir silkinib to'xtadi.

– Suv bering, orqa g'ildirakka qarang, tezroq! – qichqirdi Klerfe. Motor o'chgan bo'lsa-da, lekin Klerfening quloqlari ostida uning ovozi hamon guvillardi.

Kimdir unga bir krujka limonad uzatdi, kimdir ko'zoynagini almashtirdi.

– Qaysi o'rindamiz? – so'radi Torriani.

– Zo'r ketyapsizlar! O'n sakkizinchi o'rinda.

– Yomon-ku, – dedi Klerfe. – Boshqalar-chi?

– Monti to'rtinchi, Sakketi oltinchi, Fridjerio yettinchi o'rinda. Konti chiqib ketdi.

– Birinchi o'rinda kim?

– Marketti. U hammani o'n daqiqa ortda qoldirdi. Orqasidan Lotti, undan uch daqiqa keyin ketyapti.

– Biz-chi?

– Sizlar o'n to'qqiz daqiqa orqadasiz. Xavotirlanmanglar. Rimga birinchi bo'lib yetib kelgan odam hech qachon poygada g'olib bo'lmagan. Bu kundek ravshan.

Shu mahal yerdan chiqqandek murabbiy paydo bo'ldi.

– Ha, Xudoning buyurgani shu, – gapga aralashdi u. – Yo, qudratli Tangrim! Hammasi o'zingga ayon! Marketti birinchi bo'lgani uchun jazola! Benzonasosida kichik tuyrukcha paydo qilsang bo'ldi, boshqa narsaning keragi yo'q.

Lottini ham jazola, ikkinchi bo'lish ham xuddi birinchi bo'lishdek gunoh. Avliyo-yu anbiyolar, o'zingiz qo'llang... – ko'kka qarab duo qila boshladi u.

– Bu yerga qanday kelib qoldingiz? – so'radi Klerfe. – Nega Breshiyada emassiz?

– Tayyor! – qichqirdi mexaniklardan biri.

– Olib kel.

– Men u yerga... – murabbiy gap boshlaganda uning ovozi-ni motor guvillashi bosib ketdi.

Mashina oldinga otilishi bilan odamlar to'rt tarafga tum-taraqay bo'lishdi, ular yopishib turgan shosse yana Klerfe-ning ko'z o'ngida o'z chigillarini birma-bir ocha boshladi.

«Hozir Lilian nima qilyapti ekan?» – o'yladi Klerfe. Nega-ligini bilmasa-da, keyingi xizmat ko'rsatish punktida meni telegramma kutyapti, deb umid qilardi. Lekin odatda, te-legrammalar kechikadi. Balki keyingi bekatda olar... Keyin faqat gulxan, tun, odamlar ko'rindi, motorning guvillashidan ularning qichqirig'ini eshitmas, odamlar xuddi ovozsiz film-dagidek ekranda sharpa singari namoyon bo'lishardi. Mana, shossedan boshqa hammasi ko'zdan yo'qoldi, faqat shosse xuddi ilondek yerda to'lg'onardi.

\* \* \*

Aloqa tez ulandi. Lilian bir necha soatdan keyin ulashsa kerak, deb o'ylagandi. Chunki uning nazarida sanatoriy juda uzoqda, xuddi boshqa sayyorada qolib ketgandek tuyulardi, qolaversa, u fransuz telefon aloqalarini yaxshi bilardi.

– «Montana» sanatoriysi, eshitaman...

Lilian bu ovozni tanishga urindi. Balki go'shakni oldingi-dek freyleyn Xeger olgandir.

– Marhamat qilib janob Xolmanni chaqirsangiz, – yuragi tez urib ketgani o'ziga ham sezildi.

– Bir daqiqa.

Lilian aloqadagi guvillagan ovozga quloq tutdi. Xolman-ni izlab topish kerak, degan xayol o'tdi miyasidan. U soatiga qaradi, sanatoriydagilar hozir ovqatlanishayotgandi. «Namuncha xuddi o'likni tiriltirmoqchidek hayajonlanyapman», – o'yladi u.

– Xolman eshitadi. Kim gapiryapti?

Xolmanning ovozini bu qadar yaqindan eshitib, cho'chib tushdi.

– Lilianman, – shivirladi qiz.

– Kim?

– Lilian Dyunker.

Xolman quloqlariga ishonmagandek jim bo'lib qoldi.

– Lilian, – dedi keyin ishonqiramay. – Qayerdasiz?

– Parijda. Telegrammangizni menga keltirishdi... Uni Kler-fening otelidan olib kelishdi, men adashib ochib qo'yibman.

– Siz Breshiyada emasmisiz?

– Yo'q, – dedi u ko'nglida og'riq his etib. – Breshiyada emasman.

– Klerfe borishingizni istamadimi?

– Ha, istamadi.

Agar u qattiq turib olganida, Klerfe uni o'zi bilan olib ketishi mumkin edi, lekin qiz oyoq tirab turib olmadi. Shundan so'ng u Liliandan ko'proq uxlash va dam olish, poyga haqida o'ylamaslik va'dasini olib jo'nadi.

– Radio yonida o'tiribman! – dedi Xolman. – Siz ham shunday, shekilli?

– Ha, albatta.

– Klerfe yaxshi ketyapti. Umuman olganda, poyga endi boshlandi. Klerfeni yaxshi bilaman, doim payt poylaydi. Boshqalar mashinasiga jabr qilaversin. U yarim tundan oldin gazni bosmaydi, balki undan ham kechroq... menimcha, yarim tunda boshlaydi. O'zingizga ma'lum, bu faqat sekundomerga mo'ljallangan poyga. Hech bir poygachi kimning ortidan ketayotganini bilmaydi. Aynan shu hammasidan ham ko'proq charchatadi. Poygachilar faqat shoxobchada qaysi

o'rinda ekanliklarini bilishadi. Ko'pincha bu yangilik ham eskirgan bo'ladi. Bu ko'r-ko'rona poyga. Meni tushunyapsizmi, Lilian?

– Ha, Xolman. Ko'r-ko'rona poyga. O'zingizning ahvolingiz qanday?

– Yaxshi. Tezlik dahshat. O'rtacha tezlik hozircha bir yuz yigirma kilometr edi, balki undan ham ko'proqdir. Ko'pgina qudratli mashinalar to'g'ri yo'lga endi tushishyapti. Men o'rtacha tezlik haqida gapiryapman, maksimali haqida emas!

– Ha, Xolman, tushunyapman. O'zingizni yaxshi his qilyapsizmi?

– Juda yaxshi. Ancha yaxshi bo'lib qoldim, Lilian. Qaysi to'lqinni eshityapsiz? Rimga ulang. Hozir Rim Milandan ko'ra trassaga yaqinroq.

– Rimni eshityapman. Ahvolingiz yaxshiligidan xursandman.

– O'zingiz qandaysiz, Lilian?

– Yaxshi. Ha...

– Breshiyaga bormaganingiz yaxshilikkadir, u yerda yomg'ir yog'yapti, shamol ham kuchli, lekin men chidolmagan bo'lardim, baribir borardim. Ahvolingiz yaxshimi, Lilian?

U nimani so'ramoqchiligini tushundi.

– Yaxshi,– dedi qiz. – U yerda nima yangiliklar?

– Har doimgidek. Oxirgi oylarda hech nima o'zgarmadi.

«Nahotki, bor-yo'g'i bir necha oy o'tgan bo'lsa? – o'yladi Lilian. – Mening nazarimda, yillar o'tgandek...»

– Haligi, u... – qiz bir lahza tutildi, lekin ko'nglining tub-tubidan faqat shu haqda so'rash uchun qo'ng'iroq qilganini sezib turardi.

– Boris yaxshi yuribdimi?

– Kim?

– Boris.

– Boris Volkovmi? U umuman ko'rinmay qolgan. Endi sanatoriya qadam bosmayapti. Menimcha, yaxshi bo'lsa kerak.

– Uni sira uchratmadingizmi?

– Bundan ikki-uch hafta ilgari bir uchratgandim. U o'zining ovcharkasi bilan sayr qilib yurgandi, esingizdadir iti? Lekin biz gaplashmadik. Pastda sharoit qanaqa ekan? Siz ta-savvur qilgandek ekanmi?

– Taxminan o'xshash, – dedi Lilian. – Hammasi o'zingizga, siz qanday munosabatda bo'lishingizga bog'liq. Tog'da hali ham qor bormi?

Xolman kulib yubordi.

– Allaqachon erib ketgan. Hamma narsa gullagan. Lilian... – u birpas jim turib keyin davom etdi: – bir necha haftadan keyin menga javob berisharkan. Rost gapiryapman. Dalay-Lamaning o'zi aytdi.

Lilian uning gapiga ishonmadi. Bir necha yil oldin unga ham shunaqa va'da berishgandi.

– Unda juda yaxshi, – dedi u. – Unda pastda ko'risharkan-miz-da. Bu haqda Klerfega aytaymi?

– Aytmaganingiz ma'qul, bunaqa ishlarda irimchiman. Mana... hozir sport xabarlarini uzatishni boshlashadi! Siz ham eshitishingiz kerak! Xayr, Lilian!

– Ko'rishguncha, Xolman.

Lilian Boris haqida yana biror-bir xabar eshitishni ista-sa-da, lekin boshqa hech narsa so'ramadi. Bir lahza qora go'shakka tikilib qoldi, keyin sekingina joyiga ilib, o'yga tol-di. U bo'lgan-bo'lmagan narsalar haqida o'ylay turib, yig'la-yotganini sezib qoldi. «Ko'zyoshlarim xuddi Breshiyadagi yomg'irdek quyilyapti, – o'yladi Lilian o'rnidan turarkan. – Qanday ahmoqman-a. Hayotda hamma narsa uchun haq to'-lash kerak. Nahotki, hammasi uchun haq to'lab bo'ldim, deb o'ylagan bo'lsam?»

\* \* \*

– Bugungi kunda baxt so'zining ma'nosini haddan ortiq bo'rttirib yuborishyapti, – dedi vikont de Pestr. – Shunday zamonlar bo'lganki, bu so'z umuman ishlatilmagan. U paytlar

uni «hayot» soʻzi bilan almashtirishmagan. Shu nuqtai nazar bilan hind, yunon, xitoy adabiyoti gullagan davrni oʻqing. U davrlarda odamlar mohiyatida baxt soʻzi boʻlgan hissiyotlar bilan emas, balki oʻzgarmas, yorqin hayotiy tuygʻular bilan qiziqishgan. Bu tuygʻular yoʻqolsa inqiroz boshlanadi, chalkashliklar, romantika, baxt ketidan ahmoqona poyga boshlanadi, bu esa hayotni his qilishni sunʼiylashtiradi.

Lilian kuldi.

– Hayotiy tuygʻular sunʼiy emasmi?

– U insonga munosibroq.

– Siz inson hayotiy tuygʻularsiz baxtli boʻlishi mumkin emas, deb oʻylaysizmi?

Pestr Lilianga oʻychan tikildi.

– Shunday desa ham boʻladi. Lekin siz bundan mustasnosiz. Aynan shu xislatigiz meni oʻziga rom qiladi. Sizda unisi ham, bunisi ham bor. Lekin buning negizida chuqur umidsizlik va tushkunlik boʻlsa kerak. Bu holatni nom bilan atash foydasiz, xuddi tushkunlik nimaligini aniqlashdek mushkul bu ish. Faqat bitta narsa maʼlum: bu tuygʻular silsilasi. Bu holat qutbdagi maydonga oʻxshaydi, yolgʻizlik ramzi, qaygʻu bilmaydigan yolgʻizlik. Qaygʻu va isyon allaqachon bir-birini rad etgan. Mayda voqealar eng kattalari kabi muhim boʻlib qolgan. Mayda-chuydalar koʻproq eʼtibor tortyapti hozir.

– Mana, yana oʻn sakkizinchi asrga yaqinlashib qoldik, – dedi Lilian kinoya bilan. – Axir siz oʻzingizni u asrning eng soʻnggi vakili, deb hisoblaysiz-ku, toʻgʻrimi?

– Eng soʻnggi qadrllovchisi.

– Nahotki, oʻn sakkizinchi asrda baxt haqida boshqa paytlarga qaraganda koʻproq gapirmagan boʻlishsa?

– Faqat ogʻir vaziyatlardagina. U haqda orzu qilganda yoki gapirganda odamlar bizdan koʻra tejamliroq boʻlishgan, bu soʻzni keng maʼnoda tushunasiz.

– Gilotina amalda qoʻllanmaguncha, deng.

– Gilotina amalda qoʻllanmaguncha va «baxtli boʻlish huquqi» ochilmaguncha, – tasdiqladi Pestr. – Gilotinadan qochib yashirib boʻlmaydi.

Lilian vinodan ho'pladi.

– Bularning bari siz menga aytmoqchi bo'lgan taklifning uzundan-uzun muqaddimasi emasmi? Sizning mahbubangiz bo'lishimni istayapsizmi?

Pestr jiddiy tortdi.

– Buni qanday deb atash ixtiyoringiz. Men siz uchun muhtoj bo'lgan sharoitni yaratmoqchiman. Yoki mening nazarimda, sizga munosib bo'lgan sharoitni...

– Toshga munosib gardish deng?

– O'ta qimmatbaho toshga munosib gardish.

– Men esa chuqur tushkunlikda bo'lganim uchun rozi bo'lishim kerak, shundaymi?

– Yo'q, siz boshqalarga o'xshamagan tarzda yolg'iz va o'ta jasur bo'lganingiz uchun, xonim. Mening maqtovlarimni qabul qiling. Qat'iyat ko'rsatganim uchun ma'zur tuting. Lekin suvdek tiniq olmoslar kamdan-kam uchraydi.

Pestr ryumkasini stolga qo'ydi.

– Italiyada kechayotgan poyganing so'nggi xabarlarini eshitishni istaysizmi?

– Shu yerdami? «Maksima»dami?

– Nima bo'пти? Alber, bu yerning sohibi istasa, shunaqa istaklarni ham bajara oladi. Agar bu masala siz bilan bog'liqligini bilsa, albatta bajaradi. Buni darhol tushunganman. Alber odamlarni farqlashni biladi.

«Maksima»dagi orkestr an'anaga ko'ra avval «Quvnoq beva»dan parcha ijro etdi. Ofitsiantlar stollarning ustini yig'ishtirishdi. Ularning yonidan o'tib keta turib Alber Pestr va Lilianga bir shisha konyak olib kelishini buyurdi. Lekin butilkada chang qatlami ham, Napoleon gerbi tushirilgan belgi ham yo'q, aksincha, unda qo'lda yozilgan kichkina yorliq bor edi.

– Aytdim-ku, u odam tanlashni biladi deb, – takrorladi Pestr. – Bu konyakdan ichib ko'ring, albatta, barcha an'analarga amal qilgan holda, ya'ni ryumkani isitib, iforini hidlab, keyin bu mavzuda biroz gapirgan holda. Bizni kuzatishyapti.

Lilian ryumkani olib bir ko'tarishda bo'shatdi. Uni isitmad ham, hidini ham hidlamadi. Pestr kuldi. Burchakdan ularni kuzatib turgan Alberning hissiz yuzida ham nimtabassum paydo bo'ldi. Uning ishorasini tushungan ofitsiant bir necha daqiqadan so'ng bir butilka frambuaza keltirdi va kichikroq ryumkalarga quydi. Stol ustini shu zahoti mevali bog' hidi tutib ketdi.

– Malinali qadimiy vino, – e'zozlab ta'rifladi Pestr.

Lilian esa agar shu vinoni uning aslzodalarga xos viqorli yuziga sepib yuborsam nima qilarkan, deb o'yladi. Ehtimol, buni ham to'g'ri tushunib, o'zining takabburona iboralaridan birini aytsa kerak. Lilian undan nafatlanmasdi, aksincha uni yoqtirardi, xuddi kuchli bo'lmagan uyqu dorisini yoqtirgani kabi. U Pestrning gaplariga diqqat bilan quloq tutardi. Chunki Pestr qarama-qarshi hayot tarzida yashaydiganlar vakili edi. U hayotga shaydo bo'lib, o'limdan qo'rqish hissi-ga nafis ehtirom ko'rsatish sirini bilardi. Xavfli tog' yo'llarini bog' yo'laklariga aylantira olgandi. Lekin bu bilan hech nima o'zgarmasdi. Bir gal Lilian shunga o'xshash gapni eshitgandi. Sitsiliyada, Levallining villasida eshitgandi, chog'i. Bunday yashash uchun ko'p pul va kamroq yurak talab etilardi. Bu toifadagi odamlar Breshiyadan Breshiyagacha borishmasdi. Ular Breshiyada o'tirgancha, o'zlarini o'n sakkizinchi asrda Versalda o'tirgandek tutishardi.

– Men ketishim kerak.

– Siz bu gapni tez-tez takrorlaysiz, – e'tibor berdi Pestr.

– Bu sizni yanada betakror qiladi. Bu sizning sevimli iborangizmi?

Lilian unga qaradi.

– Qolishni qanchalar istashimni bilsangiz edi, – dedi u sekingina. – Men qashshoq va yolg'iz bo'lishga ham roziman, faqat qolsam bo'lgani edi. Qolsam bo'lgani! Boshqa hammasi yolg'on va chorasizlikdan kelib chiqqan jasorat.



\* \* \*

Pestr Lilianni otelgacha olib borib qo'ydi. Porte hayajonlangancha unga peshvoz chiqdi.

– Klerfe yigirmanchi o'rinda! U oltita raqibini ortda qoldirdi. Diktor u tunda juda yaxshi yurarkan, dedi.

– Bu – haqiqat.

– Buni nishonlash kerak. Bir bokal shampan vinosi xohlaysizmi?

– Hech qachon muddatidan oldin nishonlamaslik kerak. Poygachilar irimchi bo'lishadi.

Lilian qorong'i kichik xollda biroz o'tirdi.

– Agar shunday davom etsa, ertaga ertalab u yana Breshiyada bo'ladi, – dedi porte.

– Buyam to'g'ri, – dedi Lilian o'rnidan turarkan. – Borib Sen-Mishel xiyobonida qahva ichaman.

Qahvaxonada uni doimiy mijozdek e'zozlab kutib olishdi. Ofitsiant unga g'amxo'rlik qildi. Jerar uni kutib turardi, qolaversa, bir to'da talabalar ham xuddi uning faxriy qorovulidek atrofida saf tortishdi.

Jerarning o'ziga xosligi shunda ediki, u doim och bo'lardi. Shoir qornini to'ydirguncha Lilian xayol surib o'tirdi. U odam gavjum ko'chani tomosha qilishni, hayotning mehr va qahrga to'la ko'zlarini kuzatishni yaxshi ko'rardi. Oxiri ko'rinmaydigan odamlar oqimiga qarab, bu odamlarning hammasida o'lmas qalb borligiga ishonish qiyin edi. Keyin ular qayerga ketishadi? Qalb ham tanaga o'xshab chiryidimi? Yoki bugungi oqshomdagi kabi xuddi sharpadek umid va qayg'uga to'lgan holda kezishadimi? Balki o'rnida boshqa qalblar o'sib chiqishi uchun o'g'it sifatida foydalanmasliklarini, chirib tamom bo'lishga yo'l qo'ymasliklarini o'tinib so'rab, aylanib yurishar?

Nihoyat, Jerarning qorni to'ydi.

– Qiziq, hayvonlarga xos odat bilan o'lgan jonivorlarning etini qovurib yeyish yoki yarim aynigan sut mahsulotlari in-

son qalbining shoirona torlarini chertib, ulardan madhiyalar yaratishga undashi g'alati, – dedi Jerar. – Bu doim meni hayratga soladi va taskin beradi.

Lilian kuldi.

– Breshiyadan Breshiyagacha, – dedi u.

– Bu qisqa va lo'nda iborani tushunmasam-da, bahslashmayman, – Jerar qahvasini ichishda davom etdi. – Hatto chuqur falsafiy ibora, degan bo'lardim. Navbatdagi she'riy to'plamimni «Breshiyadan Breshiyagacha!» deb nomlayman. Bugun oqshom kamgapsiz.

– Shunchaki, gapiradigan gap yo'q.

Jerar tushunarli, degandek bosh silkidi.

– Men esa siringiz nimada o, Sen-Mishel xiyobonining notanish Kleopatrasini, degan bo'lardim. Sizning siringiz o'lim. Hayronman, mendek ajal kuychisi nega buni bir qarashda anglamadim?

Lilian yana kuldi.

– Bu barcha tirik jonlarning siri.

– Siz uchun u ko'proq ahamiyatga ega. Siz ajalni boshqalar rangli liboslarni kiygandek kiyib yurasiz. Aynan u eng haqqoniy jazman, uning oldida boshqalar qiymatini yo'qotadi. Siz buni bilasiz, lekin sizni tutib qolmoqchi bo'lgan odamlarni mushkul ahvolga solish uchun unutishga harakat qilasiz. Ajaldan qochib hayotga intilasiz.

– Hamma shunday qiladi, faqat yogalardan boshqa.

– Yolg'on. O'lim bilan yuzma-yuz kelmaguncha hech bir odam bu ishni qilmaydi.

Fojia va kulgili tomoni shundaki, dunyodagi barcha odam eng badavlat korchalondan tortib, eng kambag'al sho'rlikkach o'zlarini xuddi o'lmaydigandek, abadiy yashaydigandek tutishadi. Agar biz doim o'lim haqligini anglagan holda yashaganimizda edi, anchagina shafqatli va marhamatli bo'lardik.

– Va sabrsizroq, qo'rqqoqroq va chorasizroq bo'lardik, – qo'shimcha qildi Lilian kula turib.

– Farosatliroq va olijanobroq...  
– Xudbinroq...  
– Va xolisroq, chunki u dunyoga o'zing bilan hech narsa olib ketolmaysan.

– Qisqasi, biz hozir qanday bo'lgan bo'lsak, shundayligimizcha qolardik.

Jerar tirsagiga tayandi.

– Hamma, tibet donishmandlaridan va dunyoga yoyilib ketgan barchaning ustidan kuladigan devonalardan boshqa.

«Hamma» demoqchi bo'ldi Lilian, lekin indamadi. U hech narsa unutilmaydigan sanatoriyni esladi. To'g'ri, u yerda ham o'limni nazar-pisand qilishmasdi, lekin buni shunchaki kun o'tkazish uchun emas, balki o'lim haqligini anglagan holda qilishardi, u yerda o'z qo'rquvlarini yengishga muvaffaq bo'lishgandi.

– Bemorlardan boshqa, – dedi Jerar. – Lekin sog'ayganiga uch kun bo'lmay, ular ham kasallik vaqtida ichgan qasamlarini unutishadi.

To'satdan u Lilianga tikilib qoldi.

– Balki siz ham bemordirsiz?

– Yo'q, – dedi Lilian. – Qiziq, odamlar oqshom tushishi bilan bema'ni gaplarni valdiray boshlashadi-ya. Endi men ketishim kerak.

– Siz doim shunday deysiz, lekin doim keyin qaytib kelasiz. Lilian unga minnatdor tikildi.

– To'g'rimi? Bunaqa narsalarni faqat shoirlar bilishi qiziq.

– Ular ham hech narsani bilishmaydi. Shunchaki, umid qilishadi, xolos.

\* \* \*

Grand Ogyuston sohili bo'ylab Volter maydonigacha piyoda yurib borgan Lilian ortga qaytib tor ko'chalarga o'zini urdi. U tunda yolg'iz yurishdan ham, odamlardan ham qo'rqmasdi.

Sena ko'chasiga qayrilishi bilan yerda yotgan kimsaga ko'zi tushdi. Uni mast, deb o'ylab yonidan o'tib ketmoqchi

edi, lekin tanasining yarmi ko'prikda, yarmi yo'lkada bo'lgan ayolning yotishi unga g'alati tuyuldi va to'xtab tikildi. Lili-an ayolni sudrab bo'lsa-da, yo'lakka o'tkazib qo'yishga qaror qildi, chunki har daqiqada muyulishdan mashina otilib chiqishi mumkin edi.

Ayol jonsiz edi. Lilian xira chiroq nurida uning qotib qolgan ochiq ko'zlarini ko'rdi. Nochorni biroz ko'targandi hamki, uning boshi orqaga shilq etib tushdi va ko'prikka urildi. Lilian o'likka ozor yetkazdim, deb o'ylab, qichqirib yubordi. Keyin ayolning jon asorati sezilmayotgan yuziga tikildi. Qanday yordam berishni bilolmay atrofga alangladi. Ba'zi dera-zalarda hali chiroq ko'rinardi, parda qoplangan katta deraza-dan esa musiqa ovozi eshilib turardi. Uylar orasidan tungi osmon ham ko'zga tashlanardi. Kutilmaganda Lilianning ko'zi yaqinlashayotgan odamga tushdi. Biroz ikkilanib turgach, unga peshvoz chiqishga shoshildi.

– Jerar! – hayratlanib xitob qildi u va birdan yengil tortdi.  
– Qayerdan bildingiz?..

– Ortingizdan keldim. Shoirilar so'lim bahor oqshomlari bunday qilishga haqli...

Lilian bosh silkidi.

– U yerda bir ayol o'lib yotibdi. Yuring, tezroq.

– Balki mastdir. Men o'liklar qanday bo'lishini yaxshi bilaman.

Lilian Jerar borgisi kelmayotganini sezdi.

– Nima bo'ldi?

– Bu muammoga o'ralashishni istamayman, – dedi ajal kuychisi.

– Ayolni ko'prik ustida qoldirib ketolmaymiz-ku.

– Nega endi? U o'lgan-ku. Qolgani politsiyaning ishi. Men aralashishni istamayman. Sizga ham maslahatim shu! Uning o'limida bizni ayblashlari ham hech gapmas. Ketdik!

Jerar Lilianning qo'lidan tortdi. Lekin qiz o'rnidan jilmadi. U endi hech nimani sezmaydigan, lekin Lilian bilmaydigan narsani biladigan ayolning yuziga tikildi. Ayol hamma

tomonlama tark etilgandi. Lilian uning paypog'ini, jigarrang tuflisini, yalang'och qo'llarini, qop-qora kalta kesilgan sochlarini va bo'ynidagi ingichka zanjirini ko'rdi.

– Ketdik, – shivirladi Jerar. – Bu yerda muammodan boshqa narsaga yo'liqmaysan. Politsiyaga duch kelsak, yomon bo'ladi. Biz ularga qo'ng'iroq qilib xabar berishimiz mumkin. Bizdan talab qilinadigani shu.

Lilian unga ergashdi. U Jerarning ham haqligini, ham nohaqligini bilardi. Shoir shunchalik tez yurardiki, Lilian ortidan zo'rg'a yetib borardi. Qirg'oqqa yetib borgach, Lilian uning yuziga tikildi. Jerarning rangida rang qolmagandi.

– O'lim bilan yuzma-yuz kelish u haqda gapirishdan ko'ra og'irroq. Nima dedingiz? – so'radi kinoya bilan Lilian. – Qayerdan qo'ng'iroq qilamiz? Mening otelimdanmi?

– Gapimizni porte eshitib qolishi mumkin.

– Unga ish buyurib biror joyga jo'natish mumkin.

– Yaxshi.

Porte quvonchdan yal-yal yonib ularga peshvoz chiqdi.

– U o'ninchi o'rinda ketyapti. U...

Jerarga ko'zi tushgan porte ta'nali nigoh tashlab jim bo'ldi.

– Bu Klerfening do'sti, – dedi Lilian. – Siz haqsiz, degan qarorga keldim, Klerfening yutug'ini nishonlash kerak. Bizga shampan vinosi keltiring. Telefon qayerda?

Porte o'z stoliga ishora qilib, ko'zdan yo'qoldi.

– Tezroq, – dedi Lilian.

Jerar telefon kitobidan raqam qidirardi.

– Eski kitob ekan.

– Politsiya telefon raqamlarini o'zgartirmaydi.

«O'ninchi o'rinda, – o'yladi Lilian. – U hamon Breshiyadan Breshiyaga qarab shoshyapti, bu vaqtda esa...»

Jerar telefonda gaplasha boshladi. Porte qo'lida bir shisha va ryumka ko'tarib qaytib keldi. Kutilmaganda shisha tiqini paqilladi, porte xursand bo'lganidan vinoni qattiq silkitib yuborgandi. Jerarning nafasi ichiga tushdi.

– Yo'q, o'q ovozi emas, – dedi u biroz quloq tutib turgach va go'shakni qo'ydi.

– Endi biror nima ichib olmasangiz bo'lmaydi, – dedi Lilian. – Portega nima ish buyurishni bilmay shoshib qoldim. Chunki u butun oqshom shu topshiriqni kutgandi. Umid qilamanki, biz hech kimni tahqirlamayapmiz.

Jerar bosh chayqaganicha, yutoqib icha boshladi. Vaqti-vaqti bilan telefonga qarab-qarab qo'yardi. Lilian u politsiya qo'ng'iroq qayerdan bo'lganini bilib qolishidan cho'chi-yotganini sezdi.

– Ular bu yerda o'q uzildi, deb o'ylashdi. Nega fojiaiy voqealar o'lgudek kulgili ham bo'ladi-ya?

Lilian Jerarga yana shampan uzatdi.

– Men ketishim kerak, – dedi Jerar.

– Bu gal siz ketyapsiz. Xayrli tun, Jerar.

Jerar shampan vinosiga tikildi.

– Agar boshqa ichmasangiz, vinoni o'zim bilan olib ketsam.

– Yo'q, Jerar. Ikkalasidan bittasini tanlashingizga to'g'ri keladi.

Yigit bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi. «Endi tun boshlanadi, yolg'izlik tuni», – o'yladi Lilian va shampanni portega berdi.

– Iching. Priyomnik tepadami?

– Albatta, xonim.

Lilian zinadan ko'tarildi. Qorong'ida priyomnikning temir qismlari yalt-yult etardi. U chiroqni o'chirib anchagacha deraza yonida turdi, ko'chadan politsiya mashinasi o'tib qolar-mikan, deb kutdi. Lekin mashina ko'rinmadi. Keyin chiroqni yoqib, sekin-asta yechina boshladi. Bir xayolida ko'ylaklarni xonaga osib chiqishni ham o'yladi. Lekin unday qilmadi. «Ko'ylaklarim menga yordam berishi mumkin bo'lgan dam-lar o'tib ketdi», – o'yladi Lilian. U chiroqni o'chirmay uyqu dori ichdi.

\* \* \*

Lilian uyqudan xuddi birov balanddan uloqtirib yubor-gandek tuyg'u ila uyg'ondi. Parda ortidan tushib turgan qu-

yosh nurlari tunda yoniq qolgan chiroq nurlari bilan qo'shilib jilvalanardi. Telefon bor ovozda jiringlardi. «Politsiya!» o'yladi u go'shakni ko'tararkan.

Qo'ng'iroq qilgan Klerfe edi.

– Biz hozirgina Breshiyaga yetib keldik!

– Ha, Breshiyagami? – Lilian boshini siltab uyqusini o'chirishga urindi. – Demak, yetib boribsan-da.

– Oltinchi bo'lib! – kuldi Klerfe.

– Oltinchi. Bu ajoyib-ku.

– Bu muhimmas. Ertaga qaytaman. Endi uxlashim kerak. Torriani allaqachon stulning o'zidayoq uxlab qoldi.

– Mayli, uxla. Qo'ng'iroq qilganing yaxshi bo'ldi.

– Men bilan Riveraga borasanmi?

– Albatta, sevgilim.

– Meni kut.

– Xo'p, azizim.

Kunduzi Lilian Sena bo'ylab kezdi. Keyin gazetalarga ko'z tashladi. U yerda ham ayol haqida hech qanday xabarga ko'zi tushmadi. Parij uchun bir odamning o'limi o'ta ahamiyatli voqea emasdi.

\* \* \*

– Bu uyni urushdan ancha oldin sotib olgandim, – dedi Klerfe. – U paytlarda arzimagan pulga Riveraning yarmini sotib olish mumkin edi. Lekin bu uyda sira yashamaganman. Shunchaki bir-ikki jihoz sotib olib qo'yganman, xolos. Ko'rib turganingdek imorat ayanchli ahvolda. Lekin bu muammo emas, yaxshilab ta'mirlansa, hammasi joyida bo'ladi.

Lilian kulib yubordi.

– Nima keragi bor? Bu uyda yashamoqchimisan?

– Balki yasharman.

G'ira-shira xonadan Liliana qorong'ilik chulg'agan bog'ga, tosh to'kilgan yo'lakka qaradi. Bu yerdan dengiz ko'rinmasdi.

– Balki oltmish beshlarga kirganingda yasharsan, undan oldinmas, – dedi Lilian. – Mehnat faoliyatingga Tuluzada bar-

ham berasan. Keyin bu yerda xuddi «Otel de Pari»da tushlik qiladigan, vaqti-vaqti bilan kazinoga borib turadigan bama'ni fransuz sudxo'ridek kun kechirasan.

– Bog' kattagina, uyni qayta qurish mumkin, – davom etdi Klerfe qaysarlik bilan. – Pulim bo'lsa bor. Poyga tashkilotchilari anchagina saxiy ekan. Monakodagi poyga bu mablag' ustiga yana qo'shimcha qo'shadi, deb umid qilaman. Sen bu yerda yashab bo'lmaydi, deb hisoblaysanmi? Qayerda yashashni istarding?

– Bilmadim, Klerfe.

– Lekin buni bilishim kerak. Hech bo'lmasa, taxminan.

– Men esa bilmayman, – dedi Lilian biroz dovdirab. – Hech qayerda. Agar sen qayerdadir yashashni istasang, demak, o'sha yerda o'lishni istagan bo'lasan.

– Qishda bu yerning ob-havosi Parijnikidan yuz chandon yaxshi.

– Qishda! – Lilian buni shunday ohangda aytdiki, xuddi gap olisdagi yulduz yoki abadiy hayot haqida ketayotgandek.

– Qish yaqin. Qurilishni tezroq boshlash kerak, agar qish-gacha tugatish niyatimiz bo'lsa, albatta.

«Namuncha tund bo'lmasa bu uy. Meni bu uyga qamab qo'yishlarini istamayman», – o'yladi u, lekin tiliga boshqa gapni chiqardi:

– Axir qishda Tuluzada ishlashing kerak-ku?

– Biri ikkinchisiga xalaqit bermaydi. Qishda sen uchun eng qulay bo'lgan iqlimda yashashingni istayman.

«Iqlim bilan nima ishim bor», – o'yladi Lilian kayfiyati tushib. – Men uchun eng yaxshi iqlim – sanatoriyda.

Klerfe unga yalt etib qaradi.

– Sanatoriyga qaytishing kerakmi?

Lilian javob bermadi.

– U yerga qaytishni istarmiding?

– Bu savolga nima deb javob beray? Axir, shu yerdaman-ku!

– Vrach bilan maslahatlashdingmi? Umuman, biror marta vrachga uchradingmi?



– Vrach bilan gaplashadigan gapim yo‘q.

Derazadan allaqanday qushning qattiq sayragani eshitildi.

– Ketdik bu yerdan, – dedi kutilmaganda Klerfe. – Bu rangli qandilni yoqsang, elektr nuri xira tortib qolgandek tuyuladi. Lekin bu yerdagi hamma narsani o‘zgartirish mumkin.

Tun devordagi ganch naqshlarini bag‘riga ola boshladi. Lilian yengil tin oldi. U o‘zini bir balodan qutulgandek his qildi.

– Hamma gap sen men bilan bo‘lishni istamasligingda, Lilian, – dedi Klerfe.

– Axir, yoningdaman-ku, – chorasiz e‘tiroz bildirdi qiz.

– Lekin o‘zingni xuddi hozir ketadigandek tutyapsan-da.

– O‘zing shuni xohlamaganmiding?

– Ehtimol, lekin endi xohlamayapman. O‘zing men bilan boshqacha yashashni istarmiding?

– Yo‘q, – shivirladi Lilian. – Lekin boshqa bilan ham yashashni istamasdim, Klerfe.

– Nega?

Lilianning jahli chiqib zo‘rg‘a tilini tishladi. «Nega menga bunaqa ahmoqona savollarni beryapti?»

– Bu haqda ming marta gaplashganmiz. Hammasini boshidan boshlashning nima keragi bor? – dedi u.

– Muhabbatga nafrat bilan qarash shartmi?

Lilian bosh chayqadi.

Klerfe unga qattiq tikildi:

– Hech qachon o‘zim uchun biror narsani qattiq istaganman. Lekin hozir esa istayapman. Sen meniki bo‘lishingni juda-juda istayman.

– Yoningdaman-ku, axir.

– Men istaganimdek yaqin emas.

«U meni o‘ziga bog‘lab qamab qo‘ymoqchi, – o‘yladi Lilian. – Keyin buni faxr bilan oila, g‘amxo‘rlik, muhabbat deb ataydi. Lekin u faxrlanadigan tuyg‘ular meni undan ko‘proq uzoqlashtirishini tushunmaydi». U yo‘l bo‘yidagi kichik vil-laga nafrat bilan tikildi. «Nahotki umrimni shu yerda yakun-

lash uchun sanatoriydan qochgan bo'lsam?! – o'yladi. – Bu yerdami, Tuluzadami, Breshiyadami – farqi yo'q. Sarguzasht zavqi qani? Qani oldingi Klerfe? Nega u bu qadar o'zgarib ketdi?»

– Kel, bir harakat qilib ko'raylik, – dedi Klerfe. – Agar bir ish chiqmasa, uyni sotamiz.

«Bunga mening vaqtim yo'q, – o'yladi Lilian. – Mening «oilaviy baxt» degan tajriba o'tkazib ko'rishga vaqtim yo'q, axir! Men ketishim kerak. Bunaqa suhbatlarga sarflaydigan gapim ham yo'q. Bunaqa suhbatlar sanatoriyda ko'p va xo'b bo'lardi, lekin men u yerdan shuning uchun ham qochib ketganman».

Lilian kutilmaganda tinchlandi. U hali nima qilishi mumkinligini bilmasdi, lekin nimadir qilish qo'lidan kelishini his qilishning o'zi yetarli edi unga. Endi hammasi unchalik yomon tuyulmay qoldi. Baxt ham qo'rqita olmasdi uni. Lilian faqat bir narsadan – kundalik tashvishlar asiriga aylanishdan cho'chirdi.

\* \* \*

Oqshom dengiz bo'yida mushakbozlik bo'ldi, olov osmonga ko'tarilar, keyin uchqunlari har tarafga sochilardi. Tun oydin edi, osmon esa juda uzoq tuyulardi. Dengiz osmon bilan birlashib ketgani uchun olov yo'qlikka qaratilgandek va yer sharidan tashqariga, bo'shliqqa qulayotgandek tuyulardi. Lilian oxirgi marta mushakbozlikni sanatoriydan ketishidan oldingi oqshomda «Tog'dagi kulba»da ko'rganini esladi. Endi yana ketishiga to'g'ri keladi. «Nazarimda, men qabul qilgan qarorlarning barchasi mushakbozlik bilan qarshi olinadi, shekilli, – alam bilan o'yladi u. – Balki mening boshimga tushayotgan kunlarning bari mushakbozlikka, mana shu g'alati, bir zumda o'chib, kulga aylanadigan olovlarga o'xshar?» U atrofga alangladi. «Faqat hozir emas, – o'yladi u yana xavo-

tirlanib, – hozir emas. Nahotki so'nggi daqiqalarda afsuslanmay o'zimni bag'ishlashga arziydigan yorqin chaqnash yuz bermasa?»

– Ikkalamiz hali o'ynamadik, – dedi Klerfe. – Hech umringda kazinoda o'ynaganmisan?

– Hech qachon.

– Unda bir o'ynab ko'rishing kerak. Agar ilgari o'ynagan bo'lsang, «Birinchi qo'l baxtli bo'ladi», deyishadi, yutishing mumkin. Yur, boramiz, yoki charchadingmi? Axir soat tungi ikki bo'ldi.

– Hali bolalar vaqti-ku. Shu paytda charchab bo'ladimi?

Ular shoshilmay yurib ketishdi, atrof olovlariga chulg'angan tun edi.

– Xayriyat, kunlar isidi, – dedi Lilian o'zini o'rindiqqa tashlab. – Issiqni juda kutgandim. Bu yerga ham nihoyat, yoz keldi.

– Parijda ham kunlar isiguncha shu yerda qolishimiz mumkin.

– Qanday iliq oqshom. Tuz hidi, dengiz ovozi eshitilyapti, – u Klerfening yelkasiga boshini qo'ydi. – Nega odamlar abadiy yashamaydi-a, Klerfe? O'limni bilmay yashashsa bo'lmaydimi?

Klerfe bir qo'li bilan uning yelkasidan quchdi.

– Rostdan ham, nega shunday emas? Nega qariymiz? Odam bir umr o'ttiz yosh bo'lib yashasa bo'lmaydimi? Keyin birdan sakson yoshga kirsada, o'lib qolsa ham mayli.

Lilian kuldi.

– Men hali o'ttizga kirmadim.

– Ha, to'g'ri aytasan, – Klerfe xijolat tortdi. – Doim unutib qo'yaman. Mening nazarimda, shu o'tgan uch oy ichida kamida besh yoshga ulg'aygandeksan. Juda o'zgarding. Besh yilga chiroyliroq bo'lding va o'n yilga xavfliroq.

Ular avvaliga katta zallarda o'ynashdi, keyin bu zallar bo'shab qolgach, kichikroqlariga – katta pul tikilganlariga o'tishdi.

Klerfe yuta boshladi. U avvaliga qo'lda o'ynadi, keyin esa ruletkaga o'tdi, bu yerda naqd pul boshqa stollarga qaraganda ko'proq edi.

– Doim yonimda bo'l, – dedi u Lilianga. – Sen menga baxt keltirasan.

Klerfe «o'n ikkiga», «yigirma ikkiga» va «to'qqizga» tikdi.

Oz-ozdan Klerfe barcha jetonlarini yutib ola boshladi. Unda yana bir tikishga yetadigan mablag' qoldi. U «qizil»ga tikdi. «Qizil» ikkinchi urinishda chiqdi. U yana pul tikdi. «Qizil» yana ikki marta chiqdi. Endi Klerfening yonida bir dunyo jeton yotardi. Zaldagi boshqa o'yinchilar ham unga qiziqib qolishdi. Klerfe o'tirgan stol atrofi odamga to'ldi. Lilian Fiolaning ruletkaga yaqinlashganini ko'rdi, u jilmaygancha «qora»ga tikdi. Yana qizil chiqdi. Endi stol atrofini uch qator odam o'rab olgandi. Deyarli hamma Klerfega qarshi o'ynardi. Faqat oqshom ko'ylagi kiygan ozg'in kampirgina Klerfega o'xshab «qizil»ga tikardi.

Zalga sukunat cho'kdi. Shar tiqirlay boshlaganda kampir aksirib yubordi. Yana bir marta «qizil» chiqdi.

Fiola Klerfega ehtiyot bo'l, degandek ishora qildi. Chunki omad hadeb kulavermaydi, har qanday vaziyatda yuz o'giri-shi ham mumkin edi. Klerfe bosh chayqadi va yana «qizil»ga borini tikdi.

– Il est fou<sup>10</sup>, – dedi Lilian uning ortidan turib.

Yutug'ini bekitishga ulgurgan kampir oxirgi daqiqalarda yana hammasini «qizil»ga tikdi. Sukunatda uning nafas olgani ham eshitilardi. Kampirning changakdek qo'llari yashil matoda yanada qabarib ko'rinardi. Uning yonida kichik toshbaqasi ham bor edi. Bu uning omad tumori edi.

Yana «qizil» chiqdi. Kampir aqldan ozay dedi.

– Formidable<sup>11</sup>! – dedi Lilianning ortidagi ayollardan biri.  
– Kim bu o'zi?

---

<sup>10</sup> Il est fou – (fr) u aqldan ozibdi.

<sup>11</sup> Formidable – dahshat

Lekin endi hech kim raqamlarga tikmay qo'ydi. Butun zal ko'z ko'rib, quloq eshitmagan omad haqida gapirardi. Odamlar qator bo'lib turgancha jeton olishar va katta-katta pullarni «qora»ga tikishardi. Chunki «qizil» yetti marta chiqdi, endi rang o'zgarishi kerak edi. Faqat Klerfe hamon «qizil»ga tikishda davom etardi. So'nggi daqiqalarda kampir hayajonlanib, toshbaqasini qizil rang ustiga qo'yvordi. U xatosini to'g'irlashga ulgurmasidan zalni kulgi tutdi. Yana «qizil» chiqqandi.

– Afsus, xonim, toshbaqangizni ko'paytirib berolmaymiz,  
– dedi qimorxona xizmatchisi stol ustidan toshbaqani olib egasiga uzatar ekan.

– Qani, mening yutug'im?! – chiyilladi kampir.

– Kechirasiz, xonim, lekin siz pul tikmadingiz va bu haqda og'iz ham ochmadingiz.

– Axir siz pul tikmoqchi bo'lganimni ko'rdingiz-ku! Shuning o'zi yetarli emasmi?

– Sharcha tushguncha siz yo pul tikishingiz, yo u haqda ma'lum qilishingiz kerak. «Rien ne va plus<sup>12</sup>» deyilgandan keyin esa buning foydasi yo'q.

Kampir jahl bilan alangladi.

– «Faites vos jeux»<sup>13</sup>, – dedi pinagini buzmay xizmatchi.

Klerfe yana «qizil»ga tikdi. Kampir xayolan «qora»ga tikdi. Boshqalar ham «qora»ga tikishdi. Fiola esa «olti»ga va «qora»ga tikdi.

Yana «qizil» chiqdi.

Klerfe yutug'ini oldi. Keyin xizmatchi tomonga jetonlarni surib, o'rnidan turdi.

– Sen rostdan ham menga omad olib kelding, – dedi u Lilianga va sharcha to'xtashini kutib, stol oldidan uzoqlashmadi. Bu gal «qora» chiqdi.

– Ko'rdingmi? – dedi u. – Ba'zida odam o'z yuragiga quloq solishi kerak.

Lilian jilmaydi. «Qani edi, muhabbat borasida ham yuraging to'g'ri maslahat bersa», – o'yladi u.

<sup>12</sup> Rien ne va plus – boshqa pul tikilmadi.

<sup>13</sup> Faites vos jeux – qani, pul tikinglar.

Fiola ularga yaqinlashdi.

– Tabriklayman. O'yinni vaqtida tugatish ham bir san'at, –  
Fiola Lilianga o'girildi. – Siz nima deysiz?

– Bilmadim. Men sira bunday vaziyatga duch kelmaganman.  
Fiola kuldi:

– Men unday demagan bo'lardim. Siz Sitsiliyada ko'plar-  
ning boshini aylantirib, keyin kutilmaganda yo'qolib qoldin-  
giz. Rimda xuddi meteordek yarq etib porladingiz. Venetsi-  
yada esa do'stlarning aytishicha, sizni qidirib hech qayerdan  
topa olishmagan...

Ular Klerfening omadli o'yinini nishonlash uchun bar to-  
mon yurishdi.

– Nazarimda, yutug'imiz uy qurishga ham yetadi, – dedi  
Klerfe quvonchdan yal-yal yonib.

– Ertaga hammasini yutqazishing mumkin.

– Sen shuni istaysanmi?

– Yo'q, albatta.

– Men boshqa o'ynamayman, – dedi Klerfe. – Hamma pul-  
ni olib qo'yamiz. Sen uchun bog'da hovuz qurdirib beraman.

– Menga hovuzning keragi yo'q. Bilasan-ku, suzmayman.

Klerfe unga tezgina qarab oldi.

– Bilaman. Charchadingmi?

– Yo'q.

– «Qizil» ketma-ket to'qqiz marta chiqqani g'ayrioddiy  
holat, – dedi Fiola. – Bor-yo'g'i bir marta omad chizig'i shu  
qadar uzoq cho'zilganini ko'rganman. O'shanda «qora» o'n  
ikki marta chiqqandi. Bu voqea urushdan oldin bo'lgandi.  
U paytda ayrim stollarda hozirgi «cercle priva»<sup>14</sup>dan an-  
cha ko'proq pul tikilgandi. «Qora»ga tikkan o'yinchi bankni  
o'margandek boyigandi o'ziyam. U «qora»ga va «o'n uch»ga  
tikdi, o'n ikki marta sharcha «o'n uch»ga tushdi. Bu haqiqiy  
shov-shuv bo'lgandi. Keyin hamma unga o'xshab tika bosh-  
lagan. Adashmasam, u rus edi. Ismi nima edi-ya? Menimcha,  
Volkov edi. Ha-ha, Volkov.

---

<sup>14</sup> Cercle priva – yopiq o'yin guruhi.

– Volkov? – ishonqiramay takrorladi Lilian. – Boris Volkov emasmi mabodo?

– To'g'ri! Boris Volkov. Siz uni tanirmidingiz?

Lilian bosh chayqadi. «Omadi chopgan paytlari tanimganman», – o'yladi u. Klerfe uni kuzatib turganini sezdi.

– Qiziq, unga nima bo'lgan ekan? – o'ylandi Fiola. – U odam barchani hayratga solgandi. Haqiqiy qimorbozlarning so'nggilaridan biri edi. Qolaversa, u juda mohir o'qchi edi. Bu yerga Mariya Andersen bilan birga kelgandi. U haqda eshitgan bo'lsangiz kerak? U men bilgan ayollarning eng chiroylisi edi. Milanda havo hujumi payti halok bo'lgandi, – Fiola Klerfega o'girildi. – Siz sira Volkov haqida eshitmaganmisiz?

– Yo'q, – gapni qisqa qildi Klerfe.

– Qiziq! Axir u o'sha paytlar bir necha poygada ham ishtirok etgandi. Albatta, havaskor sifatida. Umrimda undan ko'proq ichadigan odamni ko'rmaganman. Menimcha, u o'zini o'zi nobud qildi. Uning xatti-harakatidan shunga intiladigan odam, degan taassurot qolgan.

Klerfening yuzi tundlashdi. U ofitsiantga yana bir shisha vino olib kel, deb imo qildi.

– Bugun yana o'ynaysizmi? – so'radi Fiola Klerfedan.

– Yo'q.

– Nega? Omad omadni chaqiradi. Balki bugun ham «qora» o'n uch marta chiqar.

\* \* \*

– U o'yinni davom ettirmasligi kerak edi, – dedi Fiola Liliana. – Ayniqsa bugun. Bu qoida dunyo kabi ko'hna.

Lilian Klerfe tomonga nigoh tashladi. Bu gal u qizga omad tumorim bo'lib yonimda tur, demadi. Qiz negaligini bilardi. «Xuddi yosh bolaga o'xshaydi-ya, – o'yladi u mehri tovlanib. – Ahmoqona rashk. Nahotki gap boshqa odamda emas, o'z shaxsiy tuyg'usida ekanini unutgan bo'lsa?»

– Siz o'ynashingiz kerak edi, – dedi Fiola. – Chunki bu yerga birinchi marta kelishingiz. Men uchun o'ynashni istamay-sizmi? Yuring!

Ular boshqa stol yoniga borishdi. Fiola pul tika boshladi. Bir necha daqiqadan keyin Lilian ham bir necha jeton oldi. U ehtiyot bo'lib kam-kamdan pul tika boshladi. Pul Lilian uchun muhim, hayotining bir qismi edi. U Gaston amakisining qo'liga qarab qolishni istamasdi.

Lilian birinchi qo'ldayoq yuta boshladi.

– Mana buni baxtli qo'l, desa bo'ladi, – dedi yutqazayotgan Fiola. – Bugungi oqshom sizniki ekan. Men ham siz tikkan kataklarga tiksam, qarshi emasmisiz? Sizning soyangiz bo'laman.

– Bundan afsuslanasiz.

– O'yindan afsuslanmayman. Kallangizga kelgan raqamga tikavering.

Lilian bir muddat goh «qizil»ga, goh «qora»ga tikdi, keyin esa turli sonlarga tika boshladi. Ikki marta yutdi ham.

U o'ynayotgan stol atrofida shu zahoti toshbaqa ko'targan kampir paydo bo'ldi. Kampir Lilianning qarshisidan joy oldi. Yuzidan qattiq g'azabdaligi bilinib turardi. Pul tikar payti kampir toshbaqasiga allanarsalarni shivirlardi. Uning sarg'aygan barmoqlarida behad chiroyli olmos ko'zli uzuk liqillab turardi. Kutilmaganda Lilian kampir qo'lidagi toshbaqasiga o'xshab ketishini sezib qoldi.

Endi Lilian navbati bilan goh «qora»ga, goh «o'n uch»ga tikardi. Birozdan keyin boshini ko'tarib, Klerfe u o'ynayotgan stol yonida turgancha o'yinini kuzatayotganini ko'rdi. O'zi sezmaganda u bir paytlar Volkov o'ynagandek o'ynardi. Lilian buni Klerfe ham sezganini tushundi. Isyon tariqasida Lilian «o'n uch»ga tikishda davom etdi. Oltinchi marta «o'n uch» chiqdi.

– Yetar, – dedi Lilian va stoldagi jetonlarni yig'ishtirib, sumkasiga soldi, u yutganini bilardi, lekin qancha yutganini bilmasdi.

– Ketyapsizmi? – so'radi Fiola. – Axir bu oqshom sizniki-ku! Ko'rib turibsiz, omad bu oqshom siz tomonda. Bunaqasi boshqa qaytarilmaydi.



– Oqshom o'tdi. Pardalarni ochib ko'ring, g'ira-shira tong yorishganini ko'rasiz. Xayrli tun, Fiola. O'yinni davom ettiravering!

Lilian Klerfe bilan birga ko'chaga chiqqanida, ko'z o'ngida Rivera o'zining qadimiy shakl-shamoyilida namoyon bo'ldi, u hozir sayyohlar ishg'ol qilishidan oldingi holatida edi. Qirg'oq kimsasiz, ko'chalarda mashina ko'rinmasdi. Shamol dengizdan langust hidini olib kelardi.

Lilian qachon janjallashib ulgurishganini tushunmadi ham. Klerfe nimadir dedi, oradan biroz vaqt o'tgach, Lilian uning so'zlari ma'nisini tushunib yetdi. Uning yuragida saqlangan Volkovga nisbatan rashk tuyg'usi to'satdan yuzaga chiqqandi.

– Men nima qilishim kerak? – dedi u. – Men soya bilan kurashyapman, yonimizda yo'q ko'rinmas odam bilan. U hamma joyda yonginamda yursa-da, uni o'q bilan otib bo'lmaydi. Chunki u yo'q. U mendan yuz marta kuchli, chunki u yo'q, u begunoh, chunki u yo'q, u bekamu ko'st, chunki u yo'q, uning eng zo'r imkoni bor – u yo'q! Aynan shu uning qo'liga menga qarshi kuchli qurolni tutqazgan. Men esa shu yerdaman va sen meni qanday bo'lsam, shundayligimcha ko'rib turibsan, endi mening jahlim chiqqanini ham, ba'zan qanday nohaq bo'lishimni ham, ba'zan maydakash va ahmoq bo'lishimni ham bilasan. Menga qarshi esa uning katta va bekamu ko'st qiyofasi turibdi. U xato qilmaydi, gapirmagandan keyin qayerdan ham xato qilsin?! U bilan kurashish ham befoyda, xuddiki, marhumlar xotirasi bilan kurashishdek befoyda!

Lilian charchab boshini orqaga tashladi.

– Shunday emasmi? – so'radi Klerfe kafti bilan rulga urarkan. – Agar noto'g'ri gapirayotgan bo'lsam, ayt. Nega men bilan gaplashishdan qochayotganingni darhol sezdim. Aynan uni deb menga turmushga chiqishni istamayotganingni ham bilaman. Sen ortga qaytmoqchisan! Mana, gap qayerda?! Sen yana uning oldiga qaytmoqchisan!

Lilian boshini ko'tardi. U nima haqida gapiryapti o'zi?

U nigohini Klerfega qaratdi:

– Nimalar deyapsan, o‘zi?

– Gaplarim yolg‘onmi? Hozirgina u haqda o‘ylaganing yolg‘onmi?

– Hozir men eng aqlli odamlar ham kutilmagan darajada ahmoq bo‘lishlari mumkinligi haqida o‘yladim. Meni yoningdan kuch bilan haydama, iltimos.

– Men? Seni-ya? Axir seni yonimda olib qolish uchun qo‘limdan kelganini qilyapman-ku!

– Nahotki, shu yo‘l bilan meni ushlab qolish mumkin, deb o‘ylasang?! Yo, Tangrim! – Lilianning boshi yana egildi. – Sen bekorga rashk qilyapsan, agar men qaytib borishni istasam ham, Boris meni qabul qilmaydi.

– Buning nima ahamiyati bor? Asosiysi, sen uning yoniga qaytishni istayapsan.

– Meni ortga haydama! Nahotki, ko‘zingni butkul shira bosgan bo‘lsa?!

– Ha, – dedi Klerfe. – Ehtimol! Lekin boshqacha o‘ylay olmayman. Bu qo‘limdan kelmaydi.

\* \* \*

Ikkovlon mashinada Kornish shossesi bo‘ylab Antibgacha jim ketishdi. Ular tomon eshak-arava kelardi. Aravada o‘tirgan o‘smir qiz beg‘am-betashvish qo‘shiq kuylab borardi.

Horg‘in «uh» tortgan Lilian qizga havas bilan tikildi. U qimorxonadagi kampirni esladi, u hali uzoq yillar yashashini his qildi, keyin kulib turgan qizga qarab, o‘zi haqida o‘yladi. U hozir har zamonda xayolini chulg‘ab oladigan tushunarsiz alamli daqiqalarni boshidan o‘tkazayotgandi: «Nega? Nega aynan men? Gunohim nima ediki, shunday achchiq taqdir nasib etdi menga?»

Ko‘zyoshlari orasidan ertakmonand tabiat manzaralariga tikildi. Atrofni gullagan daraxtlarning ifori tutgandi.

– Nega yig‘layapsan? – so‘radi Klerfe g‘ashi kelib. – Xudo haqqi, yig‘lashga arziydigan hech qanday sababing yo‘q.

– Ha, arzirli sababim yo‘q.

– Sen meni sharpaga almashtiryapsan, – zahar sochishda davom etdi Klerfe, – yana kamiga ko‘zyosh to‘kyapsan!

«Ha, – o‘yladi u, – lekin u soyaning ismi Boris emas. Klerfega uning ismini aytsammikan? Aytsam, u meni kasalxona-ga joylab, ostonaga qorovul ham qo‘yib qo‘yadi. Keyin oynasi qoraytirilgan xonada dezinfeksiya qilingan to‘shaklar hidini hidlab, meni o‘lgunimcha davolashlarini kutib yotaman».

U Klerfega o‘girildi. «Yo‘q, – o‘yladi u, – uning muhabbati bilan yaratilgan qamoqxona kerakmas menga. Bu yerda isyon qilishdan ham naf yo‘q. Faqat bitta yo‘l bor – qochish. Otash so‘ndi, kulni titishga ne hojat?»

Mashina otel hovlisiga kirib bordi. Bir ingliz tong saharlab cho‘milish xalatida dengizga qarab ketib borardi. Klerfe Li-lianning ko‘zlariga qaramay mashinadan tushishga yordam berdi.

– Endi meni kam ko‘rasan, – dedi Klerfe. – Ertaga mashg‘ulotlar boshlanadi.

U biroz oshirib gapirardi, poyga shaharda o‘tkazilgani sabab mashg‘ulot o‘tkazishning iloji yo‘q edi. Faqat poyga payti shahar ko‘chalari yopilardi, xolos. Mashg‘ulot faqat belgilangan masofani bosib o‘tib, tezlikni qayerda pasaytirish va oshirish kerakligini bilib olishdan iborat edi.

Lilian to‘satdan o‘zi va Klerfe o‘rtasida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqealarni tasavvur qilib ko‘rdi. Uning ko‘ziga uzun yo‘lak ko‘rindi. Yo‘lak borgan sari torayib borar va chiqish yo‘li ko‘rinmasdi. Ular bu yo‘lakdan yura olishmasdi. Muhabbatda ortga yo‘l yo‘q. Uni hech qachon boshqatdan boshlab bo‘lmaydi. Bo‘lib o‘tgan narsalarning bari qonda qoladi. Klerfe endi unga oldingidek muomala qilmaydi. Boshqa har qanday ayolga shunday qilishi mumkin, lekin Lilianga emas. Muhabbat ham xuddi vaqtga o‘xshaydi, ortga qaytarib bo‘lmaydi. Qurbonlik ham, har narsaga tayyorlik ham, qattiq istasa ham hech narsa yordam bera olmaydi. Muhabbatning qayg‘uli, beshafqat qonuni shunaqa. Lilian buni

bilardi va shuning uchun ham ketmoqchi edi. Ular ikkalasi birga yashashi kerak bo'lgan muddat Lilian uchun butun hayoti, Klerfe uchun esa umrining bor-yo'g'i bir necha oyi edi. Shu sabab u Klerfe bilan emas, faqat o'zi bilan hisoblashishi kerak. Ularning sharoiti teng emasdi. Garchi hozir boshqacha o'ylayotgan bo'lsa-da, Klerfening hayoti uchun ularning muhabbati bor-yo'g'i ko'rinish, Lilian uchun esa hayotining adog'i edi. U endi o'zini qurbon qilishga haqqi yo'q ekanini tushunib yetdi. Lilian afsuslanish uchun vaqti juda kamligini angladi. Lekin u munosabatlariga aniqlik kiritib oldi, ko'nglida xuddi tongdek musaffolikni tuydi. Tumanning so'nggi xiraliklari tarqab, tushunmovchiliklar yo'qoldi. U kichik, lekin o'tkir baxt tuyg'usini tuydi, bu – qaror qabul qilgan odamning tuyg'usi edi. Qizig'i, qaror bilan birga Klerfega nisbatan mehri ham qaytdi.

– Aytayotgan gaplaringda bir chimdim ham haqiqat yo'q, – dedi Lilian endi butunlay boshqa tovushda. – Bir chimdim ham! Unut buni! Bu bo'lmagan gap! Sen o'ylagandek emas!

U Klerfening yuzi yorishganini ko'rdi.

– Men bilan qolasanmi? – tezda so'radi u.

– Ha, – dedi qiz bu gapning yolg'onligini bila turib. Lekin bu bir tomondan rost ham edi. U bilan o'tkazadigan so'nggi kunlarida bahslashishni istamasdi.

– Nihoyat, meni tushundingmi?

– Ha, seni tushundim, – javob berdi u jilmayib.

– Menga turmushga chiqasanmi?

Klerfe uning ovozidagi ikkilanishni sezmadi.

– Ha, – dedi qiz.

Endi buning ahamiyati yo'q edi. U qizga sinchkov tikildi:

– Qachon?

– Qachon istasang.

U bir lahza jim bo'ldi.

– Va nihoyat! – dedi u. – Va nihoyat! Bu qaroringdan hech qachon afsuslanmaysan, Lilian!

– Bilaman.

Klerfe butkul boshqa odamga aylanib qoldi.

– Charchadingmi? O'lgudek charchagan bo'lsang kerak? Nimalar qilib qo'ydik? Sen uxlashing, dam olishing kerak-ku. Yur, seni yuqorigacha kuzatib qo'yaman.

– Sen-chi?

– Men haligi inglizdan o'rnak olaman, keyin esa ko'chada mashinalar kamligidan foydalanib, masofani sinab ko'raman. Shunchaki, qoidaga ko'ra, aslida bu masofani besh qo'limdek bilaman. – Klerfe uning eshigi oldida to'xtadi. – Qanday ahmoqman-a? Yutganlarimning yarmini boy berdim. Hammasi alamdand.

– Men esa yutdim, – Lilian xonaga kirib, jetonga to'la sumkasini stol ustiga tashladi. – Lekin qanchaligini sanamadim.

– Ertaga yana yutamiz. Vrachga uchrashasanmi?

– Ha. Endi uxlashim kerak.

– Albatta. Kechgacha uxla. Keyin ovqatlanamiz. Men seni juda yaxshi ko'raman.

– Men ham seni yaxshi ko'raman, Klerfe.

Klerfe keta turib eshikni ehtiyotlab yopdi. «Xuddi kasalning eshigini yopgandek», – o'yladi qiz holsizlanib o'zini karavotga tashlarkan.

Ochiq oynadan Lilian Klerfening dengiz tomon ketayotganini ko'rdi. «Poygadan keyin, – xayolidan o'tkazdi u. – Hamma narsamni yig'ishtirib ketishim kerak, faqat poygadan keyin».

U ketish haqida nega vaqtliroq o'ylamaganini va qayerga borishni ham bilmasdi. Umuman olganda, unga farqi yo'q edi. «Yana bir necha kun». U ketishi shart. «Ortga qaytasanmi? – so'radi Klerfe. Lekin qayerda u «ortga» degani? Qayerda?»

Har bir aylana yo'l salkam uch kilometr edi, trassa shahar markazidagi Monte-Karlo ko'chasidan o'tar, kazino joylashgan tepalik yonidan o'tib orqaga qaytardi. Bu aylanadan yana yuztasini bosib o'tish kerak edi, bu – poygachi o'n ming marta tezlikni oshirishi, tormozni bosishi va yana shuni qayta-qayta takrorlashi kerak, degani.

– Haqiqiy chalkashlik, – kulgancha Lilianga tushuntirdi Klerfe. – Xuddi akrobatlarning mashqiga o'xshaydi. Tezlikni bor kuching bilan oshirolmaysan ham. Qayerda o'tirasan?

– Minbarda. O'ng tomondan o'ninchi qator.

– Kun qiziydiganga o'xshaydi. Boshingga shlyapa oldingmi?

– Ha.

Lilian Klerfega qo'lidagi kichik somon shlyapasini ko'rsatdi.

– Yaxshi. Bugun kechqurun dengiz bo'yiga boramiz, u yerda langust yeymiz. Ertaga esa bir tanish arxitektor bilan uch-rashamiz, u bizga uyni qayta qurish loyihasini chizib beradi. Uyimiz yorug' bo'ladi, oynalari katta-katta, quyosh nurlari har tomondan tushib turadi.

Murabbiy Klerfega italyanchalab allanima deb qichqirdi.

– Boshlanyapti, – dedi Klerfe oq kombenzonining bo'yin tugmalarini qadarkan.

U cho'ntagidan bir bo'lak yog'ochni olib, oldin mashinasiga, keyin o'z qo'liga urdi.

– Tayyormisan? – qichqirdi murabbiy.

– Tayyor.

Lilian Klerfeni o'pib qo'ydi, keyin poygachilarning barcha irim-sirimlariga amal qilib, mashina tomonga qarab «tuf-tuf», dedi. Lilian italyan mexaniklar yonidan o'tib chiqish eshigi tomon yurarkan, yigitlar uning ortidan havas bilan qarab qolishdi. Orqadan murabbiyning duolari quloqqa chalindi:

– Barcha mazlumlarga mehribon Tangrim, bizga rahming kelsin, Klerfedan, Fridjeriodan marhamatingni darig' tutma...

Eshikka yetib borgan Lilian ortiga o'girildi. Marketti va boshqa ikkita poygachining xotini o'z joylarini egallab, sekundomer va qog'ozlarni shay qilib turishardi. «Uni yolg'iz qoldirib ketmasligim kerak edi», – o'yladi Lilian va Klerfega qarab qo'lini ko'tardi. Klerfe ham xursand bo'lib unga qo'l siltadi. Negadir Klerfe Lilianning ko'ziga juda yoshdek ko'rindi.

– Avliyo-yu anbiyolar, shunday qilingki, raqiblarimizning shinalari biznikilarnikidan ko'ra ikki barobar tezroq yediril-

sin, – ibodat qilishda davom etdi murabbiy. Keyin to'satdan duodan to'xtab xitob qildi:

– Startga tayyorlaning! Begonalar tashqariga chiqsin!

\* \* \*

Yigirmata mashina biryo'la start oldi. Bir davra aylangan-dan keyin Klerfe sakkizinchi bo'lib borardi, u start olgan joy unchalik qulay emasdi-yu, lekin bir lahza ham ikkilanmadi. U Mikottining izidan qolmay borar, bu yigitning g'alabaga ishti-yoqi balandligini bilardi.

Fridjerio, Monti va Sakketti ulardan oldinda borardi, Mar-ketti esa birinchilardan edi. To'rtinchi davrada yo'l kazino oldidan o'tayotganda Mikotti motorning jonini sug'urib ol-gudek bosdi va Sakkettidan o'zib ketdi.

Klerfe uning orqa g'ildiragiga osilib ketayotib, qo'qqisdan motorni guvillatib tonneldan chiqquncha uni quvib yetdi. Tonneldan chiqqach, Mikotti tezlikni pasaytirdi. Klerfe un-dan o'zib, Montini quva boshladi. U yo'lning har bir metrini besh qo'ldek bilardi. Monti uch davra aylanguncha undan ham o'zib ketdi.

«Yana to'qson davra va o'n yettita raqib qoldi», – o'yla-di Klerfe tribuna yonida Mikottining mashinasi bilan yon-ma-yon turgan mashinaga qararkan.

Murabbiy unga vaqt-bevaqt oldinga chiqaverma, degan-dek ishora qildi.

Bir-birini ko'rishga ko'zi yo'q Fridjerio va Sakketti firma-niing manfaati qolib, o'zaro raqobatga kirishib ketgandi. Bu jamoa qoidalariga to'g'ri kelmasdi. Agar liderlar o'z mashi-nalarining boshiga yetadigan bo'lsa, murabbiy Klerfe yoki Meyer III ni har ehtimolga qarshi zaxirada tutib turmoqchi edi.

Lilian tribuna yonidan har ikki daqiqada o'tib turgan ma-shinalar galasiga tikildi. Mashinalarning o'qdek tez uchishi uning ko'z o'ngida poygani yanada qadrsizlantirdi. Hozirgina

mashinalar shu yerda edi, bir lahzaga chalg'ib ulgurmasdan ular yana paydo bo'lishadi. Farqi, o'rni o'zgargan holda paydo bo'lishardi. Ular xuddi uzoqlashmasdan, shisha kaleydoskop ichida u yoqdan-bu yoqqa qimirlab turgandek tuyulardi.

«Bu tezlik bilan yuz davrani qanday sanab ulgurisharkan?» – o'yladi Lilian.

Qirqinchi davradan keyin Lilian ketishga qaror qildi. U ich-ichidan hoziroq, ortiq bir lahza ham kutmasdan, poyga tugamasdan ketishni istardi.

Yana oltmish marta arzimagan o'zgarishlar bilan mashinalarning o'tib-qaytishini sanab o'tirish unga befoyda ishdek tuyulardi.

Bu hol xuddi sanatoriyda yashagan paytidagi kabi vaqtni behuda sarflashga o'xshardi. Uning sumkasida Syurixga chipta bor edi.

Lilian uni ertalab Klerfe oxirgi marta masofani chamalab yurib ko'rgan paytda sotib olgandi.

Chipta ertadan keyinga bo'lib, shu kuni Klerfe Rimga uchishi kerak edi. U Rimda ikki kun bo'lib, yana qaytmoqchi. Klerfening samolyoti ertalab uchadi, Lilianning poyezdi esa kechqurun yo'lga chiqardi. «Men xuddi o'g'riga, xiyonatkor-ga o'xshab yashirinch qochib ketyapman, – o'yladi u. – Xuddi shu tarzda sanatoriydan ham qochmoqchi bo'lgandim. Lekin Boris vaqtida to'xtatib qolgandi. Lekin bu baribir yordam bermadi. Bunday vaziyatda odamlar faqat yolg'on gapirishadi, chunki haqiqat achchiq, beshafqat, keyin esa pushaymonning taxir ta'mini tuyishadi, chunki boshqacha xayrlashishni bilishmaydi. Ularning esida qolgan so'nggi xotira – janjal, tortishuv va nafrat bo'ladi».

Lilian sumkasini kavlab chipta joyidaligiga amin bo'ldi. Negadir uni yo'qotib qo'ydim, deb o'ylagandi. Aynan shu lahza uning qarori yanada qat'iylashdi. Kun issiq bo'lishiga qaramay, uni varaja tutardi.

«Yana haroratim oshibdi», – o'yladi u. Atrofdagi odamlar bor ovozda baqirishardi. Pastda o'yinchoqdek kichik ko'm-



ko'k ko'rfaz va oppoq yaxtalar ko'rinib turgan joyda odamlar to'planishgan bo'lib, shosseda o'yinchoqdek ko'rinayotgan mashina qo'qqisidan yon tomonga qarab yurdi va boshqa bir mashinaga taqalib borib undan o'zib ketdi.

– Klerfe! – tantanavor tarzda qichqirdi Lilianning yonida turgan semiz xonim.

\* \* \*

Oradan bir soatcha vaqt o'tgach, Klerfe ikkinchi o'rinda borardi. Endi u sovuqqon va beshafqatlarcha Markettini quvib borardi.

Klerfe undan o'zib ketishni istamasdi, buni saksoninchi yoki to'qsoninchi davra uchun qoldirsa ham bo'ladi. Klerfe toki Marketti asabiylashmaguncha uning izidan bir necha metr ortda borishni xohlardi.

U tavakkal qilib, motorga zo'r berishni istamasdi. Bu ishni izidan quvib kelayotganlardan qutulishni istagan Marketti qilsin. Marketti shunday qildi ham, lekin uning mashinasiga balo ham urmadi. Ammo Klerfe Marketti juda bezovtalana-yotganini sezdi, chunki u maqsadiga erisholmadi, Klerfedan qutulolmadi. Endi Marketti Klerfeni oldinga o'tkazmaslik uchun uning yo'lini to'sa boshladi. Klerfe ham ayyorlik yo'liga o'tdi, o'zini Markettidan o'zib ketmoqchidek tutdi-yu, aslida bunday niyati yo'q edi. Natijada Marketti o'zining mashinasidan ko'ra ko'proq Klerfenikiga e'tibor bera boshladi va ehtiyotkorlikni yo'qotdi.

Shu tarzda ular yana bir davrani bosib o'tib, boshqa poygachilardan ancha oshib ketishdi. Terga botgan murabbiy tinmay Klerfega yozuvli taxtachalarni ko'rsatib, bayroqchalar bilan ishora qilardi. U Klerfega Markettidan o'zib o'tmaslikni buyurardi. Ular ikkalasi ham bitta jamoadan bo'lib, murabbiyga Sakketti va Fridjerioning o'zaro raqobati ham yetib ortardi. Shu sabab Fridjerio «pokrishka»larning boshiga yetib, Klerfedan naq bir daqiqa orqada qolgandi, ular

o'rtasiga beshta poygachi tushib ulgurgandi. Klerfening iziga endi Monti tushdi. Lekin u hali Klerfening orqa g'ildiragiga osilishga ulgurmagandi. Klerfe istasa, qaltis burilishlarda undan osongina qutulishi mumkin edi. U Montidan ko'ra tezroq haydardi.

Ular yana start yonidan o'tib ketishdi. Klerfe murabbiy barcha avliyo-yu anbiyolarni yordamga chaqirib, unga musht do'laytirib po'pisa qilganini ko'rdi. U Markettining ortidan qolmayotgani murabbiyga yoqmayotgandi.

Marketti ham jahl bilan murabbiyga Klerfeni to'xtating, degandek ishora qildi. Klerfe bosh silkib biroz ortda qolgan bo'ldi.

Bu poygada u g'olib bo'lishi kerak, xoh murabbiy yordamida, xoh uning qaroriga qarshi chiqib bo'lsa-da. U shunga ahd qilgandi.

Shundoq ham noqulay start uni biroz to'xtatib qoldi. Lekin Klerfe baribir g'alaba qozonishini bilardi.

U juda xotirjam edi, qattiq qizishgan bo'lsa-da, sovuqqonlikni saqlab qolgandi. Bu qarama-qarshi tuyg'ular unga muvozanat saqlashga yordam berardi. Bunday holatda odam hech nima bo'lmasligiga qattiq ishonadi. Muvozanat kishini xuddi bashoratchiga aylantiradi, uni barcha ikkilanishlardan, shubhalanishlardan himoya qiladi. Ilgari ham ba'zida Klerfeda shunaqa muvozanat tuyg'usi paydo bo'lardi, lekin oxirgi yillarda unga aynan shu tuyg'u, hech narsa xiralashtira olmaydigan musaffo baxt yetishmayotgandi.

\* \* \*

Klerfening ko'z o'ngida to'satdan Markettining mashinasi chirpirak bo'lib aylanib ketdi, atrofni temirning qarsillagan sovuq tovushi tutdi. Qop-qora moyli irmoq asfalt bo'ylab yoyildi. Shu lahzada Klerfe ikkita boshqa mashina ham katta tezlikda bir-biriga urilganini, Markettining mashinasi xuddi sekinlashtirilgan kinotasmaidek shoshmay aylanga-

nini ko'rdi. Marketti mashina ichidan uchib chiqib yerga quladi. Klerfe minglab nigohlar qadalgan shossega o'girildi va mashinasini burish uchun qildek bo'sh joy ham topolmadi. Shosse qo'qqisidan kengayib, shu zahoti yana mikroskopdan ko'rinadigan darajada kichiklashdi. Klerfe qo'rquvni his qilmadi, u boshqa bir mashinaga to'g'ridan-to'g'ri emas, yonidan urilishni istardi. Oxirgi daqiqalarda ruldani xalos bo'lishni ham o'yladi, ammo qo'llari ulgurmadi, butun tanasi ko'tarilgandek bo'ldi. U birdan vaznsizlik holatida turib qoldi, lekin hali ham mashina ichida edi. Keyin nimadir ko'kragi va yuziga qattiq botdi, chor tarafdin unga chil-chil bo'lgan dunyo siniqlari urilgandek bo'ldi. So'nggi lahzada unga qo'rquvdan rangi oqarib, afti burishgan trassa navbatchisi ko'rindi. Keyin ulkan musht orqasidan zarba berdi va mavhum shovur eshitilmay qolgach, hammasi tinchidi.

Klerfega kelib urilgan mashina avtomobillar uyumi orasidagi bo'shliqqa o'zini urdi, uning ortidan kelayotgan mashinalar uning ustidan sakrab o'tib ketishdi. Poygachilar birin-ketin Klerfening mashinasi yonidan o'tib ketishdi. Mashinalar siltanib, titragancha pachoqlangan avtomobillarning yonginasidan o'tib borar, ularning bir-biriga ishqalani-shidan chiqqan tovushidan abjag'i chiqqan mashinalar qattiq nola qilayotgandek tuyulardi.

Navbatchi belkurakni olgancha qum solingan qoplardagi qumlarni yog'li ko'lmakka sepa boshladi, motor tovushi yaqinlashishi bilan u sakrab o'zini orqaga tashlardi. Zum o'tmay zambil ko'targan sanitarlar paydo bo'lishdi. Ular Markettini tezda xavfsiz joyga olib o'tishdi va qoplardan yasalgan to'siq ortida turgan boshqa sanitarlarga uzatishdi. Bir necha xizmat ko'rsatuvchi avtomobil firmalari xodimlari esa xavfli, degan yozuvli belgilarni ko'tarib, halokat yuz bergan joyga qarab yugurishdi. Ular boshqa poygachilarni ogohlantirishi kerak edi. Poyga boshqa joyga ko'chishga ulgurdi, barcha mashinalar shossening shu qismini aylanib o'tishar va ikki daqiqa o'tmay, yana shu yerga qaytib kelishardi. Ayrim poy-

gachilar tezda atrofga ko'z tashlab olar, ayrimlarining nigohi esa shossedagi lentaga qaratilgandi.

\* \* \*

Klerfening mashinasi oldindagi mashinalar ustiga chiqib ketgani yetmagandek, uning ustiga Montining mashinasi ham chiqib qolgandi. Monti deyarli jarohatlanmadi. U oqsoqlana-oqsoqlana chetga o'tdi. Klerfe hamon o'z mashinasida osilib turardi, uning mashinasi salkam tikka ko'tarilib qumli qoplar ustiga ag'anagandi. Klerfening yuzi majaqlangan bo'lib, ko'krak qafasiga rul botib ketgandi. Og'zidan qon oqib turgan Klerfe hushsiz edi. Olomon xuddi go'shtga qo'ngan pashshadek shossenini egallab olgandi, hangomatalablar mashinani arralab Klerfeni sug'urib olishga urinayotgan sanitarlar, mexaniklardan ko'z uzishmasdi. Oldindagi mashinalarning biri gurillab yonardi. Olov o'chirgich ko'targan ishchilar uni nariroqqa olib o'tishga ulgurishdi, endi hamma uni o'chirish bilan ovora edi. Yaxshiyamki, benzin baki singan bo'lib, bu portlashning oldini olgandi. Lekin benzin yonar, uning issig'iga chidab bo'lmasdi, olov har daqiqada boshqa mashinalarga ham o'tib ketishi mumkin edi. Har ikki daqiqada mashinalar halokat yonidan uchib o'tishardi.

Shaharni qoplagan motor tovushi endi xuddi motam qo'shig'idek eshitilar va soniya sayin kuchayib borardi. Avtomobillar qonga belangan Klerfe yopishib qolgan pachoq avtomobil yonidan uchib o'tisharkan, bu tovush ko'ngillarni yanada larzaga solib kuchaygandek tuyulardi. Halokat atrofidagi olov sabab, shosse naq do'zaxga o'xshardi. Poygani to'xtatishmadi, avtoquvlashma hamon davom etardi.

\* \* \*

Lilian nima bo'lganini darhol anglamadi. Reproduktordan noaniq xirillagan ovoz eshitildi. Hayajonlangan diktor mik-

rofonni og'ziga juda yaqin tutgandi. Lilian bir necha so'znigina tushundi, xolos: qandaydir mashinalar avtohalokatga uchrabdi. Ular bir-birining ustiga chiqib ketibdi, shosseda boshqa bir mashinaning moyi to'kilibdi.

Birozdan so'ng Lilian mashinalar galasi tribuna yonidan uchib o'tganini ko'rdi. «Demak, vahima qiladigan hech nima ro'y bermagan, – o'yladi u. – Bo'lmasa poygani to'xtatishardi».

U zimdan Klerfening avtomobilini qidira boshladi, lekin u ko'rinmadi. Klerfe oldinroq o'tib ketgan bo'lishi ham mumkin, chunki qiz poygani diqqat bilan kuzatmayotgandi. Endi radiodan biroz tushunarli tarzda xabar bera boshlashdi. Avariya Plezans qirg'oqlarida ro'y bergan bo'lib, bir necha mashina to'qnashgan, yaralanganlar bor, hech kim o'lmagan. Keyingi xabarlar birozdan so'ng ma'lum qilinadi. O'rinlar quyidagicha: birinchi bo'lib Fridjerio ketyapti, undan o'n besh soniya farq bilan Konti, Dyuval, Meyer III...

Lilian diqqat bilan quloq tutdi. Xabarda Klerfe haqida so'z bormadi, axir u ikkinchi bo'lib ketayotgandi-ku. «Nega Klerfe haqida bir so'z demadi?» – o'yladi Lilian va yaqinlashayotgan mashinalar ovozi eshitib, «12» raqamli qizil mashinani ko'rish uchun egildi.

Klerfe ko'rinmadi, qo'rquvdan qotib qolgan Lilianning qulog'iga diktorning uzuq-yuluq gaplari oqib kira boshladi: «Jabrlanganlar orasida Klerfe ham bor, uni shifoxonaga olib ketishyapti. U hushsiz. Montining tizzasi va tovonni jarohatlangan, Sakketti...»

«Bo'lishi mumkinmas...» Lilianning ich-ichidan nimadir bu xabarga qarshilik qilardi. Bu o'yinchoq poygada, bu mitti shaharchada, o'yinchoq ko'rfazda hech qanday falokat yuz berishi mumkinmas. Anglashilmovchilik ro'y bergan. Klerfening mashinasi hozir muyulishdan otilib chiqadi, xuddi «Targo Florio» poygasida otilib chiqqani kabi. U biroz orqada qolgan bo'lishi mumkin, balki lat yegandir, u yoq-bu yog'i shilingandir, lekin u sog'-omon! O'zini o'zi tinchlantirishga urinsa-da, Lilianning umidi mustahkamlanish o'rniga erib,

parchalanib borardi. «Klerfe hushsiz! – o‘yladi u xayolan shu so‘zga yopishib olarkan. – Bu nima degani?»

Bu har narsa bo‘lishi mumkin, degani. Lilian tribunadan tushayotganini sezdi, u qachon o‘rnidan turganini ham eslolmasdi. U start tomon yelib borardi, balki Klerfeni o‘sha yerga olib ketishgandir?!

«Klerfe qutqaruv zambilida yotgancha yelkasi va qo‘li lat yeganidan va o‘zining baxtsizligidan kulayotgandir», – o‘yladi Lilian.

– Uni shifoxonaga olib ketishdi, – dedi murabbiy peshonasidagi terni artarkan. – O, Muqaddas Madonna, avliyo Xristofor, nega bu falokat bizning boshimizga tushdi? Nega boshqa firmaga emas... Nima?! Bir daqiqa!

U oyog‘ini qo‘liga olib, poygachilarga signal bergani yugurdi. Mashinalar yonginasidan uchib o‘tishdi, yaqindan ular ulkan va xatarli ko‘rinishar, guvillagan tovushi esa olamni tutardi.

– Nima bo‘ldi?! – qichqirdi Lilian. – Jin ursin, shu la’nati poygangizni, kimdir nima bo‘lganini aytadimi menga?

U atrofga alangladi. Hamma ko‘zini olib qochdi. Mexaniklar uning ko‘zlariga qaramaslik uchun zaxiradagi qismlar va pokrişkalarga o‘zlarini urishdi. U kimga yaqinlashmasin, o‘zini olib qochardi. Hamma Liliandan xuddi vabodan qochgandek qochishardi. Nihoyat, murabbiy qaytdi.

– Poygani jinlar makoniga yo‘llaganimdan Klerfega naf yo‘q. Uning o‘zi ham buni istamagan bo‘lardi. U istagandiki...

Lilian uning gapini bo‘ldi:

– Qani u? Men poygachilarning axloq kodeksi haqida ma’ruza tinglamoqchimasman!

– Shifoxonada! Uni zudlik bilan olib ketishdi.

– Nega unga yordam berish uchun hech kim bormadi? Siz nega bormadingiz? Siz nega bu yerdasiz?

Murabbiy uning gaplariga tushunmay qaradi.

– Men nima ham qila olardim? Bizning qo‘limizdan nima kelardi? Hammasi shifokorlarga bog‘liq.

Lilian titrab ketdi.

– Unga nima bo‘ldi o‘zi? – so‘radi u shivirlab.

– Bilmadim. Men uni ko‘rmadim. Biz hammamiz shu yerda edik. Axir biz ish joyimizda bo‘lishimiz kerak-ku.

– Ha, – dedi Lilian. – Poyga davom etishi uchun.

– Peshonaga yozilganini o‘zgartirolmaysiz, – chorasiz e‘tiroz bildirdi murabbiy. – Biz hammamiz xizmatdagi odamlarmiz.

Mexaniklardan biri shoshilib yaqinlashdi. Shu mahal motorning ovozi yana guvilladi.

– Xonim... – murabbiy shossega ishora qilib, «ilojim yo‘q», degandek qo‘llarini ikki yonga yoydi. – Men borishim kerak...

– Yo‘q, yo‘q, shoshmang!

– U hushsiz. Hammasi vrachlarning qo‘lida... Xonim, afsuski, men ham borishim kerak... – dedi mexanik.

Murabbiy qutidagi belgilardan birini olgancha signal bergani yugurib ketdi. Lilian uning yo‘l-yo‘lakay: «Madonna, Madonna! La’nati moy, nega bu falokat aynan mening boshimga tushdi?! Sho‘rpeshonam qursin-a!» – deya qichqirganini eshitdi. U poygachilardan biriga jadval ko‘rsatdi, kimgadir qo‘l siltadi va joyida qotdi. Mashinalar galasi uzoqlashgan bo‘lsa-da, murabbiy shossedan ko‘z uzmas, uning ortga qaytgisi yo‘q edi.

Lilian eshik tomon yurdi.

– Biz poygadan keyin boramiz, xonim, – shivirladi mexanik. – Tugashi bilan yetib boramiz!

«Poygadan keyin», – o‘yladi Lilian. U shifoxonaga yetib borguncha shahar osmonini shovqinning qop-qora pardasi tutib turdi. Lilian ot-aravadan boshqa ulov topolmadi.

– Odatdagidan ko‘ra uzoqroq yuramiz, – dedi izvoshchi. – Katta masofani aylanib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Ko‘chalar berkilgan. Poyga, o‘zingiz tushunasiz...

Lilian bosh silkib qo‘ydi. Uning butun tanasi qattiq og‘riqdan azob chekayotgandek edi. Ko‘rish va eshitishdan tashqari barcha tuyg‘ulari falajlangan, u mashinalarni ko‘rib turar,

motor guvillashini ham aniq eshitardi. Bunga chidash qiyin edi. Izvoshchi tinmay valdirar, u qizni poyga ko'rinadigan joylardan olib o'tishga urinardi. Lilian esa uni eshitmasdi, u motor ovozidan boshqa hech narsani eshitmasdi. Bir yigit aravani shoshilinch to'xtatishga va u bilan gaplashishga urindi. Qiz uning gaplarini tushunmay izvoshchiga to'xtashni buyurdi. Lilian yigit unga Klerfe haqida biror ma'lumot bermoqchi, deb o'ylagandi. Ingichka mo'ylovli, oppoq kostyum kiyib olgan yigit uni birga tushlik qilishga taklif etdi.

– Bo'ldimi? – so'radi Lilian hech nimani tushunmay. – Keyin-chi?

– Keyin ko'p narsa bo'lishi mumkin, – jilmaydi yigit. – Qolgani sizga bog'liq.

Lilian javob bermadi. U endi bu odamni ko'rmasdi. Ko'zlar uzoqlarga tikilgandi. Demak, yigit Klerfe haqida hech nima bilmaydi.

– Ketdik, – dedi qiz izvoshchiga. – Tezroq!

– Bunaqa yigitchalarning cho'ntagida bir miri ham bo'lmaydi, – tushuntirdi izvoshchi. – Uni siltab tashlab to'g'ri qildingiz. Kim bilsin, tushlik uchun o'zingiz pul to'lashingizga to'g'ri kelarmidi?! Keksa va semiz janoblar bulardan ko'ra ishonchliroq...

– Tezroq! – baqirdi Lilian.

– Xo'p bo'ladi!

Ular shifoxonaga yetib kelguncha bir asr vaqt o'tgandek bo'ldi. Bu vaqt ichida Lilian o'ziga o'zi minglab va'dalar berdi. U ularning barchasini bajarishiga ishonchi komil edi. U ketmaydi, qoladi, Klerfega turmushga chiqadi, faqat Klerfe tirik bo'lsa bo'lgani!

– Janob Klerfe operatsiya xonasida, – dedi qabulxonadagi hamshira.

– Unga nima bo'lganini aytolmaysizmi?

– Afsusdaman, xonim. Siz Klerfe xonimmisiz?

– Yo'q.

– Qarindoshimisiz?



– Uning ahvoliga buning nima aloqasi bor?

– Aloqasi yo‘q, xonim. Faqat operatsiyadan keyin uning yoniga bir daqiqaga, faqat yaqin qarindoshlarinigina qo‘yishlarini bilaman.

Lilian hamshiraga tikilib qoldi. Balki Klerfe bilan unashtirilganmiz, degani ma‘quldir. Lekin nega? Axir bularning bari hozir arzimas gap-ku!

– Uni operatsiya qilishlari shartmidi? – so‘radi u.

– Shunaqa, shekilli. Bo‘lmasa operatsiya xonasiga yuborishmasdi.

«Bunaqalar menga o‘xshaganlarga toqat qilolmaydi», – o‘yladi Lilian. U shifoxona hamshiralarini yaxshi bilardi.

– Kutib tursam bo‘ladimi? – so‘radi u.

Hamshira o‘rindiqni ko‘rsatdi.

– Nahotki, sizlarda kutish xonalari bo‘lmasa?!

Hamshira yon tomondagi eshikka qo‘li bilan ishora qildi.

– Lekin u faqat yaqin qarindoshlar uchun.

Lilian o‘zini bosdi, u «Ba‘zida shunday damlar bo‘ladiki, hatto kasbi sabab, rahm-shafqatni yo‘qotgan hamshiralar ham bir-biriga qadrdondek bo‘ladi», deyishdan o‘zini zo‘rg‘a tiydi.

Lilian kutish xonasiga yo‘l oldi. Motorning guvillashi shu yerga ham eshitilardi...

\* \* \*

Vaqt sudralib o‘tardi. Lilian stoldagi eski jurnallarni qo‘liga oldi, anchagacha bir nuqtaga tikilib turgach, jurnalni joyiga qo‘ydi. O‘rnidan turib, xonani aylandi va keyin yana joyiga o‘tirdi. Xonada hadik hidi o‘rnashib qolgandi, odamlar bu xonada qattiq qo‘rquvni his qilishgan va u devorlarga singib ketgandi.

Lilian derazani qiya ochdi, lekin motorning tovushi qattiqroq eshitila boshlagach, darrov yopdi.

Birozdan so‘ng xonaga bola ko‘targan ayol kirib keldi. Bola baqirib yig‘lay boshlagach, ayol unga ko‘kragini tutib

tinchitdi. Ko'p o'tmay bola uxlab qoldi, ayol Lilianga xijolatomuz jilmayib qo'yib, tugmasini qadadi.

Lilian xona eshigini ochgan hamshirani ko'rib, o'rnidan turmoqchi bo'ldi, lekin hamshira unga qayrilib ham qaramay, bolali ayolga, men bilan yuring, degandek ishora qildi. Lilian yana joyiga o'tirdi. Uning nazarida nimadir o'zgargandek bo'ldi, u atrofga diqqat bilan quloq soldi. Nima o'zgarganini darrov tushunmadi. Atrofga sukunat cho'kkandi, motorlar tovushi tinganiga qaraganda, poyga tugagan.

Lilian chorak soatdan keyin murabbiy ikkita mexanigi bilan usti ochiq mashinada shifoxonaga yetib kelganini ko'rdi.

Hamshira ularning uchalasini ham kutish xonasiga olib kirdi. Ularning barchasi horg'in ko'rinardi.

– Biror yangilik bormi? – so'radi Lilian. Murabbiy yoshroq mexanikka ishora qildi:

– Klerfeni mashinadan olishayotganda bu yonida bo'lgan ekan.

– Uning tomog'idan qon otildi, – dedi mexanik.

– Tomog'idan?

– Ha, tomog'idan qon ketdi.

– Bunday bo'lishi mumkinmas! Axir u soppa-sog' edi-ku!

Lilian mexanikka tikilib qoldi. Nahotki, taqdir ularga shunday qaltis hazil qilgan bo'lsa?! Axir faqat sil kasalligida tomog'idan qon ketadi-ku!

– Nima sabab qon ketgan bo'lishi mumkin? – so'radi u shivirlab.

– Rul ko'krak qafasini ezib qo'ygan, shekilli.

Lilian bosh chayqadi:

– Yo'q! Yo'q.

Murabbiy eshik tomonga yurdi.

– Qaray-chi, shifokor qayerda ekan?

Ko'p o'tmay eshik ortida murabbiy bilan hamshira o'rtasida qizg'in bahs boshlandi. Keyin atrof tinchib qoldi. Yana yurakni siqadigan sukunat cho'kdi. Xonada mexaniklarning nafas olishidan tortib, chivinining g'o'ng'illashigacha eshitilardi.

Murabbiy iziga qaytib, ostonada turib qoldi. Uning quyoshda toblangan yuzi murdanikidek oqarib ketgandi. Gapi-  
 rishdan oldin u bir necha marta labini qimirlatib oldi.

– Klerfe o'libdi... – dedi u nihoyat, tilga kirib. Mexaniklar  
 unga qarab qotib qolishdi.

– Uni operatsiya qilishdimi o'zi? – so'radi yosh mexanik. –  
 Balki noto'g'ri qilishgandir...

– Uni operatsiya qilishmagan. Ulgurishmagan...

Uchalasi baravar Lilianga o'girilishdi. U qotib qolgandi.

– U... qayerda? – so'radi Lilian biroz sukutdan so'ng.

– Hozir u yoq-bu yog'ini tartibga keltirishyapti.

Lilian ming mashaqqat bilan so'radi:

– Uni ko'rdingizmi?

Murabbiy tasdiq ishorasini qildi.

– Qayerda u?

– Hozir u yerga bormaganingiz ma'qul, – javob berdi mu-  
 rabbiy. – Ertaga ko'rsatishadi.

– Kim aytdi bu gapni? – Lilianning ovozi hissiz edi. – Kim  
 aytdi, deyaрман? – qaytardi u.

– Shifokor. Uni ko'rganingiz bilan tanimaysiz. Ertaga kel-  
 ganingiz ma'qul. Sizni otelga olib borib qo'yamiz.

Lilian joyidan jilmadi.

– Nega uni tanimas ekanman?

Murabbiy javob berishga shoshilmadi:

– Uning yuzi... U yuzi bilan qattiq urilgan. Rul esa ko'krak  
 qafasini siqib qo'ygan. Shifokor u hech narsani sezmagan,  
 deyapti... Ya'ni og'riqni. Hammasi ko'z ochib yumguncha ro'y  
 bergan va u o'sha zahoti hushini yo'qotgan. Shundan keyin  
 qaytib o'ziga kelmagan...

Keyin u birdan jahli chiqib baqira ketdi:

– Siz bizga oson, deb o'ylayapsizmi?! Biz uni sizdan oldin-  
 roq tanirdik.

– Ha, – dedi Lilian faromush ohangda. – Sizlar uni mendan  
 ko'ra ko'proq bilgansizlar.

– Men unday demoqchimasdim. Men odam o'lganda doim  
 bir narsa bo'ladi, ya'ni u birdan yo'q bo'ladi, demoqchidim.

U boshqa gapirmaydi. U hali shu yerda, yoningizda turgan-dek tuyuladi-yu, lekin aslida bo'lmaydi. Buni faqat boshiga tushgan tushunadi. Men bizga ham osonmas, demoqchiman... Hammasini bilib turasan-u, ishonmaysan... Meni tushunyapsizmi?

– Ha, tushunyapman...

– Yuring biz bilan, – dedi murabbiy. – Sizni otelga eltib qo'yamiz. Bugunga yetarli. Ertaga esa uni ko'rsatishadi.

– Otelda nima qilaman? – so'radi Lilian.

Murabbiy yelka qisdi.

– Balki shifokor chaqirtirarsiz. U sizga ukol qilsin, ko'proq miqdorda qilsa, ertalabgacha uxlaysiz. Yuring! Bu yerda yordamingiz tegmaydi. U o'ldi. Endi hech birimiz unga yordam berolmaymiz. Odam o'lgandan keyin unga hech qanday yordam berib bo'lmaydi, – u yaqinlashib Lilianning yelkasiga qo'lini qo'ydi. – Yuring, hammasini tushunib turibman. Ey, Xudo! Bunaqasini birinchi marta ko'rmayapman. Lekin bari-bir har gal birinchi martadek...

Lilian xuddi suvdan otilib chiqqandek hansirab uyqudan uyg'ondi. Bir lahza vaqt va makonni tanimay qotib turdi, keyin birdan ayriliqning alamli nashtarlari butun tanasiga sanchildi. U o'rnidan turib atrofga alangladi. Bu yerga qayerdan kelib qoldi? Sekin-asta hammasini esladi. Tushdan keyin o'tishi qiyin bo'lgan vaqt, g'ira-shira ufq, shifoxona, Klerfening begona, majaqlangan, bir tomonga qiyshaygan yuzi, uning xuddi ibodat qilmoqchidek yig'ilgan qo'llari, u bilan birga kirgan shifokor... Bularning bari ishonarsiz, notabiiy edi. Kasalxona karavotida Klerfe emas, u yotishi kerak edi. Faqat u. Qandaydir anglashilmovchilik ro'y berdi, kimdir ularga shum hazil qildi.

Lilian o'rnidan turib, pardani surdi. Bulutsiz osmon va otel bog'i gulzoridagi palmalarga ko'zi tushib, yo'qotish azobini yanada chuqurroq his qildi.

«Men o'lishim kerak edi, men! – o'yladi u alam bilan. – Ajal uni emas, aslida meni poylab yurgandi».

Uning ko'ngli allanechuk bo'ldi, o'zini kimnidir aldagandek his qilardi. Hayot uchun ortiqcha bo'lsa-da, u yashashda davom etyapti, uning o'rniga boshqani o'ldirishdi, u o'zini Klerfening o'limiga aybdor hisoblardi. O'zini xuddi horib-to-lib, rulni burishga imkon topolmay, birovni bosib ketgan haydovchidek his qilardi. Hayotning chalkash o'yini oldida lol qoldi...

Telefon jiringladi. Lilian qo'rqa-pisa go'shakni oldi. Nissa dafn byurosi unga o'z takliflarini bildirdi. Ular tobut, qabr va dafnning boshqa marosimlarini arzon narxlarda taklif etishdi. Agar marhumni vataniga olib ketish zarur bo'lsa, maxsus zirhli tobut ham topib berishga va'da berishdi.

«Qayerga olib ketishadi? Elzas Lotaringami? U qayerdaligini ham bilmayman», – o'yladi Lilian.

Yana telefon jiringladi. Bu gal kasalxonadan qo'ng'iroq qilishdi. «Marhumni nima qilamiz? Uni olib ketish kerak. Tushdan keyin kelishingiz lozim. Tobut buyurtirish kerak».

Lilian soatiga qaradi, kun tush bo'lgandi. U kiyindi. Dafn marosimi uning zimmasiga tushdi. «Qora ko'ylak kiysam yaxshi bo'lardi», – o'yladi u. Shu mahal gulchambar yetkazib beradigan firmadan ham qo'ng'iroq qilishdi.

Boshqa bir firma Klerfe qaysi dinga mansubligini so'radi.

Kuchli uyqu dori hali Lilianni o'z iskanjasidan chiqarmagandi. Bo'layotgan voqealar tushdek tuyulardi. U porte bilan maslahatlashish uchun pastga tushdi. Uni ko'rib, porte o'rnidan turdi. Lilian teskari qaradi, u xodimning achinib qarashiga toqat qilolmasdi.

– Tobut buyurtma qiling, – shivirladi Lilian. – Dafn marosimi uchun nima talab qilinsa, hammasini bajaring.

Porte unga, rasmiy idoralarga xabar berib qo'yish kerak, dedi.

– Balki murdani yorib ko'rishlarini istarsiz? Ba'zida bu ham kerak bo'ladi, o'lim sababini aniqlash uchun.

– Nega?

– Qonuniy e'tirozlarni isbotlash uchun. Avtomobil firmasi hammasini poyga tashkilotchilariga to'nkashi mumkin.

Sug'urta haqida ham o'ylash kerak, bu ishning oqibati nima bo'lishi noma'lum. Yaxshisi, hammasiga tayyor turish kerak.

«O'lik bo'lgan osonroq ekan», – o'yladi Lilian.

– Klerfeni mahalliy qabristonga ko'mishga rozimisiz?

– O'z joniga qasd qilganlar qabristonigami? – so'radi Lilian.

– Yo'g'-e.

Porte uzr so'ragandek jilmaydi.

– Joniga qasd qilganlar qabristoni – bo'lmagan gap. Bu yerda shahar aholisi ko'miladigan binoyidek qabriston bor. Sizda Klerfening hujjatlari bormi?

– Hujjat? Endi unga hujjatning nima keragi bor?

Porte rasmiyatchilikning barcha qoidalarini bilardi:

– Albatta kerak. Bundan tashqari, politsiyaga ham xabar beraman.

– Politsiyaga?

– Har qanday baxtsiz hodisada, albatta politsiyaga xabar berish kerak. Tabiiyki, firma va poyga tashkilotchilari xabar berishgan. Lekin politsiya ko'mishga ruxsat berishi kerak. Albatta bu shunchaki rasmiyatchilik, lekin amal qilish shart, – porte hammasini o'zi hal qilishga va'da berdi.

Lilian rozilik bildirdi. U to'satdan toza havoga chiqqisi keldi. Hushdan ketib yiqilishdan cho'chirdi. Keyin birdan kecha ertalabdan beri tuz totmaganini esladi. Lekin otelning restoraniga kirgisi kelmadi. Xollni shoshilinch tark etib, «Parij» qahvaxonasi tomon yurdi. U yerda bir finjon qahva buyurib, anchagacha unga qo'l urmay, xayolga cho'mib o'tirdi.

Qahvaxona yonidan mashinalar g'izillab o'tar, aksariyati kazino eshigi tagida to'xtardi, sayyohlar avtobuslari ham o'sha tomonga yurardi va undan «to'kilgan» sayohatchilar galasi o'z yo'lboshlovchilariga so'zsiz bo'ysunib, zamonaviy Vavilonni aylanishardi.

Kimdir stol yoniga kelib o'tirganda Lilian qo'rqqanidan sapchib tushdi. Keyin qahvasini shoshilinch ichib chiqib ketdi. Endi nima qilish kerakligini bilmasdi. U o'zini o'zi, Klerfe bilan baxtsiz hodisa ro'y bermaganda ham baribir yolg'iz

bo'lardim-ku, Parijga yoki Shveysariyaga ketmoqchi edim, deb behuda tinchlantirmoqchi bo'lardi. Hech qanday taskin unga yordam bermadi, u o'zini tubsiz jar yonida turgandek his qilardi. Bu haqda bir lahza ham unutmamasdi. Klerfe endi yo'q, agar u shunchaki Lilian bilan birga bo'lmaganda, boshqa gap edi.

Lilian dengiz ko'rinib turadigan joyda o'rindiqlik topib o'tirdi. Endi zimmasiga zudlik bilan bajarishi lozim bo'lgan bir dunyo ish tushgandi, lekin ularni bajarish uchun sira xayollarini jamlab, ishga kirisha olmasdi. Nimani o'ylamasin, oxiri Klerfega borib taqalaverardi. «Nega Klerfe, men emas?.. Nega bunday bo'ldi? Bu dunyo aqldan ozdimi? Men o'lishim kerak edi-ku. Bu qanday dahshatli tomosha bo'ldi?»

\* \* \*

Otelga qaytgan Lilian darrov xonasiga yo'l oldi. Lekin ichkariga kirmay to'xtadi. Xonaning dim hidi yuziga urildi. Lilianing nazarida, xonadagi barcha narsa Klerfega qo'shib o'lgandi.

Porte undan Klerfening hujjatlarini so'raganini esladi. Lekin u hujjatlar qayerdaligini bilmasdi. Sanatoriyda paytidan biladiki, ba'zida marhumning buyumlariga qarash uning o'ziga qarashdan ko'ra og'irroq.

Eshikda kalit osilib turardi, Lilian oqsochlar xonani tozalashyapti, deb o'yladi. U bir o'zi qolmasligini o'ylab, yengil tortdi va xonaga kirdi.

Stol yonida o'tirgan kulrang kostyumli ozg'in xotin boshini ko'tardi.

– Sizga kim kerak?

Lilian adashdim, deb chekinmoqchi bo'ldi-yu, lekin shu damda Klerfening paltosiga ko'zi tushdi.

– Siz kimsiz? – so'radi u.

– Menimcha, bu savolni men berishim kerak, – dedi ayol.

– Men Klerfening singlisiman. Sizga bu yerda nima kerak? Kimsiz?

Lilian indamadi. Klerfe bir paytlar singlisi borligini, lekin ikkalasi ham bir-birini ko'rishga ko'zi yo'qligini aytgandi.

Bu o'sha Klerfe ancha yillardan buyon biror xabar eshitmagan singlisi bo'lsa kerak. U akasiga umuman o'xshamasdi.

– Kelganingizni bilmabman, – dedi Lilian. – O'zingiz shu yerda ekansiz, demak, mening bu yerda qiladigan ishim qolmadi.

– Albatta, – dedi ayol sovuqqonlik bilan. – Menga akam bu yerda qandaydir xonim bilan yashaganini aytishgandi. O'sha siz bo'lsangiz kerak?

– Buning endi ahamiyati yo'q, – dedi Lilian va eshikka o'girildi.

– Shoshmang! – qichqirdi ortidan ayol.

Lilian xonasiga qaytib, kiyim-kechaklarini yig'ishtira boshladi. Ko'p o'tmay bu ishni to'xtatdi. «U hali shu yerda ekan, men keta olmayman», – o'yladi u. Lilian so'nggi bor Klerfega munosabati yaxshi bo'lganini ko'rsatishni istar, lekin shu bilan birga, bu sodiqligi endi alamli va behudaligini ham tushunardi.

U yana kasalxonaga bordi. Qabulxonada hamshira endi Klerfeni ko'rish mumkin emasligini aytdi.

– Qarindoshlaridan birining talabiga ko'ra murda yorib ko'rilyapti. Shundan so'ng uni ruxli tobutga solishadi va shahardan olib ketishadi.

«Fikrini qanchalar to'g'ri izohlar ekan bu hamshira, – o'y-ladi Lilian. – Shu paytgacha Klerfe edi, lekin yorib ko'rilgach, murdaga aylandi».

Kasalxona yonida murabbiyni uchratdi.

– Biz bugun kechqurun ketyapmiz, – dedi u. – Anavi qoq-suyak, zahar xonimni ko'rdingizmi? Singlisini aytaman. U Klerfeni yorib ko'rishni buyuribdi. Yana avtomobil firmasi va poyga tashkilotchilari dafn xarajatlarni to'lasin, deb da'vo qilmoqchi. Ularni mas'uliyatsizlikda ham ayblagan. Politsiya-ga ham boribdi. Direktorimiz bilan uchrashishga ham ulguribdi.



Bilasiz, direktorimiz uncha-muncha narsadan qo'rqadiganlardan emas, lekin bu ayol bilan yarim soat gaplashgach, rangida rang qolmadi sho'rlikning. Singlisi bir umrlik nafaqa talab qilyapti. Klerfe yagona boquvchim edi, deydi... Biz ham-mamiz ketyapmiz, siz ham keting. Hammasi tugadi.

– Ha, – dedi Lilian. – Hammasi tugadi.

U ko'chalarni bemaqsad aylanib yurardi. Har zamonda biror joyda o'tirar, nimadir ichar, keyin yana boshi oqqan tarafta ketardi. Kech bo'lganda otelga qaytib keldi.

U qattiq charchagandi, shifokor unga uyqu dori qoldirdi. Lekin dorini ichishiga ham hojat qolmadi, boshini qo'yishi bilan uxlab qoldi.

\* \* \*

Telefon qo'ng'irog'idan seskanib uyg'ondi. Bu Klerfening singlisi bo'lib, Lilian bilan zudlik bilan gaplashishi kerak ekan.

– Biror gapingiz bo'lsa, hozir aytaqoling, – javob berdi Lilian.

– Bu telefonda aytiladigan gap emas.

– Unda soat o'n ikkida xollda uchrashamiz.

– O'n ikki juda kech.

– Men uchun kech emas, – dedi Lilian va go'shakni qo'ydi.

U soatga qaradi, soat ertalabki to'qqiz edi. Demak, u o'n besh soat uxlabdi, lekin shunda ham charchog'i chiqmagan. Bu charchoq to'yib uxlamaganidan emasdi.

Lilian vannaxonaga kirdi va u yerda ham uxlab qolishiga bir bahya qoldi, agar eshik qattiq taqillamaganda uxlab ham qolardi. U egniga xalatni tashlab eshikni ochdi. Klerfening singlisi uni itargudek bo'lib otilib kirdi. Lilian uni to'xtatib qololmadi.

– Siz Dyunkerk xonimmisiz? – so'radi ayol.

– Soat o'n ikkida xollda uchrashamiz, deb kelishgandik, – dedi Lilian. – Bu yerda gaplashishni istamayman.

– Farqi nima? Men shu yerdaman-ku...

– Xonamga mening roziligimsiz kirdingiz, – uning gapini bo‘ldi Lilian. – Bu mening xonam. Yoki ma‘muriyatga qo‘n-g‘iroq qilishimni va ulardan yordam so‘rashimni istaysizmi?

– Men o‘n ikkigacha kutolmayman. Poyezdim vaqtli ke-tadi. Siz toki men bilan gaplashishga vaqt ajratguningizcha akamning tobuti shu issiqda perronda turishini istaysiz, shekilli?

«Bu ayol maqsadiga yetish uchun hech narsadan qayt-maydi», – o‘yladi Lilian.

– Akamning qog‘ozlari ichidan bir hujjatning nusxasini topdim. Asli sizda bo‘lsa kerak. Hujjatda Riveredagi uy siz-ning nomingizga o‘tkazilgani yozilgan.

– Mening nomimga?!

– Buni bilmasmidingiz?

Lilian ayolning ozg‘in qo‘llaridagi hujjatga qaradi. Uning barmoqlarida ikkita nikoh uzugini ko‘rib, demak beva ekan, deb o‘yladi.

– Hujjatni ko‘rsating-chi, – dedi Lilian.

Klerfening singlisi ikkilandi.

– Ilgari ko‘rmaganmidingiz?

Lilian javob bermadi. U vannaxonada hamon suv oqayot-ganini eshitib, jo‘mrakni yopgani ketdi.

– Aynan shuni aytish uchun men bilan shoshilinch uch-rashmoqchimidingiz? – so‘radi u qaytib.

– Men Klerfelar oilasi bunga shunday qarab turmaydi, bu hujjatni bekor qilish uchun kurashadi, deb aytmoqchi edim.

– Bemalol. Endi ketishingiz mumkin.

Ayol o‘rnidan jilmadi.

– Agar bu vasiyatnoma kimningdir ta‘sirida yozilgan, deya ariza yozib bersangiz, ish ham oson hal bo‘lardi hamda tarbiya ko‘rgan xonimligingizni namoyon etgan bo‘lardingiz.

Lilian ayolga qattiq tikildi va:

– Xuddi shunaqa arizani mening nomimdan yozib qo‘y-gandirsiz? – dedi.

– Albatta. Faqat imzo cheksangiz bo'ldi. Mana u. Bunga darrov aqlingiz yetganidan xursandman.

Lilian ayol uzatgan qog'ozni olib yirtib tashladi.

– Endi keting, sizga shuncha toqat qilganim yetar!

Ayol dovdirab qolmadi. U Lilianga yeb qo'ygudek tikildi.

– Hozirgina vasiyatnoma haqida hech nima bilmayman, degandingiz-ku!

Lilian eshikni ochdi.

– Bu muammolaringizni o'zingiz hal qiling. Qo'lingizda hujjat nusxasi bor, qolaversa, marhumning ixtiyorini ham bilasiz. Ko'ramiz, ochko'zligingiz va axloqingizni qanday bir-lashtira olarkansiz?

– O, buni eplaymiz, g'am chekmang! Haqiqat biz tarafda. Baxtimizga hali odamlar qarindoshlar va allaqanday makko-rani farqlashni bilishadi...

Stolda binafshalar solingan kichik guldon turardi. Lilian guldonni olib ayolning suyakdor yuziga suvini sepib yubordi. So'lib qolgan gullar uning sochlari va yelkalariga yarashiqli yopishib qoldi.

Ayol yuzini artdi.

– Bu ishingizdan hali qattiq afsuslanasiz, – vishilladi u.

– Bilaman, – dedi Lilian. – Siz menga buzilgan soch tur-magingiz, rasvo bo'lgan ko'ylagingiz va albatta, men qattiq qo'rqitgan cho'yan qalbingiz uchun haq talab qilib hisob qog'ozi yuborasiz. Istasangiz, hisob qog'oziga qo'shib vasi-yatnoma nusxasini ham yuboring. Endi esa ko'zimdan yo'qo-ling, qari tulki!

Klerfening singlisi ko'zdan yo'qoldi. Lilian hamon qo'lida tutib turgan shisha guldonga qaradi. «Xayriyat, unga guldon-ni otmabman!» – o'yladi u.

Uning kulgisi keldi, kulgisi ko'zyoshlarga aylandi. Yig'-lay-yig'lay, yuragini iskanjaga olib turgan darddan xalos bo'ldi.

\* \* \*

Xollda Lilianni porte to'xtatdi.

– Bir noxush xabar bor, xonim.

– Nima bo'ldi?

– Siz menga tobut va qabristondan joy buyurtirishni topshirgandingiz. Lekin janob Klerfening singlisi kelishi bilanoq avtomobil firmasi hisobidan tobut buyurtirdi. Tobutni olib kelishdi. Endi sizniki ortiqcha.

– Uni ortga qaytarib yuborishning iloji yo'qmi?

– Dafn marosimlari byurosi vakilining aytishicha, u tobut maxsus buyurtma asosida yasalgan ekan. Odamgarchilik yuzasidan qaytarib olishi mumkin ekan, lekin asl narxida emas.

«Demak, bu dunyoda chiyabo'rilar ko'p ekan-da», – o'y-ladi Lilian. To'satdan ko'z o'ngida g'alati manzara namoyon bo'ldi: u o'zini bo'sh tobut bilan tog'dagi sanatoriyga ko'chib o'tganini, Klerfening singlisi esa bu paytda Klerfening jasadini solingan tobutni o'z qarindoshlari ko'milgan qabristonga olib ketayotganini ko'rgandek bo'ldi.

– Men xonimga siz buyurtirgan tobutni olishni taklif qildim, – davom etdi porte. – Lekin u xohlamadi. Xonimning juda fe'li tor ekan. Bizning oteldagi xarajatlarini ham avtomobil firmasi hisobiga yozdirdi. Unga pansion xarajatlari va 2 shisha 1929-yil hosilidan tayyorlangan shato lafita vinosi narxi ham kiritilgan. Xonim kecha oqshom buyurtirgan bu vinolar otelimizdagi eng zo'r vino edi. Darvoqe, dafn marosimlari byurosi vakili esa tobutni yarim narxiga qaytarib olishga rozi.

– Yaxshi, – dedi Lilian. – Endi menga ham hisob tayyorlang. Bugun kechqurun ketaman.

– Yaxshi. Faqat qabristondan buyurtirilgan joy masalasini hal qilsak bo'ldi. Uning ham pulini to'lab qo'ygandim. Lekin bugun biror ishni bitirish qiyin. Chunki bugun shanba. Dushanbagacha idorada hech kim bo'lmaydi.

– Sizlarda shanba, yakshanba kunlari hech kim o'lmaydimi?

– Nega endi? Lekin qabristondan joyni baribir dushanba kuni sotib olishadi.

– Bu xarajatlarni ham mening hisobimga yozing, – dedi Lilian sabri tugab.

– Demak, qabristondagi joyni o'zingizga olib qolmoqchisiz, men to'g'ri tushundimmi? – ishonqiramay qayta so'radi porte.

– Bilmadim. Bu haqda ortiq gaplashishni istamayman. Hisobimga o'zingiz to'lagan pullarning barini kiriting, bo'ldi. Hamma xarajatlarni menga yozing! Lekin bu haqda boshqa bir og'iz ham so'z eshitishni istamayman. Istamayman! Tushundingizmi?

– Tushundim, xonim.

\* \* \*

Lilian o'z xonasiga qaytdi. Kirishi bilan telefon jiringladi. U go'shakni ko'tarmadi. Xayol surgancha hali yig'ishtirishga ulgurmagan kiyimlarini taxlab jomadonga joylay boshladi. Sumkasidan Syurixga olingan chipta chiqdi. Lilian sanasiga qaradi. Nazarida, bu chiptani sotib olganidan buyon juda ko'p vaqt o'tgandek edi. Poyezdi bugun kechqurun ketarkan.

Telefon yana jiringladi. Uning uni o'chgach, Lilianni vahima bosdi. Qizning nazarida nafaqat Klerfe, balki barcha u bilgan yaqin odamlari o'lgandek tuyulardi. «Boris ham o'lgan», – o'yladi u. Unga nima bo'lganini Xudo biladi. Balki u ham allaqachon vafot etgandir-u, bu haqda unga xabar berish hech kimning xayoliga kelmagandir, chunki manzilini bilishmaydi-ku.

Lilian telefonga qo'l cho'zdi. Lekin tezda fikridan qaytdi. U Borisga bugun qo'ng'iroq qila olmaydi. Boris Klerfe o'lgani uchun qo'ng'iroq qilyapti, deb o'ylashi mumkin. U hech qachon Lilian Klerfeni tashlab ketmoqchi bo'lganiga ishonmaydi.

Lilian ko'chadagi qorong'ilik xonasiga sudralib kirgunga qadar qimirlamay o'tirdi. Deraza oynalari ochiq edi.

Qulog'iga chalingan palma yaproqlarining shivirini xuddi g'iybatchi xotinlarning shiviriga o'xshatdi. Yo'lakdan eshitilgan qadam tovushlari diqqatini tortdi. Porte Klerfening singlisi kunduzi ketganini aytgandi. Lilianning ham ketadigan payti bo'ldi.

U sira bir qarorga kela olmay o'rnidan turdi. Avval Borisning tirikligiga amin bo'lishi kerak. O'zi bilan gaplashmasa ham, qo'ng'iroq qilib, ismini o'zgartirib, Borisni so'rasa bo'ladi-ku. Agar xizmatkor uni chaqirgani ketsa, demak, u tirik bo'ladi.

Lilian bir qarorga kelib, aloqachilarga raqamlarni aytdi. Ancha vaqt o'tgach, aloqachi qiz qaytib qo'ng'iroq qildi. U raqamlarga hech kim javob bermabdi. Lilian o'sha raqamlarga yana bir bor va zudlik bilan bog'lanishni talab qildi.

U sabr bilan kuta boshladi. Qulog'iga bog'dagi qumda yurgan odamning qadam tovushlari eshitildi. Bu unga Klerfening uyini eslatdi. Yuragi sog'inchdan ezildi. U o'z uyini Lilianga vasiyat qilib ketgan, bundan esa qizning xabari ham yo'q. Unga uyning keragi yo'q. U uy endi bo'sh turadi va sekin-asta xarobaga aylanadi. Toki unga Klerfening ochko'z singlisi ega chiqmaguncha.

Telefon qattiq jiringladi. Lilian hayajonlangancha fransuzcha gaplashayotgan aloqachi qizlarning ovozi eshitdi. U shu zahoti barcha qarorlarini unutdi.

– Boris! – qichqirib yubordi u. – Bu senmisan?

– Gapirayotgan kim? – so'radi begona ayol tovushi.

Biroz ikkilanib turgach, Lilian ismini aytdi. Birdan barcha makrlar va yolg'on rejalar unga ahmoqona bo'lib tuyuldi.

Ikki soatdan keyin bu yerdan ketadi, shundan keyin qayerdaligini hech zog' bilmaydi. Boris bilan oxirgi marta gaplashib olishi kerak!

– Kimsiz? – takrorladi o'sha ovoz. U yana o'zini tanishtirdi.

– Kim?

– Lilian Dyunker.

– Janob Volkov yo'q, – shovqin aralash ovoz eshitildi.

– Men kim bilan gaplashyapman? Frau Esher, sizmisiz?

– Yo‘q, frau Blissman. Frau Esher bu yerda endi ishlamaydi. Janob Volkov ham yo‘q. Afsuski...

– Shoshmang, – qichqirib yubordi Lilian. – U qayerda? – Go‘shakdagi shovqin kuchaydi.

– ...ketdi, – eshitildi uzuq-yuluq ovoz.

– Qayerga ketdi?

– Bunisini bilmadim.

Lilianning nafasi tiqildi.

– Unga biror gap bo‘ldimi? – so‘radi u.

– Bilmadim, xonim. U ketgan. Qayerga ketganini aytolmayman. Afsusdaman...

Ularning gapi uzildi. Aloqachilar yana fransuzchalab shivirlashishdi. Lilian go‘shakni qo‘ydi.

«Ketgan, – o‘yladi u. – Tog‘da bu so‘z qanday ma‘noni anglatardi? Ha-ya, kimdir o‘lsa, shunday deyishardi. Qolaversa, Boris qayerga ham ketishi mumkin? Uy boshqaruvchisi ham yo‘q».

U bir muddat qimirlamay o‘tirdi. Keyin esa o‘rnidan turib, pastga tushdi. Otel bilan hisob-kitob qildi.

– Yuklarimni vokzalga jo‘nating, – dedi u.

– Ketyapsizmi? – hayron bo‘ldi porte. – Poyezd ketishiga hali ikki soat vaqt bor-ku. Vaqtlı emasmi?

– Yo‘q, – dedi Lilian. – Sira vaqtlı emas.

\* \* \*

Lilian kichik vokzaldagi o‘rindiqda o‘tirardi. Atrof g‘ira-shira bo‘lib, allaqayerlarda yoqilgan chiroqlar yorug‘ida vokzalning yalang‘och binosi o‘ta g‘amboda ko‘rinardi. Quyoshda qoraygan sayyohlar tinmay valdiragancha Lilianning yonidan o‘tib, Marselga ketadigan poyezd tomon yurishardi. Uning yonidan joy olgan amerikalik Viskonsinning go‘zalligi va taomlari haqida uzoq gapirdi. Lilianning miyasi bo‘m-bo‘sh edi, u shu qadar kuchli ruhiy tushkunlikka tushgandiki,

g'amdanmi, chorasizlikdanmi yoki ko'ngli bo'shab qolgani-  
danmi, nimadanligini o'zi ham bilmasdi.

To'satdan Lilianning ko'zi yugurib yurgan itga tushdi, le-  
kin uni tanimadi. It gir aylanib yugurar, goh u ayolning, goh  
bu ayolning etagini hidlab ko'rardi. To'satdan u taqqa to'x-  
tadi va Lilian tomonga otildi. Amerikalik sapchib o'rnidan  
turdi.

– Quturgan it! – chinqirdi u. – Politsiya! Uni otib tashlang!

Amerikalikni aylanib o'tgan ovcharka Lilianga otilib, uni  
o'rindiqdan yiqitib yuborishiga sal qoldi. It qizning qo'llarini  
yalar, qattiq-qattiq hurgani sabab Lilianning atrofini hango-  
matalab odamlar o'rab olishdi.

– Volf, – kalovlanib qoldi Lilian. – Bu yerda nima qilyap-  
san? Qayerdan kelib qolding? Seni sotishdimi?

It Lilianni qo'yib, odamlar galasi tomon yugurdi, odamlar  
darhol unga yo'l bo'shatishdi. Ovcharka vokzalga qarab tez-  
tez yurib kelayotgan qandaydir bir odamning yoniga yugurib  
bordi, keyin esa yana Lilian tomonga otildi.

Lilian o'rnidan turdi.

– Boris! – hayratini yashirolmadi u. – O'zingmisan?

– Seni Volf topdi, – dedi Volkov. – Otel portesi seni vok-  
zalga ketgan, dedi. Agar biroz kechiksak, seni yo'qotardik.  
Keyin qayerdan izlash mumkinligini xayolimga ham keltira  
olmayman.

– Tirikmisan? – shivirladi Lilian. – Senga qo'ng'iroq qil-  
gandim, seni ketgan, deyishdi. Men o'ylabmanki...

– Frau Bliss bo'lsa kerak, u mening yangi xizmatchim.  
Frau Esher yana turmushga chiqdi. – Volkov Lilianga tikil-  
di. – Ro'y bergan voqea haqida gazetalarda o'qidim, shuning  
uchun ham keldim. Qaysi otelda yashayotganingni ham bil-  
masdim. Lekin baribir seni qidirib topdim. Bundan tashqari,  
meni ko'rishni istar-istamasligingni ham bilmasdim.

– Men ham meni ko'rishni istamaysan, deb o'yladim, –  
shivirladi Lilian. – Lekin asosiysi, tirik ekansan! – takrorladi  
u yana.



– Men ham xuddi shunday, deb o'yladim. Asosiysi, tirik ekansan! Boshqa hammasi bekor.

– To'g'ri, qolgani behuda, – shivirladi Lilian.

– Poyezding qachon ketadi?

– Bir soatdan keyin. Ketaversin. Endi buning farqi yo'q.

– Qayerga ketayotganding?

– O'zim ham bilmayman. Syurixga. Endi buning farqi yo'q, Boris.

Volkov atrofga qaradi.

– Unda, yur, bu yerdan ketaylik. Yuklaringga keyinroq odam jo'natamiz. Boshqa otelga ko'chib o't. Antibda bitta xonani band qilib qo'yganman. Bir paytlar u yerda yashagandim. O'sha xonada yashashing mumkin. Otel xo'jayini do'stim, u menga boshqa xona ajratadi. Nima deysan, yuklaringni o'sha yerga yuboraymi?

Lilian bosh chayqadi.

– Yo'q, shu yerda qolaversin, – dedi u kutilmaganda bir qarorga kelib. – Poyezd bir soatdan keyin ketadi. Ketdik. Bu yerda qolishni istamayman. Sen esa ortingga qaytishing kerak.

– Qaytishim shartmas, – dedi Volkov. Lilian hayron bo'lib unga qaradi.

– Nega?.. Sog'aydingmi?

– Yo'q. Lekin ortga qaytishim shartmas. Sen qayerni istasang, o'sha yerga borishim mumkin. Sen istagan muddatga. Istagan joyingga.

– Senmi?

– Ha, men.

– Lekin...

– O'shanda seni tushungandim, – dedi Volkov. – U yerdan qochib ketishni istaganingni qanchalar tushungandim-a...

– Unda nega men bilan ketmading?

Volkov javob bermadi. U qizga o'sha paytda aytgan gapini eslatgisi kelmadi.

– Sen men bilan ketgan bo'larmiding? – so'radi u birozdan so'ng.

– Yo‘q. Sen haqsan, Boris. O‘sha paytda ketmagan bo‘lardim.

– Sen o‘zing bilan dardni olib ketishni istamaganding. Sen undan qochib ketmoqchi eding.

– O‘sha paytda nimalar bo‘lganini hatto, eslay olmayapman. Balki shundaydir. Shundan buyon qancha suvlar oqib ketdi.

– Rostdan ham bugun ketmoqchimisan?

– Ha.

– Biror nima yeb olishing kerak. Yur, qahvaxonaga kiramiz. Men esa yana bitta chipta topishga harakat qilaman.

Ular yo‘lning narigi betiga o‘tishdi. Volkov unga taom va qahva buyurtirdi.

– Men tezda vokzalga borib kelaman, – dedi u. – Sen shu yerda bo‘lib tur, qochib ketma.

– Endi qochib ketmayman. Nega hamma meni qochib ketadi, deb o‘ylaydi?

Boris jilmaydi:

– Bu haqda o‘ylashsa yaxshi-ku, azizam. Demak, sening qolishingni istashadi.

Lilian unga tikildi.

– Boshqa bunday dema, yig‘lab yuboraman, – dedi u lablari titrab.

– Sen shunchaki charchagansan. Ovqatlanib ol. Ertalabdan buyon tuz totmagan bo‘lsang kerak.

Lilian boshini ko‘tardi.

– Nahotki, ahvolim shunchalar yomon? – so‘radi u.

– Yo‘q, azizam. Shunchaki, bir necha soat uxlab olishing kerak, shunda hammasi yaxshi bo‘ladi. Esingdan chiqdimi?

– Ha, – dedi Lilian. – Ko‘p narsani unutibman. Lekin shunday narsalar borki, hech qachon esimdan chiqmaydi.

U sekin ovqatlana boshladi. Keyin birdan to‘xtab sumkasidan ko‘zgu olib aksiga tikildi. Ko‘zining osti qorayib qolganiga e‘tibor berdi. Nissadagi shifokor nima degandi? Agar shu tarzda yashashda davom etsa, yoz kelmasidan burun, balki undan ham ilgari, deganmidi? Yoz. Bu yerda yoz al-

laqachon boshlanib bo'lgan, lekin tog'ga kechroq yetib boradi. U yuziga yana bir bor qarab olib, keyin upadoni bilan lab bo'yog'ini oldi.

\* \* \*

Volkov qahvaxonaga qaytib keldi.

– Chipta topdim. Bu poyezdga hali chiptalar bor ekan.

– Yotadigan joy ham topdingmi?

– Yo'q hali. Balki yo'lda biror joy bo'shab qolar, ko'pincha shunday bo'ladi-ku. Aslida bu shart ham emas, bu yerga kelguncha yo'l bo'yi uxlagandim.

Volkov hali ham Lilianning yonida o'tirgan itning boshini siladi.

– Volf, seni vaqtincha yuk vagoniga topshirishimizga to'g'ri keladi, lekin u yerda ko'p qolmaysan, ishonaver, oshna.

– Mening kupemga olamiz.

Boris bosh silkidi.

– Fransiyada yo'l kuzatuvchilari o'ta sermulozamat. Syurixga borvolaylik, keyin nima qilishingni o'ylab ko'ramiz.

– Men ortga qaytmoqchiman.

– Ortga? Qayerga? – sekin so'radi Volkov.

Lilian indamadi.

– Aslida qaytmoqchi bo'lib yurgandim, – dedi u birozdan so'ng. – Ishonsang ham, ishonmasang ham o'zing bilasan.

– Nega endi, ishonmasligim kerak?

– Nega ishonishing kerak?

– Bir paytlar men ham xuddi shunday qilgandim, azizam.

Ancha yillar ilgari. Keyin qaytgandim.

– Nega?

– Sen yashaydigan yerning tasavvuringdagi hayot bilan hech qanday bog'liqlik joyi yo'q, – dedi u ohista. – Men hayotimni sarflashga arziydigan munosib yaxshi joy yo'qligini tushundim. Shunga munosib odamlar ham deyarli yo'q. Oddiy haqiqatlarni turli mashaqqatli yo'llarni bosib o'tib, keyin tushunamiz.

Lilian nonni ushoqlab o'tiraverdi.

– Lekin bu haqda birov gapirgani baribir hech qanday yordam bermaydi. To'g'rimi?

– Ha, yordam bermaydi. O'z boshingdan o'tkazsanggina tushunasan. Bo'lmasa, doim nimanidir boy bergandek his qilaverasan o'zingni.

Volkov ofitsiantni chaqirib, qahva va sigara buyurdi.

– Syurixdan keyin qayerga borishni rejalashtirding?

– Biror bir sanatoriya. «Montana»ga meni endi qabul qilishmasa kerak.

– Yo'g'-e, nega endi? Qabul qilishadi. Lekin qaytib borishni istayotganingga ishonching komilmi? Hozir qattiq charchagansan, dam olishing kerak. Balki hali fikringdan qaytib qolishing ham mumkin.

– Ortga qaytmoqchiman.

– Nega?

– Buning sabablari ko'p. Hozir hammasini eslolmayman.

– Agar shu yerda qolishni istasang ham, yolg'iz bo'lmaysan. Men yoningda bo'laman.

Lilian unga qaradi:

– Hayotingni sarflashga munosib odamlar bo'lmasa ham qolaverasanmi?

– Men deyarli yo'q, dedim, azizam.

Lilian bosh chayqadi:

– Yo'q, Boris. Yetar. Seni bilmadim-u, men qaytaman. Chunki sen anchadan buyon pastda, odamlar orasida bo'lmagansan.

Volkov jilmaydi:

– Bular mening ham boshimdan o'tgan.

– Eshitganman, – dedi Lilian. – Endi menga ham ko'p narsa ma'lum, Boris...

\* \* \*

Volkov Syurixdan sanatoriya qo'ng'iroq qildi.

– U hali tirikmi? – to'ng'illadi Dalay-Lama. – Nima ham derdim, mayli, kelaversin, qarshi emasman.

Lilian yana bir hafta Syurixda qoldi. Asosan o'rnidan turmay dam oldi. U o'zini o'ta horg'in his qilardi. Har kecha harorati oshardi. Volkov unga qarayotgan shifokor bilan gaplashdi.

– Uning hali ham tirikligi mo'jiza, – dedi professor. – Hoziroq shifoxonaga yotishi kerak. Uni Syurixda qoldiring.

– U qolishni istamayapti. Ortga qaytaman, deydi.

Shifokor yelka qisdi:

– Xohishingiz. Unda sanitar mashina buyurtiring.

Volkov uning maslahatiga amal qilishga so'z berdi. Lekin so'zida turmasligini, hech qachon sanitar mashina chaqirtirmasligini yaxshi bilardi. Bu hayotda ko'rmagani qolmadi, bemorga haddan ortiq g'amxo'rlik qilish umuman e'tibor bermaslik bilan bab-barabar ziyon keltirishini yaxshi bilardi. Lilianga xuddi o'ladigan kasaldek munosabatda bo'lish – tavakkal qilib oddiy mashinada olib ketishdan ko'ra xavfliroq. Qolaversa, Lilian hech qachon kasalxona izvoshida ketishga rozi bo'lmasligini ham bilardi.

Lilian Borisni xushhol qarshi oldi. Ahvoli og'irlashgani sayin kayfiyati yaxshilanib borardi. Kasalligi Klerfening o'limidan keyin ko'nglini xira qilgan aybdorlik hissini yuvgandek bo'ldi.

– Sho'rlik Boris, u senga yo'lni ko'tara olmasligimni aytgandir?

– Unday demadi.

– Yo'lni ko'tara olaman, – dedi Lilian masxara qilgandek kulib. – Uning gapi yolg'onligini isbotlash uchun ham chidayman. Qolaversa, men hali uzoq yashayman.

Volkov unga tikildi.

– Haqsan, azizam. Menga ham shunday tuyulyapti.

– Vaqt tushunchasi o'Ichamsiz, menimcha. Buni pastda tushunib yetdim. Uzoq umr ko'rishi kutilayotgan odam vaqtga umuman e'tibor bermaydi. U oldinda butun hayotim turibdi, deb o'ylaydi.

Keyin hayotini sarhisob qilar payt kelganda qarasa, chin ma'noda yashagan kunlari bir necha kun yoki bir necha hafta

bo'lib chiqadi. Agar shuni anglagan bo'lsang, ikki-uch hafta yoki ikki-uch oy sen uchun boshqaning butun hayoti bo'lishi mumkinligini tushunasan. U yerda, ya'ni tog'da buni tushunishadi.

Volkov jilmaydi.

– Nimalar haqida o'ylayotganingni bilaman, – dedi Lilian.  
– Yana oldingi qilig'imni qilaman, o'zim eplolmagan ishga sherik topaman.

– Ha, – kuldi Boris. – Men bir odamni bilardim, u o'z hayotini shu qadar qadrlardiki, lekin yoshi saksonga yetganda, birdan quvnoq bo'lib qoldi. Bu o'zgarishni qariya quyidagicha izohlardi: endi hayoti uchun qo'rqishga kam vaqt qolibdi. Chunki uning arteriosklerozi bor, infarkt bo'lishga ham ulgurgan. Ilgari u yigirma, o'ttiz, hatto qirq yil oldindan bashorat qilishiga to'g'ri kelgani uchun qattiq qo'rqqan va xotirjam yashay olmagan.

– Qanday g'amgin hikoya.

– Bir paytlar u mening yagona suyanchig'im edi, – dedi Volkov. – Bir paytlar meni shu xayol qiynardi, sog'lom odamlar umri poyoniga yetguncha to'laonli, qizg'in hayot kechirishadi, deb o'ylardim. Bu menga o'ta adolatsizlikdek tuyulardi.

– Qariyaning voqeasi senga biroz taskin berdimi?

– Chorasiz qolganda odam har qanday joydan taskin qidiradi. Topadi ham.

Lilian kulib yubordi.

– Qanchalar ayyormiz-a! Aslida odam chin ma'noda vaqtga e'tibor bermaganida va qo'rquvni his qilmaganida baxtli bo'ladi. Lekin qo'rquv izingdan quvib yursa ham kulish mumkin. Qo'lingdan boshqa nima ham kelardi?

\* \* \*

Iliq, sokin kunlarning birida ular tog'ga qaytishdi. Qaltis dovonning yarim yo'lida ularning qarshisidan bir mashina chiqdi. Haydovchi ularni o'tkazib yuborish uchun to'xtadi.

– Xolman! – qichqirib yubordi Lilian. – Axir bu Xolman-ku! Ruldagi odam yo‘ldan ko‘zini oldi.

– Lilian! Boris! Axir...

Orqadan kichikroq «Fiat» mingan, lekin o‘zini abjir poygachi chog‘lagan bir italiyalik besabrlanib signal chalardi.

– Hozir mashinamni chetga olaman, – qichqirdi Xolman. – Shoshmay turinglar!

U mashinasini biroz oldinga haydadi va sabrsiz italiyalikni o‘tkazib yuborib, o‘zi piyoda ortga qaytdi.

– Nima bo‘ldi, Xolman? – so‘radi Lilian. – Qayerga ketyapsiz?

– Sizga aytganimdek, endi soppa-sog‘man.

– Mashina-chi?

– Ijaraga oldim. Poyezdda ketish ahmoqlik bo‘lardi. Ayniqsa, endi menga yana shartnoma taklif qilishgan bir paytda.

– Shartnoma deysizmi? Kim?

– Eski firmamiz. Kecha menga qo‘ng‘iroq qilishdi. Ularga Klerfening o‘rniga poygachi kerak ekan, – Xolman sochlari-ni orqaga siltadi. – Torriani bilan bitim tuzishibdi, endi meni ham poygaga tushirishmoqchi. Agar ishlarim o‘ngidan kelsa, hademay kichikroq poygalarda ishtirok eta boshlayman. Keyinroq sal kattalarida. Menga omad tilang! Siz bilan uchrashganim yaxshi bo‘ldi, Lilian!

Lilian uning ortidan qo‘l siltab qoldi.

Dovon bo‘ylab yana bir davra aylanishgach, tepadan Xolman va mashinasi unga tog‘dan o‘rmalab ketayotgan hasharotdek tuyuldi. U endi Klerfening o‘rnini egallaydi, xuddiki, bir paytlar Klerfe boshqa bir poygachining o‘rnini egallagandek, navbati bilan boshqasi Xolmannning o‘rniga ega chiqadi. Lilian ko‘m-ko‘k osmonga tikildi.

– Nima haqda o‘ylayapsan? – so‘radi Volkov.

– Men dunyodagi har bir narsada o‘ziga qarama-qarshi boshqa bir narsa bo‘lishi haqida o‘ylayapman, – shivirladi Lilian. – Hech nima o‘zining aksisiz yashay olmaydi, xuddi nur soyasiz, haqiqat yolg‘onsiz, sarob va mavjudliksiz yashay olmagani kabi. Bular shunchaki bir-biri bilan bog‘liq tushunchalar emas, balki bir-birining ajralmas bo‘lagi...

– Xuddi hayot bilan o'limdekmi?

– Ha, Boris. Xuddi o'lim va hayotdek. Bilmadim, bunga ishonishim uchun qancha vaqtim bor. Bunga uzoq vaqt ishonishni istardim.

\*\*\*

Lilian sanatoriyga kelganidan so'ng oradan olti hafta o'tgach, xuddi tabiat nafas olishdan to'xtagandek sokin va yorug' yoz kunlarining birida vafot etdi. U tez, to'satdan va yolg'izlikda o'lim topdi. Boris uni yolg'iz qoldirib, qisqa vaqtga qishloqqa ketgandi. U qaytib kelganida Lilian dunyodan ko'z yumgandi. Uning yuzi burishgan, qo'llari tomog'i tomonga ko'tarilgandi. Lilian bo'g'zidan otilgan qondan bo'g'ilib olamni tark etgandi. Lekin ko'p o'tmay, uning yuziga sokinlik endi. Boris uning bu qadar xushro'yligini sira ko'rmagandi. Odamzod qay darajada baxtli bo'lishi mumkin bo'lsa, Lilian ham shu qadar baxtli hayot kechirdi, degan o'y o'tdi Borisning ko'nglidan.

**TAMOM**